

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Abdusaidov Abduvali

**O`QITUVCHINING NUTQ
MAHORATI**

Samarqand – 2013

Abdusaidov Abduvali. O`qituvchining nutq mahorati.
Ўқув-услугий қўлланма. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.
–258 b.

O`zbek tilining davlat tili sifatida hozirgi davrdagi ijtimoiy mohiyati, o`quvchilar va talabalar nutq madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar, o`qituvchining kasb mahorati va nutq madaniyati, turli fan o`qituvchilarining yuqori savodxonlikni ta'minlash, o`zbek tilidan mahorat bilan foydalanish, nutq madaniyatini yanada oshirish bilan bog'liq muammolarni o`rgatishga doir o`quv materiallari berilgan.

Ushbu ma'ruza matnlari Oliy o`quv yurtlari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi filolog-o`qituvchilari, turli fan o`qituvchilari, magistrlar, talabalarga mo`ljallangan.

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori,
professor B.O`RINBOYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor N.TURNIYOZOV,
dosent M.BOLTAYEV,
o`qituvchi G'.HAMROYEV

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millat-ning ruhidir.

Islom KARIMOV

SO`Z BOSHI

«1992 yil 7 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, Konstitusiyasi qatorida tura-digan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollaridan biriga aylandi.

O'tgan davr mobaynida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'nodagi milliy qadriyatga aylantirish yo'lida ilgari tasavvur ham qilib bo'lmaydigan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlan-tirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etila-yotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmokda.

Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammit-larda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Shu borada o'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin. Chunki hozirgi paytda oliy hokimiyat idoralaridan tortib mahalliy boshqaruv idoralarigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur»¹.

Prezident Islom Karimovning o'zbek tilining hozirgi mavqeiga bergan bunday bahosi nihoyatda e'tiborga sazovordir. Davlat tilining ijtimoiy hayotimizda keng o'rin egallaganligi, uning obro'-e'tibori oshib borayotganligi, imkoniyatlaridan tobora samarali foydalanila-yotganligi ona tilimizga bo'lgan faxr-iftixor tuyg'u-larimizni yanada jo'sh urdiradi, g'ururlantiradi.

Davlat tiliga e'tiborni yanada oshirish, undan oqilona foydalanish, talabalar va o'quvchilar nutqining adabiy til me'yorlariga mos bo'lishiga erishishda ta'lim jarayoni-ning ahamiyati katta. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchi-sining dars jarayonidagi sabog'i, hatto boshqa sohalarda dars beradigan ustozlarning til qoidalariga mos holda o'zbek tilidan oqilona foydalanish haqidagi ma'lumot-larni berishi keyingi paytlarda yo'l qo'yilayotgan ayrim xato-kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

¹ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 85-86-б.

O`quvchilar va talabalar nutqiga turli omillar ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Oiladagi muhit va muomala jarayoni, maktabgacha ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari va o`rta maxsus ta'lim hamda oliy ta'lim tizimlarida ona tiliga e'tiborning barcha jihat-lari o`quvchi va talabaning savodxonligi, nutq mada-niyatiga katta ta'sir ko`rsatadi. Nutq madaniyatiga ta'sir etishda lisoniy (til) va nolisoniy(tildan tashqari) omillarning ham alohida o`rni bor. O`qituvchining sabog'idan tortib, uning oddiy muomalasigacha o`quvchi va talaba nutqiga ta'sir etadi hamda ongida ma'lum ijobiy yoki salbiy iz qoldiradi. Masalan, Sh.Abdullayeva o`z o`qituvchilik tajribasidan kelib chiqib, o`quvchilar savodxonligiga ko`chalardagi yozuvlar va peshlavhalardagi holatlar salbiy ta'sir qilayotganligini achinib yozadi. Turli reklama yozuvlari va peshlavhalardagi imloviy, hatto uslubiy xatolar o`quvchilarni ba'zan chalg'itmoqda². Demak, savodxonlik uchun nafaqat o`qituvchilarning sabog'i, balki turli ko`rgazmali vositalar, jumladan, peshlavhalar va reklamalar ham bevosta ta'sir ko`rsatadi.

Ta'lim jarayonini tashkil etish, ayniqsa, nutq madaniyatiga e'tibor sohasidagi tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalarga keyingi yillarda ehtiyoj yana ortmoqda. Chunki ta'lim jarayoni uzluksiz va izchil bo`lib, u har bir fan o`qituvchisidan chuqur bilim, malaka, ko`nikmalar va o`zbek adabiy tili qonun-qoidalarini puxta bilish, amalda qo'llay olishni ham talab etadi. Zamonaviy o`qituvchidan mutaxassislik fanlari sirlari, kompyuter-da ishlay olish mahoratini yaxshi bilishidan tashqari yozma va og'zaki nutqi yuqori saviyada bo`lishi talab etiladi. Ayniqsa, o`qituvchining nutq mahorati o`quvchi va talabalarning ma'lum fan asoslarini dars jarayonida puxta egallashlarining asosiy shartlaridan biridir.

² Қаранг: Абдуллаева Ш. Имлодаги хатолар. // Туркистон, 2007 йил 5 декабрь.

Savodli yozish, og'zaki nutqni o'stirish, nutq madaniyati va mahoratini singdirish ona tili va adabiyot o'qituvchining vazifasi, deb hisoblaydigan boshqa fan o'qituvchilari ko'plab topiladi. Lekin, shuni unutmash kerakki, ona tiliga munosabat va hurmat, uning imkoniyat-laridan oqilona foydalanish millatning har bir jonkuyar farzandi uchun ham qarz, ham farzdir. Ayniqsa, bu sohada o'qituvchilar, ziyolilarning o'rni va ularning mas'uliyatni chuqur anglashi juda muhimdir.

Boshqacha aytganda, “Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hych bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmash kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir”³, uning nutqidir, nutq ma'naviyatidir.

Til ma'naviyati, nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutq mahorati, notiqlik asoslarini egallash har bir mutaxassis uchun zarur shartlardan biri bo'lib qolishi lozim. Chunki bo'lajak o'qituvchi o'z mutaxassislik fani asoslarini chuqur egallagani bilan ularni yetarli darajada o'quvchiga yetkaza olmasa, unday bilimning foydasi, samarasi kam bo'ladi. Shuning uchun har bir mutaxassis nafaqat oddiy savodxonlikni, balki yuqori nutq mahoratini chuqur egallashlari lozim. Buning uchun o'zbek adabiy tili me'yorlari, tegishli qonun-qoidalarni puxta bilishi, amalda qo'llay olishi, davlat tilidan foydalanishda yo'l qo'yilayotigan xatolarni anglab yetishi, o'quvchilarni ushbu

³ Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Т., 1999, 52-б.

kamchiliklarni tuzatishga choralashi, eng muhimi, o`qituvchining asosiy quroli, ya`ni nutqi, nutq mahoratni nihoyatda yuqori bo`lishi lozim.

O`qituvchining nutq mahoratini egallash jarayoni juda murakkab. Chunki u oddiy savodxonlikdan tortib, o`zbek adabiy tili me`yorlarini puxta bilishdan tashqari, bilimni yetkaza olish, ya`ni og`zaki va yozma nutq talablari-ga rioya etgan holda, to`g`ri, aniq, mantiqli, mazmunli, ta`sirchan nutq mahoratini egallash hamdir. Bu jarayon mutaxassislik fanlarini puxta egallashdan tashqari ona tili imkoniyatlaridan ijtimoiy hayotimizda qanday foydalanilayotganligini ziyraklik bilan kuzatib borish, baholash, o`z amaliyotida qo`llashni ham nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, olimlar, yuqori malakali professor-o`qituvchilarning tajribalarini o`rganib, SamDU «Sosiolingvistika ilmiy tadqiqot laboratoriyasi» xodimlarining izlanishlari natijasida to`plangan materiallardan foydalanib, nofilologik fakultetlarda (geografiya, gidrometeorologiya, fizika, kimyo, maxsus sirtqi bo`lim o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishlarida) «O`qituvchining nutq madaniyati» fanini va филология факультетида “Тилнинг ижтимоий моҳияти”, “Ўзбек тили ўқитиш методикаси” ихтисослик курслари ва танланма фан сифатида «Нутқ маданиятининг долзарб муаммолари», “Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти” maxsus kursini o`qitish jarayonida, talabalarining ushbu fanlarni o`zlashtirishi, qiziqishini hisobga olib, mavjud arzirli manbalar qatorida yordamchi o`quv material bo`ladi, degan umid bilan talabalarining bu kabi manbalarga ehtiyojini hisobga olib, «O`qituvchi-ning nutq mahorati» nomli ma`ruza matnlarini kirill va lotin alifbosida yaratishga jazm etdik. Ushbuni tayyorlashda o`zbek tilshunos olimlari, yetuk pedagoglar yaratgan bir qancha manbalar asos sifatida olindi (Ularning nomlari havola va adabiyotlar ro`yxatida to`liq ko`rsatildi). Ayniqsa, dastlabki variant sifatida tayyorlangan ushbu nusxada

quyidagi mualliflarning asarlari materiallaridan keng foydalanildi va ko'plab havolalar keltirildi:

1. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.- 132 b.

2. Karimov S., Mamatov X., Bo'riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.

3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2006. – 71 b.

3. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma. 3-nashri. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. - 440 b.

4. Saidov U. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. 226 b.

5. Usmonov R. Odobnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – 80 b.

Kelgusi nashr variantlarida bu holat hisobga olinib, materiallar nashr talablari asosida yana qayta ishlanadi.

Mazkur ma'ruza matnlari «O'qituvchining nutq mahorati» mavzuida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotimizning ma'lum bir jihati va shu nomda yaratilajak o'quv qo'llanma, monografiya hamda darslikning deyoehasi hisoblanadi. Shuning uchun unda ayrim yetishmovchiliklar, kamchiliklarning bo'lishi tabiiy. Sizlarning xolis baholaringizni kutamiz va ulardan, albatta, kelgusida foydalanamiz. Xolis, do'stona fikr-mulohazalaringiz uchun oldindan minnatdorlik bildiramiz.

KIRISH

1-mavzu: «O`QITUVCHINING NUTQ MADANIYATI» kursining maqsad va vazifalari hamda ushbu kursni o`qitishda mahoratga e`tibor

Reja:

1. Ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablar.
2. Davlat tili, til madaniyatiga e`tibor.
3. Nutq madaniyatini o`qitish muammolari.
4. Kursning asosiy maqsadi va vazifalari.
5. Savodxonlik, nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutq mahorati, notiqlik.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi sifat bosqichiga kirdi. Ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash va oshirish o'qituvchining kasb mahorati hamda nutq madaniyatiga e'tiboriga ham bog'liq. Bu sohada muayyan yutuqlarga erishildi. Oliy o'quv yurtlarida yuzlab professor-o'qituvchilar va umumta'lim maktablari, akademik lisey hamda kasb-hunar kollejlarining ko'plab o'qituvchilari turli fanlardan dars o'tishlariga qaramas-dan, til madaniyatiga katta e'tibor bera boshladilar. Har bir darsning mutaxassislik nuqtai nazaridan puxta bo'lishiga erishishdan tashqari o'zbek tili imkoniyat-laridan mahorat bilan foydalanila boshlandi. Chunki har bir sohaga oid bilim til orqali yetkaziladi, o'quvchi, talaba ongiga singdiriladi. Lekin yuzlab o'qituvchilarda hamon nutq madaniyatiga e'tiborning pastligi yoki mahorat yetishmayotganligi ma'lum tashvish uyg'otadi. O'qituvchining nutq madaniyatiga e'tiborini oshirish, ularni yuqori til madaniyati va ma'naviyatini egallash uchun tayyorlash hamon dolzarb bo'lib turibdi.

«...1993 yil 2 sentyabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilgani-ni ta'kidlash lozim. Avvalo, o'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalarini ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e'lonlar, dav-lat hujjatlari hozirgi vaqtda bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, bu masalaga mantiqiy ko'z bilan qaraydigan, eng muhimi, xalqimizning ko'pmillatli ekanini inobatga oladigan bo'lsak, ayrim milliy guruhlar Kirill yozuvini ishlatishini nazarda tutib, yuqorida tilga olingan qonunda bu imlodan foydalanish uchun ham imkoniyat yaratish ko'zda tutilgan.

Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e'tiborsiz - elga e'tiborsiz» degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz»⁴.

O'qituvchining ijtimoiy hayotimizdagi o'rnini nihoyatda yuqoriligini hisobga olganda, Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, barcha ziyoli-lar

⁴ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 88-89-б.

qatorida, ularning ham roli beqiyos ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki ta'lim jarayonida hujjatlarni rasmiy-lashtirishdan tortib, dars jarayonida adabiy til me'yor-lariga amal qilish va shevachilikdan qutilishgacha jarayon-da o'qituvchining zimmasida katta mas'uliyat mavjud.

O'qituvchining jamiyatdagi o'rni, ta'lim jarayonida tildan foydalanish, nutq madaniyati va notqlik mahorati to'g'risida ko'plab izlanishlar mavjud. Masalan, N.Bekmir-zayevning «Notqlik asoslari» nomli o'quv qo'llanmasida o'qituvchi shaxsi va uning notqlik mahorati haqida e'tiborli fikrlar bildirilgan. Notiq amal qilishi lozim bo'lgan 46 ta qoida shaklidagi mulohazalar ham katta ahamiyatga ega.

Kitobning «Muallimning insoniylik fazilati va notqlik mahorati» sarlavhali qismida quyidagi fikrlar mavjud: «Avvalo, muallim tarbiyachi va ta'lim beruvchi inson. Shu ma'noda muallim ma'naviy-axloqiy jihatdan qalbi pok, ilmi yetuk inson bo'lishi kerak. Muallimning tili va dili bir-biriga mutanosib bo'lmog'i, so'zi va amaliy faoliyatida muntazam muvofiqlik bo'lmog'i juda muhim».

«Muallim o'zi o'qitadigan fanini yaxshi bilishi, o'z xalqining milliy mafkurasini anglashi, o'z millatining tilini va adabiyotini, tarixini yaxshi bilishi zarur. Dunyoqarashi, fe'l-atvori keng bo'lib, o'z ona tilida ravon va aniq nutq so'zlashi, katta so'z boyligiga ega bo'lishi kerak».

«O'qituvchining asosiy quroli uning notqligidir. Agar muallimda notqlik qobiliyati sust va past bo'lsa, u o'z fani sohasidagi bilimni shogirdlari ongiga singdirolmaydi»⁵.

O'qituvchining nutq madaniyati talab darajasida bo'lsagina, darsning sifati va samaradorligi yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Hozirgi paytda ta'limning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari dars jarayoniga tatbiq etilmoqda. Fan asoslarini o'qitishga xizmat qiluvchi ko'rgazmali vositalar

⁵ Бекмирзаев Н. Нотиқлик асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Фан, 2006, 81-, 83-, 87-б.

son va sifat jihatidan ko'payib bormoqda. Hatto animasiyali va ovoqli elektron darslik hamda qo'llanmalardan dars jarayonida samarali foydalanilmoqda⁶. Lekin o'qituvchining roli aslo pasay-gan emas. Chunki o'qituvchi hiech qanday ko'rgazmali qurol uning o'rnini bosa olmaydigan, o'quvchining ruhiy holati-ni e'tiborga olib, ish jarayonini tashkil etadigan, jonli, ta'sirli, kuchli «ko'rgazmali qurol»dir. O'quv material-ni ravon, tushunarli, adabiy til me'yorlariga mos ravishda yetkazish ta'lim sifatini oshiradi, talabaning material-ni o'zlashtirishini yanada osonlashtiradi. Bu jarayonni shaxs, ya'ni o'qituvchigina tashkil eta olishi mumkin.

Keyingi yillarda ayrim turli fan o'qituvchilari bilan malaka oshirish jarayonidagi suhbatlar va ularning darslarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'qituvchi-larning davr talabi asosida chuqur bilim berishga inti-lishlari va nutq madaniyatiga e'tiborlari ancha ijobiy tomonga o'zgargan. Davr talabi asosida chuqur bilim berish, materialni o'quvchi va talaba to'liq o'zlashtirib olishi-ning asosiy talablaridan biri o'qituvchining yuqori peda-gogik va nutq mahoratiga ega bo'lishidir. Bu sohada ko'plab tajribali va yosh o'qituvchilar hozirgi paytda umumta'lim maktablari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatishmoqda.

Ko'plab tajribali va mahoratli pedagoglar qatorida malakasi va pedagogik mahorati yetishmayotgan o'qituvchi-larni qayta tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Ularga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish uslublari o'rgatilmoqda. Albatta, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida keyingi yillarda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim berish bo'yicha ancha takomillashgan bilim berilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim

⁶ Қаранг: Ахборот-коммуникацион технологиялар ўқув жараёнида: муаммолар, ечимлар ва истикболлар. // Республика илмий-методик конференцияси материаллари. 2-қисм. 2007 йил 25-26 декабрь. – Самарқанд, 2007.- 107 б.

muassasalari professor-o`qituvchi-larining uzluksiz malakasini oshirishning yangi tizimi amalga oshirilayotganligi kelgusida kutilgan ijobiy samaralarni berishi mumkin. Lekin ta`lim tizimi sifati va samaradorligi uchun nihoyatda zarur bo`lgan jihat, ya`ni pedagoglarning kasb mahorati, dars jarayonida yozma va og`zaki nutq mahorati hamda notiqlik san`atini to`la namoyon qilishlari, bu sohadagi talablarga qat`iy rioya qilishlari bo`yicha bilimlar berish malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi mutasaddilari nazaridan biroz chetda qolmoqda.

Malaka oshirish yoki qayta tayyorlashdan o`tayotgan o`qituvchilar ko`proq mutaxassislik fanlaridan tahsil olishadi, ayniqsa, tabiiy fanlar o`qituvchilari nutq madaniyati, dars jarayonida tildan foydalanishdagi nuqsonlar, darsni yanada mazmunli va qiziqarli, jonli o`tish uchun so`z va jummalarni qanday qo`llash lozimligi to`g`risida umuman ma`lumot olmaydilar. Hatto o`quvchilar va talabalar nutqidagi kamchiliklar, nutq madaniyatiga keyingi yillarda salbiy ta`sir qilayotgan omillar, ularni bartaraf etish yo`llari to`g`risida umumiy ma`lumotga ham ega bo`lmaydilar. Ushbu holat keyingi yillarda ancha tashvishli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Zero, davlat tiliga munosabatni yanada kuchaytirish, o`zbek adabiy tilining sofliги va undan mahorat bilan foydalanishni tashkil etish, da`vat qilish uchun asosiy mas`ullardan biri o`qituvchilardir.

Kuzatishlarimiz shuni ko`rsatadiki, ayrim o`qituvchi-lar, umumiy o`rta ta`lim bazaviy ma`lumotlarini yetarli olmaganligi, oddiy savodxonligi talab darajasida emasligi va o`z ustlarida ishlamayotganliklari, mas`uliyat-ni to`la his etmasliklari, o`zbek tiliga e`tiborsizlik-lari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida nutq madaniyatiga e`tiborning ma`lum darajada sustligi oqibatida materialni o`quvchi, talabalarga to`liq yetkazib bera olmayaptilar. Ayrim dars mashg`ulotlari zerikarli, turli oldi-qochdi so`zlar, poyma-poy jumlar, ortiqcha tafsilotlar bilan o`tilayotganligi sabab

o`quvchi va talaba-lar materialni to`la o`zlashtira olmayaptilar, ularning savodxonligiga ham salbiy ta`sir ko`rsatilmoqda.

O`qituvchi ish faoliyatida fikrni ifodalash uchun og`zaki nutqning turli usullaridan foydalanadi. Uning nutqi o`zbek adabiy tilining tegishli me`yorlariga amal qilsagina, namunaviy nutq hisoblanadi. N.Bekmirzayev-ning fikricha, «Kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko`rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo`lgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko`ngliga mos, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi».

«O`qituvchining nutqi hamma vaqt o`zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go`zal va ta`sirchanligini o`zida saqlaydi».

«Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshilik va davlat arboblari lavozimlariga saylab tayinlanganlik-lari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Tarix bizga hamisha saboq bergan, saboq bermoqda va bunday keyin ham saboq beradi. Biz bugun shu sohada tarixdan saboq olayapmizmi? – degan savol turibdi qarshimizda. Yo`q, deyish ham joiz emas, harakat qilayapmiz. Bugungi kunda ko`pgina idora rahbarlari nutqidagi kamchiliklar, muallimlar nutqidagi chaynalishlar, teleko`rsatuvlardagi hatto jurnalistlar nutqidagi g`alizliklar bizning ma`naviyatimizga yarashmaydi. Chunki biz Mustaqillikning barcha chashmalaridan bahramand bo`lib turgan ekanmiz, notiqlik san`ati chashmasidan ham bebahra bo`lmasligimiz kerak. Nima qilishimiz zarur? Avvalo, maktabda nutqni, uning grammatikasini chuqur o`rganishimiz, fikrimiz va tafakkurimizning asosi bo`lmish notiqlik san`ati sirlarini o`rgatishimiz va o`rganishimiz juda muhim»⁷.

Keyingi paytlarda bo`lajak o`qituvchilar, ya`ni oliy o`quv yurtlarining barcha mutaxassisliklar bo`yicha tahsil olayotgan talabalariga «Nutq madaniyati asoslari», «O`qituvchining nutq

⁷ Бекмирзаев Н. Нотиқлик асослари. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Фан. 2006, 7-, 115-, 117-б.

madaniyati» kabi fanlar o`qitilmoq-da. Demak, mutaxassisligidan qat'iy nazar barcha talaba-lar til madaniyati, nutq madaniyati, adabiy til me'yorlari, nutqqa qo'yiladigan talablar, notiqlik mahorati to'g'risi-da, ozgina bo'lsa ham, tegishli ma'lumotga ega bo'ladilar. Mazkur darsni o`qitishga ajratilgan soatlarning ozligi, o`quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida tobora takomillashtirib borish zarurati ma'lum bir muammolar-ni yuzaga keltirmoqda.

Fikrimizcha, «O`qituvchining nutq madaniyati» kursini o`qitish mazmuni, maqsadi va vazifalari filologiya sohasiga yaqin mutaxassisliklardagidan tabiiy fanlar sohasida o`qiyotgan talabalarga beriladigan bilimlar darajasiga qarab birmuncha farqlarga ega bo'lishi lozim. Chunki bo'lajak filologlar nutq madaniyati va mahorati to'g'risida lingvistik asoslari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Ular nafaqat dars berish, balki savodxonlikning turli bosqichlari, adabiy til me'yor-lariga rioya qilish holatlari, yozma va og'zaki nutq jarayonida o'zbek adabiy tiliga e'tibor kabi masalalar bo'yicha, o'zlarining amaliy faoliyatida foydalanishdan tashqari boshqa soha mutaxassislari (fizik, matematik, geograf va h.k.), jurnalistlar, tahririyat xodimlari, boshlovchilar nutq madaniyatini kuzatib, zarur hollarda maslahatlar beradilar. Shuning uchun nutq madaniyati asoslari bo'yicha nazariy materiallar bilan ular ko`proq va chuqurroq qurollanishlari kerak.

Tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bo'lajak mutaxassislar esa, tilshunoslik, uslubshunoslik fanlari erishgan yutuqlar, nazariy xulosalarning umumiy jihatlar bilan tanishishlari va ko`proq amaliy ko`nikmalar hosil qilishlari lozim. Chunki nutq madaniyati bilan bog'liq tilshunoslik fani bilimlarini, ayniqsa, nazariy fikr-larni ajratilgan qisqa muddatda, ular ongiga singdirish juda qiyin. Bu sohaning bo'lajak mutaxassislari, nazariy bilimlarga asoslangan, amaliyotda faol ishlatiladigan qoidalar, til birliklarini qo'llashdagi adabiy me'yor jihatidan

to'g'ri va noto'g'ri holatlar, o'qituvchi nutq madaniyatiga ta'sir qiladigan salbiy va ijobiy omillar, nutqiy muloqot qoidalar, o'qituvchi nutq mahoratini oshirishga ko'maklashuvchi nolisoniyl holatlar to'g'risida ko'proq ma'lumot olishlari lozim.

Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha, nofilologik fakultetlarning talabalari mazkur kursning o'qitili-shiga dastlab loqayd qaraydilar. Ayrim talabalar kelgusida o'qituvchi bo'lib ishlamasligini ro'kach qilishsa, ba'zilar «o'z mutaxassislik fanimiz asoslarini yetkazib bersak bo'ldi-da, o'quvchilarning savodxonligi, nutq madaniyati bilan ona tili va adabiyot o'qituvchilari shug'ullanishsin», degan fikr-mulohazalarni bildirisha-di. Bu mulohazalar, yuzaki qaraganda, to'g'ridek. Lekin o'qituvchining ziyoli inson sifatida jamiyatdagi o'rnini va mutaxassislik fani asoslari ham til orqali yetkazilishi-ni hisobga olganda, bu fikrning asosiz ekanligini anglash qiyin emas. Shuning uchun nofilologik fakultet-lar talabalariga nutq madaniyati asoslaridan beriladigan bilimlar ularning umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili va adabiyot fanidan olgan bilimlarini yodga olishlari uchun imkoniyat yaratish, kelgusi faoliyatlarida zarur bo'ladigan jihatlariga qiziqtirish asosida bo'lishi lozim. Buning uchun «O'qituvchining nutq madaniyati» fani o'quv dasturi nofilologik fakultetlar talabalariga beriladigan zarur materiallarni hisobga olib, davr talabi asosida qayta tuzilishi kerak.

Hozirgi paytda til madaniyati, nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutq mahorati, notiqlik san'ati haqida istagancha nazariy ma'lumotlar, amalda qo'llashga doir uslubiy qo'llanmalarni topish mumkin. Ana shu manbalar asosida «O'qituvchining nutq madaniyati» kursini o'qitish jarayonida, fikrimizcha, tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bo'lajak mutaxassislarga ko'proq amaliy bilim berish nazarda tutilishi kerak. Demak, ular tushunilishi oson, oddiy qoidalar va ularning amaliy ifodasidan ko'proq xabardor bo'lishlari zarur.

Ma'lumki, «Til madaniyati, deganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilgan-ligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun-qoidolari va me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovushlar, so'zlar, qo'shimchalar, qoliplar kabilar) va ular imkoniyatlari taraqqiyotining, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta'minlovchi qoidalarining ishlanish darajasi tushuniladi».

«Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan bo'lsa, o'sha tilni madaniy til sifatida baholab bo'lmaydi. Til madaniyatining pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past bo'lishi uchun sabab bo'ladi»⁸.

Yuqoridagilarga asosanib, o'zbek adabiy tilining bugungi kunda sayqal topgan, mukammal qonun-qoidolari bo'lgan, yuqori madaniyatga ega til sifatidagi o'rni sodda va oddiy tushuntirilishi, eng muhimi, o'qituvchi, talaba va o'quvchi nutqi uchun asos **savodxonlik**, ya'ni imlo qoidalarini mukammal bilish zarurligi mazkur kursni o'qitish jarayonida talabalar ongiga singdirilishi kerak.

Savodxonlik talab darajasida bo'lgandan so'ng **nutq madaniyati** yuqoriligi uchun intilish bo'lishi lozim. Demak, talabalarga til va nutq, nutq madaniyati tushunchalari asoslari hamda ularni amaliyotda qo'llash to'g'risida tegishli bilimlar berilishi zarur.

Ma'lumki, «Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishdir. Nutqiy

⁸ Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутки маданияти ва услубияти асослари (оммабоп қўлланма). 1-қисм. – Тошкент, 2006, 8-б.

jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir».

«Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, unumli foydalanilgan holda tuzilgan nutqqa aytiladi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni - aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir»⁹. Bu va boshqa dastlabki ma'lumotlar talabalarning nutq madaniyatiga e'tiborini yo'naltirishga, og'zaki va yozma nutq madaniyatiga erishish o'z faoliyatlari uchun nihoyatda zarurligini anglab yetishlariga xizmat qilishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilar **savodxonlik** dastlabki asosiy bosqich ekanligini anglab yetganlaridan keyin ularga **nutq madaniyati** yuqoriligini ta'minlovchi omillarni bilish, nutq madaniyati va adabiy me'yor, o'zbek adabiy tilining me'yorlari va ularga rioya qilish holati, bu sohadagi kamchiliklar hamda ularni tuzatish yo'llari tushuntirili-shi lozim.

Nutqning asosiy kommunikativ xususiyatlari, ya'ni to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, tozalik, ta'sirchanlik, maqsadga muvofiqlik haqida nazariy ma'lumotlarning amaliyot bilan bog'lab tushuntirilishi, o'qituvchining **og'zaki va yozma nutq mahoratini** oshirishga xizmat qilishi asoslanishi kerak. O'quvchi kaysi kasbni tanlama-sin va talaba qaysi mutaxassislik bo'yicha tahsil olmasin, ular yozma nutq mahoratini egallashlari, ayniqsa, kunda-lik hayotda va ish jarayonida qo'llaniladigan ish qog'ozlari-ni savodli yozish ko'nikmalarini puxta egallashlari lozim-ligi (hatto shartligi)ni yetarlicha anglab yetishlari kerak.

Til ma'naviyati va nutq madaniyatidagi eng yuqori bosqich **notiqlik** sifatlarini egallagan kishilar jami-yatda yuqori darajada obro'-e'tiborga sazovor bo'lishlari uqdirilib, doimo

⁹ Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутки маданияти ва услубияти асослари (оммабоп қўлланма). 1-қисм. – Тошкент, 2006, 12-, 14-б.

zamon bilan hamnafas holda, o'zbek ada-biy tili qonun-qoidalarini puxta egallash bilan birga undan mahorat bilan foydalanish, intilish va tinmay mehnat qilish orqali notiqlikka erishish mumkinligiga ishonitirish ularning bu fanga qiziqishlarini yanada oshiradi.

Demak, navbatdagi yuqori bosqich, ya'ni **notiqlik** to'g'risida Sharq va G'arb notiqligi, ularning namoyanda-lari haqida ma'lumotlar berish bilan yaxshi nutqqa qo'yiladigan talablar, til odobi, til ma'naviyati va nutq madaniyati, muloqot madaniyati tushunchalari dalillanishi, ularning merosidan namunalar izohlanishi, tegishli materiallarning mazmuni zamon bilan bog'lanishi zarur. Shundagina talabalarga mazkur kurs bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni berish, ularning e'tiborini tortish, kelgusida ish jarayonlarida foydalanishlari uchun yo'llanma berish samaradorligi oshadi, deb hisoblaymiz.

«O'qituvchining nutq madaniyati» kursini o'qitish jarayonida, fikrimizcha, bir-birlari bilan uzviy bog'lan-gan, quyidagi bosqichlarning ahamiyatini va ularning mutaxassislik fanlari bo'yicha bilimlarni mahorat bilan yetkazishlari uchun zarurligini talabalar ongiga singdirib borish lozim: **savodxonlik, nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutq mahorati, notiqlik.**

Demak, mazkur kurs o'qitilishida asosiy talab qisman nazariy ma'lumotlar asosida ko'proq amaliy jihatlarni ko'rsatish, yutuq va kamchiliklar bilan tanishtirish orqali, hozirgi o'zbek tilining ijtimoiy mohiyatini, ya'ni hozirgi mavqyeini, o'zbek adabiy tilining sofligi va o'quvchilar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir qilayotgan omillarni tushuntirish hamda kelgusida ular amaliyotida qo'llaydigan jihatlarga e'tiborini qaratishdan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur kursni o'qitish jarayonida o'qituvchining jamiyatimizdagi yuksak mavqyei, ziyoli inson sifatida ta'lim-tarbiya jarayoni va jamoatchilik sohasidagi faoliyatlarda o'rni yuqoriligi, barkamol avlodni tarbiyalashda o'ziga xos namuna

ekanligiga e'tibor qaratilib, uning nutqi niho-yatda mazmunli, ravon, aniq, o'zbek adabiy tilining barcha imkoniyatlarini o'zida aks ettirsa, uning obro'si yanada ortishi talabalar ongiga singdirib borilishi kerak.

«O'qituvchining nutq madaniyati» fani o'ziga xos amaliy soha sifatida tilshunoslikning nazariy fanlaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri, aniq, mantiqiy, ta'sirchan nutq tuzish va ularga qo'yilgan talablar, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish to'g'risida bilim beradi. Bo'lajak o'qituvchining o'zbek tilining hozirgi ijtimoiy mohiyati, davlat tilining jamiyatimizdagi o'rnini, holati to'g'risidagi jarayonni ma'lum darajada kuzatib borishi, mavjud yutuq va kamchiliklarni farqlay olishi, o'z amaliyotida foydalanishi uchun zaruriy ma'lumot sifatida til, til va jamiyat, til va nutq, adabiy til me'yorlari, vazifaviy uslublar, muloqot madaniyati, til ma'naviyati va nutq odobi hamda boshqa masalalar bo'yicha ham talabalar ma'lum bilimga ega bo'ladilar.

«O'qituvchining nutq madaniyati» fani ushbu mavzular doirasida nazariy tadqiqotlarga tayangan holda, ko'proq amaliy bilim berishi jihatidan «Nutq madaniyati asoslari», «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» kurslariga yaqin turadi. Shuning uchun ushbu kurslarning materiallari «O'qituvchining nutq madaniyati» fani o'qitilishi uchun ma'lum darajada asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

«Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» fani adabiy til me'yorlarini, uning tarixiyligini, taraqqiy etib borishini undagi ba'zi birliklarning eskirishi, ular o'rnida yangi me'yoriy birliklarning paydo bo'lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy me'yorlarni yaratmaydi, ba'zi bir hodisalarni me'yor sifatida majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar berib

boradi¹⁰. «O`qituvchining nutq madaniyati» fani esa mazkur fan erishgan yutuqlarning amaliyoti bilan shug`ullanadi, ya`ni talabalar va o`quvchilar, o`qituvchi-larning adabiy til me`yorlariga rioya etish holatlarini ta`minlashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda oliy o`quv yurtlarining barcha fakultetlarida “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, «O`qituvchining nutq madaniyati» fanlarining o`tilayotgan-ligi e`tiborlidir. Yosh avlodni tarbiyalashdek o`ta mas’uliyatli vazifani o`z zimmasiga olayotgan talabaning o`z fanini chuqur o`rganishining o`zi yetarli emas. Chunki “o`qituvchining nutqi o`tmas, nochor bo`lsa, uning bilimi qanchalik va tugal bo`lmasin, o`ziga ham azob, o`quvchi sho`rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo`nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o`qituv-chisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O`qituvchi go`zal, o`zini ham, so`zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o`quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo`lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma`naviyati-mizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir”¹¹.

Hozirgi o`zbek adabiy tili ulkan ijtimoiy vazifani bajarmoqda. O`zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o`qish-o`qitish, ta`lim-tarbiya, targ`ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo`lgan munosabat tubdan o`zgardi, uning barcha imkoniyatlarini ilmiy o`rganish ishlari keng ko`lamda olib borilmoqda. Nutq madaniyati sohasida olib borlayotgan ilmiy tadqiqotlar ham son va sifat jihatidan tobora ko`payib bormoqda. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo`llashning muhim imkoniyatlaridan biri

¹⁰Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, 15-16-б.

¹¹Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент, 1999, 28-б.

«O`qituvchining nutq madaniyati» fanining barcha mutaxassisliklar bo`yicha bilim olayotgan talabalarga o`qitilishi-dir.

Ushbu fan asoslarini o`qitish zamonaviy o`qi-tuvchining davlat tilining hozirgi ijtimoiy holatini kuzatib borish, ya`ni tildan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklarni ma`lum ma`noda baholash, talabalar va o`quvchilar nutq madaniyatiga salbiy ta`sir etadigan omillarni bilish, dars jarayonida ularning nutq madaniyatiga e`tibor, tildan foydalanishdagi turli salbiy holatlarning oldini olishga doir tavsiyalar berish uchun ham foydali, deb hisoblaymiz.

“O`qituvchi va o`quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o`rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O`qituvchining bosh vazifasi o`quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko`nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko`pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan ta`lim samarasi past bo`lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o`z yo`liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”¹².

Maktabda nutq tadbirkorligini singdirish o`qituvchi-ning bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg`ulotgacha o`quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

“Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hyech bir istisnosiz, barcha o`quv fanlari ham bilvosita shug`ullanish kerak. Matema-tika bo`ladimi, fizika yoki tarix bo`ladimi, o`qituvchi o`z nutqiy madaniyati bilan namuna ko`rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo`l bilan o`quvchidagi so`z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta`lim amaliyotida ko`rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun

¹² Каримов И.А. Ўша асар, 17-б.

o`qituvchi juda ko`p vaqtini turli ko`rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma`qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o`rgatish, chiroyli so`z zavqini o`stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko`rgazmali qurol o`qituvchining o`zidir»¹³, uning nutqi-dir, nutq ma`naviyatidir.

Demak, bo`lajak o`qituvchilar o`quvchi va talabalarga asosiy mutaxassislik fanlari sohasidagi bilimlarni yetkazishda nutq madaniyati va mahoratini egallash muhimligini mazkur kursni o`qitish jarayonida to`la his etishlari, e`tiborli bo`lishlari hamda yozma va og`zaki nutq mahoratini egallash ularning faoliyati uchun nihoyatda zarurligini tushunib olishlari lozim.

«O`qituvchining nutq madaniyati» sohasidagi bilimlar-ni talabalar ongiga singdirishda bir qator muammolar-ning borligi ham bu sohada ishlarini tashkil qilishda ma`lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Oliy va o`rta maxsus ta`lim tizimida «O`qituvchining nutq madaniyati» kursini o`qitishda qanday yondashish va qaysi mavzularni qay tartibda talabalarga yetkazish bo`yicha yagona dastur hamda darslik, qo`llanmalar mavjud emas. Hozirgi paytda turli oliy ta`lim muassasalari professor-o`qituvchilari tomonidan yaratilgan aksariyat qo`llanmalar nutq madaniyatining nazariy masalalarini qamrab olgan bo`lib, asosan bo`lajak filologlarga moslab yozilgan. Boshqa mutaxassisliklarga mo`ljallab yozilgan qo`llanmalarda ham aynan shunday materiallardan foydalanilgan. Demak, «O`qituvchining nutq madaniyati» kursini o`qitishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, nazariy asos yaratish lozim. Keyin nazariy bilimlarga tayangan holda kurs dasturini yaratib, unga mos darslik va qo`llanmalar yozish zarur. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tasarrufidagi oliy o`quv yurtlari uchun yagona dastur yaratish bu ishlarining boshla-nishi uchun nihoyatda muhimdir.

¹³ Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент, 1999, 52-б.

Tayanch soʻz va birikmalar: Taʼlim, taʼlim jarayoni, nutq madaniyati, davlat tili, ona tili, oʻzbek tili, nutq mahorati, savodxonlik, notiqlik, notiqlik sanʼati, oʻqituvchi, oʻquvchi, talaba, oʻqituvchining nutq madaniyati. kursni oʻqitish.

**Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun
savollar:**

1. Prezident Islom Karimovning asarlari, maʼruza-lari, uchrashuvlarda soʻzlagan nutqlarida til madaniyati, nutq madaniyati va oʻqituvchining jamiyatdagi oʻrni haqidagi fikrlari boʻyicha nimalarni bilasiz?

2. Islom Karimovning «Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch» asarida ona tilimiz va uning ijtimoiy mohiyati toʻgʻrisida.

3. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida»gi qonunlarida yetuk kadrlar tayyorlashga qoʻyiladigan talablar nimalardan iborat?

4. Zamonaviy oʻqituvchi kasbiga qoʻyiladigan talablar nimalardan iborat?

5. Oʻqituvchi nutqiga qoʻyiladigan talablar haqida nimalarni bilasiz?

6. Savodxonlik, nutq madaniyati, yozma va ogʻzaki nutq mahorati, notiqlik haqida umumiy tushuncha bering.

7. «Oʻqituvchining nutq madaniyati» kursini oʻqitish zaruratini qanday izohlaysiz?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, 2000.

2. Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008,

3. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»-gi qonuni.

4. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

. Abdusaidov A. Gazeta tili va uslubi. – Samarqand, 2001. - 192 b.

12. Abdusaidov A. Matbuot tili madaniyati. - Samarqand, 2004. – 96 b.

13. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004. – 102 b.

14. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumidan. Til ma'naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta'sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008. – 132 b.

15. Абдусайдов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

5. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.

6. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.

7. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev G'. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – T.: Fan, 1992.

8. O`zbek tilining imlo lug'ati. –T.: O`qituvchi, 2000.

9. Elmurodov N. Nutq madaniyati masalalari. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 151 b.

10. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.

2-mavzu: O`ZBEK TILINING HOZIRGI IJTIMOIY HAYOTDAGI O`RNI VA NUTQ MADANIYATIGA E`TIBORNI OSHIRISHDA O`QITUVCHINING ROLI

Reja:

1. Tilning jamiyatdagi o`rni.
2. O`zbek tilining hozirgi mavqeyi.
3. O`zbek tilining hozirgi davrdagi ijtimoiy mohiyati:
 - davlat tilida ish yuritish;
 - ta'lim jarayonida o`zbek tiliga e'tibor;
 - ommaviy axborot vositalarida davlat tiliga muno-sabat;
 - o`zbek tilining ijtimoiy mohiyatini tushuntirish-da o`qituvchining o`rni.

«Til bilan tafakkur bir-birini taqozo etadigan ajralmas hodisadir. Tilsiz tafakkur bo`lmaganidek, til ham tafakkursiz bo`lmaydi»¹⁴.

¹⁴ Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981, 20-б.

Til insonlar o`rtasida aloqa vositasi bo`lishi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar to`g`risida xabar berishdan tashqari suhbatdosh yoki tinglovchiga ma`lum ta`sir o`tkazish, hissiyotini qo`zg`atish kuchiga ham ega.

O`z shakllanishi va rivojlanib borishi davomida uzoq tarixiy yo`lni bosib o`tadigan til asta-sekinlik bilan bo`lsa-da, takomillashib ham boradi. Bu holni uning ichki qurilishida, amalda bo`lish qoidalarining ma`lum bir tizimga kela borishida kuzatamiz.

«Ichki qurilish nuqtai nazardan til ma`lum miqdordagi bir-biri bilan chambarchas bog`liq bo`lgan til birliklarining yig`indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab sistemadir»¹⁵.

Tilning takomillashib borishi va nutq jarayonidagi bosqichlarini taniqli tilshunos olimlar H.Ne`matov va R.Rasulovlar sistem tilshunoslik «til-me`yor-nutq» tarzida ajratishini ta`kidlashib, qayd qiladilarki, «til bevosita kuzatishda berilmagan. U jamiyat a`zolarining ongida mavjud bo`lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo`lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o`zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig`indisi sifatida qaraladi.

Nutq tilning namoyon bo`lishi, ro`yobga chiqish, voqyelanish shakli bo`lib, u bevosita kuzatishda berilgan, moddiy (tabiiy, fizik) shaklga egadir.

Til xalq milliy qadriyatlari, ma`naviyati, hatto mafkurasining tarkibiy qismi sifatida kishilar o`rtasida nafaqat o`zaro aloqaning, balki ularni tarbiyalashning quroli hamdir. Ona tiliga hurmat Vatanga muhabbatdir. Ona tilini e`zozlash - bu o`sha tilning vatani bo`lmish O`zbekistonni e`zozlashdir. Ona tiliga munosabat jamiyat a`zolarini tarbiyalashning muhim

¹⁵ Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш, 22-б.

qurolidir. Tilga munosabat, bu - umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir¹⁶.

Ona tili mamlakatning g'ururi, iftixori hisoblanadi. Millatning madaniyati, ma'naviyati, ziyolilik darajasi ona tiliga munosabatda ham aniq ko'rinadi. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy boyligi sifatida qadim-qadimdan bugungacha ajdodlarimiz tomonidan e'zozlanib, ardoqlanib, sayqallanib kelmoqda.

O'zbek adabiy tilining asoschisi Mir Alisher Navoiyning ona tilimizga munosabatlari, bu tilning nihoyatda boy, go'zal, takrorlanmas til sifatidagi imkoniyatlarini o'zlarining shoh asarlari bilan isbotlab berganliklari, ona tilimizning sofligi, obro'-e'tibori, ta'sirchanligi, yuqori nutq madaniyati uchun kurashgan-liklari, millatimizning faxri sifatida, har qancha tahsinga, e'zozga loyiqdir. Til va nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi, chunki ona tili muhim tarbiya vositasi sifatida kishilarni buyuk maqsadlar sari yo'naltiradi, ruhlantiradi, ezgu orzu-umidlar bilan yashashga undaydi. So'zning kuch-qudrati, tilning o'tkir qurol ekanligini Alisher Navoiy asarlari misolida aniq his etish mumkin.

Tarixdan hozirgacha ona tiliga munosabat turlicha bo'lib kelgan. Lekin eng muhim yutuq shundaki, o'zbek tili ildizi chuqur eng go'zal til sifatida boy leksikasi, ifoda-tasvir vositalari, rang-barang grammatik qurili-shi bilan milliy adabiy meros sifatida keng imkoniyat-larini hamon saqlab kelmoqda. Uning betakror imkoniyat-larini yuzaga chiqarish, rivojlantirish, boyitib borish uchun millatning har bir farzandi mas'ul va uning taraqqiyoti uchun hyech kim befarq bo'lmasligi lozim. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy adabiy tili sifatida, uning obro'-e'tiborini ko'tarish, yuksak ma'naviyati va madaniyatini ko'z-ko'z qilish, yutuqlarimiz to'g'risida g'ururlanib so'zlash, o'zligimizni namoyish etish

¹⁶ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. – Тошкент, 1999, 7-б.

uchun asosiy vosita ekan, doimo g'amxo'rlikni, e'tiborni, parvarishni talab qiladi. Adabiy tilni parvarish qilish, uning mavqyeini tobora ko'tarish esa uning qonun-qoidalariga, ya'ni adabiy til normasiga qat'iy rioya etish bilan belgilanadi. O'zbek adabiy tiliga e'tibor uning davlat tili sifatidagi mavqyeini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy, iqtisodiy turmushdagi rolini oshirish, ta'lim-tarbiya, ish yuritish, nashr ishlari, OAVda yuqori madaniyat bilan foydalanish, so'z boyligi va grammatik qurilishdagi o'zgarishlarni xolisona baholab borish, zarur bo'lganda, ma'lum choralar ko'rish, til rivoji uchun ongli aralashishni amalga oshirish kabilar bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek tiliga munosabat sobiq ittifoq davrida silliq kechmagan edi. Millatlar va ularning milliy qadriyat-lariga, tarixiy, milliy, diniy meroslariga, shu jumladan milliy tillarga hukmron mafkura nuqtai nazaridan bir yoqlama yondoshish ko'plab millatlar va ularning tillari kamsitilishiga olib keldi. O'zbek tiliga e'tiborning nihoyatda susayganligi uning ish yuritish, ta'lim-tarbiya, noshirchilik, OAVda qo'llanilishi, hatto so'zlashuv tili-dagi mavqyeiga anchagina putur yetkazdi. Natijada o'zbek tilining keng imkoniyatlarini yuzaga chiqarish cheklandi, OAV tili tobora rasmiy, tarjima tiliga aylana boshladi, jonli so'zlashuvni ruscha so'zgarsiz amalga oshirish mumkin bo'lmay qoldi. O'zbek adabiy tili g'amxo'rlikka, parvarishga muhtoj bo'lib qolganini millatimiz jonkuyarlari - yozuvchilar, shoirlar, jurnalistlar, olim-lar, o'qituvchilar anglab yetdilar. Dastlab ma'lum ehtiroslar bilan boshlanib, so'ngra aniq maqsad - millat faxri, g'ururi, boyligi, obro'-e'tibori hisoblanmish o'zbek tilining qonuniy mavqyeini ko'tarish kabi ezgu niyat bilan qo'yilgan dadil qadamlarni xalqimiz, eng muhimi, yurtboshimiz qo'llab-quvvatladi. O'zbek tiliga davlat maqomi berildi. Bu - shunchaki rasmiy nom emas, balki millatimiz g'ururiga, ma'naviyat belgisiga hurmat-e'tibor namunasi edi.

«Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo'yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. Komissiya a'zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o'rganib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo'yicha har taraflama fikr almashuv, bahs va munozaralar bo'lib o'tdi.

Nihoyat, 1989 yilning 19 oktyabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqeya edi»¹⁷.

Mustaqillik davrida o'zbek tilining mavqeyi nihoyatda oshdi: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa barcha jabhalarda davlat tili amalda qo'llanila boshlandi. O'zbek tilining boy, go'zal, betakror imkoniyatlarini istiqlool ruhi, bunyodkorlik hissi, millat g'ururi asosida yuzaga chiqarish uchun ziyolilar, yozuvchilar, shoirlar, mutaxassis olimlar, ayniqsa, jurnalistlarning sa'y-harakatlari kuchaydi.

Istiqloolning dastlabki yillarida o'zbek tilining obro'si uchun o'ziga xos qat'iy harakat - kurash boshlandi. Matbuotda, radio-televideniye orqali o'zbek adabiy tilining o'ziga xosligi, so'z qo'llash, grammatik shakllarni ishlatish, yangi so'z va terminlarni ijod etish borasida rang-barang fikrlar bildirildi. Ular orasida matbuot tiliga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu - bejiz emas. Chunki matbuot - millat jarchisi, ma'naviyat ko'zgusi, muhim tarbiya vositasi hisoblanadi. Matbuot

¹⁷ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 84-85-б.

targ'ibot, tashviqot, tarbiya, ta'sirchanlik vositasi sifatida o'zbek adabiy tilining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning taraqqiyot darajasini belgilash, adabiy til qonun-qoidalarini, savodxonlikni, nutq madaniyatini ko'rsatish uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbek adabiy tilida yuz berayotgan jarayonni kuzatib borish, tahlil etish, baholash, tegishli xulosa chiqarish, unga g'amxo'rlik qilish, noto'g'ri holatlarni tuzatish, parvarish qilishda matbuot ulkan vazifani bajaradi.

O'zbek adabiy tili qat'iy qonun-qoidalarga, ya'ni adabiy normaga ega. Adabiy til normasiga qat'iy amal qilish ona tiliga, uning sohibi hisoblangan o'zbek xalqiga, Vatanimizga hurmat-e'tibor ko'rsatish bilan barobardir. Ayniqsa, adabiy normaga rioya etish matbuot xodimlari, jurnalistlar va ziyolilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Mustaqillik yillarida davlat tili – o'zbek millati, xalqining iftixori, o'zbek milliy davlatchiligining asosiy tamoyillaridan biri, nutq madaniyatining ko'zgusi, jahon hamjamiyatida tobora obro'-e'tibor topayotgan go'zal, jozibali, boy o'zbek tiliga munosabat tubdan o'zgardi. O'zbek tilining ijtimoiy hayotdagi o'rni, obro'-e'tibori, qo'llanish doirasi, me'yori, ahamiyati nihoyatda oshdi.

1. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asrida ta'kidlanganidek, «Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmokda.

Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot

anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi.

Shu borada o'zbek tilining kompyuter va Internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarida ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. Bugun bu haqda gapirsangiz, ko'pchilik yoshlarning ishonishi qiyin. Chunki hozirgi paytda oliy hokimiyat idoralaridan tortib mahalliy boshqaruv idoralrigacha ish yuritish ona tilimizda amalga oshirilmoqda»¹⁸.

Davlat tilida ish yuritishning to'la amalga oshirilganligi Istiqlol tufaylidir. Bugungi kunda ish yuritishga doir barcha hujjatlar o'zbekchalashtirildi. Ish yuritish asosan (ayrim tashkilotlarning yozishmalari, hisobotlar, ma'lumotnomalarni hisobga olmaganda) o'zbek tilida olib borilmoqda. Majlislar o'zbek tilida o'tkazilib, hujjatlari davlat tilida rasmiylashtirilmoqda. Lekin hujjatlarni rasmiylashtirish, yuritishda ayrim kamchiliklar hamon mavjud. Masalan, yozishmalar, majlis bayonnomalarini rasmiylashtirishda o'zbek adabiy tili me'yorlariga to'la rioya etilmagan holatlarga yo'l qo'yilmoqda.

Ta'lim jarayonida ish yuritish, rasmiy uslubga xos hujjatlarni rasmiylashtirishda asosiy mas'uliyat o'qituvchilar zimmasida ekanligini hisobga olsak, o'qituvchilarning ish yuritishdagi malakasini oshirish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ma'lumki, ish yuritish muayyan tashkilot yoki muassasaning davlat va hukumat oldidagi o'z majburiyatlarini qay tarzda hamda qay darajada bajarishini ko'rsatuvchi omillardan biridir. Korxonada ish yuritishning tashkil etilish darajasi esa ijro

¹⁸ Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 86-87-б.

intizomiga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun keyingi paytda tadqiqotchilar ish yuritish madaniyati to'g'risida ham fikr-mulohazalarini bildirishmoqda.

N.Bekmirzayevning «Nutq madaniyati va notiqlik asoslari» nomli o'quv qo'llanmasining «O'zbek tilida ish yuritish hujjatlari haqida» sarlavhali qismida hujjatlarning turlari (xususiy yoki shaxsiy hujjatlar, shaxs yoki jamoaga qarashli hujjatlar, jamoaga qarashli hujjatlar), hujjatlarga qo'yilgan talablar, ularning tuzilishi, hujjatlarning shakli, hujjatlarning tili va uslubi, hujjatlarning morfologik xususiyatlari kabi masalalar bo'yicha foydali fikrlar bildirilgan¹⁹. Ayniqsa, hujjatlarning tili va uslubiga doir muallifning mulohazalari e'tiborni tortadi, chunki ish yuritish hujjatlari haqida yozilgan kitoblarda unga qo'yiladigan talablar va namunalar beriladi, xolos. Hujjatlarning talab darajasida bo'lishi uchun muhim omillardan biri – tildan foydalanishga doir talablar, kamchiliklar to'g'risida deyarli ma'lumot berilmaydi.

«Ish yuritish madaniyati» nomli maqolada hozirgi vaqtda davlat organlari va xo'jalik uyushmalari boshqaruv apparatida ish yuritishni to'g'ri yo'lga qo'yish, takomil-lashtirib borishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, hujjatlar bilan ishlash, ya'ni hujjatlashtirish-ning ahamiyati ish yuritish va ijro intizomini ta'min-lashda muhimligini qayd etishadi. Tadqiqotchilar boshqaruvning yuqori samaradorligini ta'minlash, ish yuritishni to'g'ri va sifatli tashkil etish uchun boshqaruvning tezkorligi, hujjat – tarixiy manba, boshqaruv madaniyati va texnikaviy estetika talablari, huquqiy madaniyat talablari, axborot madaniyati talablari mavjudligini qayd etishadi²⁰.

¹⁹ Бекмирзаев Н. Нутқ маданияти ва нотиклик асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан. 2007, 131-148-б.

²⁰ Абдуллаев А., Абдуллаева Г. Иш юритиш маданияти. // Jamiyat va boshqaruv. 2008. 1-сон, 46-47-б.

Barcha davlat organlari, xo`jalik uyushmalari va boshqa tashkilotlar hamda muassasalarda ishlab chiqiladigan ixtiyoriy hujjatlarga oid bu talablar muhim. Lekin, fikrimizcha, hujjatlarning ixcham, sodda, qonun talab-lari asosida mazmunli, vazifalar aniq belgilangan holda, tayyorlanishi ijroni tezlashtiradi. Bu esa hujjatni tayyorlash sifati, ya'ni mazmuni ixcham va adabiy til me'yorlariga amal qilingan jummalarda ifoda etilishini talab qiladi. Har bir hujjatning tili aniq, tushunarli bo'lishi, ortiqcha fikr-mulohazalarga o'rin berilmasligi lozim.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hisobotlar, ma'lumot-lar, majlislarning bayonnomalarini rasmiylashtirishda ortiqchaliklar, sun'iy ravishda hajmni oshirish, keraksiz fikr-mulohazalar, ayrim andoza ifodalarni ko'p ishlatish, masalaning mohiyatini to'la aks ettira olmaydigan xulosalar chiqarish, qaror bandlarida umumiy, aniq bo'lmagan, ijrochisi noma'lum vazifalarni belgilash, tildan foydalanishda savodxonlik darajasi past holat-lar juda ko'plab uchraydi. Bunday holatlar, birinchidan, mas'ul xodimlarning ijroni to'la ta'minlashiga, mas'-uliyatni to'la his etishiga xalaqit beradi, ikkinchidan, ish yuritishning past saviyasini, xodimlarning malakasizli-gini ko'rsatadi, uchinchidan, mutaxassislarning hujjat yuritishdagi saviyasini ancha pasaytirib yuboradi.

Hozirgi kunga kelib, davlat tilida ish yuritish bo'yicha yetarli o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratilgan. Masalan, «O'zbek tilida ish yuritish» nomli kitob o'zbek tilida mukammal hujjatchilikni yaratish sohasida dastlabki dadil qadam bo'lgan edi²¹. Ushbu kitobdagi xizmat hujjat-larini tuzish, yozish tartib-qoidalari va unda berilgan namunalardan 1990 yildan buyon keng foydanilmoqda. Ushbu qo'llanmaning qanchalik

²¹ Қаранг: Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш (Муншаот). – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. - 224 б.

ahamiyatli ekanligini undan foydalanayotganlar juda yaxshi biladilar.

Hujjatchilikni olib borish va ish yuritishda ko'maklashishda M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudovning «Ish yuritish. Amaliy qo'llanma» nomli kitobi²² ham muhim ahamiyatga ega.

Muhim namunaviy vositalar bo'lishiga qaramasdan, mazkur adabiyotlardagi tavsiyalarga hamisha ham e'tibor berilmayotganligini ko'rish mumkin. Yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar asosan malakasizlik tufayli kelib chiqmoqda. Keyingi yillarda akademik liseylar va ayrim oliy o'quv yurtlarida «Davlat tilida ish yuritish» darslarining o'qitilishi ham bu sohada o'quvchilar va talabalarning hujjat yuritishda ma'lum malakani egallashlarida yordam bermoqda²³.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risi-da»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarida ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlash vazifasi belgilangan. Davlat tiliga e'tiborni oshirish, undan oqilona foydalanish, talabalar va o'quvchilar nutqining adabiy til me'yorlariga mos bo'lishiga erishishda ta'lim jarayonining ahamiyati katta. Mutaxassis o'qituvchining dars jarayonidagi sabog'i, hatto boshqa sohalarida dars beradigan ustozlarning til qoidolari haqida ma'lumot berishi yo'l qo'yilayotgan xato-kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi.

Ta'lim jarayoni uzluksiz va izchil bo'lib, u har bir fan o'qituvchisidan chuqur bilim, malaka, ko'nikmalar va o'zbek adabiy tili qonun-qoidalarini puxta bilish, amalda qo'llay

²²Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. Амалий қўлланма. 3-нашри. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2009. – 440 б.

²³ Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Ikkinchi nashri. Akademik litseylar uchun darslik. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. - 128 b.

olishni ham talab etadi. Zamonaviy o'qituvchidan mutaxassislik fanlari sirlarini puxta bilish va axborot texnologiyalari yutuqlaridan dars jarayonida mohirona foydalana olishdan tashqari yozma va og'zaki nutqi yuqori saviyada bo'lishi talab etiladi. Ayniqsa, o'qituvchining nutq mahorati o'quvchi va talabalarining ma'lum fan asoslarini dars jarayonida puxta egallashlarining asosiy shartlaridan biridir.

Savodli yozish, og'zaki nutqni o'stirish, nutq madaniyati va mahoratini singdirish ona tili va adabiyot o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Lekin jamiyatning ilg'or qatlami, ziyoli inson sifatida har bir fan o'qituvchisi bu jihatlarga ozmi-ko'pmi e'tibor berishi lozim. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda bu vazifalarni faqat ona tili va adabiyot o'qituvchisi bajarishi kerak, deb hisoblaydigan boshqa fan o'qituvchilari ko'plab topiladi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ona tiliga munosabat va hurmat, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish millatning har bir jonkuyar farzandi uchun ham qarz, ham farzdir. Ayniqsa, bu sohada o'qituvchilar, ziyolilarning o'rne va mas'uliyatni chuqur anglashi juda muhimdir.

Ta'lim jarayonining asosiy bo'g'inida namunali nutq bo'lishi darslik, qo'llanma va uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasining yuqoriligi bilan ham belgilanadi. Prezident I.Karimov ta'biri bilan aytganda, «Ta'lim darslikdan boshlanadi». Zamonaviy darsliklar davlat ta'lim standartlari talablari asosida yaratilmoqda. Hozirgi kunda mutaxassislik fanlaridan davr talabi asosida yaratilgan puxta o'quv adabiyotlari o'quvchilar va talabalar ehtiyojini qondirmoqda. Ularning har tomonlama mukammal, fan asoslarini yetarlicha qamrab olgan, sifatli, tushunarli, ravon bo'lishi uchun barcha choralar ko'rilyapti. Lekin ayrim o'quv adabiyotlari tilida ma'lum kamchiliklar mavjud. Ba'zi o'quv qo'llanmalarida material bayonida adabiy me'yorga rioya etilmagan, jumla tuzishda xatoga yo'l qo'yilgan holatlar uchraydi. Ularni tahlil

qilish va ma'lum chora-tadbirlar ko'rish davr talabidir. Buning uchun har bir mutaxassislik fani o'qituvchilari o'quv adabiyotining tili masalasida o'z fikr-mulohazalarini filologlar, tahririyat xodimlariga doimiy ravishda yetkazib turishlari lozim. O'quv adabiyotining sifati, o'zbek adabiy tili me'yorlariga mal qilishidan tashqari, o'quvchilarga tiushunarli bayon etilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishini unutmasligimiz kerak.

Ta'lim jarayoni, ayniqsa, oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati bilan bevosita bog'liq. Keyingi paytda yana bir muammo yuzaga kela boshladi. Ayrim ilmiy xodimlarda o'z ilmiy tadqiqotlari natijalarini maqola, risola, avtoreferat, nomzodlik va hatto doktorlik dissertasiyalari, monografiya tarzida rasmiylashtirishda o'zbek tili qonun-qoidalariga e'tiborsizlik kayfiyati paydo bo'lmoqda. Ayrim ishlarda ko'plab imloviy, uslubiy xatolarga yo'l qo'yilmoqda. Turli sohalarga oid ilmiy tadqiqotlar rasmiylashtirilgan manbalarni tadqiq etish, yutuq va kamchiliklarni baholash, zarur tavsiyalar tayyorlash ehtiyoji paydo bo'lmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli fanlar (hatto filologiya sohasi) bo'yicha monografiyalar, ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari avtoreferatlari matnlarida o'zbek adabiy tili uslubiy, imloviy me'yorlariga amal qilmaslik holatlariga yo'l qo'yilgan. Bu kabi kamchiliklar turli soha mutaxassislarining o'zbek tili qonun-qoidalaridan to'la xabardor emasligi, e'tiborsizligi tufayli yuz bermoqda. Ilmiy tadqiqot natijalaridagi imloviy, uslubiy xatolar yosh tadqiqotchilarning savodxonligiga ham ta'sir etmoqda. Chunki aksariyat yosh tadqiqotchilar ilmiy maqola yozish, avtoreferatlarini rasmiylashtirishda oldin nashr qilingan shunday ishlarga murojaat etadilar, ulardan namuna oladilar.

Mazkur tadqiqotlarni bo'lajak o'qituvchilar, ya'ni talabalar ham mutolaa qilishini hisobga olganda, ularning nutq

madaniyatiga qanchalik ta'sirini ham yoddan chiqarmaslik lozim.

3. Ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik yillarida nihoyatda katta e'tibor berildi. Jurnalistlar faoliyatini har tomonlama kafolatlovchi qonunlar yaratildi. Bunga javoban jurnalistlar ijod jarayonida, ommaviy axborot vositalari faoliyatida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Hozirgi paytda davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy mazmunini mustaqillikka va uning yutuqlarini mustahkamlashga, ko'paytirishga hissa qo'shish tashkil etmoqda.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston Mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi «O'zbe-kistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» mavzuida qilgan ma'ruzasida quyidagilar alohida qayd etildi: «Ochiq va kuchli fuqarolik jamiyatini bugungi kunda aholining turli ijtimoiy guruhlar va keng qatlamlari manfaatlarini ifoda etadigan mustaqil va barqaror nodavlat notijorat tashkilotlar, erkin ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari-ning rivojlangan tizimisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugun mamlakatimizda 5 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilot, 870 dan ziyod gazeta va jurnal, 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostudiyalari faoliyat ko'rsatayotgani diqqatga sazovor»²⁴.

«...hozirgi paytda hayotimizni elektron axborot vositalari, xususan, televideniye va radiosiz umuman tasavvur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda ular bir vaqtning o'zida ham

²⁴ Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. Президент Ислон Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон Мустақиллигининг 16 йиллигига бағишланган қўшма мажлисидаги маърузаси. 30 август 2007 йил.— Тошкент: Ўзбекистон, 2007, 6-б.

axborot maydoni, ham ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy minbar, shu bilan birga, insonga madaniy, badiiy-estetik oziq beradigan va hordiq chiqaradigan makon vazifasini bajarmoqda, desak, xato bo'lmaydi.

Shu sababli o'tkir ta'sir kuchiga ega bo'lgan televideniye va radio sohasini izchil taraqqiy ettirish jamiyatning doimiy e'tibor markazida bo'lishi tabiiy. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi asosiy milliy tele-radiokanallar aholining xolis va haqqoniy axborotga eta bo'lish huquqini ta'minlash, yurtdoshlarimizning madaniy saviyasi, bilim va Dunyoqarashini oshirish, qadimiy an'analarimiz, tarixiy merosimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu bilan birga, fuqarolarimiz ongida demokratik qadriyatlar, grajdanlik pozisiyasini shakllantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va umumin-soniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash yo'lida munosib xizmat qilayotganini ta'kidlash kerak.

Ayni vaqtda hali bu sohada oldimizda amalga oshirishimiz zarur bo'lgan ko'pgina maqsadlar turganini ham aytish lozim. Avvalo, televideniye davlat va jamiyatimizni bamisoli bir ko'prikkdek bog'lab turadigan jonli muloqot vositasiga aylantirish, efir orqali bugungi kunning dolzarb muammolarini ko'proq aks ettirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarimizning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, har qaysi insonning o'z mustaqil fikrini ifoda etishiga imkon berish, turli ijtimoiy toifa va guruhlarining qiziqish va intilishlari, hayotiy manfaatlarini yoritib borish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas»²⁵.

²⁵ Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 134-135-б.

Ta'kidlanganidek, yutuqlar nihoyatda ko'p, lekin vazifalar ham oz emas. Keng omma, ayniqsa, yoshlarning savodxonligi, nutq madaniyati, yozma va og'zaki nutq mahorati, mustaqil fikrlash va uni ijodiy bayon qilish ko'nikmalarini egallashga salbiy ta'sir qilayotgan jihatlar ham anchagina.

Adabiy til me'yorini o'rganish va amal qilishda namuna vazifasini bajarishi lozim bo'lgan jurnalistlar ijod jarayonida tildan foydalanish masalasida muayyan muammolar paydo bo'lmoqda. Ular quyidagilar:

- Jurnalistlarning ijod jarayoni, ya'ni janrlardan foydalanish holati hamon chegaralanib qolmoqda. Davr talabi asosida yaratilgan ocherk, felyeton, sharh, taqriz janrlariga oid materiallar nihoyatda oz yoki yuqori mahorat bilan yaratilmagan. Ushbu janrlarning nutq madaniyatini va mahoratini egallashda o'rni ancha yuqori hisoblanadi.

- Matbuot materiallari bayonida ortiqcha maqtov, dabdaba, real hayotni to'la, atroflicha aks ettira olmaslik, badiiy til vositalaridan noo'rin foydalanish holati ham uchraydi.

- Matbuot materiallarining tilida imloviy, ayniqsa, uslubiy xatolar, jumla tuzishdagi kamchiliklar ko'payib bormoqda.

- Ayrim televideniye va radio boshlovchilari, suxandonlarning yoki boshlovchilik qilayotgan jurnalistlarning o'zbek tili imkoniyatlaridan unumli foydalanishga e'tiborlari pastligi, ba'zan davlat tiliga nopisand munosabatda bo'layotganliklari sezilib qolmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar savodxonlikka, ayniqsa, yoshlarning nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi tashvishli bo'lib bormoqda.

Til va nutq madaniyati jamiyat hayotining ajralmas qismi, chunki ona tili muhim tarbiya vositasi sifatida kishilarni buyuk maqsadlar sari yo'naltiradi, ruhlantiradi, ezgu orzu-umidlar bilan yashashga undaydi. Ona tiliga e'tibor yosh avlod tarbiyasining ajralmas qismidir. Chunki tilimizni boy, sof holda kelgusi avlodlarga yetkazishning vositachiligi ana shu yoshlar,

xususan, talabalar va o`quvchilar qo`lida. Demak, ona tilidan foydalanish nihoyatda zukkolikni, bilimdonlik-ni, mahoratni, hurmat-e`tiborni talab etadi.

O`qituvchining jamiyatdagi eng obro`li, ma`naviyatli va ma`rifatli inson, bir so`z bilan aytganda, ziyoli sifatidagi mavqeyi tildan foydalanish jarayonidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etishda nihoyatda foydalidir. Chunki ziyoli insonning aniq faktlar, foydali mulohazalar bilan o`quvchi va talabalar ongiga ta`siri beqiyosdir. Buning uchun nafaqat filolog-o`qituvchilar, balki boshqa fan o`qituvchilari ham o`zbek adabiy tili me`yorlari, qonun-qoidalarini yaxshi bilishi, atama qo`llashdagi yangiliklardan xabardor bo`lishi, o`quvchilar va talabalar savodxonligiga, nutq mahoratiga ijobiy va salbiy ta`sir etuvchi omillarni farqlay bilishi hamda ularni yetkaza olish qobiliyatiga ega bo`lishlari talab etiladi. Demak, qaysi fan o`qituvchisi bo`lishidan qat`iy nazar, o`z sohasini mukammal bilishidan tashqari, jamiyatning ilg`or ziyolisi sifatida o`zbek tilining hozirgi ijtimoiy mohiyatini to`g`ri anglagan holda, uning sofligi, nutq jarayonida to`g`ri foydalanish, o`quvchi va talabalarning og`zaki hamda yozma nutq mahoratini oshirish uchun mas`ulligini zinhor unutmasligi lozim.

Tayanch so`z va birikmalar: Til, tafakkur, til va tafakkur, til va nutq, ijtimoiy, tilning ijtimoiy mohiyati, davlat tili, ish yuritish, ommaviy axborot vositalari, matbuot tili, jurnalist ijodi, tildan foydalanish mahorati, til va nutq madaniyati, ilmiy maqola, nutq jarayoni.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Tilning jamiyatdagi o`rni haqida nimalarni bilasiz?
2. O`zbek tilining hozirgi davrdagi mavqeyi va davlat tili sifatida jamiyatdagi o`rni to`g`risida tushuncha bering.

3. O`zbek tilining hozirgi davrdagi ijtimoiy mohiyati haqida ma'lumot bering:

- davlat tilida ish yuritish;
- ta'lim jarayonida o`zbek tiliga e'tibor;
- ommaviy axborot vositalarida davlat tiliga munosabat;
- o`zbek tilining ijtimoiy mohiyatini tushuntirishda o`qituvchining o`rni.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. O`zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo`li. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O`zbekiston Mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 30 avgust 2007 yil. – Toshkent: O`zbekiston, 2007, 6-b.

3. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-b.

4. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. III qism. – Toshkent, 1999.

5. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.

6. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notqlik asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan, 2007, 131-148-b.

7. Abdullayev A., Abdullayeva G. Ish yuritish madaniyati. // Jamiyat va boshqaruv. 2008. 1-son, 46-47-b.

8. Mahmudov N., Madvaliyev A., Mahkamov N., Aminov M. O`zbek tilida ish yuritish (Munshaot). – Toshkent: O`zbek sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. - 224 b.

9. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Amaliy qo`llanma. 3-nashri. - Toshkent: «O`zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 440 b.

10. Mahmudov N. Maʼrifat manzillari. – Toshkent, 1999, 52-b.

Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

11. Tojiyev Yo., Mallaboyev M. Oʻzbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari (ommabop qoʻllanma). 1-qism. – Toshkent, 2006, 8-b.

12. Qoʻngʻurov R., Begmatov E., Tojiyev Gʻ. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Fan, 1992.

13. Mahmudov N., Rafiyev A., Yoʻldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Ikkinchi nashri. Akademik litseylar uchun darslik. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 128 b.

14. Elmurodov N. Nutq madaniyati masalalari. Oʻquv qoʻllanma. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 151 b.

15. Elmurodov N. Oʻqituvchining nutq madaniyati. Oʻquv qoʻllanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.

16. Abdusaidov A. Gazeta tili va uslubi. – Samarqand, 2001. 192 b.

17. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004. – 102 b.

19. Abdusaidov A. Oʻzbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til maʼnaviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka taʼsir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008. – 132 b.

20. Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

3-mavzu: O`QITUVChINING MULOQOT MADANIYATI

Reja:

1. Muloqot jarayoni.
2. O`zbek nutqining muloqot shakllari.
3. Muloqotning lisoniy va nolisoniy omillari.
4. Og`zaki nutq turlari.
5. Dialogik va monologik nutq haqida tushuncha.
6. Dialogik va monologik nutqning til xususiyatlari.
7. Kasbiy muomala odobi.

Muloqot jarayoni nihoyatda murakkab, uning boshlani-shi, avvalo, kishilarning ruhiy holati, suhbatdoshga ijobiy yoki salbiy munosabati kabilar bilan bevosita bog`liq. O`zaro suhbatning qay yo`sinda bo`lishi, o`z-o`zidan ayonki, juda ko`plab omillarga bog`liq. Tadqiqotchilar bu jarayonni turlicha nuqtai nazardan baholashadi.

«Muloqot jarayoni, aslini olganda, odamlar o`rtasidagi axborot almashuvi bo`lib, uning asosiy maqsadi uzatilayotgan va qabul qilinayotgan axborotning tushunarligini ta`minlashdir»²⁶.

O`zbek tilining hozirgi paytdagi ijtimoiy holati muloqot madaniyatining milliy urf-odatlarimiz, menta-litetimiz, an`analarimizga mos ravishda rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Muloqot madaniyatining o`ziga xos xususiyatlari bir qator ilmiy tadqiqotlarda yoritilgan. S.Mo`minov va Sh.Iskandarovalarning monografik ishlari bunga misol bo`la oladi²⁷.

²⁶ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: Akademiya, 2007, 63-6.

²⁷ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан.д-ри... дис.автореф. – Тошкент, 2000;

S.Mo`minov suhbatdoshlarning millatini, jinsini, yoshini, ijtimoiy belgilarini, ularning o`zaro yaqinlik darajasini, muloqot vaqtini, vaziyatni, holatni, ijtimoiy muhitni ana shu birliklar sifatida qaraydi²⁸.

Olimning fikricha, muloqot xulqini o`rganishda millat aholisining o`ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an`analarini hisobga olish lozim.

Insonlar o`rtasidagi muloqot til vositalari orqali yuz bersada, uning yuqori madaniyatli, ma`rifatli bo`lishi nafaqat til birliklaridan adabiy til me`yorlariga amal qilgan holda, nutq madaniyati talablari darajasida suhbatlashishni, balki boshqa bir qancha omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Bunday omillar sirasiga, masalan, quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Umuminsoniy qadriyatlarni hisobga olish.
2. An`anaviy urf-odatlarini yaxshi bilish va ularga amal qilish:
 - a) kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko`rsatish;
 - b) xotin-qizlarga alohida hurmatda bo`lish;
 - v) oiladagi tarbiyaviy muhit: er-xotin muomalasi, otanonaning farzandlariga munosabati;
 - g) ustozlarning shogirdlariga munosabati va muomalasi;
 - d) rahbarlarning oddiy insonlarga munosabati;
 - ye) qarindosh-urug`larning muomalasi;
 - yo) mahalladoshshlar va qo`shnilarning o`zaro munosabati.
3. Suhbatdoshlarning tafakkur doirasi, bilim saviyasi, dunyoqarashi.
4. Kishilarning ruhiy holati.
5. Jamiyatdagi ijtimoiy muhit: tinchlik, osoyishta-lik, iqtisodiy rivojlanish, millatlararo totuvlik.
6. Milliy o`zlikni anglash va boshqa millatlar vakillarini hurmat qilish kabilar.

Искандарова Ш. Ўзбек нутқи одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Самарқанд, 1993.

²⁸ Мўминов С. Юкорида номи кўрсатилган манба, 11-б.

Professor S.Karimovning fikricha, muloqotning ham til, ham tildan tashqaridagi omillari mavjud bo`lib, ular o`zaro birlashgandagina kutilgan nutq shakllanishi mumkin. Shuning uchun ham dastlab muloqotning ana shu omillari haqida tushunchaga ega bo`lish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bu ikki omil nutqiy jarayonda chambarchas bog`langan bo`lib, biri ikkinchisini taqozo qiladi va bir-birisiz yashay olmaydi. Vaziyatga bog`liq holda inson muomalasi-ning ko`rinishlari shu qadar ko`p bo`ladiki, bir vaziyat va holatda amalga oshirilgan suhbat boshqa bir o`rinda hyech qachon takrorlanmaydi. Ular salomlashish, xayrlashish, tabriklash singari vaziyatlardagina umumiylikni tashkil qilishi va nutqiy odat degan ma`no ostida birlashishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan olib qaraganda, muloqotda shaklning ahamiyati nihoyatda sezilib turadi. Suhbatdoshlar o`zaro tanish-notanishligidan qat`iy nazar, odatda, bir-birlariga samimiyat bildirishga, iltifotli, sermulozamat bo`lishga, izzat-ikrom, hurmat ko`rsatish, manzirat qilish, bir-birlarining kayfiyati, ko`ngliga qarab gapirishga harakat qiladilar. Muloqot jarayonida ko`zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib, ba`zan ro`y beradigan noqulay vaziyatni yumshatishga harakat qiladilar. Bir-birlariga gapirib olishga imkon Bera-dilar. Bunday vaqtda orada jimlik, sukunat hukmron bo`lishi, suhbatda uzilishlar ro`y berishi mumkin. Lekin muloyimlik bilan uni bartaraf etish yo`llari ham izlanadi. Bunday paytlarda suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, saviyasi, albatta, sezilib turadi. Suhbat jarayonida, yuqorida ta`kidlaganimizdek, undan ko`zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib yoki suhbatdoshlarga mutlaqo bog`liq bo`lmagan holda buning aksi ro`y berishi ham mumkin²⁹.

«Bunday muloqot o`rnatishning shakllari ko`p. Masalan, nutq oldidan biroz avval ro`y bergan va tinglovchilar kayfiyatiga ta`sir qilgan hodisaga bir og`iz munosabat bildirish

²⁹ Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. - Тошкент, 2004,

yoki qiziqarli voqyeani hikoya qilib, ularning kayfiyatini ko'tarish mumkin va h.k. Albatta, auditoriya-ning tinglashga moyilligini uyg'otish uchun qanday shaklni tanlash konkret vaziyatga bog'liq. Har holda auditoriya uchun tushunarli va uida muayyan tuyg'ularni uyg'ota oladigan fikrni asoslash osonroq.

Kaykovus bu borada shunday saboq beradi: "Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotg'il. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z deg'ilkim, unga xush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin"(U.Saidov. O'sha manba,81-b.).

«Ko'rgazmalilik, izchillik, auditoriya aqliy va ruhiy imkoniyatlarini hisobga olish kabi didaktik prinsiplar-ni qo'llashning ham ahamiyati katta.

Notiqning vazifasi auditoriyani uyushtirish, tinglovchilarni ma'ruzani eshitishdan chalg'ituvchi barcha narsalardan forig'etish ekan, bunda ruhiy holatni yuqtirish, taqlid, inontirish kabi psixologik usullardan foydalanish ham yordam beradi.

Auditoriya diqqatini jalb etish uchun notiq quyidagi ruhiy-pedagogik talablarga rioya etishi lozim: fikr va ma'lumotlarning yangiligi, fikr(lar)ning isbotlangan-ligi, ehtirosli (ekspressiv) bayon»³⁰.

Muloqot jarayoniga yuqorida sanab o'tilganlardan boshqa ta'sir etuvchi tashqi omillar ham kuzatiladi. Suhbat jarayonida aralashmayotgan, ammo suhbatdoshlar uchun hurmatli bo'lgan kishining ta'siri bunga misol bo'la oladi. Suhbatdosh ustozga, sevimli yoki jamiyatda obro'si, hurmati bor kishiga, arboblar va amaldorlarga yaqin, hatto qarindosh bo'lishi ham mumkin. Bu narsa ham ma'lum ma'noda tashqaridan suhbatdoshlar nutqini «boshqarib boradi», uning davom etishi va yakuniga ta'sir ko'rsatadi.

³⁰ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. — Тошкент: Akademiya, 2007, 94-6.

S.Karimovning ta'kidlashicha, muloqotning hududiy farqlanishini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Masalan, qishloq va shahar aholisining muloqoti sheva va chet so'zlardan foydalanish, og'zaki so'zlashuv uslubining to'la namoyon bo'lishi kabilar asosida insonga xos bir qator fazilatlar hamda nuqsonlarning muomala jarayoni-da o'ziga xoslik bilan namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Nutq vaziyatiga qadar suhbatdoshlar suhbat mavzusidan yoki unga aloqador ayrim faktlardan xabardor bo'lgan bo'lishlari mumkin va bu narsa ularni ma'lum darajada muloqot jarayoniga tayyorlaydi. Ammo kutilgan natija-larni berish-bermasligini shu nutqiy vaziyatning o'zi belgilaydi.

Muloqot jarayonining muhim qismini murojaatlar tashkil qiladi. Murojaat esa tanish kishilarga ham, notanishlarga ham bo'lishi mumkin. Bu vaziyat esa alohida til elementlarini tanlashni taqozo etadi. Masalan, notanish kishilarga murojaat qilinganda ishlatilishi odat tusiga kirgan so'zlarni olaylik: *yigit, og'ayni, aka, uka, amaki, tog'a, jiyan, ota, buva, xola, buvi, momo, opa, singlim, qizim, bolam* kabi. Bu so'zlarga murojaat qiluvchining xohish-irodasi yoki kayfiyatiga qarab *-jon* subyektiv baho shakli qo'shilishi mumkin. Bundan tashqari bu murojaat so'zlarining dialektal ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ularning barchasi birgalikda qo'llanishda ma'lum hududiy-vazifaviy chegaralanishlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kasb-hunarga oid *usta* so'zini ishlatish faol. Lavoziim yoki vazifani ifoda etadigan *rais buva, qozi buva, xo'jayin, domla, muallim, doktor / duxtir, shofer / shopir* singari so'zlar ham murojaatlarda turg'unlik kasb etgan. Agar ularga *o, yey, hov, hoy* kabi undovlar qo'shilib ishlatilsa, murojaat mazmuni o'zgaradi. Garchi chaqiriq masofa nuqtai nazaridan murojaat qiluvchidan nisbatan uzoqroqdagi kishiga qaratilayotganday bo'lsa ham, bunday murojaatda ma'lum ma'noda eshituvchiga nisbatan hurmat darajasi pasayadi.

Tanishlarga qaratilgan murojaatlar ham farqlanadi. Yoshi ulug', lavozim jihatdan yuqoridagi, yaqin va hurmatli kishiga nisbatan qilinadigan murojaatlar tanishu, ammo so'zlovchi uchun unchalik ahamiyatli bo'lmagan kishiga nisbatan qilinadigan murojaatdan boshqacha bo'ladi. Birinchi guruhdagi kishilarga nisbatan *dada, dadesh, azizim, onam, lobarim, dilbarim, erkam, pari, bek, gul, poshsho, botir, go'zal, malak, boyvuchcha, boyvachcha, valine'mat, shirin, oppoq, do'ndiq, nuridiyda, jon, qanot, chiroq, g'uncha, xon, xonim, poshsha, oy, shunqor, lochin, qaldirg'och, qo'zi, bo'ta, toy, qulun, arslon so'zlari hamda —xon* (Matlubaxon, Diloromxon), **-jon** (bolajon, ukajon, opajon, singiljon), **-boy** (Hamidboy, Hikmatboy) kabi *yo'shimchalarni yo'shish* bilan murojaat qilinadi³¹.

Muloqot jarayonida so'z va iboralarning ma'lum qolipda takrorlanaverishi kishilarda odat va ko'nikmalarni keltirib chiqaradi. Har bir muomala jarayonining o'z qoida va odatlari shakllanib, u umumxalq, umummilliy xarakter kasb etadi. Muloqotda unga rioya qilish taomilga kiradi. Aksincha, undan chiqish bu odatlarga itoat qilmaslik deb qabul qilinadi.

Inson muloqot jarayonida salomlashish, tanishish, xayrlashish, biron narsani iltimos qilish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish singari ko'plab nutqiy vaziyatlarga duch keladi va ularning har birining o'ziga xos muomala odatlari mavjud bo'ladi. Bu odatlar umuminso-niy, umummilliy urf-odat va taomillar, madaniyat va qadriyatlar doirasida bo'ladi. Masalan, salomlashish odati: *assalomu alaykum – vaalaykum assalom, hormang – bor bo'ling, xush kelibsiz – xushvaqt bo'ling, yaxshimisiz – xudoga shukur*; xayrlashish odati: *men boray, bo'lmasa – o'tirsangiz bo'lardi / choy ichib ketsangiz bo'lardi, xayr – omon bo'ling, yaxshi qoling – yaxshi*

³¹ Бу тўғрида атрофлича маълумотларни қуйидаги манбадан олиш мумкин: Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1980, 33-138-б.

*boring, yana kelinglar – sizlar ham boringlar; iltimos qilish odati: iltimos, agar mumkin bo'lsa, agar sizga malol kelmasa, bemalol bo'lsa, sizdan bir narsa so'ramoqchi edim, mobodo sizga og'irlik qilmasa, imkoniyatingiz bo'lsa, nima desam ekan...so'rash sal noqulay bo'lib turibdi kabi*³².

O'zbek nutqiy odati tadqiqotchisi Sh.Iskandarova uning vazifa doirasini belgilab, suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish, ularning bir-birlariga iltifot ko'rsatishga harakat qilishi, suhbatni boshqarib borish, murojaat qilish, xitob, ta'sir etish singari omillarni qayd qiladi³³.

Dialogik va monologik nutqlar insonning muloqot shakllari hisoblanadi. Inson nutqi ko'rinishlari sifatida dialogik nutq ham, monologik nutq ham nutqning shakllanishidagi umumiy qoidalarga hamda insonlar o'rtasida amalda bo'lgan muomala etikasi va tamoyillariga bo'ysunadi. Ayni paytda, ularning har biri shakllanish-dagi til xususiyatlari va tildan tashqarida bo'lgan omillarga munosabati bilan bir-biridan farqlanadi. Ikki kishi o'rtasidagi har qanday suhbatni dialog sifatida e'tirof etish mumkin. Ammo bu nutqning o'ziga xos xususiyatlari ana shu ikki kishi o'rtasida yuzaga kelgan suhbat jarayonida ochiladi. Shunday ekan, yuqorida ta'kidlanganidek, bu yerda ham suhbatning maqsad va mavzusi, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, jamiyatda egallagan o'rni va mavqeyi dialogik nutqning mazmunini belgilaydi.

Matnlarning til jihatiga e'tibor berilganda, shu narsa ma'lum bo'ladi, suhbat jarayonidagi gaplar asosan savol-javoblardan iborat bo'ladi, ya'ni gaplarning ma'lum qismini so'roq gaplar tashkil qiladi. Bu gaplar tuzilishiga ko'ra sodda va to'liqsiz gaplardan iborat bo'ladi. To'liqsiz bo'lishining

³² Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. - Тошкент, 2004,

³³ Искандарова Ш. Ўзбек нутқи одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан.номз. ...дис. автореф. – Самарқанд, 1993.11-12-б.

sababi ma'lum, albatta. Undagi ma'no yoki avvalgi gapdan yoki umuman suhbat mazmunidan anglashiladi.

Garchi dialogik nutq til nuqtai nazaridan gap shakllarining to'liq bo'lmasligi, so'zlarning tushib qolishi yoki qisqarishi, inversiyaga uchrashi bilan boshqa nutq shakllaridan ajralib tursa-da, bu o'rinda ham muloqotning umumiy qoidasi va etikasini saqlab qolishga harakat qilinadi.

«Albatta, kishi o'zi suymagan odamga murojaat etishga majbur bo'ladigan holatlar bo'ladi. Masalan, ish jarayonida yoki ma'muriy holatlarda odam o'zi yoqtirmagan rahbarga yoki xodimga murojaat etmasligining iloji yo'q. Ammo imkon qadar bunday holatlarni kamaytirishga harakat qilish kerak.

Yoqtirmagan odamga nutq bilan murojaat etmaslik kerakligining boshqa, ma'naviy jihati ham mavjud. Ya'ni notiq o'z nutqini ezgulikka yo'naltirmog'i, tinglovchida ezgu tuyg'ularni uyg'otmog'i kerak. Buni, avvalo, so'z orqali murojaat qilingan insonga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish zaruratga aylantiradi. Shunday ekan, so'zlayotgan kishi, o'zgaga yomonlik keltirmaslikni o'ylashi, har gapni andisha bilan so'zlashi kerak. Ammo ana shu andishaga ko'p hollarda e'tibor qilinmaydi»³⁴.

Alohida bir kishiga taalluqli bo'lgan nutq monologik nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil ko'rinishga ega: ochiq nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan bo'ladi va turli xarakterdagi yig'ilishlarda – qurultoylar, sessiyalar, ilmiy anjumanlar, dars jarayoni, hisobot yig'ilishlari, har xil jamoalarning majlislari, uchrashuvlar, bayram-lar, to'y-tomoshalar, tug'ilgan kunlar, do'stlar uchrashuvi singari kichik davralar, motam mitinglarida so'zlanadi. Bu yig'ilishlarning mazmuni turlicha bo'lganligi sababli ularda so'zlanadigan monologik nutq xarakteri ham bir-biridan farq qiladi. Masalan, bayramlar, uchrashuvlar, to'y-

³⁴ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Akademiya, 2007, 77-6.

tomoshalar, tug'ilgan kunlar tantanali tarzda kechadi-gan yig'inlar bo'lganligi tufayli ularda so'zlanadigan nutq ham tantanali ruh asosiga qurilgan bo'ladi.

Hisobot yig'ilishlari va jamoalarning (ishlab chiqarish, rejalashtirish) majlisleri rasmiy xarakterda bo'ladi. Qurultoy va sessiyalar keng qamrovli yig'ilishlar bo'lganligi tufayli ularda rasmiylik ham, norasmiylik va tantanavorlik ham aralash bo'ladi. Mavzuga qarab har xil faktlar, raqamlar keltiriladi.

Fikrni og'zaki bayon etish usullari xilma-xil bo'lib, jumladan, quyidagilar ko'rsatilgan: Suhbat, muhokama, munozara, notiqona so'zlash, tashviqot nutq, tanqidiy nutq, tabrik nutqi.

Tadqiqotlarda og'zaki nutq(notiqlik)ning bir qancha turlari qayd etilgan. Masalan:

Siyosiy-ijtimoiy notiqlik:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq.
2. Sessiya, konferensiyadagi nutq.
3. Siyosiy nutq.
4. Diplomatik nutq.
5. Siyosiy sharh.
6. Harbiy vatanparvarlik nutqi.
7. Miting nutqi.
8. Ilmiy-ommabop nutq.

Akademik notiqlik:

1. O'quv yurtlari ma'ruzalari.
2. Ilmiy nutq (ma'ruzalari).
3. Ilmiy sharh.
4. Ilmiy axborot.

Sud notiqligi:

1. Qoralovchi (prokuror) nutqi.
2. Jamoatchi-qoralovchi nutqi.
3. Oqlovchi (advokat) nutqi.
4. Jamoatchi-oqlovchi nutqi.
5. O'z-o'zini himoya qilish nutqi.

Ijtimoiy-maishiy notiqlik:

1. Madhiya (yubiley yoki maqto'v nutqi).
2. Ta'ziya (motam) nutqi.
3. Tabrik nutqi (tost).

Diniy notiqlik:

1. Xutba.
2. Va'z.

Nutqiy san'atlar

Og'zaki nutq

Yozma nutq

- | | |
|--|---------------|
| 1. Voizlik. | 1. Dabirlik |
| 2. notiqlik | 2. Kotiblik |
| 3. Suxandonlik | 3. Munshiylik |
| 4. Qissago'ylik (mirzolik) va hokazo. | |
| 5. Roviylilik | |
| 6. Badihago'ylik | |
| 7. Askiyachilik | |
| 8. Maddohlik va hokazo ³⁵ . | |

Axborotni bevosita (jonli muloqot orqali) va bilvosita (axborot tarqatish vositalari orqali) uzatish mumkin. Hozirgi davrda ommaviy axborot vositalari, xususan, radio-televideniye, internet tarmog'i orqali har qanday ma'lumotni darhol, "sovutmasdan" dunyoning istagan burchagiga yetkazish mumkin bo'lgan holda notiqqa, ya'ni odamlar bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxsga ne ehtiyoj? Nima uchun axborot tarqatish vositalari o'ta taraqqiy etgan bugungi kunda ham notiqlikning, jonli nutqning ahamiyati yo'qolmay, aksincha, hayotdagi o'rni va mavqeyi ortib bormoqda?

Og'zaki nutqning kuchi va uning boshqa muloqot turlaridan ustunligi bir qator o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi. Jumladan, notiq nutqida lisoniy vositalardan tashqari eng nozik fikr va tuyg'ularni ifoda etish imkoniyatini beruvchi nutq ohangi, uning hissiyot bilan omuxta bo'lishi, qo'l va tana

³⁵Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2006, 52-53-, 67-б.

harakatlari, yuz ifodasi (mimika) kabi nolisoniy vositalardan foydala-nishi hamda konkret auditoriya (tinglovchi) xususiyatlari-ni hisobga olishi bilan ta'sirchan qilishga, to'g'ri tushunishga yordam beradi»³⁶.

Nutq mavzusining turlicha bo'lishi notiqning tayyorgarligi, bilim darajasi va vaziyat bilan bevosita bog'liq. Demak, nutq mavzusi, vaziyat taqozosi bilan til vositalaridan turlicha foydalaniladi.

Demak, har bir monologik nutqiy vaziyat so'zlovchidan alohida bir munosabatni va mas'uliyatni talab qiladi. Ayni paytda, ularning barchasi uchun, avvalgi mavzularni yoritishda ta'kidlab o'tilganidek, umumiy bo'lgan qoidalar ham mavjud. Bu dastlab so'zlanadigan nutqning qolipi – rejasi bo'lishi. Qayerda va qanday vaziyatda so'zlanishidan qat'iy nazar, har bir nutq ma'lum reja asosida bo'lishi, auditoriya, vaqt hisobga olinish lozim. Boshqacha aytganda, nutq so'zlashdan ma'lum maqsad bo'lishi va bu maqsad amalga oshishi zarur. Buning uchun tinglovchilarga ta'sir o'tkazish, ta'sir o'tkazish uchun esa tildan foydalanishning ham, o'zini tutishning ham ta'sirchan vositalaridan foydalanish kerak bo'ladi.

«Har qanday o'qituvchi (muallim) ham notiq, zero, uning faoliyati o'z shogirdlariga nutq bilan murojaat etishdan iborat. O'qituvchi auditoriyaga kirar ekan, kasbi bilan bog'liq ma'lum maqsadga erishish, o'z xohish-istaklarini ro'yobga chiqarishga intiladi. Albatta, nutq so'zlar ekan u, avvalo, o'quvchi-talabalarga u yoki bu bilimni, ya'ni axborotni berishga intiladi. Lekin, ma'lumki, har qanday nutqiy muloqot u yoki bu ma'noda axborotni uzatish bilan bog'liq. O'qituvchi ma'ruza o'qishdan ko'zlagan maqsadining o'ziga xosligi nimada? O'zida bor bilimlar bilan o'rtoqlashish istagining paydo bo'lishiga nima turtki beradi? Umumiy tarzda ularni quyidagicha belgilash mumkin: avvalo, o'zgalardan o'z

³⁶ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: Akademiya, 2007, 63-6.

hamfikrlarini tayyorlash. Intellektual hamfikrlar talabalar auditoriyasida yoki olaylik, ilmiy anjuman-larda shakllanadi va professor bu joylarda ma'ruza o'qib ma'lum masala yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon etar ekan, talabalar yoki hamkasblarni o'z fikrlariga sherik qilishga intiladi. Bundan tashqari o'qituvchi-olim kasbi-ning asosini aqliy, jumladan, ilmiy faoliyat tashkil etadi. Ya'ni professor, avvalo, tadqiqotchi, pedagogik faoliyat esa uning ilmiy faoliyatining o'ziga xos davomidir. Aqliy faoliyat bilan doim mashg'ul bo'lgan kishi esa doimo intellektual qoniqmaslik holatida bo'ladi. Bu tabiiy hol, zero, inson fikrlarining to'g'ri ekanligidan shubhalangan taqdirdagina fikrlaydi. O'z fikr va g'oyalarini so'nggi haqiqat deya qabul qilgan va shubhadan to'xtagan kishi fikrlashdan ham to'xtaydi. Shuning uchun kasbi fikrlash bo'lgan o'qituvchi uchun qadim faylasuflardan birining: "men shubhalanayapman, demak, men yashayapman", - degan so'zlari o'ziga xos aqida vazifasini o'taydi³⁷.

O'qituvchining nutq madaniyati, muloqot xulqi nazariy asosda o'rganilgan tadqiqotlarning paydo bo'layotganini qo'llab-quvvatlash lozim. Masalan, Q.Rasulov «O'zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi» mavzuidagi tadqiqotida o'qituvchi muloqot xulqining funksional xususiyatlarini sosiolingvistik aspektda o'rgangan³⁸.

Tadqiqotchining qayd etishicha, «Insondagi o'zga-rishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, mulokot xulqida namoyon bo'ladi³⁹. Demak, ekologiya ijtimoiy muhitga, ijtimoiy muhit esa turli kasb egalari muloqot xulqiga ta'sir etadi.

³⁷ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: Akademiya, 2007, 66-67-б.

³⁸ Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол.фан.номз. дис.автореф. – Тошкент, 2008, 14-16-б.

³⁹ Мўминов С.Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. докт... дис.автореф. - Тошкент, 2000, 27-б.

Masalan: ... - o`quvchilarni surunkali tartibga chaqi-rish, ularning g`ala-g`ovurlarini bosib turish o`qituvchi-ning asablariga ta`sir qilib, uning muloqot xulqida, hatto mehmondorchilikka borganida xam bolalarning to`poloniga befarq bo`lolmaslik, to`polonchilarga «tek o`tir», «to`polon qilma» deb tanbeh berishlari kuzatiladi;

- alohida madaniyat yoki etika talab qilinadigan nufuzli idoralarda ishlaydiganlar muloqot xulqida hurmat bilan gapirish, tavozeni o`rinlatish, xushmuo-malalik xususiyatlari bo`rtib turadi»⁴⁰.

«O`qituvchining diqqat (e`tibor)i, asosan, o`quvchilarni nazorat qilishga qaratilgan bo`ladi. Bu psixologik pozi-siya o`qituvchi nutqida buyruq, tanbeh, nasihat kabi ohang-larni reallashtiradi va faqat o`qituvchiga xos jargonlar va professionalizmlarni hosil qiladi: «Dorskaga chiq!» yoki «Dorskaga!», «To`g`ri o`tir!» yoki «To`g`rilan!», «Oldinga qara!», «E`tibor bering!», «To`g`ri yoz!», «To`g`ri o`qi!», «Qo`lingni ko`tar!» kabi. Bunday so`z va iboralar boshqa ijtimoiy guruh vakillarining nutqida deyarli uchramay-di. Qo`llanganda ham o`qituvchi nutqidagi presuppozision semantikani bermaydi. Shu o`rinda birgina o`qituvchi sosiolektiga xos bo`lgan professionalizmlardan biri «Qo`lingni ko`tar!» birikmasini qiyosiy tahlil etib ko`raylik. Aslida qo`lni ko`tarish noverbal vosita hisoblanib, rasmiy yig`ilish (majlis yoki kengash)larda ovoz berish sifatida «roziman», «noroziman» yoki «betarafman» kabi informasiyani ifodalaydi. Dars jarayonida esa o`quvchi tomonidan ifoda etilgan qo`lni ko`tarish harakati nolisoniy vosita sifatida «Men aytay», «Men javob beray», «Men tayyorman» kabi situativ informasiyalarni beradi.

O`tkazilgan sosiologik tadqiqotlarimizdan ma`lum bo`lishicha, 80% o`qituvchi darsni o`ziga xos so`roq

⁴⁰ Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол.фан.номз. дис.автореф. – Тошкент, 2008, 12-13-б.

ma'nosidagi daromad bilan boshlaydi: «O'tgan darsimizda qanday mavzu bilan tanishgan edik?», «Biz sizlar bilan nima haqda gaplashgan edik?» kabi. Bundan tashqari, dars davomida «o'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib, ularni to'g'ri javob berishga asta-sekin o'rgatib boradi»². Bu harakat o'qituvchi nutqida «Xo'sh!», «O'ylab ko'raylik!», «Demak!», «Xullas!», «Aytaylik!» kabi kirish so'zlarni o'z-o'zidan hosil qiladi va o'quvchi diqqatini jalb etish uchun xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'qituvchi mimika, pantomimik, jestikulyasiya, kinesik va ko'z kontakti yordamida xam o'quvchilar bilan muloqotga kirishadi. Biroq noverbal vositalar ichida o'ziga xos informasiya beruvchi vositalar ham borki, ular o'quvchilarga muayyan axborotni yetkazadi. Masalan: o'tirgan stolini taqillatishi (bu harakat ruchka, ko'rsatkich va boshqa narsalar yordamida bo'lishi mumkin) - «Tinchlaning!», «Shovqin solmang!», «Quloq soling!», «Tushunib oling!» kabi axborotlardan birini uzatadi. Ba'zan bunday informasiyalar ko'z kontakti, ya'ni ko'z qarashi orqali ham ifodalanadi. Chunonchi, o'qituvchi nutqini to'xtatib, nigohini biror o'quvchiga alohida qadashi buyruq: «Gapir!», murojaat: «Sen!», ogohlan-tirish: «Gapirma!», olqish: «Barakalla!», tanbeh: «Jim o'tir!» va hokazo axborotlarni berishi mumkin. O'qituvchi o'zining qaysi ma'noda qarayotganini: «Halidan beri qarab-qarab qo'yyapman, o'zingn o'nglamayapsan-a?» kabi izoh bilan ham eslatib o'tishi mumkin»⁴¹.

«O'qituvchilar muloqot xulqida davrga xos xarakter, dunyoqarash sezilib turishi bilan birga, ularning o'zaro muloqotlari mavzu va mazmun jihatdan boshqa ijtimoiy soha vakillarining o'zaro muloqotlaridan keskin farq qilib, quyidagilardan iborat bo'ladi:

⁴¹ Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол.фан.номз. дис.автореф. – Тошкент, 2008, 14-15-б.

a) kommunikativ aktda ijtimoiy vazifasiga ko'ra o'qituvchilar nutq uslubining qay biridan qay tarzda foydalanishni auditoriyaga qarab belgilaydi;

b) kommunikativlik ma'rifiy va ma'naviy mazmundan iborat bo'ladi;

v) auditoriya uchun namuna ekanligini sezgan holda axloqiy chegarada qolishga harakat qilinadi;

g) nasihat, maslahat, tavsiya yoki tanbeh, jazo berishda otalarga o'xshaydi; auditoriyaga hukmronlik qiladi;

d) darsdan tashqari holatlarda kam o'qituvchi o'z kasbi doirasidagi muomaladan chiqib keta olmaydi.

Bularning barchasi o'qituvchi muloqot xulqi darajasi-ni, ya'ni o'qituvchi muloqot xulqining funksionallashuvi-ni ko'rsatib beradi»⁴².

O'qituvchi muloqot xulqida o'quvchilar bilan muomalasi jarayonidagi an'anaviylik (rasmiylik, ba'zan ortiqcha takror, bir xillik), ko'pincha, dars sifatiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi. Bunday jihatlarga darsni bir xilda boshlash, ya'ni har darsda bir xil so'z va birikmalar, jummalarni ishlatish, nasihatbozlik, ortiqcha tartibga chaqirishlar, asabiylashgan paytda o'zini yetarlicha boshqara olmasdan, nojo'ya so'zlarni qo'llash, nutqning bir xilda (monoton holatda) bo'lishi va boshqalar kiradi. Zamonaviy o'qituvchi muloqot xulqi bunday salbiy holatlardan xoli, jonli, rang-barang, betakror, qiziqarli, ta'sirchan, eng muhimi, fan asoslarini to'la bayon qilishga asoslanishi lozim.

O'qituvchining ta'lim jarayoni va jamoatchilik orasidagi nufuzi nihoyatda katta. Ularning suhbatlashish madaniyati jamiyatdagi yuqori nufuzini, obro'-e'tiborini yanada oshirishga xizmat qilishi lozim.

Tariximizdan hozirgacha yaratilgan ko'plab adabiyotlar-da muloqot madaniyati, suhbatlashish odobi to'g'risida nihoyatda

⁴² Расулов Қ.А. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол.фан.номз. дис.автореф. – Тошкент, 2008, 18-19-б.

foydali fikrlar va tavsiyalar bildirilgan. Ulardagi ayrim fikrlar bir-birini takrorlasa ham yuqori nutq madaniyati, nutq odobi, til ma'naviyati va ma'rifatini insonlar ongiga singdirishda munosib xizmat qila oladi. Masalan, professor B.O`rinboyevning qator tadqiqotlarida, xususan, «Suhbatlashish odobi» sar-lavhali maqolasida, jumladan, quyidagilar bildirilgan:

«Har bir kishining jamiyatdagi o`rni va mavqeyi, uning o`z atrofidagi insonlarga munosabati salomlashish, yurish-turish, ovqatlanish, suhbatlashish jarayonida, ayniqsa, ko`proq namoyon bo`ladi.

Har bir komil inson suhbatlashish odobi qoidalariga ham rioya qilishi lozim. Bizningcha, bu qoidalar quyidagi-lardan iborat deb hisoblaymiz:

1. Suhbatlashganda suhbatdoshingizni qiziqtiradigan mavzuga e'tiborini qaratishga intiling.

2. O`zingiz haqingizda kamroq gapiring. Har qanday qiziqarli suhbat davom ettirishga imkon bermaydigan ezma va laqmalarga ergashmang. O`zingiz o`qigan kitoblar, ko`rgan kinofilmlar, sport musobaqalari, go`zal tabiat manzaralari haqida gapirishga odatlaning.

3. Suhbatdoshingizni diqqat bilan tinglashga o`rganing. O`z gapi, hikoyasini tugatmasdan so`zini bo`lmang. So`zini oxirigacha eshitgach, suhbatdoshga e'tirozingizni bayon eting. Qanchalik diqqat va e'tibor bilan tinglashga erishsangiz, kishilar siz bilan suhbatlashishdan shuncha-lik zavq oladi.

4. Suhbatdoshingizga nisbatan baland ovozda gapirmaslikka harakat qiling. Chunki baqirok kishilarga nisbatan ovozini baland ko`tarmay me'yorida gapiruvchilarni suhbatdoshlar diqqat bilan tinglaydilar.

5. Suhbatdoshingiz sizning gapingizni bo`lsa, jim turib uning e'tirozini oxirigacha tinglang. Agar ikka-langiz ham baravar, gapirsangiz bir-biringiz nima deganingizni tushunmaysiz.

6. Suhbatdoshingizning ko`ziga qarab so`zlashing. Hyech vaqt uning qo`lidan, tugmasidan ushlab, yelkasiga qoqib fikringizni quloq solishiga intilmang. Suhbatdosh diq-qatini qo`l bilan emas, balki so`z bilan qaratishga intiling.

7. Suhbatlashish odobiga doir xalq maqollaridan o`rinli foydalaning...

Suhbatlashish odobining ana shu qoidalariga amal qilish har bir komil insoniylik burchidir»⁴³.

Muloqot madaniyati va mezoni sohasida faol tadqiqotlar olib borayotgan Siddiq Mo`minning «Muloqot mezoni» nomli kitobida «...tinglash xosiyatlaridan tor-tib, salomlashish, murojaat, talaffuz, tabassum, so`zning hayotbaxsh qudrati kabi xalq ma`naviyatining muhim qirralari haqida qiziqarli fikrlar» bildirilgan⁴⁴.

Tadqiqotchining yozishicha, 1. «...o`qish ham tinglashning bir ko`rinishi bo`lib, bu mehnat orqali kishi ko`p ulug` zotlar suhbatidan bahramand bo`ladi. Zero, tinglash ham kishidan sabr-qanoatni, chidam-bardoshni va o`ziga xos odob-axloqni talab etadigan xislatdir». «Siz kuyib-pishib gapirib turganingizda sigir ma`rab qolsa, sizga emas, sigirga qaraydigan odamga gap ta`sir qilmaydi...» (Abdulla Qahhor).

2. Qisqa va mazmunli so`zlash muloqot mezonining asosiy shartlaridan biridir. «Demak, inson har qanday sharoitda ham kerakli so`zlarnigina aytishi, tiliga ortiqcha erk bermasligi lozim. Zero, «Haqiqiy gapdonlik – kerakli hamma gapni aytish va keragidan ziyod hyech narsa demaslikdir» (D.de Laroshfuko).

3. Muloqot jarayonida «suhbatdosh shaxsiga e`tibor» ham muhim. «Ayollar nutqi erkaklar nutqidan har jihatdan: tovushlar ifodasi, lug`at tarkibi, gap qurilishi kabi tomonlardan

⁴³ Ўринбоев Б. Суҳбатлашиш одоби.//Ўзбек тилшунослиги масалалар. - Самарқанд, 2006, 26-27-б.

⁴⁴ Сиддиқ Мўмин. Мулоқот мезони. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004, 4-б.

sezilarli darajada farqlanib turadi. Erkaklar nutqi ham qisqa va lo'ndaligi, bosiq va qat'iy ohangda aytilishi va boshqa juda ko'p jihatlari bilan ayollar nutqidan farqlanadi.

«Kishilar bilan muloqotda so'zlovchi o'zining va suhbatdoshining yoshini inobatga olishi, ayniqsa, muhimdir».

4. «Inson qalbida kechadigan har qanday tuyg'u esa beixtiyor tilida ham zohir bo'ladi. ...». «Ha, «Hurmat qilsang, hurmat ko'rasan» deganlaridek, Sizga qanday muomala qilishlarini istasangiz (e'tibor berayapsizmi, shu yerda ham o'zingizni o'ylayapsiz), odamlar bilan shunday muomalada bo'ling. Shunday qilingki, Siz bilan muloqotda bo'layotgan kishi ozgina bo'lsa-da Sizdan o'zini ustun deb hisoblasin. Buning uchun so'nggi so'zni, hukm chiqarish huquqini uning ixtiyorida qoldiring».

5. «Insonning bu yorug' olamda qiladigan eng ulug' amallaridan biri – bu, o'zidan yaxshi nom qoldirishdir. «Mehr qolur, muhabbat qolur» deganlaridek, odamzotdan qoladigan eng ulug' meros faqat bitta – yaxshi va shirin SO'Zdir».

6. Suhbat salomlashish va murojaat qilishdan boshla-nadi. Murojaat qilish odobini unutmasligimiz zarur.

7. «Tilni tiymoq odoblariga baqirib-chaqirmaslik, so'z orqali birovning dilini og'ritmaslik va eng muhimi, gapirish zarur bo'lmagan paytda sukut qilishlik kabilar kiradi.

Aloqa – aralashuvda hatto sukut (jim turish, gapirmaslik) ham nolisoniy vosita sifatida ishtirok etadi va o'ziga xos muomalaviy mazmun ifodalaydi».

8. Muloqot jarayonida insonning chiroyi ochiq bo'lishi, tabassum bilan boqishi ham muhimdir.

9. «Ohang – so'z va gapning libosi bo'lsa, bu til va nutq birliklari qanday ifoda etilishiga ko'ra uning ma'no-lari o'zgarib turadi». «Gap so'zda emas, ohangda, qaysi so'zning qanday talaffuz etilishida» (V.G.Belinskiy).

«Ovozning shirali va yoqimli bo'lishi, ayniqsa, so'zlashuv nutqida muhim ahamiyat kasb etadi».

Yuqoridagilar va kitobda qayd etilgan boshqa jihat-lar muloqot jarayonlarining o`ziga xos mezonlari ekanli-gini ta`kidlagan Siddiq Mo`min har bir holatga hayotiy misollar, allomalarning fikrlari, turli hikoyatlar, maqol va hikmatli so`zlardan misollar keltiradi. Mazkur kitob muloqot mezonlarini o`rganish va ularga e`tiborli bo`lishda o`ziga xos muhim amaliy manba hisoblanadi⁴⁵.

Jamiyatdagi ijtimoiy muhit insonlar muloqot xulqi-ga bevosita ta`sir ko`rsatadi. Jamiyatdagi tinchlik, oso-yishtalik, barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot, ma`naviy-axloqiy muhit, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg`unligini ta`minlashga qaratilgan sa'y-harakatlar insonlarning, qaysi kasbda ishlashidan qat'iy nazar, muloqot jarayoni yuqori madaniyatli bo`lishiga xizmat qiladi.

Insonlar o`rtasidagi muloqot jarayoni samimiy, mada-niyatli, odob-axloq doirasida bo`lishi ularning bilim darajasi, tafakkur doirasi, dunyoqarashi, islohotlarga ijobiy munosabati, milliy qadriyatlar, urf-odatlardan unumli foydalanishi kabilarga ham bog`liq. Bunday fazilatlarni tarbiyalashning asosiy mas`uliyati, albatta, o`qituvchilar, pedagoglar, ustozlar, ota-onalar zimmasida-dir. Shuning uchun o`qituvchining muloqot madaniyati va nutq mahorati yuqori bo`lishi talab etiladi.

**Tayanch so`z va birikmalar:** Muloqot jarayoni, muloqot madaniyati, muloqot xulqi, o`qituvchi nutqi, nutq odobi, og`zaki nutq, yozma nutq. Qadriyat, urf-odat, so`zlashish odobi, monologik nutq, dialogik nutq, nutqning turlari.

Mavzuni mustahkamalash va takrorlash uchun savollar:

1. Nutqiy muomalani belgilovchi asosiy omillar to`g`risida ma'lumot bering.
2. Muloqotning til va tildan tashqari omillari nima?

⁴⁵ Қаранг: Сиддиқ Мўмин. Мулоқот мезони. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. – 111 б.

3. O`zbek nutqining o`ziga xos muloqot shakllari.
4. Og`zaki nutq turlari. Dialogik va monologik nutq haqida tushuncha.
5. Dialogik va monologik nutqning til xususiyatlari.
6. Kasbiy muomala odobi. O`qituvchining muloqot madaniyati nima?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-b.
3. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.
4. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan, 2007, 131-148-b.
5. Mahmudov N. Ma`rifat manzillari. – Toshkent, 1999, 52-b.
6. Mo`minov S.M. O`zbek muloqot xulqining ijtimoiylisoniy xususiyatlari: Filol.fan.d-ri... dis.avtoref. – Toshkent, 2000.
7. Siddiq Mo`min. Muloqot mezonl. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 111 b.
8. Iskandarova Sh. O`zbek nutqi odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. ...dis.avtoref. – Samarqand, 1993. 11-12-b.
- Махмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

9. Rasulov Q.A. O`zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi: Filol.fan.nomz. dis.avtoref. – Toshkent, 2008, 14-16-b.
10. O`rinboyev B. Suhbatlashish odobi. // O`zbek tilshunosligi masalalar. - Samarqand, 2006, 26-27-b.
11. Tojiyev Yo., Mallaboyev M. O`zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari (ommabop qo`llanma). 1-qism. – Toshkent. 2006, 8-b.
12. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev G`. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Fan, 1992.
13. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.
14. Abdusaidov A. Matbuot tili madaniyati. - Samarqand, 2004. – 96 b.
15. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til ma`naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta`sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008.
16. Абдусайдов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

4-mavzu: O`QITUVCHI NUTQI VA ADABIY ME`YO`R

Reja:

1. Til tushunchasi.
2. Me`yor tushunchasi.
3. O`zbek adabiy tili me`yoriy ko`rinishlari.
5. Nutq jarayonida me`yorning buzilishi va ularni tuzatish yo`llari.
6. O`zbek tilining hozirgi me`yoriy holati uning madaniylik mezonini ekanligi.

Til tushunchasi

Tilshunoslik fanining tadqiqot obyekti bo`lgan til jamiyat mahsuli, jamiyat quroli sifatida o`z ta`rifiga, tavsifiga, mantiqiy izohiga ega. Bu – tabiiy. Chunki ta`riflanishi zarur bo`lgan ushbu ijtimoiy hodisa taraqqiyot mezonini, hayot ko`zgusi sifatida, millat ruhiy tarix tarjimoni sifatida jamiyatga xizmat qilib kelmoqda. Demak, jamiyat va til tushunchalari o`zaro ajralmas-dialektik bog`liq bo`lib, ular mantiqan biri ikkinchisini to`ldiradi, biri ikkinchisiz mavjud bo`lmaydi, biri ikkinchisiga faol xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, jamiyatning mavjudligi tilning mavjudligini, tilning mavjudligi esa jamiyatning mavjudligini talab qiladi. Shunga ko`ra jamiyat tushunchasi qay darajada o`z ta`rifiga ega bo`lsa, til tushunchasi ham shu darajada o`z ta`rifiga, tavsifiga egadir.

Tilshunoslik tarixida ham, hozirda ham tilning ta`rifi masalasiga alohida e`tibor qaratilgan va qaratilmoqda.

Ma`lumki, tilshunoslik tarixida qator lisoniy (lingvistik) maktablar, oqimlar, yo`nalishlar bo`lib, bular ichida, ayniqsa, hind, yunon va arab tilshunoslik maktablari alohida o`rin egallaydi.

Arab tilshunoslik maktabining til masalalaridagi ulkan xizmatlari dunyo tilshunosligida tan olingan bo`lib, bunda, ma`lumki, O`rta Osiyolik allomalarning - kelib chiqishi eroniy

xalqlardan bo'lgan Xalil ibn Ahmad, Sibavayx Albasriy, turkiylardan Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqalarning xizmatlari alohida yuksak qadrlanadi, e'tirof etiladi. Jumladan, til masalalariga jiddiy e'tibor bergan buyuk allomalardan biri Alisher Navoiy hazratlari tilning kishilar orasidagi aloqa ehtiyoji nattijasida paydo bo'lganini, so'zlash qobiliyati insonga alloh tomonidan berilganligini, ammo so'zlarni inson-ning o'zi yaratgani, nutqniig quroli til ekanligini alohida qayd etadi.

Umumiy nazariy tilshunoslikning asoschisi, til ilmining buyuk bilimdoni yevropalik Vilgelm fon Gumboldt til masalalariga - tilning ta'rifi muammosi-ga alohida jiddiy ahamiyat bergan. V.fon Gumboldt tilni doimiy taraqqiyotda, rivojlanishda, o'zgarishda oladi va undagi o'zgarishlarni, taraqqiyotni, rivojlanish-ni bevosita, mutlaqo haqli ravishda, jamiyat bilan bog'liq holda ta'riflaydi. Shunga ko'ra Gumboldt har bir xalq-ning tilida shu xalqning tarixini, madaniyatini, ma'na-viyatini, umuman, uning butun ma'naviy-ruhiy dunyosining namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Tilshunoslik tarixida V. fon Gumboldt, Bodu-en de Kurtenelar bilan bir qatorda turuvchi ulkan tilshunos-lardan yana biri shveysariyalik fransuz Ferdinand de Sossyurdir.

Ferdinand de Sossyur fikricha, til va nutq o'rtasida mutlaq qarama-qarshilik mavjud bo'lib, shunga ko'ra til lingvistikasi va nutq lingvistikasi kabi ikkita fan bo'livsh kerak. Albatta, bu mubolag'a bo'lib, tilshunoslik fani til va nutqni dialektik munosabatda, bog'liqlikda o'rganadi.

Til nihoyatda murakkab va ko'p tarmoqli, ko'p qirrali hodisa bo'lganligiga va uning qaysi jihatlari ajratili-shi, yoritilishi lozimligiga kura u turli nuqtai nazardan ta'riflanadi, tavsiflanadi. Boshqacha aytganda:

1. Vazifa nuqtai nazaridan til kishilarning o'zaro fikr almashish vositasi, shuningdek, fikrni shakllan-tirish, ifodalash va o'zgalarga yetkazish qurolidir.

2. Tuzilishi, tashkil topishi nutqai nazaridan til muayyan

birliklarning jami va ulardan foydalanish, ularni o`zaro mantiqiy aloqaga kiritish qoidalaridir.

3. Mavjudligi nuqtai nazaridan til ijtimoiy hodisa, ijtimoiy mahsulot sifatida qayd etiladi.

4. Semiotika nuqtai nazaridan til belgilar sistemasi bo`lib, moddiy birliklardan – fonemalardan tashkil topa-di. Ushbu fonemalarning barqaror birikishlari o`zidan tashqaridagi muayyan predmet-hodisani (nimanidir) anglatish, bildirish xususiyatiga ega bo`ladi.

5. Informasiya nazariyasiga ko`ra til kod bo`lib, uning yordamida, u orqali semantik informasiya (axborot, xabar, ma`lumot) kodlashtiriladi, muayyan shartli belgilarga "joylashtiriladi" va boshqalar.

Tilga turli nuqtai nazardan berilgan ta`riflar ichida, shakshubhasiz, til jamiyatning-jamiyat a`zolari-ning eng muhim va eng asosiy aloqa vositasidir, qurolidir, degan ta`rif yetakchilik qiladi. Chunki ushbu ta`rifdan ikkita eng muhim g`oya kelib chiqadiki, ayni g`oya tilning butun mohiyatini, jamiyatdagi o`rnini, jamiyat taraqqiyotidagi qudratini, quvvatini, moddiy hodisa sifatidagi ahamiyati kabilarni qamrab oladi. Bu g`oyalar:

1. Til o`zaro aloqaning, fikr almashishning eng muhim, eng asosiy, eng ta`sirchan vositasidir.

2. Til o`zaro aloqaning insonlar-jamiyat bilangina bog`liq shakli, ko`rinishidir.

Ma`lmki, tilning jamiyatda aloqa quroli rolini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qila-di. Tilning muayyan xabar, darak ifodalab, ta`sir qilishi esa uning ekspressiv vazifasi hisoblanadi. Ekspressiv vazifa muayyan xabar ifodalash va tinglovchiga yetkazish kabi informativ vazifani hamda his-hayajon, hissiyot (emosiya) ifodalash kabi emotiv vazifani ham o`z ichiga oladi. Shuningdek, til biror istak, xohish bildirish vazifasini-volyuntativ funksiyani ham bajradi. Tilning xabar, sezgi, his-hayajon, xohish-istak

ifodalash va ularni tinglovchilarga «berish», yetkazish - bular birgalikda til-ning ekspressiv jihatini - vazifasini tashkil qiladi.

Ayni vaqtda til millatlararo aloqa vositasi, tajriba va bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazish quroli ham bo`lib, bu jarayonlar tilning akkumulyativ (to`plash, yig`ish) vazifasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi, ayni vaqtda, uning gnoseologik (bilish jarayoni) funktsiya-si deb ham yuritiladi.

Xullas, til jamiyatning aloqa quroli sifatida nutq tovushlaridan, ularning o`zaro bog`lanishidan hosil bo`ladigan so`zlardan, grammatik vositalardan va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish qoidalaridan tashkil topgan ijtimoiy-tarixiy, madaniy va mantiqiy sistema-dir, ma`naviyat belgisidir⁴⁶.

Til va nutq

Til va nutq dialektikasi nazariy tilshunoslikning, shuningdek, amaliy tilshunoslikning hamda psixologiya, falsafa, mantiq kabi fanlarning ham muhim va murakkab muammolaridai biri bo`lib, ayni masala jahon tilshunosligining doimiy diqqat markazida turgan va hozirda ham shunday.

XX asr tilshunosligining - sistem tilshunoslikning bosh, asosiy mezonini til va nutq munosabati, til va nutq hodisalarini, birliklarini farqlash bo`ldi. Ushbu muammo tarixiga nazar tashlasak, prof. H.Ne`matovning ma`lumot berishicha, til va nutq hodisalarini o`zaro farq-lash dastlab VII-IX asrlarda shakllangan arab tilshunosligining til o`rganish usullarida ko`rish mumkin. Prof.A.Nurmonovning tadqiqotida esa temuriylar davri o`zbek tilshunosligining sardori bo`lgan Alisher Navoiy asarlarida til va nutq hodisalari farqlangani, alloma shu masalaga alohida e`tibor bergani qayd etiladi.³

⁴⁶ Мавзуни ёритишда куйидаги манбадан фойдаландик: Расулов Р. Умумий тилшунослик – Тошкент, 2006, 13-18-б.

Ta'kidlash shart, til va nutq dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy-nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand de Sossyur asarlarida topdi.

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida faoiyat ko'rsatadi. Demak, F.de Sossyur mutlaq to'g'ri ta'kidlaganidek, til sistemadir. Til sistemasi-ning bir-biri bilan uzviy bog'langan tovush tomoni, lug'at tarkibi, grammatik qurilishi mavjud bo'lib, ular birgalikda bir butunlikni, sistemani tashkil qiladi.

Demak, til sistemalar sistemasi – supersistema, makrosistema sifatida jamiyatga xizmat qiladi, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi, ijtimoiy-amaliy vazifa bajaradi.

Tilning ijtimoiy mohiyati jpaamiyatda aloqa-aralashuv quroli bo'lishida ko'rinadi.

Ijtimoiy-psixik jarayon bo'lgan til o'zining jamiyat-dagi kommunikativ - umuman har qanday vazifasini nutq shaklida, nutq, ko'rinishida, nutq orqali amalga oshiradi. Nutq til sistemasining so'zlashuv, fikr almashuv jarayonidagi yoki yozuvdagi - matndagi muayyan ifodasidir, ko'rinishidir, holatidir. Shunga kura S.Usmonov "Til qachon ma'lum funksiyani bajarishi mumkin? Til nugq sifatida namoyon bo'lgandagina ma'lum funksiyani bajari-shi mumkin", deydi. Miyamizda (ongimizda) obyektiv olamning ta'siri tufayli hosil bo'lgan tushunchalar, tasavvurlar, turli xil fikrlar, demak, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan til (nutq) orqali voqyelashadi. Yana ham aniqrog'i, har qanday fikrni ifodalash, boshqalar bilan aloqada bo'lish, faqat til materiali orqali amalga oshadigan real, jonli nutq jarayonida sodir bo'ladi. Til aloqa quroli, insonlar orasidagi munosabat vositasi deb baholanganida til materialiga asoslangan... nutq ko'zda tutiladi.

Til va nutq o'rtasidagi bog'liqlik, o'zaro aloqadorlik yana quyidagilardan ham ma'lum bo'ladi. Til nutq asosida tashkil topadi va nutq orqali reallashadi. Til bir vaqt-ning o'zida ham

asos, ham nutq mahsuli. Til aloqa uchun material bersa, nutq shu materialdan fikr shakllan-tirishdir.

Bizningcha ham, nutq sistemadir, sistem xarakterga egadir. Ammo u tilga nisbagan ikkinchi darajali sistema bo`lib, til sistemasiga asoslanadi, undan imkoniyat sifa-tida foydalanadi. Til sistemasi asosida nutqiy sistema, nutq faoliyati, fikrniip ifodalash sistemasi yuzaga keladi.

Tilning yashashi, mavjudligi, taraqqiyoti nutq orqali buladi. Masalan, men o`z nutqimda o`zbek tilidan foyda-lanib gapiryapman, demak, bu o`zbek tilining mavjudligi, uning yashayotganligidir. Demak, tilning har bir aniq ko`rinishi real nutqdir, nutq faoliyatidir.

Til inson xotirasida mavjud lisoniy (lingvistik) birliklardan va qoidalardan iborat xazinadir. Nutq esa ushbu birliklarning muayyan qoidalar asosidagi faol harakati, muayyan ijtimoiy vazifa bajarishi, ya`ni nutq jarayondir, amaliyotdir. Til ham, iutq ham ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy xarakterga ega bo`lgan til va nutq biri ikkinchisi orqali amalga oshadi, ya`ni til nutq orqali, nutq esa til orqali voqyelashadi, namoyon buladi.

Til va nutq o`zaro aloqador, bir-biri bilan bog`liq, biri ikkinchisisiz mavjud bo`lmaydigan, ammo bir-biridan farqli bo`lgan ijtimoiy hodisalardir.

Til mavhumdir, nugq esa aniqdir, ya`ni nutqni eshitamiz, akustik qabul qilamiz va ko`ramiz (matnda). Nutq doimo aniq bo`lib, muayyan o`rinda (joyda) va muayyan vaqtda yuz beradi. Nutq so`zlovchining, tinglovchining va predmetning – fikr yuritilayotgan predmetning mavjud bo`lishini talab qiladi.

Nutq - alohida shaxsga, individga bog`liq, Til esa alohida shaxsga, individga bog`liq emas.

Tilning ijodkori, yaratuvchisi xalq, A.A.Potebnya aytganidek, til xalqning mahsulidir. Nutqning esa ijodkori individdir, insondir.

Nutq baland va past, tez yoki sekin, uzun yoki qisqa, mimikali yoki mimikasiz, qo`l harakati bilan (jest) yoki qo`l

harakatisiz, aniq yoki noaniq bo'lishi mumkin, tilga bunday ta'rif-tavsif to'g'ri kelmaydi.

Nutq ham monologik, ham dialogik bo'la oladi. Til esa monologik ham, dialogik ham bo'la olmaydi.

Til - aloqa quroli, nutq - aloqa usuli.

Til - imkoniyat, nutq - voqyelik, ta'sirchanlik.

Til - umumiylik, nutq - xususiylik, alohidalik.

Nutq kelib chiqishiga ko'ra birlamchi, ya'ni oldin nutq - nutq tovushlari paydo bo'lgan, til esa ikkilamchi, nutq asosida shakllangan, tashkil topgan.

Til tahlil qilish yo'li orqali, nutq esa qabul qilish va tushunish orqali bilinadi.

Tilning hayoti uzoq, xalqning hayoti bilan bog'liq, nutqning hayoti esa qisqa, ya'ni aytilgan vaqtdagina mavjud.

Tilning alohida vazifasi bo'lgan nutq psixologiya, tilshunoslik (uslubshunoslik, nutq madaniyati va b.), fiziologiya (nutq apparatining tuzilishini o'rganadi), informasiya nazariyasi va boshqa fanlar tomonidan tekshiriladi.

Til - tilshunoslik, falsafa, mantiq, tarix, semiotika va boshqa fanlar tomonidan o'rganiladi.

Til va nutq orasidagi dialektik munosabat shundaki, nutq faoliyati natijasida nutq shakllanadi. Nutq esa til birliklaridan tuziladi va til birliklariga ajralib ketadi. Til birliklari yana nutq faoliyati - faolligi uchun xizmat qiladi⁴⁷.

Ma'lumki, «Til madaniyati, deganda, ana shu tildagi ifoda vositalarining ongli aralashish natijasida, hamma tushunadigan va qo'llay oladigan darajaga keltirilgan-ligi, ma'lum davr uchun mosligi, ishlatilish qonun-qoidalari va me'yorlarining qay darajada aniq va mukammal ishlanganligi, sayqal topganligi tushuniladi. Boshqacha aytganda, til madaniyati deganda, til birliklari (ajdodlar tomonidan ishlatishga to'la yaroqli holga keltirib qo'yilgan ifoda vositalari: tovushlar, so'zlar, qo'shimchalar, qoliplar kabilar) va ular imkoniyatlari

⁴⁷ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент, 2006, 19-25-б.

taraqqiyotining, ular o`rtasidagi o`zaro munosabatlar hamda shu munosabatlarni ta`minlovchi qoidalarining ishlanish darajasi tushuniladi». «Qaysi tilda bu qonun-qoidalar past darajada ishlangan bo`lsa, o`sha tilni madaniy til sifatida baholab bo`lmaydi. Til madaniyati-ning pastligi esa, oxir-oqibatda shu til vakillari nutq madaniyatining ham past bo`lishi uchun sabab bo`ladi»⁴⁸.

Nutq madaniyati tushunchasi

Madaniyat tushunchasi nihoyatda keng bo`lib, u jamiyat hayoti va faoliyati bilan bog`liq bo`lgan deyarli barcha jarayonlarni, yo`nalishlarni, hodisalarni qamrab oladi.

Nutq madaniyati jamiyat hayotining, jamiyat madaniyati-ning o`ta muhim, ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeyligi, ko`rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomila, so`zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o`z ichiga oladi, ularni “boshqaradigan”, ular orqali voqeylikka aylanadi, ta`sir qilish quvvatiga ega bo`ladi.

Demak, nutq madaniyati nutq bilan, nutq faoliyati bi-
lan bevosita bog`liq ekan, til nima, nutq nima degan savol-larning kelib chiqishi mutlaqo tabiiy va mantiqiydir.

Til va nutq o`zaro dialektik bog`liq ijtimoiy-tari-xiy, ijtimoiy-psixik hodisalar bo`lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir.

Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imko-niyatlarining obe`ktiv bog`liq, tafakkur hamda vaziyat bilan o`zaro zaruriy, domiy munosabatda namoyon bo`lishidir. Nutq bu rasmiy tildir. U keng ma`noda so`z-lardan, so`z birikmalari va gaplardan tashkil topadi.

⁴⁸ Тожиев Ё., Маллабоев М. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари (оммабоп қўлланма). 1-қисм. – Тошкент, 2006, 8-б.

Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan aloqa-dor tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va ma'naviyatini belgilovchi etik va estetik kategoriyadir, hodisadir.

Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy ko'tarish, odamlarga ma'lum "til didi"ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir.

Nutq madaniyati termini tilshunoslikda uch xil hodisani ifoda etadi:

1. Madaniy nutqning, ya'ni nutqiy hodisaning nomi.
 2. Madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq va nutq madaniyati deb yuritiluvchi ilmiy muammoning nomi.
 3. Nutq madaniyati muammolarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi sohaning, tilshunoslik fani bo'limining nomi.
- Keltirilgan uchta hodisaning har biri murakkab ko'rinishlariga, qirralariga ega, ularni bir-biri bilan qorishtirmaslik lozim.

Shunday qilib:

1. Nutq madaniyati adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri.
2. Nutq madaniyati (til madaniyati) - bu adabiy til yordamlashishidan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivo-jiga ongli aralashuvdir (Praganing lingvistik maktabi).
3. Nutq madaniyati tilni, uning qonun-qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, foydali nutq tuza olish mahoratidir.
4. Nutq madaniyati kishilarning o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashidan iboratdir.
5. Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlilik hamda nutqiy chechanlik hamdir.
6. Nutq madaniyati til vositalarida o'rinli foydalan-gan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir.

7. Nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir.

8. Milliy o`ziga xosligi bilan ham ajralib turuvchi nutq madaniy nutqdir.

Nutq madaniyati tilni - aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo`lgan munosabatdir. Til vakillarida bu noyob qurolning imkoniyatlariga munosabat, uni ishlatishdagi omillar: tafakkur, ong, borliq, turli vaziyat va holatlar, maqsadga bo`lgan munosabat qanchalik yuqori saviyada bo`lsa, nutq madaniyati ham shunchalik yuqori saviyada bo`ladi. Aksincha bo`lsachi, unda nutq madaniyati ham past saviyada ham bo`lishi muqarrar.

Nutq o`ziga xos xususiyatlarga ega. U ma`lum aloqani ta`minlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon esa suhbatdoshning shaxsi, yoshi, mavqeyi, bilim darajasi va vaziyat bilan bog`liq. Bu haqda tilshunos olimlarning fikrlari e`tiborlidir. Masalan, professor B.O`rinboyev «Nutq va notiqlik san`ati» nomli maqolasida quyidagi-larni bildiradi: «Har bir nutq ma`lum maqsad bilan so`zlanib, o`z g`oyaviy yo`nalishiga va estetik kuchga egadir. Bu xususiyatlar nutqning tashqi xarakteriga xosdir.

Ba`zan so`zlashuvchining o`ziga qaratilgan, talaffuz etilmaydigan nutq ham bo`ladi. Bunda so`zlovchi o`zi bilan gaplashadi. Bunday nutq intellektual, bog`lanishli nutq xarakterida bo`lishi mumkin.

Nutqning turli tiplari uning qo`llanish doirasi va sosiolingvistik tegishliligi bilan belgilanadi. Til birliklaridan qanday tarzda va qaysi sistema asosida foydalanishga qarab nutq ogzaki va yozma shaklda bo`ladi.

Til vositasida u yoki bu sharoitda aloqa qilish va turli kommunikativ maqsadni amalga oshirish mumkin. Shunga ko`ra, nutq bir necha xil bo`ladi: kundalik nutq, ishchan nutq, tantanavor nutq, dialektal nutq, poetik, odobiy so`zlashuv nutqi, professional nutq, ommaviy nutq, so`zlashuv nutqi, sahnaviy nutq, badiiy nutq, folklor nutqi, obraz nutqi, muallif nutqi, personaj nutqi kabilar. Nutq qanday ko`rinishda bo`lishidan

qat'iy nazar o'zining ma'lum xususiyatlariga egadir. Bular quyidagi-lardan iborat:

1. Nutq agogikasi. Bunda o'qiladigan yoki gapiriladi-gan matnning emosional, intellektual mazmuni, ritmik qurilishi yoki tempi hisobga olinadi.

2. Har bir nutqda o'zining harakati bo'lib, bunda nutqning ritmik-sintaktik tomondan shakllanishida paydo bo'luvchi davrning dinamik xususiyati nazarda tutiladi. Nutq harakati uning tempini ham belgilab beradi. Nutqning tempi tez bo'lsa, nutqdagi so'zlarda reduksiya hodisasi yuz beradi. Nutq tempi sekin bo'lsa, so'zlar to'liq shaklda keladi. Nutq ham kichik-kichik bo'laklarga ajraladi.

3. Nutq tildan farqli holda o'z birligiga egadir. Tabiiy qonuniyat asosida nutq oqimida paydo bo'luvchi bo'g'in, so'z, so'z birikmasi va gap nutq birligi sanaladi. Nutq birliklari intonasiya va pauzalardan to'g'ri foydalana bilish orqaligina ajraladi.

4. Nutq elementlari ketma-ket joylashtiriladi. Ketma-ket joylashtirilgan nutq elementlari davr nuqtai nazaridan turli davrlilikni ifodalaydi. Bunga nutq yo'nalishi deb ataladi. Tilning nutqdan farqli tomoni shundaki, til sistemasida bir davrlilik mavjuddir. Turli davrlilikni ifodalovchi nutq o'z momentiga egadir. Keyingi fikr mazmuniga ta'sir etishi nuqtai nazaridan paydo bo'ladigan shart-sharoit nutq momenti deyiladi.

5. Nutq momenti ta'sirida nutqiy muomalada amalga oshiriladigan sharoit nutq situatsiyasi deyiladi. Ko'pincha, ma'lum nutqiy sferada til uslublari tipik qo'llash uchun harakat qilinadi. Bunga nutq uslubi deyiladi. Nutq uslubi: poetik nutq uslubi, kitobiy nutq uslubi, oddiy so'zlashuv nutq uslubi, so'zlashuv nutq uslubi kabilarga ajratiladi. To'liq nutq uslubi hyech bir kamchilikka ega bo'lmagan nutq haqida nutq madaniyati bahs etadi.

Aloqa vositasi bo'lgan tilda qonunlashtirilgan orfoepiya, so'z qo'llash va boshqa qoidalarga mos ravishda individual

soʻzlashuvda eng yaxshi anʼanalarga amal qilish nutq madaniyati sanaladi. Nutq madaniyatining saviyasi tilning orfoepik, grammatik, leksik, stilistik normalaridan toʻgʻri foydalana bilishdadir.

Nutqning orfoepik madaniyati til materialini toʻgʻri, ifodali talaffuz qilish bilan bogʻliqdir. Nutqning ifodaliligiga soʻzni aniq va yorqin ifoda qilish, intonasiya va pauzalardan toʻgʻri foydalanish orqaligina erishiladi.

Lugʻat madaniyati individual lugʻatning faol kengayib borishini, soʻzlarning toʻgʻri va koʻchma maʼnolarining ahamiyati ortib borishini koʻzda tutadi. Sinonimlar, omonimlar va antonimlardan toʻgʻri foydalanish, atama(termin)lar va ularni toʻgʻri tatbiq etish, chet el soʻzlarini bilish va ularni oʻz oʻrnida toʻgʻri ishlatish, soʻzlarni toʻgʻri tanlash, ularning maʼnolarini eʼtiborga olish, soʻzlar va koʻchma maʼnodagi iboralardan hamda obrazli ifodalardan foydalana bilish nutqning badiiy-ligini oshiradi. Koʻchma maʼnoda ishlatiladigan soʻzlar, oʻxshatish, epitet, istiora, metonimiya, sinekdoxa va boshqalar shular jumlasidandir.

Bunda notiq til madaniyatidan toʻgʻri foydalana olishi kerak. Baʼzan oʻz nutqini toʻgʻri tashkil eta olmaslik, badiiy ifodaning mavjud qoidalarini buzish, nutq soʻzlashda maʼlum vaziyatni hisobga olmaslik hollari uchrab turadi. Bunga asosiy sabablardan biri nutqda til madaniyati, psixologiyasi va kommunikasiyasini bir-biridan farqlay olmaslikdir. Bundan tashqari, nutqni mantiqan toʻgʻri tuza olmaslik, ishchanlik ruhining yetishmasligi, ishontirolmaslik, hayotni roʻy-rost aks ettira olmaslik faktlari uchrab turadi. Ana shu xususiyatlarni toʻgʻri farqlay olgandagina notiq oʻz nutqini maʼlum maqsadga yoʻnaltira oladi.

Nutqning grammatik shakli va sintaktik madaniyati, avvalo, normativ grammatika qoidalariga rioya qilishda, grammatik shakllarni toʻgʻri qoʻllashda, kelishiklar, soʻzlar va birikmalardan toʻgʻri foydalanishga bogʻliq. Soʻz

birikmalarining soddaligi va aniqligiga qat'iy rioya qilish zarur. Sodda, tushunarli gapirish uchun esa ellipsis, takror, ritorik so'roq, ritorik murojaat, xitob, gradasiya, antiteza, sintaktik parallelizm kabi maxsus stilistik usullardan foydalana olish kerak. Bu xil masalalarni o'rganish umumiy nutq madaniyatini oshirish-da katta amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, nutq san'atini shakllantirish uchun ham muhim omildir»⁴⁹.

2. Me'yor tushunchasi⁵⁰

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklari-ning nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Me'yor - tilning yashash shaklidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususi me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori⁵¹.

⁴⁹ Ўринбоев Б. Нутқ ва нотиклик санъати.//Ўзбек тилшунослиги масалалар. - Самарқанд, 2006, 29-31-б.

⁵⁰ Мазкур мавзуни ёритишда асосан куйидаги дарслик материалларидан фойдаланилди: Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, 2004.

⁵¹ Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов К. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 15-б.

Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalari, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalari-ning nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Tildagi me'yoriy muammolarni, qiyinchiliklarni qisqa muddatda hal qilishning imkoni yo'q. 1989 yilda O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni qabul qilinishini katta voqea bo'ldi. Ammo uning hamma moddalarini birdaniga va tezlikda bajarishning imkoni bo'lmadi. O'sha paytda qonuniy bo'lmas-da, amaldagi ish yuritish tili rus tili ekanligi, bir qism o'zbek millatiga mansub kishilarning sharoit taqozosi bilan rus tilida savod chiqarganligi, farzandlarini ham bog'chalar va maktablarda ana shu tilda ta'lim-tarbiya olishga jalb qilganligi ana shunday tabiiy to'siqlardan bo'lib turdi. Oqibatda ma'lum muddat muomala jarayonida, rasmiy ish qog'ozlarini yuritishda, turli darajadagi anjumanlarni o'tkazishda rus tilidan foydalanishdagi mavjud an'analar o'z kuchini saqlab turdi.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirili-shi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo,

fikrimizcha, bir narsa ma'lum - tilning amalda bo'lish holatlariga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Lekin tegishli yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar berib borilishi zarur.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada ham tildan foydalanish me'yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqlol g'oyasi talablarini to'la bajarish, yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirok-chisiga aylantirish, yoshlarimizni erkin, yangicha fikr-lashga o'rgatishga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanaladi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi.

Til elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermaydi. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan

o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Har qanday til me'yorlarini ikki guruhga – umumiy va xususiy me'yorlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xususiylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashi-ladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuini anglaymiz. «Umumiy norma tushuncha-si o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi»⁵².

«O'zbek tili leksikologiyasi» kitobida bu kabi keng iste'moldagi so'zlarning barcha so'z turkumlarida uchrashi qayd qilib o'tilgan. Masalan otlarda – *daryo, suv, osmon, yer, tosh, tog', bog', daraxt, uy, devor, ko'cha, vodiy, sahro, qum* kabi; sifatlarda – *oq, qizil, sariq, qora, katta, kichik, keng, tor, uzun, qisqa, chiroyli, aqlli, dono, barno* kabi; sonlarda – *bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million* kabi; olmoshlarda – *u, bu, shu, ana, mana, siz, biz* kabi; fe'llarda – *bor, kel, ket, yur, tur, o'tir, uxla, yot, ayt, qo'y, o't* kabi; ravishlarda – *tez, sekin, oz, kam, ko'p* kabi;

⁵² Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, II қисм. – Тошкент, 1998, 78-б.

bog'lovchilarda – *va, ham, ammo, lekin, biroq, goh, yoki, yoinki* kabi; yuklamalarda – *-u, -ku, -da, -yu* kabi; undovlarda – *oh, voh, voy, dod, uh, ura* kabi⁵³.

Keltirilgan soʻzlar adabiy tilda ham, tilning noadabiy shakli – umumxalq tili doirasida qaraladigan lahja va soʻzlashuv nutqida ham qoʻllanilaveradi. Bu esa ana shu til vositalarini bir tilning umumiy meʼyorlari qurshovida qarashga asos boʻladi.

Xususiyl meʼyor maʼlum til umumiy meʼyorlarining yashash shaklidir. Shunday ekan, yuqorida sanab oʻtilgan oʻzbek adabiy tili, lahja va shevalari hamda ijtimoiy tarmoqlarining meʼyori xususiyl meʼyor sanaladi. Xususiyl meʼyorlarni yanada aniqroq tasavvur qiladigan boʻlsak, har bir shaxsning tildan foydalanish meʼyorini ham, oʻzbek tilida mavjud boʻlgan beshta – rasmiyl, ilmiyl, publisistik, badiiyl, soʻzlashuv uslublari doirasida amal qiladigan meʼyorlarni ham xususiyl meʼyorlar deb tushunishimizga toʻgʻri keladi.

Adabiy til esa umumxalq tilining yashash shakllaridan biri boʻlib, uning boshqa koʻrinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga moʻljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaati va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning oʻziga xos xususiylati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati koʻp boʻlib, ular orasida meʼyoriyl markaziyl oʻrinda turadi. Oʻzbek adabiy tilining oʻzbek xalqi uchun umummajburiyligi, koʻpvazifaliligi va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xusu-siyatlarning birontasi meʼyoriylsiz amalga oshmaydi.

Adabiy tilning meʼyoriyligi umumxalq tilining boshqa xususiyl meʼyorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifati-da quyidagilarni koʻrsatish mumkin: kodifikasiyalangan-lik – ongli aralashuv yoʻli bilan

⁵³ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981, 11-12-б.

tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anglanganlik, egal-langanlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviy-lik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantli-lik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obe'ktivlik kabilar.

Me'yorlar haqida gap ketganda, ko'pincha, «ongli tanlash» tushunchasi esga olinadi. Tildagi elementlarning me'yorlashuvida tanlashning ahamiyati katta, albatta. Jamiyat a'zolari orasida bu jarayon xuddi tabiiy tanlanish singari amalga oshiriladi, lekin u ong yordamida boshqariladi. Kishilar nutq jarayonida o'zlari uchun tushunarli, muddaosini, fikr-mulohazalarini ma'qul tarzda ifodalay oladigan, hatto talaffuzda ham qulay bo'lgan variantlarni tanlab ishlata boshlaydilar va bu variant asta-sekinlik bilan me'yoriy ko'rinish sifatida e'tirof etiladi.

Tanlanish uchun variantlar bo'lishi lozim. Ammo variantlarning paydo bo'lishi til taraqqiyotida ma'lum vaqtning o'tishini taqozo qiladi. Demak, ungacha, haqiqiy ma'noda me'yorlashgunga qadar til birliklari nutqda yana qandaydir bosqichlarni bosib o'tadi va tanlanish jarayoni tilning me'yorlashuvida keyingi bosqichlardan biri sanaladi.

Nutq jarayonidagi odat va ko'nikmalarni ana shunday bosqichlar deb tushunsak to'g'ri bo'ladi. Chunki ma'lum predmet yoki tushunchaning ifodasi, atamasi bo'lgan birlik tilda paydo bo'lar ekan, undan foydalanishga til vakillari dastlab o'rganishi, odatlanishi lozim. Bu birliklarni qanday talaffuz qilishdan tortib, u anglatgan ma'noni fahmlash, anglab yetishgacha bo'lgan jarayon yuz berishi kerak. Shunday ekan, kishi ongi va amaliyotida til birligi me'yorlashishining birinchi bosqichi odatlanish bo'lib hisoblanadi. Bu elementlar tinimsiz, takror-takror ishlatilaverishi oqibatida jamoa orasida ko'nikma hosil bo'ladi. Ko'nikmalar esa me'yorlashishni bir qadar

mustahkamlaydi, deb bemaolol aytish mumkin. Ana shuning uchun ham tanlash imkoniyati tilning amalda bo'lishining keyingi davrlariga – til ham shaklan, ham mazmunan boyigan, adabiylik darajasiga ko'tarilgan paytlarga to'g'ri keladi.

Ungacha esa til, olimlar ta'biri bilan aytganda, «sodda til», «xom til», «ishlanmagan til» ko'rinishlarida bo'ladi. Tilning sheva va lahjaviy shakllarini ana shu ko'rinishlar sifatida baholash mumkin.

Garchi umumxalq tilining hamma ko'rinishlarida, barcha til jamoalarida o'ziga xos tarzda amal qiladigan me'yorlar mavjud bo'lsa ham kodifikasiyalashtirilgan, ya'ni ma'lum qoidalarga kiritilgan me'yorlar faqat adabiy tilga xos xususiyatdir. Faqat adabiy tildagina, - deydi V.A. Iskovich, - qanday gapirish va qanday gapir-maslik; me'yoriy grammatikalarda, lug'atlarda, ma'lumot-nomalarda qayd etilgan; maktablarda o'rganiladigan qoida va ko'rsatmalar amal qiladi. Shuning uchun ham adabiy tilning umumxalq tilidan farq qiluvchi tomoni unda yagona me'yorning qat'iy amal qilishi hisoblanadi.

«Adabiy til normasi – bu muayyan qoidalari ostiga olingan, barqaror, shu bilan birga doimo rivojlanib boruvchi, o'zgarib turuvchi, variantdorlik xususiyatiga ega bo'lgan, til tizimi tomonidan yo'l qo'yilgan til hodisalarining yig'indisi bo'lib, tildan foydalanuv-chilar nutqida mustahkamalangan, shuningdek, adabiy tilda so'zlashuvchilar uchun umummajburiy bo'lgan lisoniy hodisadir⁵⁴».

Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy norma va nutq madaniyati mummolarini atroflicha tadqiq etgan E.Begmatov adabiy normaga xos quyidagi mezon va xususiyatlarni belgilaydi:

«1. Adabiy norma obyektiv mavjud va moddiy bo'ladi.

⁵⁴ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. – Тошкент. 1999, 23-б.

2. Adabiy norma ongli ravishda ishlangan (normalangan, kodifikatsiyalangan) bo`ladi.

3. Adabiy norma (normativlar) maxsus tanlangan va baholangan bo`ladi.

4. Adabiy norma (normativlar) muayyan qat'iy qoida-larga solingan (reglamentatsiya qilingan) bo`ladi.

5. Adabiy norma yozuvda, yozma manbalarda mustahkamlangan (fiksatsiya qilinan) bo`ladi.

6. Adabiy norma (normativlar) nufuzli, mo`tabar manbalarga tayanadi.

7. Adabiy norma tasodifiy hodisa emas, balki vazifa-viy, lisoniy-kommunikativ jihatdan zaruriy bo`ladi.

8. Adabiy norma zamonaviy bo`ladi va u tilning zamonaviy (sinxron) holatiga tayanadi.

9. Adabiy norma jamiyat a'zolarining adabiy ko`nikmalariga asoslangan bo`ladi.

10. Adabiy norma konkret adabiy tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga tayanadi, undan oziqlanadi.

11. Adabiy norma barqaror (stabil) bo`ladi.

12. Adabiy norma mo`tdil rivojida o`zgaruvchan, rivojlanuvchan (dinamik) bo`ladi.

13. Adabiy norma an'anviy (tendensioz, qaysar) bo`ladi.

14. Adabiy norma (normativlar) muayyan qolipga, modellarga solingan (standart, turg'un) bo`ladi.

15. Adabiy norma variantdor bo`ladi.

16. Adabiy norma (normativlar) tipik bo`ladi.

17. Adabiy norma xalq sheva va lahjalaridan ustun turuvchi normadir.

18. Adabiy norma namunaviy va mo`tabar normadir.

19. Adabiy norma uslubiyl tarmoqlangan normadir.

20. Adabiy norma yopiq konservativ normadir.

21. Adabiy norma (normativlar) madaniyl estetik jihatdan baholangan bo`ladi.

22. Adabiy norma vazifaviy(funksional) va aloqaviy funksional jihatdan maqsadga muvofiq normadir.

23. Adabiy norma umumqo'llanuvchan va keng tarqalgan normadir.

24. Adabiy norma ommaviy ravishda tan olinuvchi va o'zlashtiriluvchi normadir.

25. Adabiy norma yagona, umumxalq normadir.

26. Adabiy norma xalqchil normadir»⁵⁵.

Tilning haqiqiy ijodkori, yaratuvchisi xalq hisoblan-sa ham, uning taraqqiyotida olimlarimizning, shoir va yozuvchilarimizning, davlat va jamoat arboblarning, huquqshunoslarimizning, pedagoglar va matbuot xodimlarining, kino, teatr san'ati ustalari va nashriyot xodimlarining hamda jurnalistlarning xizmatlarini qayd qilish lozim. Ayniqsa, mustaqillik davrida tilshunos olimlarimiz, shoir-yozuvchilarimiz va jurnalistlarimiz-ning xizmatlari katta bo'ldi. Ularning samarali mehnat-lari tufayli tilshunoslikning ko'pgina yo'nalishlari bo'yicha qat'iy me'yorlar belgilandi, ona tilimiz rivoji-ga oid yangi qoidalar va qarorlar inobatga olingan holda til birliklarining yozuv va muomala jarayonidagi namuna-viy variantlari tavsiya etildi, til tizimidagi ko'pgina munozarali masalalar o'zining nazariy asosiga qo'yildi.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridayoq o'zbek tiliga ko'plab ruscha o'zlashmalar kirib keldi. Ular gazeta va jurnallarda, rasmiy-yuridik hujjatlarda o'zbekcha talaffuz va imloga moslashtirilgan holda ishlatilgan. Bu xil so'zlarning o'sha davrdan hozir-gacha matbuotda faol qo'llanilayotganini quyidagilar ham tasdiqlaydi: *bank, byudjet, prosent, fabrika, telefon, telegraf, redaksiya, gazet, oblast, vokzal* kabilar.

Rus tilining ta'siri XX asrning 20-yillaridan so'ng yanada kuchaydi. Nafaqat ruscha-baynalmilal so'zlar, balki tarjima

⁵⁵ Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси. III қисм. – Тошкент, 1999, 23-24-б.

orqali ruscha konstruksiya (soʻz birikma)lar ham kirib keldi. Hozirgi matbuotda quyidagi soʻz va terminlar faol ishlatilmoqda: *parlament, institut, universitet, kollej, kafedra, plenum, konferensiya, sessiya, simpozium, kongress, agrotexnika, arxeologiya, biologiya, ximiya, telefn, konvert, pochta, avtobus, tramvay, trolleybus, samolyot, aeroport, deputat, deklarasiya, nota, protokol, jurnal, jurnalist, buxgalter, kosmos* kabilar.

XX asrning 70-80 yillari matbuotda ruscha-baynal-milal soʻzlarning ishlatilish salmogʻi ancha oshdi. Gazeta va jurnal materiallarini, oʻzbekcha dubletlari boʻlgani holda, ruscha-baynalmilal soʻzlar egallay boshladi. M.: *arxitektor/meʼmor, muzika /musiqqa, sekretar/kotib, injener/muhandis, avtor/muallif, intelligent/ziyoli* kabi dubletlarning oʻzbekcha, fors-tojikcha, arabcha variantlari isteʼmoldan chiqqa boshladi. Oʻzbek tilida bir qismi ruscha-baynalmilal soʻzlardan iborat juda koʻplab dubletlar mavjud. M.: *agitasiya/tashviqot, oblast/viloyat, partiya/firqa, komitet/qoʻmita, pravleniye/bosh-qaruv, problema/muammo, revolyusiya/ inqilob, region/ mintaqqa, redaktor/muharrir, rekonstruksiya/ taʼmir-lash, sekretar/ kotib, sovet/kengash, tema/mavzu, tempe-ratura/harorat, tradisiya/anʼana, yurist/huquqshunos* kabilar. Ushbu dubletlardan ruscha-baynalmilal soʻzlarga, oʻsha davrdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, tarixiy, milliy, diniy qadriyatlarga va milliy tillarga bir yoqlama munosabat tufayli, ortiqcha baho berilib, ular oʻrnida bemaolol ishlatish mumkin boʻlgan variantlariga eʼtibor susaydi yoki umuman ular nazardan chetda qoldi.

Mafkuraviy qarashlar, hissiyotga berilishlar, tarixiy, milliy, diniy qadriyatlarga eʼtiborni oshirish uchun qilingan saʼy-harakatlar oʻz samarasini berdi. 1989 yildan boshlab ruscha-baynalmilal soʻzlarni ishlatishga munosabat tubdan oʻzgardi. Ularni oʻzbekcha, fors-tojikcha, arabcha soʻzlar bilan almashtirishga, arab, fors-tojik soʻzlarning oʻzbekcha

muqobillarini topib qo'llashga, ayrim xorijiy terminlarni o'zbekcha talaffuz asosida yozishga urinishlar kuchaydi.

Til taraqqiyotidagi zarurat, adabiy til imkoniyatlari va adabiy norma ongli aralashuvni talab etadi. Har qanday shoshma-shosharlik, termin yaratuvchilik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini mustaqillik yillarida matbuotda so'z va terminlarni qo'llash aniq ko'rsatib turibdi. O'zbek tili taraqqiyotining ana shu qisqa davridagi holat katta saboq bo'lishi mumkin.

1. Ruscha-baynalmilal so'zlar o'rnini boshqa tillarga mansub ayrim so'zlar asosli egallay boshladi. *M., kotib, viloyat, tashrif, jamoa, tibbiyot, muammo, dastur, loyiha* kabi so'zlar faol ishlatila boshladi. Bu - ijobiy jarayondir.

2. Ruscha-baynalmilal so'zlarni o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar bilan yoppasiga almashtirish tendensiyasi paydo bo'ldi. Buning natijasida tilimizda variantlilik kuchaydi, tushunilishi oson va faol iste'molda bo'lgan ruscha-baynalmilal so'zlar o'rnini tushunarsiz so'zlar egallay boshladi. Natijada o'zbek tili leksikasi taraqqiyotining shu davrida murakkab holat yuzaga keldi:

1. Ruscha-baynalmilal so'zlarni almashtirishga urinish ko'pgina so'zlarni ishlatishda variantlilikni yuzaga keltirdi. Bu holat, birinchidan, tanlash imkoniyati uchun foydali bo'lishi mumkin, lekin so'z qo'llashda turli xillik yuz berishi matbuot tili va uning nutq mada-niyatini oshirishdagi rolga salbiy ta'sir ko'rsatadi: *defisit/ kemptik, taqchil, tanqis, kamyob; jurnal/ oynoma, majalla, jarida, oybitik; gazeta/ro'znoma, kunnoma, haftanoma; invalid/ majruh, nogiron; konferensiya/anjuman, to'plandi; medicina/ tibbiyot, tabobat; pedagogika instituti /muallimlar tayyorlash oliygohi, dorilmualli; oblast/viloyat, muzofot; prezidium/rayosat, hay'at; rayon/ nohiya, tuman, depara; redaksiya/ muharririyat, tahririyat; student/talaba, tolib, toliba* kabilar. Bu kabi dubletlar variantliliigi ma'lum so'zlar sohasida tartibga tushmoqda. *M., kemptik, taqchil*

(defisit), *oynama*, *majalla*, *jarida*, *oybitik* (jurnal), *majruh* (invalid), *to'plandi*(konferensiya), *nohiya*, *depara* (rayon) kabilar matbuotda deyarli ishlatilmayapti.

2. Ruscha-baynalmilal so'zlarni almashtirishga urinish ko'plab noto'g'ri holatlarga, noo'rin so'zlarning ijod qilinishiga olib keldi. Ayrim ijodkorlarning hissiyotga berilishi oqibatida ruscha-baynalmilal so'zlar quyidagicha almashtirila boshlandi: *arxiv* - *hujjatxona*, *samolyot* - *tayyora*, *aeroport* - *tayyoragoh*, *aeroqo'nalg'a*, *biznes* - *daromadgirlik*, *vertolyot* - *uchoq*, *institut* - *oliygoh*, *ilmgoh*, *intervyu* - *musohaba*, *post* - *qo'nalg'a*, *radio* - *ovoznigor*, *so'znigor*, *referent* - *ko'makchi*, *telegramma* - *shoshilinchnoma*, *tovarshunos* - *molshunos*, *universitet* - *dorilfunun*, *fakultet* - *kulliyot*, *filial* - *yo'ldosh korxona* kabilar.

3. Ruscha-baynalmilal so'zlarni ular anglatgan ma'noni bildiruvchi so'zlar bilan (tarjima vositasida) almashti-rish tendensiyasi yuz bera boshladi. Bu holatlarning qanchalik to'g'riligini vaqt ko'rsatadi. Lekin matbuot tili ixchamlikni talab etishini hisobga olganda, ruscha-baynalminal so'zlarni ishlataverish foydalidir. M.: *dekret* - *farzandlik bo'lish ta'tili*, *makulatura* - *yaroq-siz holga kelgan qog'oz*, *monkultura* - *yakka ziroatchilik*, *yakka hokimlik*, *referendum* - *umumxalq ovoz berishi* kabilar.

4. Ruscha-baynalmilal so'zlarni oddiy so'zlashuv tiliga mos holda ishlatish (*doktor* o'rnida *duxtir*, *milisiya* - *melisa*), geografik nomlarni yozishdagi turli xillik (*Germaniya* - *Olmoniya*, *Amerika* - *Amriqo*, *Yevropa* - *Ovro'pa*, *Koreya* - *Quriya*, *Bolgariya* - *Bulg'oriya*, *Rossiya* - *Rusiya*) kabi holatlar yuz berdi. Bu kabi qo'llashlarning noo'rinligi hozirgi kunda ayon bo'lsa-da, ayrim gazetalarda hamon uchramoqda.

Istiqlol tufayli o'zbek tiliga, tarixiy, milliy, diniy qadriyatlarga munosabat tubdan o'zgardi. Mustaqil-lik tufayli OAV orqali yangi-yangi chet so'zlar iste'molga kirib kelmoqda. Bugungi hayotimizni, matbuot tilini va kundalik

soʻzlashuvni quyidagi terminlarsiz tasavvur qilish qiyin: *birja, menejment, marketing, bakalavr, magistr, lisey, kollej, terror, ekstremizm, fundamen-talizm, firma, fermer, investr, konsern, xolding* kabilar.

Til birliklarining adabiy shaklda meʼyorlashuvida badiiy adabiyotning oʻrni ham alohida. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar oʻz fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda origi-nal ifodalarda berishga intiladilar. Bu yoʻlda ular yangi soʻz va iboralar yaratadilar. Yaratilgan birliklar oʻsha matnning oʻzida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan oʻrin olmasligi, bir soʻz bilan aytganda, tilda meʼyorlashmasligi mumkin. Ularning meʼyorlashishi-ni sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi.

Tildagi birliklar va hodisalarning reallashuvi, mustahkamlanuvi hamda meʼyorlashuvida yozuvning xizmati katta ekanligi, shubhasiz. Oʻzbek davlatchiligining shakllanishi hamda xalqimizning dunyo fani va madaniyati-da, binobarin, til va nutq madaniyatida tutgan oʻrni, egallagan mavqeyi haqida soʻz yuritganda, bu xalqning necha ming yillar davomida foydalanib kelgan oromiy, yunon, karoshta, sugʻd, xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun (runik), uygʻur, arab, lotin, rus (kirillisa) yozuvlarini va yana lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosiga oʻtayotganligimizni eslash kifoya. Shunday ekan, oʻzbek adabiy tilining shakllanishi, oʻzbek xalqi asrlar davomida foydalanib kelgan yozuv madaniyatining takomili hamdir.

Til tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, davlatchilik darajasida, yaʼni rasmiy muomalada tildan foydalanish uning meʼyorlashuvini, binobarin, adabiy tilning shakllanuvini tezlashtirgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, qayerda davlatchilik taraqqiy etgan, mustahkam-langan va bu davlatning boshqa davlatlar bilan munosabat-lari yaxshi yoʻlga

qo'yilgan va rivojlangan bo'lsa, shu yerda tilning me'yorlashuvi va madaniylashuvi ham tezroq amalga oshgan.

2. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik-semantik me'yor.
2. Talaffuz (orfoepik) me'yori.
3. Yozuv (grafika) me'yori.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasash me'yori.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktuation me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir-baxshi-lari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiradigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olinganga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari - nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy til me'yoriga yondashuvi quyidagi xususiyatlari bilan grammatik munosabatda farq qiladi:

a) nutq madaniyati adabiy til me'yoridagi o'zgarib, buzilib turuvchi nutqiy nuqsonlarni yuzaga keltiruvchi xususiyatlarni topishi va ularni tuzatishga intilishi lozim;

b) nutq madaniyati adabiy til me'yorini doimiy rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisa sifatida tekshirishi va adabiy til me'yori sistemasidagi yangi holatlarni, o'zgarayotgan, o'zgargan holatlarni, shuningdek, iste'moldan chiqqan holatlarni hisobga olishi kerak;

v) nutq madaniyati adabiy til me'yori sistemasidagi qarama-qarshi holatlarni belgilashi hamda tilning barcha yaruslari bo'yicha tekshirish lozim.

Nutq madaniyati adabiy me'yorni ma'lum maqsad bilan, aniqlashi, madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o'rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me'yoriy sistemasini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya'ni adabiy til rivojiga ongli aralashadi.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqt jamiyatda odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki shu tilda so'lashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlashishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi hisoblanadi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyot, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va televi-deniyeni kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Adabiy til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat

muhim rol o`ynaydi. Adabiy til va uning me`yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug`ullanishi orqali egallab bo`lmaydi.

Insonning nutq faoliyati uch ko`rinishda namoyon bo`ladi. Bular - so`zlash, mutolaa qilish va eshitish. So`zlash, deyilganda, so`zlovchining ma`lumot, maslahat berishi, buyurishi, o`ziga noma`lum bo`lgan narsalar haqida so`rashi tushuniladi. So`zlaganda so`zlovchining bilimi, madaniyati, axloqi, odobi yuzaga chiqadi. So`zlashning monologik va dialogik ko`rinishlari mavjud.

Mutolaa qilish o`quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufay-li yozma nutqda aks etgan voqyea – hodisadan xabardor bo`ladi.

O`rta maktabda ta`lim olayotgan yoshlarni, ya`ni jamiyatning yangi ijtimoiy kuchlarini yetishtirishda o`qituvchi mas`ul hisoblanadi. Jamiyat o`qituvchining qo`liga yosh avlodni, ya`ni o`z kelajagini ishonib topshiradi. Uning kamol topishida o`qituvchining nutqi o`ta muhimdir. Demak, o`qituvchilik kasbi insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak madaniyat bilan birga yuqori darajadagi nutqiy malakaga ham ega bo`lishini talab qiladi. Bu o`z-o`zidan adabiy til me`yorlari to`hrisida o`qituvchi yetarli bilimga ega bo`lishi lozimligini bildiradi.

O`zbek adabiy tili va nutq madaniyati

Hozirgi zamon o`zbek tilining fonetik, leksik, gram-matik, orfoepik hamda orfografik, imloviy me`yorlari-ning nisbatan mukammal shakllanganligi o`zbek tili madaniyatining ulkan yutug`idir.

O`zbek adabiy tili olimlar, ziyolilar, adiblarning og`zaki va yozma adabiyotining asosiy ijodkorlari bo`lgan xalqimizning asrlar osha mashaqqatli mehnati, tilga sayqal berishi, uni chuqur o`rganishi borasidagi xizmat-lari evaziga turkiy tillar oilasida o`ziga xos mavqyega ega bo`ldi. O`zbek tilida juda

ko'p o'lmas badiiy asarlar, ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Bu ham o'zbek tilining madaniy tillar qatoridan o'rin olishini ta'minladi.

Qadimdan ma'lumki, til eng muhim aloqa – aralashuv, fikr almashuv qurolidir. Bu qurol qator boshqa vazifalarni ham bajaradi: u yoki bu xalq tarixi yoki umuman voqyelik haqida xabar beradi, ularni avloddan – avlodga yetkazadi, kishilar ongiga ta'sir etadi, estetik zavq bag'ishlaydi. Shuningdek, u bilim berish yoki bilim olish quroli hamdir.

Ana shunday qator vazifalarni bajaruvchi hamda funksional imkoniyati yanada ortib borayotgan bu qurolning – o'zbek adabiy tilining ishlatilishi, uning qay darajada sayqal topganligi, o'tkirligi, muayyan vazifani bajarishga xoslanganligi, tuzilishi, mohiyati bilan shaklining mutanosibligi, go'zal va ixchamliligi kabilar uning qudratli madaniy qurol ekanligini ko'rsatadi. Qurolni yaratish va unga sayqal berish esa shu tilga mansub bo'lgan xalq vakillarining, ziyolilar, adiblar, shu qurolni ishlatishga ehtiyoji bor bo'lgan barcha kishilar va, nihoyat, shu ish bilan maxsus shug'ullanuvchi mutaxassislarning ishidir.

Darhaqiqat, nutq – bu til deb atalmish noyob quroldan foydalanish jarayoni. Demak nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

“Qobusnoma” da Kaykovus hamma hunarlar ichida so'z hunari – notiqlikni a'lo deb bilgan:”Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi”.

Nutq xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin, go'zal yoki quruq – qo'pol bo'lishi mumkin.

O'tkir teshani qo'lga olgan usta u bilan ajoyib bir quticha yasashi mumkin. Shu teshani qo'lga olgan chala bir havaskor usta bir zumda qo'lini chopishi yoki yaxshi narsani ishdan chiqarishi mumkin.

Adabiyotshunos olim Izzat Sulton “Adabiy asarining mazmuni, undagi g’oyaning oliyjanoblighi, tasvir qilingan odamlar va hodisalarning go’zallighi yoki xunuklighi – hammasi o’quvchiga asarning tili orqali yetadi. Shu sababli til sohasidagi mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir”, - deganida, eng avvalo, til qurolidan foydalanish mahorati haqida fikr yuritgan.

Demak, hamma uchun baravar xizmat qiladigan til- aloqa-aralashuv quroli vositasida go’zal, yaxshi, namunali nutq tuzish ham mumkin. Bularning birinchisi madaniy nutq, ikkinchisi esa nomadaniy “xunuk” nutqdir.

S.I.Ojegov “yuqori darajadagi nutq madaniyati –bu o’z fikrini til vositalari orqali to’g’ri, aniq va tasirchan qilib ifodalay bilish qobiliyatidir”, - deydi.

Bunday qobiliyatga o’z ona tilini chuqur sevisish va hurmat qilish, uni mukammal bilish orqali erishiladi. Shuning uchun ham har bir kishining madaniylik darajasi, o’qib qanchalik tarbiya ko’rganlighi uning yozma va og’zaki nutqidan bilinadi.

O’zbek adabiy tili me’yorining quyidagi ko’rinishlari mavjud: Umumiy tarzda: yozma adabiy til me’yori va og’zaki adabiy til me’yori. Aniq tarzda: imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, grammatik va uslubiy me’yorlar.

Imlo va talaffuz me’yorlari. Hozirgi o’zbek tilida 31 ta tovush - fonema mavjud bo’lib, ularni ifodalashga xizmat qiladigan rus grafikasiga asoslangan belgilar soni 35 ta. Ana shu tovushlar tizimi va ularning harfiy ifodasiga ega bo’lgan o’zbek tili bugungi kunga qadar 1956 yil 4 aprelda tasdiqlangan va kuchga kiritilgan «O’zbek orfografiyasining asosiy qoidalari»ga binoan ish ko’rib kelmoqda. Binobarin, o’zbek tilining imloviy me’yorlari hozirgacha ana shu qoidalariga muvofiq amal qilmoqda va bu jarayon O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «O’zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonunining yangi tahririni amalga kiritish tartibi to’g’risida» 1995 yil 21 dekabrda qaroriga asosan 2005 yilgacha davom etdi.

Undan keyin esa O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini hayotga joriy qilish to'g'risida»gi hamda 1995 yil 6 maydagi «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunla-riga asosan ish ko'rilmogda.

Respublikamizda ta'limning barcha tizimlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi «O'zbek tilining asosiy imlo qoida-larini tasdiqlash haqida» qabul qilgan qarori asosida faoliyat yuritilmogda.

An'anaviy imlo me'yorlarini saqlab qolgan holda, lotin grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bilan ish ko'radigan imlo ham o'z me'yoriy qoidalariga ega va bu me'yorlar yuqorida tilga olingan hujjatda o'z ifodasini topgan. Undagi qoidalarga amal qilish tilimizdan foydalanuvchilar uchun bundan keyin majburiy sanaladi va shu tarzda bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida o'zbek tilining orfografik me'yori yo'lga qo'yiladi.

A.Mamatov quyidagi mulohazalarni bayon qiladi: «Yoshlarning adabiy til normalariga amal qilgan holda so'zlashishi, nafaqat ularning o'qimishliligidan darak beradi, balki ayni vaqtda aqlli va madaniyatligini ham ko'rsatadi. Shuning uchun yoshlar hamma vaqt nutq madaniyati va nutq odobiga qat'iy rioya qilgan holda so'zlashga harakat qilishlari lozim. Talaffuz etilgan har bir tovush, so'z, ibora, aniq va ravon jaranglashi kerak. Yoshlarning notiq bo'lishi shart emasdir (balki), lekin faqat fikrini, tushunchalarini to'g'ri, aniq iboralar bilan ifoda qilishlari zarur, chunki ona tilimizning sofliqini saqlash har bir yosh avlodning sharaflil burchidir»⁵⁶.

⁵⁶ Маматов А.Э. Ёш авлоднинг нуткий маданиятини тарбиялаш хусусида // Давлат тили ҳақидаги қонунни амалга оширишнинг долзарб муаммолари мавзуидаги республика илмий-амалий конференцияси тезислари. - Навоий, 1993, 7-6.

Ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi uning hayotiylik, yashash shart-sharoitlarini belgilab berdi. Rivojlanishi va istiqboli qonun yo`li bilan kafolatlandi.

Ma`lum bo`ladiki, og`zaki nutqning to`laligicha adabiy holatga keltirilishini ta`minlash talaffuz jarayonini me`yorlashtirish bilan bog`liq. Og`zaki nutq ishlatiladigan qaysi soha va yo`nalish bo`lmasin, turli uslublardagi vazifasini belgilash bo`lmasin, barcha o`rinlarda ham til birliklarini bir me`yorga keltirib qo`llash masalasi birinchi o`rinda turadi.

Orfoepik me`yorlarga rioya qilmaslik nutqimiz madaniyatida jiddiy nuqsonlardan biri bo`lib qolmoqda. Tilshunoslarimiz zahmatlari tufayli o`zbek tilidagi birliklarining deyarlik barchasidagi me`yoriy ko`rinish-lar ommaga turli qo`llanmalar, lug`atlar shaklida tavsiya etildi. Yangi imlo qoidalariga o`tishimiz munosabati bilan bunday ishlar davom ettirilmoqda. Nafaqat filolog olimlar, balki maorifimiz jonkuyarlari, o`z ona tiliga chuqur hurmat bilan qaraydigan barcha ziyoli-larimiz bu me`yorlarning buzilishiga e`tiroz, tuzatish va tavsiyalar tarzida chiqishlar qilib turishibdi. Shunday bo`lishiga qaramasdan, talaffuz me`yorlarini buzish, til madaniyatiga e`tiborsizlik hamon davom etmoqda. Bu kamchiliklar hatto radio, ayniqsa, televideniye eshit-tirishlarida ham seziladi.

Xalqimiz shevachilikdan batamom qutula olgan emas. Garchi ko`pchiligimiz adabiy til me`yori talablari asosida savodli yozsak-da, talaffuzda e`tiborsizlik, loqaydlik, mas`uliyatsizlik davom etmoqda.

Hozirgi o`zbek adabiy tilidagi til sathlari orasida leksik birliklar alohida o`rin tutadi va ularning o`ziga xos me`yoriy xususiyatlari mavjud.

**Leksik me`yorlar** deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo`lgan so`zlarni to`g`ri tanlash va o`rinli ishlatish tushuniladi. Ko`pma`nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanla-nish imkoniyatining

ko`pligi uning xususiy me'yorlari-ning shakllanishiga ham sabab bo`lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazionalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlarini bilish kam leksik me'yor to`g`risidagi ma'lumotlarimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masala-lardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksi-kasidan ularning ko`pchiligi uchun umumiy bo`lgan so`zlarni tanlab oladi va uni o`z leksik tarkibiga kiritadi (mas., *sigir-siyir-inak; chaqaloq-buvak, tuxum-moyak-yumurta, chumoli-murcha-qarinja-qumurusqa* kabilar).

O`zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobuyye, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo`ymoq, bo, akun, soni* kabi so`z va birikmalarining ishlatilishi ham ijobiy hodisa emas. Bu yerda ham me'yor buzilgan.

O`zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonunning qabul qilinishi munosabati bilan fanlarning turli yo`nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o`tkazish, ularni «o`zbekchallashtirish»ga imkoniyat yaratildi. Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni «milliylashtirish»ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko`paydi (Bu haqda yuqrida ham fikr bildirilgan edi).

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o`zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko`plab yangi so`z va iboralar, birikmalar paydo bo`layapti. Bu holatni, asosan, fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'iy nazar, ularni qo'llashdagi har bir holatga munosabat bildirib borilishi, me'yor sifatida tavsiya etilayotgan

variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligi asoslanishi zarur bo'ladi.

Xususiyl me'yorlar sifatida qaraladigan ma'lum sohaga va kasb-hunarga oid til birliklari me'yorlari haqida bilimga ega bo'lish k'am muk'im.

Kasb-hunarga oid birliklardan tashqari tilimizda biror ijtimoiyl guruh yoki toifaga, masalan, talabalar, savdo xodimlari, sportchilar, o'g'rilar, bezorilar, shofyor-lar kabilarning o'ziga xos va boshqalar tushunmaydigan, jargon deb ataladigan «yasama tili» mavjud. Bu til ana shu guruhlar doirasida amal qiladi va og'zaki shaklda me'yorlashib, og'izdan og'izga ko'chib yashaydi. Shu jarayonda ularning ayrimlari yo'qolib ketishi, ayrimlari o'zgarishi, davrlar o'tishi bilan bu qatlam yangi birliklar hisobiga boyib borishi mumkin. Ma'lum qismi esa ommalashib ketadi. *Dollar* ma'nosini beradigan *ko'k*, *karam* so'zlari bunga misol bo'la oladi.

Badiiy adabiyot matnida jargonlar maxsus vazifa ba-jaradi. Uning ko'magida asar voqyealari bir qadar ishonch-li tasvir qilinishi yoki qahramonlar tili individual-lashtirilishi mumkin. Masalan, *qafas* (13) - *turma*, *arava* (66) - *mashina*; *malax* (56)-*pul*; *dum* (54) - *orqadan kuzatib yuruvchi odam*; *buyurtma*, *mukofot* (36, 45) - *o'g'irlangan mol*, *narsa* kabi.

Ma'lum bo'ladiki, tildagi me'yorlashish ko'p qirrali jarayon bo'lib, umumiste'moldagi so'zlar ma'lum kasb-hunar yoki jargon doirasida atamalashishi, asosiy me'yor-lashgan holatidan chetga chiqib ketishi yoki buning aksi - kasb-hunar yoki jargonga oid xususiyl me'yorlar qamrovi-dagi atamalarining ma'nosi kengayib, ular umumxalq mulkiga aylanishi mumkin.

O'qituvchi davr bilan hamnafas inson, ziyoli sifatida o'zbek tilining mavqyeiga, o'quvchilar va talabalar nutq madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, ayniqsa, ta'sir doirasi keng bo'lgan ommaviyl axborot vositalarida tildan foydalanish holati haqida ma'lum

tushunchaga ega bo'lishi, ularda adabiy til me'yori-ga amal qilinmagan jihatlarni baholay olishi lozim.

Ommaviy axborot vositalaridagi ijobiy holatlar bilan birga nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etuvchi ayrim jihatlarni(tildan foydalanishdagi ba'zi kamchiliklar-ni) o'quvchilarga misollar asosida tushuntirib berish, ularning e'tiborini qaratish hamda bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikka yordam berishi mumkin. Quyida gazeta tilida adabiy me'yorga rioya etilmagan ayrim holatlar tahlilini keltiramiz. Ushbu holatlar o'qituvchining ish jarayonida ma'lum darajada foydali bo'lishi mumkin.

Gazeta tilida leksik me'yor muammolari

So'z tanlash va uni jumlagi mos holda qo'llash materialni tushunarli, mazmunli, aniq, ta'sirchan tarzda gazetxonga yetkazishning muhim shartidir. So'z qo'llash muammosi ko'pdan buyon tilshunos olimlar, matbuotchilar nazarida bo'lib kelmoqda.

Gazeta tilida leksik me'yor talablari quyidagi hollarda buzilmoqda:

1. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi to'g'risidagi qonun loyihasining muhokamasi davrida boshlangan harakat - ruscha-baynalmilal so'zlarni turkiy, o'zbekcha, fors-tojikcha, arabcha so'zlar bilan almashtirish, yangi so'z va terminlar ijod qilish bilan bog'liq holatning ta'siri hamon davom etmoqda. Gazetalarda so'z va terminlarni qo'llashda turli xillik mavjud. Ko'pchilik tomonidan noto'g'riligi izohlangan, asoslangan, keng iste'moldan tushib borayotgan ayrim so'zlar gazetalarda variant sifatida ishlatilmoqda. M., *oliygoh*, *tayyoragoh*, *aeroqo'nalg'a*, *ro'znoma*, *muzofot* kabilarning asosiy dubletlari keng iste'molda bo'lishiga qaramay, ular parallel holda gazetalarda uchramoqda. Misol: O'zbekiston *muzofotlarining* vakillari o'ziga xos kamalak misol yetti xil rangli milliy libosda sahnaga kirib keladilar. Zero, O'zbekistonda har bir *viloyatning* o'ziga xos san'ati bor (XS.,1.09.98).

2. Gazetalarda ayrim tushunarsiz, izohtalab soʻzlar-ning qoʻllanilish holatlari uchramoqda. M.: Tahlilchilar uning ildizlarini izlashmoqda, kuzatuvchilar *terakt* oqibatlarini bayon etishayapti (XS.,4.12.02). Ulugʻbek rasadxonasida janob Prezident menga *usturlobni* koʻrsat-di (XS.,30.01.98). Faqat nodonligi bois kimlarningdir otgan oʻqiga aylanganlar. Manqurt boʻlib, *zombi* boʻlib, odamzot kushandasiga aylanganlar (XS.,20.11.01). Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi targʻibotda ham bosh tamoyil *pragmatizm* boʻlmogʻi kerak (XS.,8.11.02). Biroq bu *charxidunda* oʻzligimizni asragan holda taraqqiyot, fan ummoniga hyech qachon qurimas daryodek quyilguvchi xalq boʻlib qolamiz (D.,22.11.01). UYeFA vakillari, agar shu holat yana takrorlanadigan boʻlsa, «Sparta» klubi oʻyingohini ham *diskvalifikasiya* qilishlarini taʼkidlashdi. Uning tarkibiga 15 ta qoʻshiq kiritilgan boʻlib, shundan ikkitasi «eski» qoʻshiqlarning yangilangan «shakli»: «Qurbon boʻlaman» va «Faryod»ning *remixlari* (D.,22.11.01).

3. Soʻzlarni dialektal shaklda ishlatishga eʼtibor baʼzan oshib bormoqda. M.: *Huv anavi* oʻspirin mast boʻlib oyoqqa turolmay qolgan otasini suwab kelayotgani – oʻsha otaga, oilaga, mahallaga, millatimizga isnod emasmi? (Z.,13.02.01). Leksik-stilistik norma buzilishlariningʻ aksariyati ham soʻz qoʻllash bilan bogʻliqdir.

Gazeta tilida orfografik meʼyor muammolari

Gazetada imlo qoidalari quyidagi hollarda buzilmoq-da: 1. Qoʻshma soʻzlarni turlicha qoʻllash. 2. Yuklamalarni ishlatishda har xillik. 3. Ruscha-baynalmilal soʻzlarni qoʻllashda turlichalik. 4. Bosh harflar imlosidagi chalkashlik (turli tashkilotlar, vazirliklarning nomlari-ni yozishdagi har xillik). 5. Ayirish va yumshatish belgilarini ishlatishdagi har xillik.

Yangi imlo qoidalari mavjud boʻlishiga qaramasdan, unga amal qilish talab darajasida emas. Ayrim gazetalar va

jurnallarning tahririyatlari bu sohada e'tiborsizlik qilishmoqda. Ayrim namunalar keltiramiz:

1. So'zlarni turlicha yozish (hatto bir sahifada), turli korxona, muassasa, vazirlik nomlarini har xil ifodalash kabi holatlar uchraydi. M.: Undan so'ng Xorazm viloyatida «Davlat ramzlari to'g'risida»gi *Qonun* ijrosi bilan tanishadi. Ayni paytda Madaniyat ishlari vazirligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining «Kutubxona-chilik faoliyati to'g'risida»gi *qonuni* loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Shu kunlarda deputatlar guruhimiz Qashqadaryo viloyatida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi *Qonun* ijrosini o'rganishmoqda (XS.,20.11.01). Bir materialda *qonun* so'zini ikki xil yozish e'tiborni talab qiladi.

Yaqinda esa *universitet xiyoboni* hududida chet ellik sayyohlarga mo'ljallangan, xalqaro talablarga javob beradigan 4 yulduzli «Prezident-Palas» mehmonxonasi qurilishi boshlandi (Z.,20.11.01). *Universitet xiyoboni* bosh harf bilan yozilishi lozim.

...1999 yil ikki mamlakat *prezidentlari* Toshkentda uchrashib,... ikki mamlakat *Prezidentlarining*... (XS.,20.11.01). Bunday ikki xil qo'llash holatini barcha gazetalarda uchratish mumkin.

- Himmati baland kishilar omon bo'lsin, - deydi mamnun holda Usmonali aka, - shular bor ekan, ezgulik deb atalmish noyob *hislat* tup qo'yib, palak otaveradi (XS.,25.10.01). Bir ozdan so'ng qosh-qabog'i *o'yildi* (O'O.,23.12.99). Sayoq yurgan tayoq yeydi, deganlaridek insof-ga kelmagan Feruza barvaqt sarg'aygan kuz yaproqlaridek *hazonga* aylandi (O'O.,25.12.97). Bunday fazilatlar ruhiga singib ketgan xalqimiz hamisha *sahiy*, qo'li ochiq (O'O.,16.12.97). Jumlar mazmunli, ravon tuzilgan, lekin ulardagi imlo xatolari e'tiborni tortadi.

2. So'z qo'llashda ortiqchalik, takror holatlar sodir bo'lmoqda, bu holat esa matn mazmuniga va ixchamlikka ta'sir

etadi. M.: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida yetishtirilgan pillaning *aksariyat qismi* mana shu korxonalarga yetkazib beriladi. Qiyos: Ularning *aksariyati* Voronejda hunar o'rganib qaytgan (XS., 25.10.01).

Kelajakda Samarqand husniga-husn bo'lib qo'shiladi-gan to'rt yulduzli bu mehmonxona *kelasi yil* foydalanishga topshiriladi (Z.,20.11.01). *Kelajakda* so'zi ortiqcha, *kelasi yil* birikmasi va gapdagi mantiq uning ortiqcha-ligini ko'rsatib turibdi.

Respublikamiz, qolaversa, Samarqand shahri bo'yicha e'lon qilingan «Yong'in xavfsizligi oyligi» ana shunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan (Z.,20.11.01). E'tibor bering: *Respublikamiz bo'yicha* bo'lganidan keyin yana uning hududidagi joyni alohida ta'kidlash - ortiqcha ifoda hisoblanadi.

Orzu qilar edikki, mushtariy *ertalab nonushta paytida* gazeta o'qib o'tirsa (XS., 25.10.01). Bu jumladagi *nonushta paytida* birikmasi yoki *ertalab* so'zi ortiqcha.

Chekadigan ayoldan tug'iladigan zurriyot nihoyatda nimjon bo'lib, ko'pincha tug'ilish paytida yoki *hayotining* birinchi oylaridayoq *hayotdan* ko'z yumadi (XS., 25.10.01). *Hayot* so'zlaridan ikkinchisini almashtirish lozim.

Yodingizda bo'lsa, o'tgan yilning 20 martida Prezidentimiz «Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonga imzo chekkandi. *Hayal o'tmay*, respublika Vazir-lar Mahkamasi shu asosda tegishli qaror qabul qildi. *Hyech kimga sir emas*, O'zbekiston agrar respublikalar sirasiga kiradi (XS., 25.10.01). Ajratib ko'rsatilgan ifodalar-ning barchasi ortiqchaligi ko'rinib turibdi.

O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Misr Arab Respublikasining elchixonasi birgalikda bolajonlarimizning archa bayramini qiziqarli *o'tkazish* maqsadida hayriya (?) tadbiri *o'tkazishga* tayyorlanmoqda (O'O., 23.12.99). Bu yerda ham takror jumla silliqligiga ta'sir etgan.

Kuni kecha xuddi shu nomdagi *shiringina* kitobcha, faqat, o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmani ko'rib, ularning muallifi bilan tanishish istagi tug'ildi, menda (XS.,20.11.01). *Kitobcha* so'ziga nisbatan *shiringina* so'zini ishlatish mutlaqo noto'g'ri, uning o'rnida *qiziqarli* so'zini ishlatish mumkin.

Ko'rinadiki, bu sohadagi kamchiliklar jumladagi uslubiy ravonlikka va mazmunga ham ta'sir qilgan.

Gazeta tilida grammatik me'yor muammolari

O'zbek tili bir muncha mukammal grammatik qoidalarga va grammatik normalarga ega bo'lishiga qaramasdan, bu sohada gazetalarda ko'plab kamchiliklar yuz bermoqda. Grammatik vositalarni to'g'ri qo'llamaslik oqibatida gazeta materiallarining pishiq-puxtaligi, ravonligi, mazmunliligi va ixchamligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir qilinmoqda.

a) Gazeta tilida morfologik me'yorning buzilishi quyidagi hollarda sodir bo'lgan: 1. Kelishik shakllarini to'g'ri ishlata olmaslik. Ularni farqlamaslik, belgili va belgisiz holatlaridan noto'g'ri foydalanish, kelishiklar-ning o'zaro sinonimiyasidan to'g'ri foydalanmaslik, kelishiklarni qo'llashda shevaning ta'siri. 2. So'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llash. 3. Fe'l nisbatlarin farqlamaslik. 4. Affiksali pleonazm. Ayrim jiddiy holatlarni ko'zdan kechiraylik.

1. Ayrim so'z yasovchi qo'shimchalarni ishlatishda qoidalarga e'tibor biroz pastligi sezilmoqda. M.: Katta-katta janjallarni bartaraf qilishda, tunda sandiraqlaydigan *bekorchixo'jalarni* yo'lga solishdi (XS., 25.10.01). Bu so'zdagi *-chi* qo'shimchasi ortiqcha.

2. Tushum va qaratqich kelishiklari qo'shimchalarini ishlatishda kamchiliklar juda ko'plab uchraydi. M.:Xayhot, kutilmagan fojia *Georgiyni* olamdan erta ko'z yumishiga sabab bo'ldi (O'O., 23.12.99). Shulardan biri oliy *ta'limni* bakalavr va magistr bosqichlariga bo'linishi-dir. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda har ikkala *darajani* mehnat faoliyati doirasi maxsus qonunlar bilan belgilab qo'yilgan, ...xalqimiz asrlar

osha e'zozlab kelayotgan milliy urf-odatlar, an'analarimiz, *ularni* yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida ma'ruza qildilar. ...*boquvchisining* yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalarga yanada ko'proq moddiy yordam ko'rsatiladi (Z.,20.11.01). Gazetaning bir sonidan olingan ushbu misollarda qaratqich kelishigi o'rnida tushum, oxirgisida tushum o'rnida qaratqich kelishigi qo'shimchasi noto'g'ri ishlatilgan. Ushbu *fanning* puxta va mukammal o'qitishda darsdan tashqari tashkil etilayotgan mashg'ulotlar, ko'rik-tanlovlar, uchrashuvlarning ahamiyati ham katta bo'lmoqda (XS.,8.11.02). Misolda tushum kelishigi qo'shimchasi o'rnida qaratqich kelishigi qo'shimchasi ishlatilgan. Natijada uslubiy noravonlik hosil bo'lgan.

Ushbu *holatni* yakuniy 30-turda ham kuzatildi (XS.,5.12.02). Gapda tushum kelishigi qo'shimchasi ortiqcha qo'llanilgan.

3. Fe'l nisbatlarini ishlatishda kamchiliklar ham mavjud. M.: Xo'jalik dasht hududlarni surish uchun 1,2 million so'mga nasos qurib *bitkazildi* (Z.,20.11.01). Fe'ling majhullik nisbati noto'g'ri ishlatilgan, jumlada uslubiy g'alizlik hosil bo'lgan (-il qo'shimchasi ortiqcha).

Ma'lumki, namunaviy nutqqa qo'yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foyda-lanish, gapda so'z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabat-larning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'zlar tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti⁵⁷. Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin.

⁵⁷ Қаранг: Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. I қисм. 1985., 39-б.

b) Gazeta tilida sintaktik me'yor buzilishlari quyidagi hollarda yuz bergan: 1. Gapdagi mantiqiy bog'lanishning buzilishi. 2. Jumla tuzishda so'zlarni tegishli shaklda ishlata olmaslik. 3. Jumlalarni ortiqcha cho'zib yuborish va gaplarning bog'lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo'lishi. 4. Sodda gaplarni sun'iy ravishda qo'shma gap tarkibiga birlashtirish. 5. Gapda so'z tartibiga - normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik. 6. Jumda tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalanishi-ga putur yetkazish.

Ayrim jiddiy holatlarni ko'zdan kechiraylik. Bunday holatlar uslubiy me'yorning buzilishi ham hisoblanadi. Chunki gap tuzilishidagi aksariyat holatlar uslubiy g'alizlikni yuzaga chiqargan.

1. Jumlalarni tuzishda so'z tartibi, mazmunga salbiy ta'sir qiluvchi holatlarga yo'l qo'yilmoqda. Ayrim materiallar uslubiy kamchiliklarga to'la, tahrirtalab holda nashr etilmoqda. M.: Kim g'olib bo'lar ekan? *Bu savolga* 28 oktyabr kuni nihoyasiga yetadigan «So'g'diyona-Hamdo'stlik kubogi - 2001» xalqaro musobaqasi natijalari *yakun yasaydi* (XS.,25.10.01). Aslida *Savolga yakun yasalmaydi, javob beriladi*.

Aslida fermer xo'jaligi yaqindagina, ya'ni 2000 yilda tashkil etilgandi. Lekin xo'jalik rahbari Sh.Qurbonov-ning sa'y-harakatlari bois, qisqa fursatda salmoqli natijalarga erishildi. *Chindan ham* fermer xo'jaliklari-ning a'zolari rahbaridan xursand. Qisqasi, «Shuhrat» medali sohibi Shokir Qurbonov yurtimiz iqtisodini rivojlantirishga a'zolari bilan hamkorlikda munosib ulush qo'shib kelmoqda (Z., 20.11.01). Mazkur jumlar tahrirtalab, ajratilgan o'rinlardagi so'zlar ortiqcha, oxirgi gapda *fermer xo'jaligi* birikmasini ishlatish lozim.

Quyidagi matnda esa gapning boshi bilan oxiri o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish buzilgan, natijada uslubiy g'aliz jumla

hosil bo`lgan: - *Chunki viloyatdagi traktorlarning bir qismi dvigatel yetishmasligidan mahsulotning xorijga eksport qilinishi va shu orqali yangi texnika olish juda katta yutuq. Bu dehqonga ham, muhandisga ham katta qulaylik yaratadi (XS.,25.10.01). Uchta gapning sun'iy ravishda birlashtirilganligini anchagina mulohazadan so`ng bilib olish mumkin.*

2. Badiiy til elementlari ortiqcha ishlatilgan jumlarlar, matnlar miqdori kundan-kunga oshib bormoqda. Matbuot tilining jonliligi, ta'sirchanligini ta'min-lashda badiiy uslub vositalarining ahamiyati katta. Lekin ularni gazeta tili talabiga mos holda, me'yorida ishlatmaslik balandparvozlik, sun'iylik, ortiqcha tavsif kabilarni vujudga keltiradi.

Quyidagi matnga e'tibor bering. Undagi o'xshatish va tasviriy vositalar bir qarashda maqolaga ko'rk bag'ishlagandek, juda chiroyli badiiy ifoda tanlangan. Lekin aslida bu jumlarlar maqolaga zo'rma-zo'raki tiqishtirilgan o'ta badiiy, qisman mantiqsiz jumladan boshqa narsa emasligi aniq ko'rinadi: G'o'za paykallari tugab, qovun-tarvuz ekilgan maydonga chiqdik. Bu maydonlarda ham bironta begona o't ko'zga tashlanmaydi. *Jo'yaklardan bir hovuch ko'z yoshiday miltirab suv oqib turibdi. Qovun va tarvuz palaklari qirq kokil sanamning sochlariday pushtaga tartib bilan tarab qo'yilgan. Quyosh ufqqa qaymoq surtilgan shirmon nondek qizarib bota boshladi (XS., 1.09.98).*

Ushbu satrlar qog'ozga tushayotganida Navoiy viloyati-dan bir mitti *xushnasim esib qoldi...* (O'AS.,12.12.97). Bu holat ham gazeta tilida ortiqcha ishlatilgan badiiy til elementi sifatida ko'rinadi.

Gazeta tilida punktuasion me'yor muammolari

Tinish belgilarining o'z o'rnida ishlatilishi jumla-ning mazmuni, ravonligi, aniqligiga katta ta'sir qiladi. Ularni noo`rin tushirish yoki qo'llash uslubiy noaniqlik va g'alizlikka sabab

bo'lishi mumkin. Gazetalarda tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq ayrim kamchiliklar uchraydi. Bunday holatlar, fikrimizcha, juz'iy nuqsonlar emas.

Gazeta tilida punktuasion me'yorga rioya qilmaslik hollari quyidagi o'rinlarda yuz bergan: 1. Bog'langan qo'shma gaplarda zidlovchi va qiyoslash munosabatini bildiruvchi bog'lovchilardan so'ng vergul qo'yish (qoida bo'yicha ushbu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi). 2. Uyushiq bo'laklar va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplarda vergul ishlatmaslik. 3. Ko'chirma gaplarda tinish belgilarini noto'g'ri qo'llash. 4. Undov gaplarda tireni tushirib qoldirish, tire o'rnida defis ishlatish. 5. So'roq, buyruq va undov gaplar oxirida zarur tinish belgisini tushirib qoldirish (mas., sarlavhalarda tinish belgisi qo'yilmagan). 6. Iboralarda qo'shtirnoqni noto'g'ri qo'llash. Misollarni ko'zdan kechiraylik.

1. Gazetalarda modal so'zlar va bog'lovchilar bilan bog'liq holda tinish belgilarini ishlatish qoidalari buzilayapti. M.: Obuna davri *shubhasiz* oson kechmadi (XS.,25.10.01), Ahvol *ayniqsa* Osiyo davlatlarida jiddiy bo'ladi. *Avvalo* shu narsani ta'kidlab o'tish *lozimki* bizning universitet Samarqand hududida magistraturaga eng ko'p talaba qabul qiladigan oliy o'quv yurti hisoblanadi. Bunda *albatta*, har yili Toshkentda o'tkaziladigan xalqaro yarmarkalarning ham o'rni bor. *O'ylaymanki* kelajakda bu muammolar o'z yechimini topib izga tushib ketadi. (Z., 20.11.01). Ushbu misollarda, ajratilgan o'rinlarda, vergul qo'yish lozimligi to'g'risida imlo qoidasi mavjud. Lekin bu qoidaga deyarli barcha gazetalarda rioya etilmayapti.

Chunki, butun dunyoda e'tirof etilgan me'yorlar asnosi-da o'tadigan saylov demokratiyaning asosiy talablaridan biridir (O'O., 23.12.99), *ya'ni*, bu balo-qazo tag-tomiri bilan yo'qotilishi lozim (XS.,25.10.01). Bularning barchasida vergul ortiqcha.

2. Ushbu misolda tire emas, vergul qo'yish lozim: Uy qushlari sayrashmasa - sovuq uzoq davom etadi (Z., 20.11.01). Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

3. Iborada qo'shtirnoq noto'g'ri ishlatilgan: Tabiiyki, Buba Diop hozircha o'zini «taroziga» solmoqda. Hozir esa ularning o'yinlarini «jilovlaydigan» terma jamoa topilmayapti (XS.,18.06.02).

Gazeta tilida uslubiy me'yor muammolari

Ko'plab faktlar tilning boshqa normalarining buzilishi aksariyat holatlarda uslubiy norma bilan bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Quyida uslubiy ravon-lik, aniqlik va ixchamlikka ta'sir etuvchi ayrim holat-larni ko'zdan kechiraylik.

1. Matbuot tili konkretlikni, har bir narsani o'z nomi bilan atashni talab etadi. Ayrim holatlarda aniqlikka putur yetayapti yoki chalkashlik holatlari yuz berayapti. M.: Respublikamizda «*Xalq ta'limi to'g'risida*» Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilingandan keyin oliy va o'rta maxsus ta'limni yanada rivojlantirish uchun keng ufqlar ochildi (Z.,20.11.01). Keyingi yillarda «*Ta'lim to'g'risida*»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va ilm-fanni rivojlan-tirishga qaratilgan bir necha qarorlar qabul qilindi (XS.,1.09.98), Sessiya oralig'ida O'zbekiston Respublika-sining «*Ta'lim to'g'risida*»gi (? qonuni) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining Toshkent shahrida bajarilishi o'rganildi (XS.,20.11.01). Shu yerga oydinlik kiritilishi, muhrda firma nomi qaysi xalqaro tillarda ko'rsatilishi «*Til to'g'risida*»gi Qonunimizdan kelib chiqib, aniq belgilab qo'yilishi lozim, deb hisoblayman (XS.,11.12.03). Barchaga ma'lum bo'lgan qonunlar nomini yozishda bir xillikka erishish shart, deb hisoblaymiz.

Joriy yilning o'tgan davrida birgina Samarqand shahrining osori-atiqalari 260 million daromad keltirdi (Z.,20.11.01). Pul birligi yozilishi lozim. Jumlada mavhumlik yuz bergan.

...viloyat davlat pedagogika instituti rektori Ravshan Rahmonovning xabar qilishicha,... (O`AS.,12. 12.97). Oliy o`quv yurtining nomi to`liq aks etishi lozim: *Navoiy davlat pedagogika instituti* tarzida.

2. Ayrim holatlarda fikr noto`g`ri ifodalangan. M.: Darvoqye, 30-tur uchrashuvlari yakunlangan bo`lsa-da, kecha Farg`onada *hyech qanday ahamiyat kasb etmagan* “Neftchi” va “Paxtakor” jamoalari o`rtasida kechiktirilgan tur uchrashuvi o`tkazildi (XS.,5.12.02). Ajratilgan birikma noo`rin ishlatilgan, jumlada g`alizlik paydo bo`lgan.

3. Ibora bilan birga aynan shu ma`noni ifodalovchi so`zni yonma-yon ishlatish bilan uslubiy norma buzilgan holatlar mavjud. M.: Ko`zlarimga ishonmay, chiptani qo`limga olarkanman ishning *xamirdan qil sug`urgandek tez* bitganiga hyech ishongim kelmasdi (XS.,8.11.02).

4. So`z ma`nosini hisobga olmaslik uslubiy norma buzilishiga sabab bo`lgan. M.: Shuningdek, ma`ruzachi yangi tahrirdagi “Prokuratura to`g`risida”gi Qonunning ilgari-gisidan *keskin* farqi xususida ham to`xtalib o`tdi (K.,26.12.01). *Keskin* so`zini *tubdan* so`zi bilan almashtirish lozim.

5. Uslubiy norma ayrim qo`shimchalarni noto`g`ri ishlatish natijasida sodir bo`lgan (Bu holat yuqorida ham qayd etilgan edi). Quyidagi matnda tushum va qaratqich kelishiklari ortiqcha ishlatilgan. M.: Terror murosasiz ko`rinishda olib borilishi natijasida: - yer yuzi ekologiyasida keskin buzilish *holatlarini* yuzaga keldi; - *ishsizlikning* kuchaydi; - yer yuzida yangi urush *o`choqlarining* paydo bo`ldi; insoniyat barpo qilgan moddiy va ma`naviy *boyliklarning* vayron bo`lmoqda (K.,26.12.01).

6. Ayrim texnik xatolar tufayli (buni gazeta xodim-lari kompyuter bilan bog`lashadi) matnlar palapartish, bir-biriga bog`lanmagan holda bosilmoqda. M.: Uchinchi tosh - Nefrittosh esa *Amir Temurning qabriga qo`yilgan*.

Masjid hovlisidagi marmar lavhada ushbu yozilgan: «Ulug` sulton, shavqatli hoqon, din homiysi va xanafiya mazhabining

rivojkori ibn sulton, tinchlik va din panohkori esa Amir Temurning qabriga qo'yilgan).

Masjid hovlisidagi marmar lavhada ushbu yozilgan: «Ulug' sulton, shavqatli hoqon, din homiysi va xanafiya mazhabining rivojkori ibn sulton, tinchlik va din panohkori Ulug'bek Ko'ragon»..

Yana shu maqoladan misol: Tangriga shukrlar bo'lsin-kim, yurtimiz uzra mustaqillik shabodalari (?) esib, istiqloq quyoshi nur socha boshlagach, *ulug' bobomiz tomonidan bunyod etilgan bu betakror obida yana qayta ta'mirlanib, ma'naviy-madaniy merosimizning umrboqiy durdonalari qatoridan mustahkam joy oldi.*

lagach, ulug' bobomiz tomonidan bunyod etilgan bu betakror obida yana qayta ta'mirlanib, ma'naviy-madaniy merosimizning umrboqiy durdonalari qatoridan mustahkam joy oldi (Z.,20.11.01).

7. Adabiy normaning bir necha holatlari buzilgan matnlar gazetalarda ko'payib bormoqda. Masalan, ushbu matnda ortiqchalik uslubiy noravonlikka sabab bo'lgan: Mahalla faoliyatini yanada takomillashtirishning zarur shartlaridan yana biri tadbirkorlikni rivojlantirish-dir. Bu mahallalarda, ayniqsa, qishloq sharoitida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni joylarning o'zida yechishga, ikkinchidan, *ushbu yo'l bizningcha, oz mablag' sarflab, ko'pchilikni ish bilan ta'minlashga, uchinchidan, bu borada erishiladigan ijobiy natijalar nafaqat iqtisodiy islohotlar jarayonini, balki aholining turmush darajasini ham yaxshilashga (, ?) ayniqsa, ish bilan bandlik dasturini amalga oshirishga katta yordam beradi (D.,29.04.04).*

Yuqorida adabiy me'yor buzilishlarining bir muncha jiddiy holatlariga misollar keltirdik. Bulardan tash-qari ayrim juz'iy kamchiliklarga ham yo'l qo'yilmoqda, ularga e'tiborsizlik matbuot tilining keyingi rivoji va yangi jurnalistlar avlodini tarbiyalashda, umumiy savodxonlik va yuqori nutq

madaniyatiga erishishda salbiy o`rin tutadi. Bu kamchiliklar orasida, ayniqsa, so`z qo`llash, jumla tuzish, gapning uslubiy ravonligiga e`tibor bermaslik hollari barcha gazetalarda u yoki bu darajada mavjud bo`lib, ayrim gazetalarda ular kundankunga ko`payib bormoqda. Shunday gazetalar borki, ularning ayrim sonlarida o`nlab turli xarakterdagi kamchiliklar uchraydi. Ushbu holat ancha tashvish uyg`otadi.

O`zbekiston Qahramoni Ozod Sharofiddinov bu kabi holatlarni keskin tanqid qiladi: «OAVda til masalalarida yo`l qo`yilayotgan bunday bepisandlikka, savodsizlikka, loqaydlikka mutlaqo toqat qilib bo`lmaydi. Negaki, yo`l harakatini boshqarib turadigan Yo`l harakati xavfsizligi bor, ammo ona tilimiz qoidalarining muttasil va bekalma ko`st bajarilishini taftish qiladigan Davlat tili nazorati yo`q. Til borasidagi o`zboshimchaliklari va tartibbuzarliklari uchun javobgarlikka tortish Jinoyat majmuasida nazarda tutilmagan. Shuning uchun til boyligini asrash, uning qonun-qoidalariga qat`iy amal qilishni nazorat etish, tilimizning beqiyos go`zalliklarini namoyish qilish to`lalgicha OAV zimmasiga tushadigan mas`uliyatdir. Bir vaqtlar ular bu mas`uliyatni bajarishga, birinchi navbatda o`zlarining tillari go`zal, ma`nodor va benuqson bo`lishiga juda katta e`tibor berar edilar, har haftada maxsus shu masalaga bag`ishlangan ishlab chiqarish majlislari o`tkazib turishardi, tilshunoslar va boshqa nufuzli odamlarni taklif qilib, ular yordamida o`z faoliyatlarini tanqidiy taftishdan o`tkazar edilar. Nega bugungi kunda bu ishlar qilinmay qo`yildi? Axir, bugun o`zbek tili davlat tili bo`lganiga salkam o`n besh yil bo`layotgan bir pallada uning rivoji uchun kurash hammamiz uchun farz-ku!»⁵⁸.

Matbuot tili o`zbek tilining ajralmas bir tarmog`i, uning ko`zgusi, savodxonlik va nutq madaniyati namunasi-dir. Yuqorida qayd etilgan kamchiliklar ba`zi gazetalarda ko`proq,

⁵⁸ Шарафиддинов. Она тилим – ифтихорим, инжа ганжинам. // «Ўзбекистон овози» газ. 2003. 11 декабрь.

ayrimlarida kamroq uchraydi. Jurnalistlarning chinakam ijodkorligi, tanqidga xolis munosabatigina matbuot tilining namnuaviyligini saqlab qolishi, matbuot tili madaniyatining yuksak bo'lishiga xizmat qilishi mumkin. O'latuvchi faoliyati uchun matbuot materiallari kar tomonlama foydali manba vazifasini bajarishini jurnalistlar kam unutmali kerak.

O'zbek adabiy tilining qanchalik me'yorga keltiril-ganligi va unga qay darajada amal qilinishi umummilliy o'zbek madaniyatining taraqqiyot darajasini belgilovchi omillardan sanalar ekan, bu muammo bilan shug'ullanish ziyolilarning bundan keyingi hal qilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifasi bo'lib qolaveradi.

Tayanch so'z va birikmalar: Til, til sistema sifatida, til madaniyati, nutq, me'yor tushunchasi, adabiy til, adabiy me'yor, umumiy me'yor, xususiy me'yor, adabiy til me'yoriy ko'rinishlari, leksik me'yor, imlo qoidalari, morfologik me'yor, sintaktik me'yor, uslubiy me'yor, punktuasion me'yor, gazeta tili va adabiy me'yor.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Til va nutq tushunchalari haqida.
2. Til madaniyati nima?
3. Me'yor tushunchasiga ta'rif bering.
4. Adabiy til va adabiy me'yor nima?
5. Umumiy me'yor va xususiy me'yor haqida ma'lumot bering.
6. O'zbek adabiy tilining me'yori qaysilar?
7. Quyidagi adabiy til me'yori to'g'risida ma'lumot bering:
 - leksik-semantik me'yor.
 - talaffuz(orfoepik) me'yor.
 - grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.

- imloviy me'yor.
- uslubiy me'yor.
- punktuasion me'yor.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Karimov I.A. So'z boshi. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.

3. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, II qism.- Toshkent, 1998.

4. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.

5. Mamatov A.E Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari.- Toshkent, 1991.

6. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981.

7. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 13-19-b.

8. Karimov S., Mamatov X., Bo'riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.

9. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev G'. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Fan, 1992.

10. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Ikkinchi nashri. Akademik litseylar uchun darslik. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. - 128 b .

Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

11. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.

12. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til ma`naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta'sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008.

13. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004. – 102 b.

5-mavzu: O`QITUVCHI NUTQNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Nutqning to`g`riligi.
2. Nutqning aniqligi.
3. Nutqning mantiqiyligi.
4. Nutqning tozaligi.
5. Nutqning ta`sirchanligi.
6. Nutqning maqsadga muvofiqligi.

Nutq so`zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko`rinishi bo`lib, u faqatgina tilga bog`liq hodisa sanalmasdan, u ham ruhiy, ham estetik hodisadir. Shuning uchun unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchi va kitobxonga ko`zda tutilgan maqsadning, aytilmoqchi bo`lgan muddaoning to`liq borib yetishi, ularga ma`lum ta`sir o`tkazishi nazarda tutiladi hamda bu vazifalarning amalga oshirilishida nutq oldiga ayrim talablar qo`yiladi. Bu talablar grammatik jihat-dan nutqning to`g`ri bo`lishini, so`zlar ko`zlangan ma`noni aniq aks ettirishini, chiroyli, yorqin va ta`sirchan bo`li-shini taqozo qiladiki, ular nutqning asosiy xususiyat-lari sifatida qaraladi. Nutq haqidagi ta`limot – ortolo-giya ana shu sifatlarni o`rganish bilan shug`ullanadi.

Qadimgi davrlarda ham nutqning bu jihatlariga alohida e`tibor berib kelishgan. Masalan, rimliklar namunaviy nutqning sifatlarini o`zida aks ettiruvchi qoidalar ishlab chiqishgan. Mashhur notiq Siseron fikricha, aniqlik va tozalik nutq uchun shunchalik zarurki, ularni asoslab o`tirishning ham hojati yo`q. Ammo notiq tinglovchilarni o`ziga jalb qilishi uchun bu sifatlar hali yetarli emas. Buning uchun nutq jozibador bo`lishi ham kerak. Notiq Dionis Galikarnas esa nutqda maqsadga muvofiqlikni muhim deb hisoblagan. XII-XIII asr O`rta Osiyo

ma'naviyatining yirik vakili hisoblangan Mavlono Husayn Voiz Koshifiy ham «Futuvvatnomai sultoniyy» asarining «Tariqat ahlining odobi» deb nomlangan beshinchi bobida nutqning bu fazilatlarini haqida muhim tezislarni ilgari surgan.

Xullas, ma'naviyati va madaniyati shakllangan xalqlar uchun notiqlik san'ati inson faoliyatida muhim omillardan sanalgan hamda asosiy e'tiborni nutqning yaxshi bo'lishiga qaratgan o'z nazariyotchilari ham bo'lishgan.

Agar nutq ma'lum vaziyat va shart-sharoitlarda amalga oshirilishini nazarga olinsa, bunda joy, vaqt, mavzu va muloqot jarayonining maqsadi kabi omillar katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aytilganlarni qisqacha umumlashtiradigan bo'lsak, nutqning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni belgilash lozim bo'ladi: **to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ta'sirchanlik, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik**. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi.

Nutqning to'g'riligi⁵⁹

Nutqning to'g'ri bo'lishi uning bosh kommunikativ xususiyati hisoblanadi. Nutqning to'g'ri tuzilgan bo'lishi tomonlarning – so'zlovchi va tinglovchining, yozuvchi va o'quvchining bir-birlarini tez va oson tushunishlarini ta'minlaydi. Agar nutq to'g'ri bo'lmasa, u aniq ham, maqsadga muvofiq ham, mantiqiy ham bo'lmaydi. To'g'rilik deganda, - deb yozadi V.G.Kostomarov, - nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan me'yorining qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, orfografik, lug'at va grammatik me'yorlarini egallashni tushunish lozim bo'ladi. Demak, nutqning to'g'ri bo'lishi dastlab uning adabiy til me'yorlariga muvofiq kelishi bo'lib hisoblanadi.

⁵⁹ Мазкур мавзуни ёритишда куйидаги дарслик материалларидан ҳам фойдаланилди: Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристининг нутк маданияти. Дарслик. – Тошкент, 2004.

Nutqning to'g'ri bo'lishi asosan ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga amal qilishni taqozo qiladi. So'zlardagi ayrim bo'g'inlarning zarb bilan talaffuz qilinishi, ya'ni ularga urg'uning tushishi hamma tillarda ham bir xil xususiyatga ega emas. O'zbek tilida shunday hodisa kuzatiladi. Masalan, *olma* so'zini olaylik. Bu so'zni alohida, urg'usiz olib qaraganda uning qanday ma'no anglatayotganini bilish qiyin bo'ladi. Urg'u esa undagi ma'noning reallashuviga ko'maklashadi, ya'ni *o'lma* tarzida urg'u birinchi bo'g'inga tushganda harakat, *olma** tarzida oxirgi bo'g'inga tushganda esa mevaning bir turi ma'nosi anglashiladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina: *qa*tlama – qatlama**, *ho*zir – hozi*r*, *yigitcha* – yigi*tcha*, *o'quvchi*miz – o'quvchimi*z*, *ya*ngi – yangi** kabi. So'zlardagi bu xususiyatlarni farqlamasdan, urg'uni noto'g'ri qo'llash so'zlardagi ma'noning buzilishiga olib keladi. So'zlar talaffuzidagi bu kabi holatlarga, ayniqsa, maorif va madaniyat xodimlari e'tibor berishlari va boshqalarga o'rnak bo'lishlari lozim.

Talabalar mehmoni so'z birikmasida ham mulohazali holat mavjud. Bu holat qaratqich kelishigi qo'shimchasi-ning tushirilishi bilan bog'liq. Qiyoslang: *Talabalar mehmoni*(kimningdir talabalar mehmoni) – *Talabalarning mehmoni* (kimdir talabalarning mehmoni).

O'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalashning yo'llaridan biri – *lar* qo'shimchasi ekanligi ma'lum. Shu bilan birga, bu qo'shimchani ko'plik doirasidan chiqib, asosan ot va fe'llarga qo'shilganda hurmat, kinoya, piching, noaniqlik, kuchaytirish, takrorlash, ta'kid, predmetning turi, umumlashtirish, so'zlovchi munosabatini alohida bildirish singari turli xil ma'nolarni ifodalashi uning grammatik-uslubiy imkoniyatlarining kengayib borayotganligidan dalolat beradi. Garchi qo'shimchani bu kabi ma'nolarni anglatish jarayonidagi so'zlarga qo'shi-lish tarzi morfologik me'yorning buzilishi sanalsa-da, uni uslubiy me'yorning buzilishi deb

bo'lmaydi: *tillar, yuraklar, jigarlar, burunlar, boshlar, suvlar, qonlar, sutlar, saroblar, barglar, yo'qlar, (ketmaydimi) chiriblar* kabi.

Ma'noning to'g'ri, maqsadga muvofiq ifoda etilishida ohangning ham xizmati katta. So'zlarga qaysi yo'sinda urg'u berilishiga qarab ma'no ottenkalari o'zgarib borishi mumkin. Masalan, nutq jarayonida *keling* so'zidagi samimiyat, piching, masxaralash, norozilik kabi ottenkalar faqat ohang yordamidagina reallashadi.

Xullas, ona tili xazinasidan kerakli grammatik shakllarni tanlash va ularni joy-joyida ishlatish, nutqni to'g'ri tuzishga erishish, har bir til birligini o'rniga qo'yib talaffuz qilish nutq madaniyatining asosiy talablaridan sanaladi.

Nutqning to'g'ri bo'lishi barcha soha mutaxassisleri uchun ham muhimdir. Ayniqsa, fizika, kimyo, matematika, biologiya, informatika fanlari o'qituvchilari o'quvchilar-ning turli tillardan kirib kelgan atamalarni ishlatish-da, urg'uni to'g'ri qo'llashlariga, to'g'ri talaffuz etishlari-ga e'tibor berishlari lozim. Chunki ruscha-baynalmilal so'z va atamalarning talaffuzi, ya'ni urg'uni qo'llash o'zbek tilinikidan birmuncha farq qiladi.

Nutqning aniqligi

Aniqlik ham nutqning asosiy kommunikativ sifat-laridan biridir. Agar to'g'rilik nutqning yuzaga kelishida faqat til omili, zaruriy belgisi sifatida qaralsa, nutqning aniqligi deyilganda uning shakllanishiga xizmat qiladigan, tildan tashqarida bo'lgan omillarni ham nazarda tutish lozim bo'ladi. Bunda dastlab til va tafakkur munosabati turadi. Chunki tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar o'rtasidagi mutanosiblik va uning nutqda aks etishi ana shu aniqlikning xuddi o'zidir.

O'zbek tilining aloqa vazifasi doirasida yozuvchilik va jurnalistlik faoliyatida, o'qish-o'qitish jarayonida, millat vakillarining kundalik muloqot jarayonida bunday kamchiliklar

uchrab turibdi. Tildagi bu nuqsonni V.V.Vinogradov ham o`z vaqtida qayd qilgan edi: «...uchinchi keng tarqalgan stilistik kasallik – bu so`zning voqyelikka mos kelmasligidir, so`zning predmetdan uzilib qolishi – bu buzilish, hatto ba`zan uning predmet (asosiy) ma`nosini yo`q qilishdir. Bu kasallik tasvirlanayotgan hayot bilan tanish bo`lmaslikdan, yozuvchilar o`zlari chizayotgan narsa va hodisalarni yaxshi bilmasligidan kelib chiqadi».

Shunday qilib, aniqlik – bu so`zning o`zi ifodalayotgan voqyelikka mos va muvofiq kelishidir.

Aniqlikni boshqacha tushunish ham mumkin. Bu so`z va uning ko`pchilik tomonidan qabul qilingan ma`nosi hamda uning nutqda qo`llanishi bilan muvofiq kelishidir.

Ko`rinadiki, aniqlik nutqning asosiy xususiyati sifatida, eng avvalo, til tizimidagi leksik daraja bilan bog`lanadi. «Nutq aniqligi» atamasi ostida voqyelik va uning tildagi ifodasi bo`lgan leksik birlik – so`zlar o`rtasidagi o`zaro muvofiqlik anglashiladi.

Til birliklaridan sinonimlar namunaviy nutqning kosisil bo`lishiga ko`proq xizmat qiladi. Chunki ular mazmunan birlariga yaqin bo`lsa ham, ma`no qirralariga ko`ra farqlanadi. Ana shu qirralardagi farqlar ularni tanlab ishlatish imkoniyatini beradi. Masalan, *aniq, ochiq, yaqqol, ravshan, yorqin, oydin, ayon* sinonim-larini olib ko`raylik. Garchi ular umumiy ma`noda bir sinonimik qatorni tashkil qilishsa ham, birining o`rnida ikkinchisini qo`llash hamma vaqt mumkin bo`lavermaydi. *Aniq eshitdim* deyish to`g`ri bo`lgani holda *oydin eshitdim* deyish mumkin emas, *hamma narsa ayon, hamma narsa ravshan, hamma narsa aniq, hamma narsa oydin* deyish mumkin bo`lgani holda *hamma narsa yorqin* deb bo`lmaydi. Chunki asosan *aniq* eshitishga, *ochiq* va *oydin*

tushunishga, *yaqqol* va *yorqin* ko`rish va eshitishga, *ravshan* ko`rish va tushunishga xos⁶⁰.

Aniqlikni vazifaviy uslublar doirasida tushunish ham o`ziga xos. Masalan, u so`zlashuv uslubida vaziyatga bog`liq bo`ladi. Rasmiy uslubda esa u tildagi tayyor, Ёolip holiday so`z va iboralardan foydalanishni taqozo qiladi. Ilmiy uslubda atama va uning ifodalanish aniqligi asosiy o`rinda turadi. Publisistik va badiiy uslublarda esa so`z va iboralar faqatgina badiiy-estetik vazifani bajarishdan tashqari yozuvchining g`oyaviy maqsadi uchun xizmat qilishi lozim bo`ladi.

So`z qo`llash aniqligining chegarasini belgilash birmuncha murakkab ish bo`lib, u tilni yaxshi bilishni va uning vazifaviy uslublar doirasida qo`llanish imkoniyat-larini o`rganishni taqozo qiladi.

Tadqiqotchilar aniq nutq yaratish uchun so`zlovchidan quyidagilar talab etilishini qayd qilishgan:

«a) tilning sinonimik imkoniyatlarini bilish va sinonimik qatorlardan kerakligini ajratib, nutqda qo`llash;

b) nutqda ishlatiladigan so`zning anglatgan ma`nolari-ni har tomonlama bilish;

v) so`zning ko`p ma`noliligiga jiddiy e`tibor berish, ko`p ma`noli so`z nutqda qo`llanganda uning qaysi ma`no qirrasi ko`zda tutilayotganini aniq tasavvur qilish; fikr-ning yuzaga chiqishida bu so`zning boshqa ma`no qirralari monelik qilish-qilmasligini ko`z oldiga keltirish;

g) omonimlarning xususiyatlarini bilish, chunki ular-ni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi;

d) paronimlarni bilish, ulardagi tovush yaqinlik-lariga e`tibor berish;

ye) tor muhitda ishlatiladigan, chetdan kirgan, kasb-hunarga oid, arxaik, eskirgan, dialektizm so`zlarning ma`nolarini yaxshi anglagan holda nutqqa kiritish»⁶¹.

⁶⁰ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1974, 30-6.

Nutqning mantiqiyligi

«Aristotel insonning eng xarakterli xususiyati - fikrlarini isbotlay olishi deb bilgan. Qadim Xitoy va Qadim Hind notiq va mantiqshunoslari fikrni asoslash jarayonini diqqat bilan oʻrgangan. Buyuk ajdodlarimizdan biri Forobiy esa fikrni asoslash toʻgʻrisidagi taʼlimot-ni mantiq ilmining asosiy tayanchi deb hisoblagan.

Tinglovchilarga haqiqatni yetkazish va ularni u yoki bu fikrning toʻgʻriligiga ishontirish bilan bogʻliq har qanday nutqiy jarayon oʻzaro bogʻliq uch unsur dan tashkil topadi.

Birinchi unsur - isbotlanishi kerak boʻlgan fikr. Ikkinchisi - fikrning toʻgʻriligini isbotlovchi asos va dalillar. Uchinchisi - namoyish, yaʼni fikr va asos (dalil)lar oʻrtasidagi aloqani kursatuvchi mantiqiy bogʻlanish.

Fikrlashning mantiqiyligini taʼminlashda bu uch unsur borasida shakllangan qoidalarga rioya etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga aytish lozimki, fikrlash jarayonida mantiqiy xatolar mantiqiy fikrlash mada-niyatining zaifligi va fikriy pala-partishlik oqibatida vujudga keladi yoki tinglovchilarni ongli ravishda adashtirish, bahs-munozarada qanday boʻlmasin yutib chiqishga intilish istagidan kelib chiqadi⁶².

«Auditoriya bilan muloqotga kirishar ekan, notiq uni oʻz fikrlariga inontirishi, mafkuraviy oziq berishi, odamlarning ongini oʻzgartirishi lozim. Notiq nutqining taʼsirchan va ishonarli boʻlishida asosiy shartlardan biri esa fikrning mantiqiyligidir».

⁶¹ Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 26-б.; Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 58-б.

⁶² Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Тошкент: Академија, 2007, 116-б. Мавзуни ёритишда ушбу китобнинг 111-, 114-, 117-, 118-бетларидан қам иқтибослар келтирилди.

«Demak, notiqning muvafaqqiyati uning qay darajada mantiqning asosiy qoidalarini bilishi va ularga rioya etishiga bog'liq. Shuning uchun pedagogika, psixologiya, tilshunoslik bilan bir qatorda mantiq nutqning uslubiy asosini tashkil etadi va omma oldida nutq so'zlash, targ'ibot-tashviqot olib borish mahoratini o'rganishda amaliy asos vazifasini o'taydi. Mantiqiy nutq tinglov-chilarni butkul jalb etish, ayrim o'rinlarda esa ularga gipnotik ta'sir o'tkazishga qodir. Va aksincha, bayondagi izchillikning yo'qolishi, fikrning mavhumligi va isbotlanmaganligi nutqning tasir kuchini yo'qqa chiqarishi va notiqning obro'sini tushirishi mumkin».

«Isbotlanayotgan fikrga (tezigga) nisbatan mantiq qator talablarga rioya etishni taqozo etadi. Birinchi va eng muhim talab - fikr haqqoniy bo'lishi kerak».

«Fikrga (tezigga) nisbatan qo'yiladigan ikkinchi talab - fikr aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim. Nutqiy muloqotda fikrni aniq va ravshan ifodalash uch amalda bajarishni taqozo etadi. Birinchidan, notiq o'zi uchun fikrni aniq ifoda etishi kerak, ikkinchidan, fikr tinglovchi(lar) uchun ravshan shaklga tushirilishi lozim va nihoyat, uchinchidan, matnda fikrning yuqoridagi ikki shakli o'zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Notiq o'zi uchun fikrni aniq ifoda etishi deganda, so'zlayotgan odamning mavzuni yaxshi idrok etishi, o'z fikrining to'g'riligi borasida shubha qilmasligi tushuniladi».

Nutqning mantiqiyligi uning asosiy sifatlari – to'g'rilik va aniqlik bilan chambarchas bog'langandir. Chunki grammatik jihatdan to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifoda etish uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan leksik bir-lik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi va o'quvchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan umuman anglashilmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Nutqni shakllantirishdagi e'tiborsizlik oqibatida ba'zan man-tiqsizlik ham yuz beradi. Misollarga murojaat etaylik. Quyidagi misolda o'quv dasturi haqida fikr-

mulohaza yuritilsa-da, *o`quv jadvali* (dars jadvali ma`nosida) birikmasi noto`g`ri ishlatilgan: Shuningdek, umumta`lim maktablarida “Milliy istiqlool g`oyasi va ma`naviyat asoslari” fani bilan birgalikda O`zbekiston Respublika-sining Konstitusiyasini o`rganish kursi *o`quv jadvaliga* kiritilgan (XS., 8.11.02).

Darvoqye, 30-tur uchrashuvlari yakunlangan bo`lsa-da, kecha Farg`onada *hyech qanday ahamiyat kasb etmagan* “Neftchi” va “Paxtakor” jamoalari o`rtasida kechiktirilgan tur uchrashuvi o`tkazildi (XS.,5.12.02). Ajratilgan birikma noo`rin ishlatilgan, jumlada g`alizlik paydo bo`lgan.

Nutqning mantiqiy bo`lishi so`zlovchi yoki yozuvchining tafakkur qobiliyati bilan bog`liq. Shuning uchun manti-qiylik faqatgina til hodisasi sanalmasdan, tildan tashqarida bo`lgan omil sifatida ham qaraladi. Ya`ni bunda notiqdan faqatgina tilni yaxshi bilish emas, o`zi mulohaza yuritayotgan mavzu atrofida keng bilimga ega bo`lish ham talab qilinadi.

«Nutq madaniyati asoslari» asarida mantiqiylikni ikki guruhga bo`lib – predmet va tushuncha mantiqiyligi tarzida o`rganish tavsiya etilgan. Predmet mantiqiyligi nutqdagi til elementlari bilan real voqyelikdagi predmet va hodisalarning mazmuniy aloqasi hamda munosabatidir. Tushuncha mantiqiyligi esa nutqda mantiqiy tafakkur qurilishi va uning til elementlari semantik aloqadorli-gida mantiqiy rivojlanishning aks etishidir.

Ko`rinadiki, so`zlarning o`zi ifodalayotgan predmet va hodisalarga mos ravishda fikrni aniq ifodalashi predmet mantiqiyligi bo`lsa, so`z birikmalarining, gaplarning, abzaslarning, hatto butun-butun matnlarning bir-biriga mosligi, fikrni izchil davom ettirishga bo`ysundirilishi tushuncha mantiqiyligidir.

Tushuncha mantiqiyligi haqida aytilgan fikrdan xulosa chiqarish mumkinki, nutq mantiqiyligining asosiy lingvistik sharti – leksik-semantik va sintaktik me`yorga amal qilishdir.

Tushuncha mantiqiyligi alohida olingan matnda fikriy ketma-ketlik, mantiqiy izchillik bo`lishini taqozo qiladi. Ammo bu talabni nutqiy jarayonning hamma ko`rinishlarida ham o`rtaga qo`yib bo`lmaydi. Masalan, vazifaviy uslublarda, xususan, ilmiy va badiiy nutq uslublarida bu talabga qanday amal qilinishini olib ko`raylik. Ilmiy uslubda yozilgan asarlar yaxlit bir qurilishga ega. Unda kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo`lib, ular yagona bir halqaga birlashadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrlar qat'iy izchillikda bayon qilinadi.

Badiiy nutq qurilishi esa biroz boshqacha. Fikrlar bir maromda bayon etib kelinadiyu, birdaniga uzilish yuz beradi va endi boshqa voqyealar hikoya qilib ketiladi. Bu narsa go`yo mantiqiy izchillikka putur yetkazganday ko`rinsa-da, aslida unday emas. Badiiy asarlar, xususan, qissa, roman kabi janrlardagi keng ko`lamlilik tasvir kompozitsiyasini ana shunday tuzishni taqozo qiladi. Mantiqqa putur yetmaganligi bunday asarlarning oxirida ma'lum bo`ladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, mantiqiy nutq deganda yaxlit bir tizim asosida shakllangan, fikrlar rivoji izchil bo`lgan, har bir so`z, ibora aniq, maqsadga muvofiq ravishda yuzaga keladigan nutq tushuniladi⁶³.

Notiq nutqi mantiq qoidalariga muvofiq bo`lishi uchun quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- nutq aniq, ravshan bo`lishi kerak;
- nutqda fikr (bayon) izchilligi saqlanishi kerak;
- nutq jarayonida fikriy ziddiyat bo`lmasligi kerak;
- fikrlar dalillangan bo`lishi kerak.

Mazkur talablar rasmiy mantiqning to`rt asosiy qonuni: e`tirof qonuni, qarama-qarshilik qonuni, uchinchisini inkor etish qonuni va yetarli asos qonuni bilan chambarchas bog`liq.

Nutqning tozaligi

⁶³ Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, 2004.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlariga amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi, namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan xoli bo'lishi kerak. Bu masalaning til jihati bo'lib, nutqiy tozalikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma'naviy-axloqiy qadriyat-larga ega bo'lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqyeda muloqotda bo'layotgan o'zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo'lishi lozim.

«Nutqimizning sofligiga, asosan, quyidagilar ta'sir qiladi:

1. Mahalliy dialekt va shevalarga xos so'z, ibora, shuningdek, grammatik shakllar, so'z va so'z birikmalari-ning talaffuzi, urg'usi.

2. O'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari.

3. Jargonlar.

4. Vulgarizmlar.

5. Nutqda ortiqcha takrorlanadigan «parazit» so'zlar.

6. Kanselyarizmlar»⁶⁴.

Nutqimizning toza bo'lishiga xalaqit berayotgan ling-vistik elementlar, asosan, dialektizmlar va varvarizm-lardir. To'g'ri, ular tilimizda ishlatilishi kerak, busiz bo'lmaydi. Chunki badiiy adabiyot tilida dialektizm va varvarizmlar ma'lum badiiy-estetik vazifani bajarishi, muallifning ma'lum g'oyasini, niyatini amalga oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Dialektal so'zlarning badiiy adabiyotda o'rni bilan ishlatilishi faqatgina maqsadga muvofiq bo'lib qolmasdan, adabiy tilimizning boyib borishiga, umumxalq tilidagi ayrim elementlarning saqlanib qoli-shiga xizmat qilishi ham mumkin. Shuning uchun ham dia-lektizmlar va adabiy til me'yori

⁶⁴ Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 26-б.; Кудратов Т. Нутқ маданияти асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1993, 26-27-б.

doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi.

Ijtimoiy muhitning tildan foydalanish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi tabiiy bir holdir. Kishilar nutqlarida o'zlari bilib-bilmay yoki e'tiborsizlik oqibatida boshqa til elementlaridan ham foydala-nadilar. Boshqa millat vakillari bilan birgalikda yashash, mehnat qilish, ta'lim olish, xullas, muomala jarayonida ana shu hol yuz beradi.

Boshqa tillardan so'z o'zlashtirish ulardan nutqda zaruriyatga ko'ra foydalanish salbiy hodisa emas. Ammo bunday so'zlar orasida varvarizm deb ataluvchi shunday bir qatlam mavjudki, ularni nutqda qo'llash-qo'llamaslik masalasiga adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish lozim.

Varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, voobu'ye, tolko, tolko tak, yestestvenno, ob'yazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarning o'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud. Buning ustiga ular adabiy tilimizga kirgan emas. Demak, bu so'zlar o'zbek tili uchun me'yor emas. Ammo biz ularni, ijtimoiy muhit ta'siridan bo'lsa kerak, albatta, farqiga bormasdan ishlataveramiz, nutqimizni nazorat qilmaymiz. Shu tarzda leksik me'yor ham, nutq ham buziladi.

Shuning uchun ham tilda varvarizmlarning ishlatili-shini ijobiy hodisa sifatida emas, balki me'yorning buzilishi deb qarash va ularni nutqda qo'llamaslik lozim.

Tildagi kanselyarizm deb ataladigan rasmiy-idoraviy uslubga xos bo'lgan so'zlar ham nutqning tozaligiga hamisha xavf solib turadi. Ular rasmiy uslubda fikrni ixcham va mantiqiy ifodalashga juda qulay. Ilmiy uslubda ham tayyor jumlar, shablon iboralardan foydalaniladi. Ammo bunday so'z va iboralarni so'zlashuv va badiiy nutq uslubida ishlatish

matnga putur yetkazishdan boshqa narsa emas. Bunga A.Qahhorning «Nutq» hikoyasi qahramonining tabiiylik va samimiyatdan xoli boʻlgan hamda shu yoʻl bilan gʻoyatda kuchli badiiy obrazni yuzaga keltirgan nutqi misol boʻla oladi. Parcha keltiramiz: *Oʻrtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil toʻlgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!* Eʼtibor beraylik: suhbatda oʻnlab yoki yuzlab kishi emas, ikki kishi – er va xotin ishtirok etayapti. Avval xotin bu gaplarni hazil deb oʻylaydi, «qiyqirib chapak chaladi». Ammo notiq jiddiy qiyofada soʻzida davom etadi. *Birinchidan, ikkinchidan* deb oilada bir yil davomida yuz bergan yutuq-kamchiliklarni rasmiy ravishda sanab oʻtadi va nutqni quyidagicha yakunlaydi: *-Lekin bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni aʼlo darajada olib borayotganligimizga hyech qanday shubha boʻlishi mumkin emas deb hisoblash mumkin. Shu bilan qisqacha soʻzimni tamom qilib, oilamiz bundan keyin ham sharaflar bilan qoplanajagiga toʻla ishonch bildirishga ijzat bering!*

Notiq nutqini tugatgandan keyin yana asliga qaytadi. Xotini uning har bir soʻzidan zavqlanadi, kuladi. Nima uchun notiq bir vaziyatda oʻzini ikki xil tutayapti? Sababi shundaki, u garchi oʻzini «keng eshituvchilar ommasiga moʻljallangan notiq» deb hisoblasa ham, qaysi holatda, vaziyatda qanday gapirish kerakligini bilmaydi. Tilning vazifa va uslub jihatdan amal qilish qonuniyatlarini sayoz tushunadi. Shuning uchun ham uning nutqi notabiiy va kulgilidir⁶⁵.

Parazit soʻzlar deb ataluvchi leksik birliklar ham til madaniyati uchun yotdir. Ular asosan soʻzlashuv nutqida koʻp ishlatilib, notiqning oʻz nutqini kuzatib bormasligi, eʼtiborsizligi natijasida paydo boʻladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Masalan, ayrim kishilar oʻzlari sezmaganda

⁶⁵ Каримов С., Маматов Х., Бўриев И. Юристнинг нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент, 2004.

demak, *xo'sh* kabi so'zlarni qaytaraverishga o'rganib qolganlar. «Bir dokladchining bir soatlik nutqida, - deb yozadi A.Ahmedov, - «o'rtoqlar» so'zi 101 marta, «ya'ni» so'zi 73 marta, «demak» so'zi 60 marta takrorlanganligining guvohi bo'lganmiz. Qarang, bir soatlik nutqda 234 ta ortiqcha, «bekorchi» so'z ishlatilgan-a»⁶⁶.

Vulgar so'zlarning uchrashi ham nutqimiz tozaligiga salbiy ta'sir qiladi. Og'zaki nutqda ba'zan uchrab qoladigan so'kinish, haqorat so'zlarni ishlatish axloq me'yorlariga, sharqona muomala madaniyatimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ishdir. Ammo badiiy adabiyotda personajlarning kuchli hayajonini, g'azabini ifoda etish maqsadida vulgar so'zlarga murojaat qilgan holatlarga duch kelamiz: *Qarg'ash uchun so'z topolmadi*, / *G'azabini hyech bosolmadi*. / «O'ynash» so'zin *hadeb hijjalab*, / *Oxir dedi «Fohisha, jalab...»* (H.Olimjon). Imkoni boricha, badiiy adabiyotda ham vulgarizmlarni ishlatishdan qochish kerak. Chunki badiiy adabiyot kishilarga estetik ta'sir o'tkazish vositasi bo'lish bilan birga tarbiya manbai ekanligini ham unutmashligimiz kerak.

Nutqning tozaligi, ya'ni sof adabiy tilda muloqot qilish o'quvchilar va talabalarning nutq madaniyati hamda mahoratini egallash, notiqlik sifatlariga erishishlari uchun muhim bosqich sanaladi. Bu esa tildan foydalanishda nihoyatda e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

Nutqning ta'sirchanligi

Nutqning ta'sirchanligi deganda, asosan og'zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi va shuning uchun uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e'tiborga olish ham muhim sanaladi. Ya'ni notiq auditoriyani hisobga olishi – ularning bilim daraja-sidan yoshigacha, hatto nutq ijro etilayotgan paytdagi kayfiyatigacha kuzatib turilishi, nutqning tinglovchilar tomonidan qabul qilinishi nazorat qilib borilishi

⁶⁶ Аҳмедов А. Тил бойлиги. – Тошкент, 1968, 27-б.

lozim bo`ladi. Malakali bilimga ega bo`lgan kishilar oldida jo`n, sodda tilda gapirish maqsadga muvofiq bo`lmagani kabi, oddiy, yetarli darajada ma'lumotga ega bo`lmagan auditoriya oldida ham ilmiy va rasmiy tilda gapirishga yo`l qo'yib bo`lmaydi. Xullas, notiqdan vaziyatga qarab ish tutish talab qilinadi. Va butun diqqat-e'tibor ifodalamoqchi bo`lgan fikrni to`laligicha tinglovchilarga yetkazish vazifa qilib qo'yiladi.

Tinglovchining e'tiborini qozongan nutqgina ta'sir-chan nutq hisoblanishi mumkin. Buning uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, suhbat mavzusini yaxshi bilishdan tashqari, uni bayon etishning aniq rejasi ham bo'lishi zarur. Nutqdagi fikrlarni birinchi va ikkinchi darajali tarzda tuzib, ularni o`zaro bog`lab, tinglovchilarga avval nutq rejasini tushuntirib, shundan keyingina gapni boshlash lozim.

So`zlovchining o`z nutqiga munosabati ham muhim. Shunday bo`lgandagina quruq rasmiyatchilikdan qochish mumkin bo`ladi. So`zlovchi va tinglovchi o`rtasida samimiyat paydo bo`ladi. Notiq fikrlarini o`zi yoki auditoriyadagi kishilar hayotidan olingan misollar asosida isbotlashga harakat qilsa, mavzuga doir subektiv mulohazalarini bildirsa, nutq yana ham ishonarli va ta'sirli chiqadi.

«Nutq so`zlash amaliyoti sohasidagi mutaxassislar notiq o`z maqsadiga erishishi uchun nutq madaniyati qoidalariga rioya etishi, kerakli o`rinlarda pauza qilishi, "e-e-e", "hm-hm-hm" kabi keraksizlarni hadeb talaffuz qilmasligi, qo'llarini cho`ntakka solmasligi va shu kabilar haqida ko`p yozishadi»⁶⁷.

«Xo'sh, shunday ekan, notiqlik va muloqot san'ati borasidagi an'anaviy qoida va tavsiyalarga rioya etish kerakmi yoki kerak emasmi? Ularni o`rganishdan naf bormi? Albatta, kerak va naf bor. Faqat nutq muvaf-faqiyati notiq shaxsi, uning ichki dunyosi, fikr bilan so`zning uyg'unligiga bog`liq

⁶⁷ Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. — Тошкент: Академија, 2007, 83-б. Мавзуни ёритишда ушбу манбаининг 84-, 88-, 92-93-бетларига ҳам мурожаат этилди.

ekanligini unutmaslik lozim. Auditoriyani alohida ta'sirchan ritorik vositalar emas, balki fikrlaringiz bilan yuz-qiyofangiz ifodasining muvofiqligi, nihoyat, tinglovchilar bilan muloqotingiz-ning faolligi darajasi ko'proq inontiradi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, haqiqatda nutqning ta'sirchanligini bu omillarning o'zaro muvofiqlashtirilgan jamlamasi ta'minlaydi. Zero, so'z (verbal vosita) va tana harakatida (noverbal vosita) o'z ifodasini topadigan notiq xatti-harakati uning shaxsini belgilovchi va ichki qoida va ti-zimlarga bo'ysunuvchi ichki jarayonlarning natijasidir».

«Notiqning auditoriya oldiga har qanday chiqishi ma'lum axborotni uzatish, o'z fikr va g'oyalarini tinglovchilar ongiga yetkazishdan iborat. Ularni qabul qilish, tushunish esa tinglovchining hayotiy tajribasiga, ehtiyojlari va qiziqishlariga, istak va kayfiyatiga bog'liq. Uzatilayotgan axborotning tinglovchi tomondan qabul qilinishi bir qator subyektiv faktorlarga bog'liq.

Avvalo, bu - tinglovchining eshitishga va axborotni qabul qilishga ichki tayyorgarligi, moyilligi. Ichki tayyorlikka, mayliga qarab kishi o'ziga yetkazilayotgan axborotga salbiy yoki ijobiy munosabat bildiradi, uning ongi va his-tuyg'ulari faolligi oshadi yoki susayadi».

«Ba'zan shunday bo'ladiki, mazmunan boy, shaklan qiziq ma'ruza ham tinglovchilarda chuqur qiziqish uyg'otmaydi. Sababi shundaki, odamlarning diqqatini jalb etish, ma'ruza yoki suhbatga qiziqtirish uchun haq gaplarni, aniq dalillarni izchillik bilan bayon etishning o'zi kifoya qilmaydi. Tinglovchilarni eshitishga ruhan tayyorlash zarur, ya'ni ularni tor nuqtai nazarlari doirasidan chiqarish kerak bo'ladi.

Tinglovchini o'z nuqtai nazari doirasidan chiqarish-ning vositalaridan biri - inson tafakkuriga xos bo'lgan axborotni assosiyali o'zlashtirish qobiliyatidan foydalanishdir. Notiq tinglovchilarga ma'lum bo'lgan voqyea-hodisa, faktlardan oqilona foydalansa, ularning hayotiy tajribasi, bilimlariga

tayansa, ularda ko'tarilgan muam-molarni tushunishga moyillik uyg'otishi osonlashadi.

Notiq bilan auditoriya o'rtasida muloqot o'rnatili-shiga tinglovchilar psixologiyasining ayrim xususiyatlari ham ta'sir qiladi. Ba'zan o'z sohasini yaxshi bilgan mutaxassis ham auditoriya oldida o'zini yo'qotib qo'yadi, natijada tinglovchilar ham, nutq so'zlovchi ham qoniqish his qilmaydilar. Sababi shundaki, har qanday auditoriya notiqqa alohida talablar bilan yondoshadi va ma'lum ma'noda unga ruhiy ta'sir o'tkazadi.

Notiqda tinglovchilar yetakchini ko'radilar va notiq tashabbusni qo'ldan bermasligi, qanchalik hayajonlanma-sin, tinglovchilar oldida o'zini dadil tutishi, qat'iy ovoz bilan gapirishi kerak».

Tinglovchiga emosional ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'lish esa notiqning yutug'i hisoblanadi. Bu haqda mashhur rus notig'i prof. V.O.Klyuchkovskiy shunday degan edi: «Jamoat orasida gapirganimizda tinglovchilarning qulog'iga, aqliga murojaat qilmang, shundoq gapiringki, ular sizni tinglab turib, so'zlaringizni eshitsin, pred-metlarni siz bilan ko'rib, sizning holatingizga kirish-sin. Tinglovchilar sizning tasviringizsiz ham aqli, yuragi, fikri bilan shu predmetni yaxshiroq kuzatadi.

Nutqda fikrni rivojlantira borib, dastlab uning sxemasini tinglovchining aqliga yetkazish, keyin uning tasavvuriga yaqqol taqqoslarni taqdim etish kerak, nihoyat chiroyli lirik tasvirlar bilan ehtiyotkorona uni tinglovchining yuragiga jo qiling, o'shanda tinglovchi – asiringiz qochib ketmaydi, hatto siz uni erkin qo'yib yuborsangiz ham sizning abadiy itoatgo'y mijozingiz bo'lib qoladi»⁶⁸.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta'sir qilishida va ularda qanday taassurot qoldirishida notiqning nutqiy jarayon davomida o'zini qanday tuta bilishi, jest va mimikalari, hatto kiyinishi kabi omillarning ham ahamiyati bor. Samimiylik,

⁶⁸ Кўчирма куйидаги манбадан олинди: Разумова Л., Шаров В. Лектор нутқининг таъсирчанлиги. – Тошкент, 1973. 21-б.

xushmuomalalik, odoblilik, auditoriyaga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutq-ning tinglovchilar tomonidan e'tibor bilan tinglanishi-ga sabab bo'ladi.

«Qadimgi dunyoning mashhur notig'i Demosfen ham notqlik san'atida imo-ishoraning roliga juda yuksak baho bergan edi. Demosfendan yaxshi nutqqa nima kerak, deb so'raganlarida: u: «Imo-ishora, imo-ishora va imo-ishora! – deb javob bergan edi. Nutq ta'sirchanligini oshrish uchun qilinadigan imo-ishora va boshqa xatti-harakatlar me'yorida bo'lishi kerak»⁶⁹.

Nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi haqidagi gap, ma'lum ma'noda, nutq sifatлари haqida aytilgan mulo-hazalarga yakun yasashdir. Chunki yaxshi nutqning fazilat-larini ko'rsatib o'tish, nutqda uchraydigan ayrim tipik xatolarni tahlil qilish pirovard natijada ta'sirchan bir nutqni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nutqning maqsadga muvofiqligi

Ma'lumki, so'zlovchi tomonidan rejalashtirilgan yoki vaziyatga qarab so'zlanadigan nutq ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni so'zlovchi aniq maqsad va manfaatni ko'zlab, til vositalaridan foydalanadi. Adabiy til me'yorlariga amal qilib so'zlangan nutq to'g'ri, aniq, toza, mantiqiy, ta'sirchan, demak, maqsadga muvofiq nutq sanaladi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, «Nutq faoliyatida muallif o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirchan, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarni, gaplarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib, «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin»⁷⁰.

⁶⁹ Жалилов Ҳ. Нотиклик санъати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1976, 68-б.

⁷⁰ Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 33-б.

Xullas, yaxshi nutq soʻzlovchi va yozuvchidan savodxonlikni, katta mehnatni talab qiladigan murakkab jarayon-dir. Umuman, nutq aniq va ravon, grammatik jihatdan toʻgʻri shakllangan boʻlishi va orfoepik talablar darajasida talaffuz etilishi, boshdan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim boʻladi. Ana shunday nutqgina tinglovchi va oʻquvchi qalbiga borib yetadi. Shunday nutqgina madaniy nutq talablariga javob beradi. Buning uchun esa yozuvchi va omma oldiga chiqib nutq soʻzlaydigan kishidan tinimsiz izlanish va oʻz ustida ishlash, muttasil nutqiy mashq talab qilinadi.

Tayanch soʻz va birikmalar: tinglovchi, soʻzlovchi, auditoriya, toʻgʻrilik, aniqlik, mantiqiylik, taʼsirchanlik, obrazlilik, tushunarlilik va maqsadga muvofiqlik, urgʻuni toʻgʻri qoʻllash, imlo qoidalari, emosional taʼsir.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Soʻzlovchi va tinglovchi muloqotini tashkil etish-ning til va tildan tashqari omillari.
2. Nutqning toʻgʻriligi.
3. Nutqning aniqligi.
4. Nutqning mantiqiyligi.
5. Nutqning tozaligi.
6. Nutqning taʼsirchanligi.
7. Nutqning maqsadga muvofiqligi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
2. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, II qism.- Toshkent, 1998.
3. Rasulov R., Husanov N., Moʻydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik sanʼati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 23-34-b.

4. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.
5. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent: Akademiya, 2007.
6. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Tojiyev Yo., Mallaboyev M. O`zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari (ommabop qo`llanma). 1-qism. – Toshkent, 2006.
8. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.
9. Abdusaidov A. Matbuot tili madaniyati. - Samarqand, 2004. – 96 b.
10. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til ma’naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta’sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008.
11. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004. – 102 b.
12. Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

6-mavzu: HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILINING VAZIFAVIY USHLUBLARI

Reja:

1. Vazifaviy uslub tushunchasi.
2. Vazifaviy uslublar ko`rinishlari.
3. Nutq madaniyatining vazifaviy uslublarga ta`siri.

Tilshunoslikda uslub (stil) termini to`g`risida, uni tushunish borasida turlicha fikrlar mavjud¹. O`zbek tilshunosligida uslub haqida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishga urinish va uning mukammal ta`rifini yaratishga oid mulohazalar ham uchraydi. «*Stil* tilning jamiyat ijtimoiy faoliyatining ma`lum tomoni bilan bog`langan o`ziga xos lug`ati, frazeologik birikmalari, grammatik qurilmalari bilan xuddi shunday boshqa turlaridan, o`z ichki xususiyatlari bilan ham tafovut qilib turuvchi podsystemasidir. Demak, har bir uslub - podsystema boshqa uslubdan - podsystemalardan o`ziga xos lug`aviy qatlami, turg`un birikmalari, morfologik shakllari, sintaktik tuzilishi bilan farqlanib turadi. Ammo bu demak, uslublar o`ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan tamoman farq qiladi degan gap emas, albatta.

Har bir tildagi uslub turlari uchun umumiy bo`lgan shu tilning umumiy lug`at fondi, shakllar va sintaktik qurilmalar, erkin va turg`un birikmalar bo`ladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy-adabiy tilga birlashtiradi»². Ushbu ta`rif tilshunoslik nuqtai nazaridan bir muncha mukammal

¹ Каранг: Михайлов М.М. Стилистика русской речи. - Чебоксары, 1968. С.77-88; Соколов А.Н. Теория стиля. - М., 1968. С.5; Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. - М., 1969. С. 12; Потоцкая Н.П. Стилистика современного русского языка. - М., 1974. С.16-18; Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М., 1983. С.43-55 ва бошқалар.

² Қўнгулов Р., Каримов С., Қурбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарқанд: СамДУ, 1984, 7-б.

hisoblansa-da, adabiyotshunoslik va san'atshunoslikda uslub termini boshqa ma'noda tushuniladi³.

Uslub tushunchasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo'lgani singari vazifaviy uslublar va ularning tasnifi masalasida ham har xil qarashlar bildirilgan⁴.

V.V.Vinogradov tasnifi tilshunoslikda ko'proq e'tiborni tortadi. U muomala uslubi (obixodna-delovoy) tilning aloqa vazifasiga; rasmiy (obixodno-delovoy), rasmiy-hujjat (ofisialno-dokumentalnûy) va ilmiy uslublar xabar vazifasiga; publisistik va badiiy uslublar ta'sir etish vazifasiga oidligini ko'rsatadi⁵.

Tasnif qilish prinsipida bir xil qarashning yo'qligi, ba'zi olimlar bir butun umumxalq tilini, ba'zilar faqat adabiy tilni hisobga olgan holda uni ekspressiv-emosionallik, ekspressiv-janr va funk-sional-uslubiy tamoyillar asosida uslublarga bo'ladilar. Natijada uslublar soni va ularning nomlanishida xilma-xillik yuzaga keladi⁶.

Tilshunoslikda til uslublari turli nuqtai nazardan tasnif qilinib, ularning soni to'rttadan yettitagacha ko'rsatiladi. Keyingi yillarda esa ularning miqdori beshta deb qayd etila boshlandi⁷. Til uslublarini nomlashda 42 ta termin ishlatilgan⁸.

³ Қаранг: Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунос-
лик терминлари луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 223-6.

⁴ Қаранг: Кожина М.Н. К основаниям функциональной стилистики. -
Перм, 1986; Разинкина М.Н. Контрастные категории и их роль в
лингвостилистическом изучении научной прозы. // Преподавание
иностраных языков и его лингвистические основы. - М., 1972;
Троянская Е.С. К общей концепции понимании функциональных
стилей. // Особенности стиля научного изложения. - М., 1976.

⁵ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. -
М., 1963. С.6.

⁶ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.-
Тошкент: Фан. 1984. Б.13.

⁷ Кожина М.Н. Стилистика русского языка. - М., 1977. С.157; Барлас
Л.Г. Русский язык. Стилистика. - М., 1978. С.58-177.

O'zbek tilshunosligida quyidagi uslublar ko'rsa-tilgan: 1) so'zlashuv, 2) rasmiy(hujjat), 3) ilmiy, 4) publisistik, 5) badiiy uslublar. Bu tasnif o'zbek tilshunosligida mustahkam o'rin egallagan⁹.

«Kishilar o'z ijtimoiy faoliyatlarida tildagi barcha vositalardan – fonetik, grammatik, leksik, frazeologik birliklardan foydalanganlarida, avvalo, ularni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, nutq mavzusiga, vaziyatga qarab tanlaydilar va qo'llaydilar. Tilimizdagi vositalarning bir nechalab ko'rinishlarga ega bo'lishi, sinonimik rang-baranglik shunday yo'l tutishga imkon beradi. Mana shu tanlash nutq jarayonida til birliklarining o'ziga xos uslubiy chegaralanishini taqozo qiladi. Til birliklarini ijtimoiy muhitda tanlab ishlatish zarurati va ularni tilshunoslikda ilmiy-amaliy tahlil qilish uslubshunoslikda yangi sohani – vazifaviy uslubshunoslikni vujudga keltirdi.

O'zbek tilshunosligida alohida ajratib ko'rsatilgan 5 ta uslub – so'zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar haqida bilimga ega bo'lish o'quvchilarga ona tilimizning nutq jarayonidagi imkoniyatlarini o'rganish-ga ko'maklashadi.

Rasmiy uslub hozirgi o'zbek tilining davlat-ma'muriy, huquqiy muassasalarida, rasmiy diplomatik munosabatlarida namoyon bo'ladigan ko'rinishidir. Qonun matnlari, farmonlar,

⁸ Каранг: Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис....канд. филол.наук. - Ташкент, 1987. С.7.

⁹ Каранг: Қўнғуров Р., Каримов С., Курбонов Т. Ўзбек тилининг функционал стиллари. - Самарканд, 1984, 15-б.; Шомаксудов А. Ўзбек адабий тили стиллари ҳақида. // Филологик тадқиқотлар./ ТошДУ асарлари. 376-чиқиши. - Тошкент, 1970, 219-241-б.; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадийий стил. - Тошкент: Фан, 1988, 56-70-б.; Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи. - Тошкент, 1982; Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. - Тошкент: Фан, 1984, 12-15-б.

farmoyishlar, buyruqlar, xullas, barcha rasmiy ish qog'ozlari ana shu uslubda shakllanadi. Bu uslubning og'zaki va yozma ko'rinishlari, binobarin, ushbu ko'rinishlarning o'z me'yorlari mavjud.

Jumladan, **aniqlik**. Ushbu uslubda shakllangan matnda noaniqlikka, izohtalab o'rinlarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerak.

Qolip. Ariza, qaror, bildirishnoma, ma'lumotnoma, shartnoma, tabriknoma singari turli xarakterdagi rasmiy hujjatlarning har birining o'ziga xos bayon etish qolipi bo'ladi. Ayni paytda, ularning har birining alohida so'z va turg'un birikmalari ham mavjud bo'ladi.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so'zlashuvga xos so'zlar, emosional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmaydi va shu jihati bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me'yori ham alohida xususiyatlarga ega. Masalan, ot so'z turkumiga oid so'zlar ko'p ishlatiladi. Noaniqliklarga yo'l qo'yilmaslik maqsadida ular olmoshlar bilan almashtirilmaydi.

Bu uslubda fe'lining harakat nomi shakli faol qo'llaniladi, gapning kesimi ko'pincha hozirgi zamonning majhul nisbatida ifodalanadi, hujjatning xarakteriga qarab shart mayli shakliga tez-tez murojaat etiladi.

Shu o'rinda rasmiy uslubda yozilgan matnlar uchun barcha morfologik vositalar va kategoriyalarning qo'llanilishi bir xil darajada emasligini ta'kidlash ham maqsadga muvofiq. Masalan, sonlar va olmoshlar bu uslubda boshqa so'z turkumlariga qaraganda ikkinchi darajali omil hisoblanadi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko'zga tashlanadi. Unda darak gaplar, uning, ayniqsa, qo'shma gap shakli ko'p ishlatiladi. Yoyiq va murak-kab so'z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar

keng qo'llaniladi. Gap tuzilishida o'zbek tilidagi odatdagi me'yorga amal qilinadi va yuqorida sanalgan jihatlari bilan ilmiy uslubga o'xshab ketadi.

Ushbu uslubning xususiyatlarini o'rgatish bilan birga o'qituvchi faoliyati uchun zarur hujjatlar va ularning uslubi bilan o'quvchi hamda talabalarni tanishtirish lozim. Masalan, ariza, tarjimai hol, tushuntirish xati, ma'lumot, e'lon, hisobot, ish reja, tilxat namunalarini keltirib, ularning matniga qo'yiladigan asosiy talablar tushuntirilishi kerak. Bu haqda keyingi qismlarda kengroq fikr bildirilgan.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatilishi mazkur uslubning shakllanishiga asos bo'ladi. Ilmiy tafakkur fikrlashning o'ziga xos usuli ekanligi, obyektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanish, fikriy izchilik kabi ekstralingvistik omillar ham nutqning ushbu turining shakllanishida, binobarin, nutqiy me'yorning o'ziga xos turining yuzaga kelishida muhim omil sanaladi.

Ilmiy uslubning janr xususiyatlari ham keng. Monografiya, risola, darslik, o'quv qo'llanmasi, o'quv-metodik qo'llanma, dastur, ma'ruza matnlari, taqriz va referat singarilar uning ana shu janr ko'rinishlari hisoblanadi. Garchi ularning har birining bayon usuli va uslubi ma'lum darajada bir-birlaridan farq qilsada, til birliklaridan foydalanish me'yoriga ko'ra umumiylikni tashkil etadi.

Ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. **Aniqlik.** Har qanday ilmiy bayon, xulosa, shubhasiz, aniqlikni talab qiladi. Shuning uchun bu uslubda so'zlarni aniq, asosan bir ma'noda qo'llash, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan variantini tanlash, hych bo'lmaganda, neytral variantini qo'llash taqozo etiladi. Terminlarni qo'llash bu uslubning asosiy xususiyati sanaladi.

2. **Obyektivlik.** Ilmiy adabiyotlarda bu uslub doira-sida til materiali fikrning haqqoniyligi, obyektiv-ligiga xizmat qilishi lozimligi uqtiriladi⁷¹.

Ma'lum bo'ladiki, haqqoniylik, obyektivlik nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, uning reallashuvida faqatgina til birliklariga tayanib ish ko'rish qiyin. Uni vaziyat, suhbatdoshlarning bir-birlarini bilishi va tushunishi kabi ekstralingvistik omillar ham belgilashi mumkin.

3. **Mantiqiy izchillik** ilmiy bayon uslubining o'ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Matnda so'zlar, gaplar, abzaslar o'zaro mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchillikni yuzaga keltiruvchi *ma'lumki, ma'lum bo'ladiki, ta'kidlash lozimki, ta'kidlash o'rinliki, darhaqiqat, binobarin, shunday ekan, birinchidan, ikkinchidan, ko'rinadiki, ta'kidlash joizki, xulosa qilib aytganda, xulosa qilganimizda, birgina misol, faqat bugina emas* singari ko'plab bog'lovchi vazifasini bajaradigan so'z va birikmalar qo'llaniladi.

4. **Qisqalik.** Bu xususiyat aynan ilmiy bayonga xos xususiyatdir. Shuning uchun unda tilning tasviriy imkoniyatlaridan deyarli foydalanilmaydi. Gaplar darak mazmunida bo'lib, asosan sodda yoyiq holda bo'ladi. Agar fikr qo'shma gaplar yordamida ifodalansa, bog'lovchilar-ning faol ishlatilishi kuzatiladi.

Ilmiy uslub fonetik jihatdan boshqa uslublardan farqlanib turuvchi yorqin belgilarga ega emas. Leksikasi-da esa farq qiluvchi jihat sohaviy atamalarining ko'pligi hisoblanadi. Bu uslubda ham, xuddi rasmiy uslubda bo'lgani kabi, so'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash, tasviriy vositalardan unumli foydalanish xos xususiyat sanalmaydi. Subyektiv emosionallik, obrazlilik, og'zaki nutq elementlari, umuman g'ayriadabiy

⁷¹ Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент, 1984, 17-б.

unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me'yorda ifoda etiladi.

Muallif individualligining kam sezilarli bo'lishi ham ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to'g'risida M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili» monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me'yor sifatida e'tirof etilgan grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. So'z turkumlaridan ot faol, ko'pincha takror qo'llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. **-lar** ko'plikdan boshqa semantik-uslubiy ma'nolarni ifodalamasada, atama hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiy egalik ustun turadi, I-II shaxs qo'shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so'zlar ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan.

Ilmiy nutq uchun *deyiladi, aytiladi, yoritiladi, bayon qilinadi, aniqlanadi, tekshiriladi, foydalaniladi, ta'riflanadi* singari xoslangan fe'llar mavjud. Fe'ning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos. Ammo hozirgi-kelasi zamon shaklidan tashqari xarakterli zamon ko'rsatkichi yo'q. Kishilik olmoshlari kam qo'llaniladi. Bu gap faqat *muallif* va *men* ma'nolarida qo'llaniladigan hamda kamtarlik ma'nosini ifodalaydigan *biz* olmoshiga tegishli emas.

Ilmiy uslubda bayon etilayotgan matnning sintaktik qurilishi fikriy tugallikka, mantiqiy izchillikka xizmat qiladi hamda bayonning tabiatidan kelib chiqib, bir tarkibli gaplarning shaxssiz, shaxsi umumlashgan turlari faol. Undov, atov gaplar qo'llanilmaydi, nutq monologik xarakterda bo'ladi. Rasmiy uslubdagiga o'xshab gap tuzilishining odatdagi tartibi qo'llaniladi. Qo'shma gap faol ishlatiladi. Darak gap asosiy mavqiyeni egallaydi, so'roq va buyruq gaplar deyarli qo'llanilmaydi.

Publisistik uslub. O'zbek tilshunosligida publisistik uslub T.Qurbonov tomonidan maxsus o'rganildi¹⁷. Bu uslub ommaviy axborot vositalari, xususan, gazeta, jurnal, radio, televideniye materiallari uslubidir. Publisistik uslubga amal qilinadigan manbalar orasida, ayniqsa, matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarning alohida o'rni bor. Chunki gazeta va jurnallarning materiallari adabiy tilning o'ziga xos ko'zgusi hisoblanadi. Gazeta tilining adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan holda yozilishi, gazetani barcha yoshdagi insonlarning mutolaa qilishi uning savodxonlik, nutq madaniyati va mahoratini egallashda o'rni beqiyos kattaligini ko'rsatadi.

Publisistik uslubda gazeta tilining o'ziga xos o'rni va xususiyatlari bor. Gazeta tiliga xos belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Gazeta tili yozma adabiy tildir. U o'ziga xos lingvistik belgilarga ega.

2. Gazetada barcha vazifaviy uslublarga oid material-lar bosiladi. Ayrim materiallarda ular qorishiq holda keladi. Bu gazeta tilining o'ziga xos ususiyatlaridan hisoblanadi. Boshqa vazifaviy uslublarga doir materiallar (m., she'r, hikoya, badiiy asardan parchalar, farmon, qaror kabilar), agar gazeta materiallariga singdirilmagan bo'lsa, o'z uslublari doirasida o'rganili-shi lozim, ya'ni u gazeta tiliga aloqador bo'lmaydi.

3. Gazeta materiallari uslubi va ifodasi jihatidan farqlanadi. Xabar, bosh maqola, korrespondensiya, hisobot, sharh kabilar sof adabiy tilda yozilsa, lavha, ocherk, ochiq xat, reportaj, tanqidiy maqola, felyeton kabilarda badiiy uslubga xos elementlardan keng foydalaniladi. Bu janrlarda ba'zan o'z o'rni bilan sheva elementlari ham ishlatiladi.

4. Gazeta tili badiiy, so'zlashuv uslublari tiliga yaqin turadi, ilmiy, rasmiy uslublar tilidan farq qiladi.

¹⁷ Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 22 с.

5. Gazeta tili uchun standart (andoza) va shtamp (qolip)lardan foydalanish xarakterlidir.

6. Gazeta tilining o`ziga xos xususiyati uning informativlik (axborot berish), tashkilotchilik, targ`ibot va ta`sirchanlik kabi vazifalaridan kelib chiqadi. Til vositalaridan foydalanishda gazeta tiliga xos ana shu xususiyatlar hisobga olinadi.

7. Gazeta tilida ekspressivlik o`ziga xos tarzda ifodalanadi. Ta`sirchanlikni ta`minlashda ommaviylik, obrazlilik, emosionallik va ekspressivlik, aniqlik va konkretlik, ixchamlik, munozaralilik kabilar alohida e`tiborga olinadi.

8. Gazeta janrlarida tilning imkoniyatlaridan foydalanish holati bir-biridan farq qiladi. Axborot, tahliliy va badiiy-publisistik janrlarda lug`aviy, frazeologik, grammatik vositalarning ekspressiv-uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish o`xshash va farqli tomonlarga ega. Til vositalarining uslubiy xususiyat-laridan foydalanishda turli usullar ishlatiladi.

9. Gazeta tilida adabiy tilning imloviy, lug`aviy, grammatik, punktuasion va uslubiy normalariga qat`iy amal qilinadi. Adabiy normadan chetga chiqishlar (ma`lum uslubiy maqsad uchun) lavha, ocherk, tanqidiy maqola, felyetonlar tilida uchraydi. Badiiy uslubda umumiy normaga rioya qilinsa, gazeta tilida adabiy norma doirasida ish ko`riladi.

10. Gazeta tili adabiy tilning, xususan uning leksikasining boyishiga hissa qo`shadi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy-maishiy turmush bilan bog`liq o`zgarishlar dastlab gazetada aks etadi. Natijada yangi paydo bo`lgan yoki boshqa tillardan kirib kelgan so`zlar gazeta orqali keng iste`molga kiradi. Gazeta lug`aviy birliklar, ayniqsa, terminlarni ishlatishda «ijodiy laboratoriya» vazifasini o`taydi.

11. Gazeta davr bilan hamohang, jurnalistlarning mahorati tufayli neologizmlar va okkazionalizmlar ko`p ishlatiladigan yozma manbadir. Tilimiz leksikasidagi o`zgarishlarni aks ettirishda gazeta tili badiiy uslubga qaraganda katta imkoniyatlarga ega.

12. Gazeta tili yozma adabiy til sifatida ma'lum qonun-qoidaga, normaga bo'ysunganligi va amaldagi imlo qoidalariga asoslanganligi uchun ham yuqori savodxonlikni ko'rsatuvchi manba hisoblanadi.

13. Gazeta tili namunaviy til sifatida nutq mada-niyatini oshirish, adabiy normani targ'ib etishda o'ziga xos ko'zgu vazifasini bajaradi. Undagi ayrim kamchiliklar aniqlanib, gazeta tilining holatiga va til taraqqiyoti-dagi o'zgarishlarga tegishlicha baho berib boriladi.

Gazetaning bu kabi muhim xususiyatlari o'quvchilar va talabalar savodxonligini oshirish, nutq madaniyatini ko'tarishda o'qituvchi uchun muhim va ishonchli manbalardan hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari orasida radio va televideniyeining o'ziga xos o'рни bor. Ular kishilarni axborot bilan ta'minlashdan tashqari til madaniyati va ma'naviyatini egallashda, nutq madaniyati va mahoratini oshirishda eng muhim ko'rgazmali vosita sanaladi. Radio va televideniyeining o'ziga xos xususiyatlari, savodxonlik va nutq madaniyatini egallashdagi o'рни, o'zbek tilining ijtimoiy mohiyatini o'rganish va o'qituvchining adabiy tildan foydalanishda e'tibor berishi lozim bo'lgan holatlar to'g'risida yuqorida ham fikr yuritilgan edi. Publisistik uslubni o'rganishdan asosiy maqsad ommaviy axborot vositalari materiallaridan o'qituvchi oqilona foydalana olishi, ya'ni tildan foydalanishdagi kamchiliklarni payqagani holda, o'quvchilar va talabalar nutqida uchraydigan xatolarni tuzatishda ko'maklashishi, ularning nutqi madaniyati va mahoratini o'stirishga xizmat qilishiga erishidan iboratdir.

Publisistik uslubning asosiy xususiyatlaridan yana biri tilning yangi so'z va iboralar bilan boyib borishiga sabab bo'ladi. Jamiyat rivoji, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zaro aloqalar tufayli boshqa til-lardan kirib kelgan so'z va birikmalarning ommala-shishiga, o'zlashishiga ham sabab bo'ladi.

Badiiy uslub o`zbek tili vazifaviy uslublari orasida o`ziga xos mavqyega ega bo`lib, ayni paytda o`zining alohida me`yorlariga ham ega. Mazkur uslubning xususiyatlari professor S.Karimov tomonidan atroflicha o`rganilgan⁷². Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo`lgan barcha lingvistik birlik-larning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo`lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy-estetik vazifani baja-rishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan.

Til vositalarini qo`llashdagi ana shu keng qamrovlilik bo`lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qo`llashning ma`lum me`yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik, leksik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko`zga tashlanadigan ana shu me`yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o`zgarishlar asosan matnda tovushlarning qisqargan va orttirilgan (**So`rma** mendan, kim diloro / *Do`stmi yo janona deb*. E.Vohidov; *Ne balolig' kun edikim*. **Oshino** bo`ldim sango. Alisher Navoiy; **Shabboda** men seni ko`rmayman, / *Qo`limga tutmayman*. Zulfiya), ona tilimizning tarixiy taraqqiyot va she`riyat qoidalariga mos tarzda «z» ning «y» ga (**So`yla** quyosh nimalar bo`lgan, / *Sen chiqqanda birinchi marta*. H.Olimjon), «q»ning «g`»ga (*Quyosh orqasidan – behisob chirog' / Nuriga kiradi mamlakat shu chog'*. Zulfiya) o`tgan ko`rinishlarda me`yorlashgan.

Shuningdek, badiiy uslubda, xususan poetik nutqda hozirgi adabiy orfografik me`yor talablariga muvofiq kelmaydigan **qaro, yamon, yaro, oshno, talosh** singari so`zlar ham ishlatilaveradi.

⁷² Бу ҳақда кенгроқ маълумот олиш учун қаранг: Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби.- Самарқанд, 1992. Мавзуни ёритишда С.Каримов тадқиқотларига асосландик.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yori nuqtai nazaridan bir tomondan qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda vazifaviy-uslubiy chegaralanish ham sezilib turadi. Bu xususiyatlar so'z yasovchi hamda ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifoda etuvchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida namoyon bo'ladi. Ularning ma'lum qismida badiiy uslubga xoslanganlik mavjud.

Masalan, **-lar** kesim tarkibida kelgan paytda hurmat (*Dadam **keldilar***), kinoya, piching (*Mulla Eshmat, **kelsinlar***) kabi ma'nolar so'zlashuv uslubiga xos bo'lsa, ta'kid, kuchaytirish, mubolag'a singari ma'nolar badiiy uslubda ko'proq ishlatiladi (*Shu **ko'zlar** yulduzday abadiy kulsin, Bahor **yo'llaringga** to'shasin chechak*. Zulfiya). Bu kabi holatlar ilmiy va rasmiy uslublarda ko'zga tashlanmaydi.

Bundan tashqari, bu uslublarda grammatik shakl-larning adabiy-me'yoriy variantlari qo'llanilsa, aksincha, badiiy uslubda bu grammatik shakllarning barcha ko'rinishlari – lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanilaveradi.

Uslubiy xoslanish kelishik qo'shimchalari variant-larining tanlanishida, ayniqsa, seziladi. Masalan, qaratqich kelishigining **-(i)m** (*Axir hayajonlar o'zligim **manim**, / Mayli qalbingga ham ko'chsin hayajon*. K.Bahromova), **-n** (*Qanday ko'rkam qizlar **avlodin** /Xassos didi va shoir dili*. Zulfiya), **-ing** (*Shavqimning shuhrasi boshing uza zar tora fido, / **Ko'ngluming** mahzani gul orazi gulnora fido*. Joniy) tarzida qo'llanishi.

Ma'lumki, yozuvchining til mahorati, eng avvalo, sinonimik birliklar ustida ishlash mahoratidir. Sinonimik qatordan mos, kerakli birlikni tanlab olish ekspress-sivlikni, subyektiv bahoni aniq ifoda etishning eng to'g'ri yo'li bo'lganligi tufayli

u badiiy adabiyotda zarur lingvistik vosita sanaladi. Buning ustiga tilda sinonimik variantlar borligi uchun uslubiy me'yorni belgilash imkoniyati mavjud. A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (Toshkent, 1974) ana shu sinonimik variantlarni farqlashda amaliy yordam beradi.

Frazeologizmlar mohiyat e'tibori bilan asosan so'zlashuv va badiiy nutqqa xosdir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa ma'lum muddat keyin yuzaga keladi. Masalan, birgina *o'lmoq* ma'nosini anglata-digan yuzga yaqin frazeologizmlar sinonimik qatorining paydo bo'lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug'diradi. Masalan, bu tizimga kiradigan *olamdan o'tmoq, dunyodan o'tmoq, omonatini topshirmoq, qulog'i ostida qolmoq, jon bermoq* shakllari so'zlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan ko'z yummoq, dunyodan ko'z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Alloh rahmatiga yo'l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, doril-fanodan dorilbaqoga rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir.

Badiiy adabiyotda dialektizmlarning ishlatilishi adabiy til me'yoriga muvofiq kelmaydi. Lekin ular badiiy uslub talablariga mos keladi.

Badiiy uslubda adabiy til boyliklaridan foydalanibgina qolinmasdan, undagi ko'plab birliklarning tilda me'yorlashuviga, adabiy tilning boyib, rivojlanib bori-shiga doimiy ravishda ta'sir o'tkazib turadi.

Badiiy adabiyotning komil insonni tarbiyalash, uning ma'naviy olamini boyitishdan tashqari, so'z san'ati sifatida, savodxonlikni ta'minlash, nutq madaniyati va mahoratini oshirishdagi roli ham beqiyosdir.

Prezident Islom Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, «Insonni, uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo'lsa, so'z san'ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa

inson ruhining muhandislari, deb ta'riflanishi bejiz emas, albatta»⁷³. Badiiy adabiyot kabi qudratli quroldan unumli foydalanish esa o'qituvchining e'tiborli bo'lishi va mahoratiga bog'liq.

So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik rasmiy-norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birlik-larining o'ziga xos tarzda amal qilishidir. Uni ma'lum ma'noda tildagi boshqa uslublarga qarama-qarshi qo'yish mumkin.

Bu uslubning o'ziga xos xususiyati nutq jarayonida til va tildan tashqari omillarning uyg'un bo'lishida ko'rinadi. Ayni paytda bu holat so'zlashuv uslubidagi me'yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi. Chunki tildan foydalanuvchining shaxsi, buning ustiga, nutqiy vaziyat yagona bir me'yorni tayin etishga imkon bermaydi.

Professor B.O'rinboyev tadqiqotlarida so'zlashuv uslubining xususiyatlari atroflicha o'rganilgan⁷⁴.

So'zlashuv uslubi ham boshqa vazifaviy uslublar kabi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*ketti, ottan, yigichcha*), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir, zaril, bironta*), tovushlarning o'rin almashishi (*turpoq, aynalmoq*), tovushlarning orttirili-shi (*o'ramol, fikir, banka*), tushirib qoldirilishi (*gazet, burni, egni*) kabi fonetik hodisalar, avvalo, so'zlashuv uslubida namoyon bo'ladi.

So'zlashuv uslubi leksikasida ikki qatlam alohida ajralib turadi. Birinchi qatlam – bu kundalik turmush muomalasida faol qo'llaniladigan ijtimoiy hayot va uy-ro'zg'or yumushlari

⁷³ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008, 136-б.

⁷⁴ Тўла маълумот олиш учун қаранг: Ўринбоев Б. Ўзбек тилининг сўзлашув нутки синтаксиси масалалари. – Тошкент: Фан, 1975; Ўринбоев Б., Ўринбоева Д. Ўзбек тилининг сўзлашув услуби. – Тошкент, 1991.

bilan bog'liq so'zlar. Bundan tashqari bu uslubda «...siyosat, san'at, madaniyat, sport va so'zlovchi-ning kasb-hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko'plab ishlatiladi»⁷⁵.

Ikkinchi qatlam - og'zaki nutqdagi ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar. Ular neytral qiymatdagi so'zlar bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi: *kichkina (bolagina), yiqildi (quladi), buzoq (ish bilmas, galvars), og'zi ochiq (vig'loqi)* kabi.

Bu uslubning *burnini ko'tarmoq, ko'zini shira bosmoq, qo'li kaltalik qilmoq* singari o'z frazeologizmlari mavjud. Kishi nomlari *Abdi, Bek, Zuli, Dili* singari qisqartirib ishlatish mumkin. So'zlarning metonimik ko'lam juda keng tarqalgan. Masalan: *auditoriya kuldi, kengash bo'ldi, dasturxonga o'tirdi, samovarga chiqdi* kabi.

So'zlashuv uslubida nutqiy vaziyatning ahamiyati juda katta. *Salom, assalomu alaykum, vaalaykum assalom, xayr, ha, yo'q, albatta, aha, xo'p* singari so'zlar nutqda ko'p ishlatiladi.

So'zlashuv nutqi kitobiy nutqdan bir qadar farq qilib, *Asal, asal, barmog'ingni tishlab olasan; Ish, faqat tugmachani bossang bas; Kechaday kecha; Boladay bola* kabi gap shakllari odatdagi hol hisoblanadi.

Kitobiy nutq uchun bog'lovchisiz qo'shma gaplar, odatda, xos emas, og'zaki so'zlashuv nutqi uchun esa, aksincha, xarakterlidir. So'zlashuv nutqidagi sodda gaplar ko'pincha fe'l bilan ifodalangan kesimning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Hatto ba'zan shunday holatlar ham bo'ladiki, bunday gaplarga fe'l-kesimni qo'yib ham bo'lmaydi. Masalan, *Biz siznikiga. Biz magazinga; Men, odatda ishga avtobusda, ishdan piyoda* kabi.

So'zlashuv uslubiga xos xususiyatlarni yaxshi bilish o'luvchilar nutliga xos dialektal kamchiliklarni aniqlash,

⁷⁵ Шомаксудов А. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 15-б.

ularni bartaraf etish, ularning adabiy til me'yorlariga amal qilishlarini ta'minlashda yordam beradi.

Vazifaviy uslublar va ularning xususiyatlari to'g'risida birmuncha ma'lumotga ega bo'lish ulardan o'rni bilan foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Vazifaviy uslublardan quyidagicha foydalanish mumkin:

1. Rasmiy uslub. O'quvchilar va talablarni ish yuritish va hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish uchun tayyorlash jarayonida rasmiy uslubdan foydalanish mumkin. Bo'lajak o'qituvchi yoki mutaxassisligidan qat'iy nazar har bir xodim ariza, tilxat, tarjimai hol, e'lon, bayonnoma, bildirishnoma, ishonchnoma va boshqa rasmiy uslub hujjatlarini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu jarayonda o'quvchi va talablarning hujjatlarni savodli, to'g'ri, ijodiy tayyorlashlari uchun ko'maklashish kerak bo'ladi.

2. Ilmiy uslub to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish maqola, referat, kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi, magistrlik dissertasiyasi, keyinchalik nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari, monografiyalar yozish uchun juda zarurligi talabalarga tushuntirilishi lozim.

3. Publisistik uslub kundalik ijtimoiy hayotimiz-ning bir tarkibi sifatida axborot olishdan tashqari savodxonlikni ta'minlash, nutq madaniyati va mahoratini oshirish, notiqlikni egallashda muhim manba hisoblanadi.

4. Badiiy uslub namunalari, ya'ni badiiy adabiyotning barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli ulkan. Badiiy adabiyotni ko'proq mutolaa qilish ifodali o'qish, so'z boyligini oshirish, savodli yozish, ijodiy matnlar tayyorlash, nutqning xususiyatlarini egallash, muomala madaniyatini shakllantirishda ham muhim vositalardan hisoblanadi.

5. So'zlashuv uslubi to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lish adabiy tilni puxta egallash, nutqning tozaligiga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi e'tibortalab jihatlarni egallash va unga rioya etish, o'quvchilar va talabalarga uqdirish har bir ziyoli insonning burchiga aylangan taqdirdagina jamiyati-mizda o'zbek tilining jonkuyarlari ko'payadi, savodxonlik, nutq madaniyati yanada yuqori bo'ladi.

Tayanch so'z va birikmalar: Uslub, vazifaviy uslub, til vositalari, kitobiy nutq, rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub, so'zlashuv uslubi, aniqlik, obyektivlik, qisqalik, ixchamlilik, qolip, andoza, ta'sirchanlik.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Vazifaviy uslub tushunchasi. Uslublarni belgilash mezonlari.

2. O'zbek tili vazifaviy uslublari to'g'risida umumiy ma'lumot.

3. Quyidagi uslublar to'g'risida qisqacha ma'lumot bering: rasmiy uslub, ilmiy uslub, publisistik uslub, badiiy uslub, so'zlashuv uslubi.

4. O'zbek tili vazifaviy uslublaridan dars jarayonida qanday foydalanish mumkin?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Begmatov E. Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi, II qism.- Toshkent, 1998.

3. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M. Adabiy norma va nutq madaniyati. – Toshkent: Fan, 1983.

4. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. - Toshkent, 1991.

5. Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funksional stillari. - Samarqand: SamDU, 1984.

6. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili.-Toshkent: Fan. 1984.

7. Kurbanov T. Publisisticheskiy stil sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazûka: Avtoref. dis....kand. filol.nauk. -Tashkent, 1987.

8. Qo`ng`urov R., Karimov S., Qurbonov T. O`zbek tilining funksional stillari. - Samarqand, 1984.

9. Doniyorov X., Yo`ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. - Toshkent: Fan. 1988.

10. O`rinboyev B. O`zbek so`zlashuv nutqi. - Toshkent, 1982.

11. Yo`ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. - Samarqand, 1982.

12. Karimov S. O`zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand, 1992.

13. Karimov S. O`zbek tilining badiiy uslubi: Filol.f.dokt. ... dis.avtoref. - Toshkent, 1993.

14. O`rinboyev B. O`zbek tili so`zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. - Toshkent, 1974.

15. O`rinboyev B., O`rinboyeva D. Hozirgi o`zbek tilining so`zlashuv uslubi. - Toshkent, 1991.

16. Abdusaidov A. Gazeta tilining leksik-stilistik xususiyatlari. - Samarqand, 1991.

17. Qo`ng`urov R., Karimov S., Qurbonov T. Nutq madaniyati asoslari. II qism. - Samarqand, 1986.

Махмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

18. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-b.

19. Karimov S., Mamatov X., Bo`riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.

20. Qo`ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev G'. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: Fan, 1992.

21. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. –Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.

22. Abdusaidov A. Matbuot tili madaniyati. - Samarqand, 2004. – 96 b.

23. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumidan. Til ma'naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta'sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008. – 132 b.

24. Abdusaidov A. Jurnalistning tildan foydalanish mahorati. – Samarqand, 2004.

7-mavzu: YoZMA VA OG'ZAKI NUTQNI O`STIRISHDA O`QITUVCHINING ROLI

Reja:

1. Yozma nutqqa qo`yiladigan asosiy talablar.
2. Yozma nutqni o`stirishda umumta`lim va oliy ta`lim jarayonining o`ziga xosligi.
3. Davlat tilida ish yuritish.
4. Ish yuritish jarayoniga o`quvchi va talabalarni tayyorlash.
5. Og`zaki nutqning o`ziga xos xususiyatlari.

«Nutq – fikr bayon qilish vositasi bo`lib, og`zaki va yozma formada ifodalanadi. Tafakkur nutq yordamida ro`y berib, shu tufayli kishilar bir-birlari bilan aloqa bog`laydilar. Nutq madaniyati esa biror tilda to`g`ri so`zlash va yozish, o`sha tilda fikrni qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatidan ravon ifodalash demakdir.

Tinglovchida kuchli taassurot qoldirish va kishining nutqi noaniq bo`lmasligi uchun dastlab il qoidalarini puxta bilish lozim. Tilning lug`at sostavi va grammatik qurilishi haqida yetarli bilimga ega bo`lmay yozma nutqni o`stirish mumkin emas. Tilning grammatik qurilishi va lug`at sostavini o`zlashtirish uzoq prosessni talab qiladi.

Yozma nutqni grammatik jihatdan to`g`ri qurish va so`zlarni o`rinli ishlata bilish uchun nazariy bilim bilan birga zarur mashq ham muhim o`rin tutadi. Sistemali mashq olib borish natijasidagina yozma nutq sohasida muhim ko`nikma va malakalarga ega bo`lish mumkin⁷⁶.

Yozma nutq murakkab jarayon bo`lib, u ko`p vaqt va mehnatni talab qiladi. Bunday nutq davomida o`quvchi o`z-

⁷⁶ Турдиев Б. Ёзма нутқни ўстириш юзасидан практикум. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980, 6-7-б.

o`zini kuzatib boradi. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy o`rin tutadi.

Yozma nutqqa quyidagicha talablar qo`yiladi:

1) har bir so`z, har bir jumla mazmunni va avtor maqsadini ochishga xizmat etishi, shuningdek, nutq ixcham, izchil va mantiqli ifodalanishi zarur;

2) yozma nutqdagi fikr qiziqarli, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon bayon etilishi kerak;

3) bildirilgan fikrlar asosida, zarur xulosa chiqarishga alohida e`tibor berish zarur.

Umumiy o`rta ta`lim tizimida va o`rta maxsus ta`lim jarayonida o`quvchilarning yozma nutqini o`stirishga qaratilgan turlicha yozma ishlar olib boriladi.

Oliy ta`lim tizimida esa bu jarayon o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Adabiyotlarda yozma nutqning turli shakllari ko`rsatilgan. Rasmiy uslubga xos barcha hujjatlar yozma nutqning turlari hisoblanadi. Oliy ta`lim va o`rta maxsus ta`lim tizimida talabalar va o`quvchilarning kundalik faoliyatida zarur yozma ishlarning bir qator turlari mavjud. Ular, jumladan, quyidagilar: Konspekt (to`liq konspekt, qisqa konspekt, tezisli konspekt), annotasiya, fikr (otzyv), referat, sharh (obzor), ariza, tushuntirish xati, dalolatnoma, tarjimai hol, tavsif-noma, ma`ruza, xat, hisobot, ma`lumot va boshqalar.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, umumiy o`rta ta`lim maktablarida savodxonligi yuqori bo`lgan talabalar yozma nutqning barcha turlari bo`yicha, ozgina tushuntirishlardan keyin, talablar doirasida yoza oladilar yoki yuqori saviyada bajarishga harakat qiladilar. Yetarli bilim va malakaga ega bo`lmagan talabalar va o`quvchilar esa nihoyatda qiynaladilar. Shuning uchun, avvalo, ularga namuna asosida ma`lum tushunchalar berish lozim. Keyinchalik ularning yozma nutq ko`nikmalarini puxta egallashlari uchun o`rni bilan mashq qilishlariga imkoniyat yaratish yoki yozma ishlar o`tkazish

ma'lum yordam berishi mumkin. Buning uchun yozma ishlarni qabul qiluvchilarning mas'uliyatli yoki ozgina e'tiborli bo'lishlari talab etiladi. Yozma murojaatlarni qabul qiluvchilarning e'tiborli bo'lishi, ya'ni yozma murojaatni o'qib, uning savodli yozilganligi yoki yozilmaganligiga munosabat bildirishlari savodxonlikni oshirish va yozma nutq mahoratini egallashga yordam beradi.

Oliy ta'lim va o'rta maxsus ta'lim tizimida bajariladigan turli fanlar bo'yicha yozma ishlar, ayniqsa, referatlarning baholanishida ularning savodxonligiga ham e'tibor berish lozim. Ko'pincha, fan asoslari bo'yicha bajarilgan jihatlar nazarga olinadiyu, g'irt savodsiz bajarilgan ishlar ham ijobiy baholanadi. Boshqa fan mutaxassisi filolog o'qituvchi kabi diktant yoki insho tekshirganday baholashi tarafdori emasmiz, lekin savodxonlikka e'tibor berilmagan ishlar talaba yoki o'quvchiga bildirilishi ularning e'tiborli bo'lishiga sabab bo'ladi, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni qabul qilingandan so'ng ish yuritishning davlat tilida olib borilishi munosabati bilan bu sohada qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Hozirgi kunga kelib, davlat tilida ish yuritish bo'yicha yetarli o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratilgan. Masalan, «O'zbek tilida ish yuritish» nomli kitob o'zbek tilida mukammal hujjatchilikni yaratish sohasida dastlabki dadil qadam bo'lgan edi⁷⁷. Ushbu kitobdagi xizmat hujjatlarini tuzish, yozish tartib-qoidalari va unda berilgan namunalardan 1990 yildan buyon keng foydaniilmoqda. Qo'llanmaning qanchalik ahamiyatli ekanligini undan foydalanayotganlar juda yaxshi biladilar. M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov,

⁷⁷ Қаранг: Маҳмудов Н., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш (Муншаот). – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. - 224 б.

N.Mahmudovning «Ish yuritish» nomli amaliy qoʻllanmasi⁷⁸ bu sohada olib borilayotgan izchil ishlarning davomi sifatida bugungi kunda har bir xodim va rahbar, oʻqituvchi va talabani kundalik koʻmakdoshiga aylangan. Asoslanishga arzigulik zarur amaliy tavsiyalar va namunalar boʻlgani holda, bugungi kunda ularga yetarli eʼtibor berilmayotganligini ham koʻrish mumkin.

Mavjud adabiyotlardan unumli foydalanish lozimligini eslatgan holda, takror boʻlishiga qaramasdan, yozma ishlarning talabalar, oʻquvchilar va oʻqituvchilarning kundalik faoliyatida zarur boʻladigan ayrim turlari haqida qisqacha maʼlumot berish hamda namuna variantini koʻrsatish foydali boʻlishi mumkin, deb hisoblaymiz⁷⁹.

ARIZA

«Muayyan muassasaga yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjat. Ariza amaliyotda eng koʻp qoʻllanadigan va keng tarqalgan ish qogʻozidir. Maktab oʻquvchisi va talaba, menejer va agronom yoki fermer, muhandis va olim, tadbirkor va mansabdor shaxs - jamiyatning barcha aʼzosi ariza yozishdan xoli emas. Ariza yozuvchilarning yoshi va lavozimi, ariza yoʻllanayotgan muassasalar va idoralar gʻoyat xilma-xildir. Arizalar bogʻcha mudirasiga, maktab direktoriiga, oliy oʻquv yurti rektoriga, jamoa xoʻjaligi boshqaruviga, tuman rahbariyatiga - xullas, oddiy arizachining taklif, iltimos yoki shikoyatini koʻrib chiqib hal qila oladigan har qanday idora, har qanday boshliq nomiga yozilishi mumkin.

⁷⁸ Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. Амалий қўлланма. 3-нашри. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2009. – 440 б.

⁷⁹ Маълумотларни қайд этишда қуйидаги манбага асосландик: Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. Амалий қўлланма. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000. – 440 б.(Манбага мурожаат этилганда, фақат бетлари кўрсатилди).

Hajmi, uslubi va turidan qati nazar, ariza o`zining umumiy zaruriy qismlariga ega va u ana shu qismlarning izchilliga asosida tuziladi.

Arizaning zaruriy qismlari:

1. Ariza yo`llangan muassasaning yoki mansabdor shaxsning nomi.

2. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi, ota ismi va familiyasi.

3. Hujjatning nomi (Ariza).

4. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).

5. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi (agar zarur deb topilsa).

6. Ariza yozuvchining imzosi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi.

7. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun va oy).

Shuni eslatib o'tmoq joizki, arizaning zaruriy qismlari barcha arizalarda ham birday takrorlana-vermaydi. Masalan, xodim o`zi ishlayotgan korxona yoki idora rahbariyatiga ariza yozganda, uning yashash joyi haqdagi ma'lumot zarur bo`lmaydi. Bunday hollarda xodim o`zi ishlaydigan bo`lim va lavozimini ko`rsatsa, kifoya. Shuningdek, ko`pchilik arizalar uchun ilovalarning ham hojati bo`lmaydi.

Ariza ham boshqa har qanday rasmiy hujjat kabi aniq va qisqa jumlar bilan, tushunarli qilib yozilishi kerak. Hujjat tilining aniqligi, tushunarligi maqsad-ning tezroq amalga oshishiga xizmat qiladi.

Ariza asosan qo`lda yoziladi va mazmuni erkin bayon qilinadi. Mazmuni va uslubiga ko`ra arizalar bir xil emas: u bir necha so`zdan iborat bo`lishi, masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan xat tarzida bo`lishi ham mumkin. Shu nuqtai nazardan arizalar sodda va murakkab turlarga ajratiladi. Murakkab ariza matni katta bo`lishi bilan birga, unga ilovalar qilinishi mumkin. Aksar hollarda arizalar shaxsiy xususiyatga egadir. Shu bilan birga, xizmat arizalari ham bo`ladi. Xizmat

arizasi - fuqarolar yoki tashkilotlarniig o`z huquqlarini amalga oshirish yoki manfaatlarini himoya qilish yuzasidan yozma axborotlaridir. Da'vo arizalari ana shunday arizalardandir. Iltimos va shikoyat mazmunidagi arizalar taklif mazmunini aks ettiruvchi arizalarga hamda da'vo arizalariga nisbatan ko`p qo`llanadi (109-111-b.).

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, arizalarning namuna-lari bo`lgani holda, ko`pincha, ularga e'tibor berilmaydi, shuning uchun ba'zi kamchiliklar uchrab turadi. Kamchiliklar asosan quyidagilardan iborat: 1) tashkilot, muassasa nomi va rahbarning ismi-familiyasi noto`g'ri ko`rsatiladi; 2) ariza matni quyidagi ortiqchaliklar bilan boshlanadi: «Men, Akramov Sherali», «Arizani yozishdan maqsadim shuki», «Ushbu arizani yozdim shu haqdaki» va boshqalar; 3) matn ortiqcha cho`zib yuboriladi, maqsad lo`nda, ixcham bayon qilinmaydi; 4) uslubiy va imloviy xatolarga yo`l qo`yiladi; 5) ortiqcha iltimoslar yoziladi: «Iltimos qilib so`rayman», «O`tinib so`rayman», «Arizamni javobsiz qoldirmaysiz, degan umiddaman» va boshqalar.

1-ilova

Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand Davlat universiteti
rektori professor T.Shirinovga
amaliy tilshunoslik kafedrası
professori A.Abdusaidovdan

ARIZA

2009 yil 1 iyuldan navbatdagi mehnat ta'tiliga chiqishimga
ruxsat berishingizni so'rayman.

imzo

A.Abdusaidov

20.06.2009

2-ilova

Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand Davlat universiteti
rektori professor T.Shirinovga
filologiya fakulteti 3-bosqich
talabasi Akramov Sheralidan

ARIZA

2009 yil 10 iyundan Urgut tumanidagi «Yulduzcha»
oromgohida tarbiyachi sifatida ishlashga jalb etilganim
munosabati bilan fanlardan Yakuniy baholashlarni muddatidan
oldin topshirishimga ruxsat berishingizni so'rayman.

Ilova: 1. «Yulduzcha» oromgohi direktorining xati.

2. O'zaro shartnoma nusxasi.

25.05.2009 (imzo) Sh.Akramov

BAYoNNOMA

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, siqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqyelikning o'zni, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferen-siyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyat-larida, albatta, bayonnoma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnoma turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jara-yonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Bayonnomada o'z aksini toptan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnoma yozib olinishiga ko'ra, qisqa, to'liq, stenografik, fonografik, konspektiv shakllarda bo'lishi mumkin. Q i s q a bayonnomada faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinmaydi. Bunday bayonnomalar masalani muhokama qilinishi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan yig'ilishda so'zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to'liq majlis bayonnomasi afzaldir. Majlis bayonnomasining to'liq shakli faqat yig'ilish xususida emas, balki o'sha jamoaning faoliyati to'g'risida ham fikr yuritishga imkoniyat beradi.

Yig'ilish stenografiya usulida (stenografik) yoki magnetofon yordamida yozib olinayotgan (fonografik) bo'lsa, qisqa bayonnoma tuzilib, stenogramma rais va kotib tomonidan imzolanadi va asosiy bayonnomaga ilova qilinadi.

Bayonnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Muassasa nomi.
2. Sarlavha (bamaslahat ish ko'ruvchi organ yoki yig'ilishning nomi).
3. Hujjatning nomi (Bayonnoma).
4. Yig'ilish sanasi.
5. Shartli raqami.
6. Yig'ilish joyi.
7. Tasdiqlash ustxati (agar bayonnoma tasdiqlanishi zarur bo'lsa).
8. Yig'ilish raisi va kotibining familiyasi va ismi.
9. Matn:
 - a) qatnashuvchilar ro'yxati yoki soni;
 - b) kun tartibi;
 - v) eshitildi;
 - g) so'zga chiqdilar;
 - d) qaror qilindi.
10. Ilovalar (agar ular mavjud bo'lsa).
11. Imzolar (159-160-b.).

Ushbu hujjatni rasmiylashtirishda yo'l qo'yilayotgan asosiy kamchiliklar:

1. Majlis bayonnomalarni rasmiylashtirishda:
 - majlis o'tkazayotgan jamoaning aniq va to'liq nomi ko'pincha ko'rsatilmaydi;
 - majlis sanasi (yil, oy, majlis raqami aniq emas);
 - kun tartibidagi masalaning nomi aniq emas, ortiqcha tafsilotlar bilan yoki cho'zib yuborilgan;
 - majlis raisi va so'zga chiquvchilarning fikrlarini bayon etishda nihoyatda ko'p ortiqchaliklar mavjud, mulohazalar qisqa va aniq bayon etilmaydi, ism va familiyalar to'liq emas;
 - qarorlar umumiy, ijrochisi va bajarish muddati aniq emas;

- imlo qoidolari va jumla tuzishga e'tibor nihoyatda past, ayrim bayonnomalar nihoyatda savodsizlik bilan rasmiylashtiriladi va hokazo.

3-ilova

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti
fakultetlar dekanlari majlisining 25-raqamli

BAYoNNOMASI

2009 yil 20 aprel

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Rektor (rais), prorektorlar, fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Vazirlik Hay'atining 2009 yil 30 martda o'tkazilgan kengaytirilgan majlisi bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida» 2009 yil 8 apreldagi 99-son buyrug'ini bajarish haqida

ShIRINOV T., rektor

2. SamDU professor-o'qituvchilarining o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash va talabalarining pedagogik amaliyotlarini akademik lisey va kasb-hunar kol-lejlarida o'tkazish to'g'risida

*ISLOMOV B., AL va KHKlari ishlari
bo'yicha prorektor*

3. Kundalik topshiriqlarning ijrosi va navbatdagi vazifalar to'g'risida

*Prorektorlar: M.MUHIDDINOV, A.SOLEYeV,
M.QODIROV, B.ISLOMOV, I.PARDAYeV*

Shirinov T. –9-11 iyun kunlari M.Ulug'bekning 615 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar Samarqandda bo'lib o'tadi. YuNESKO qarori bilan 2009 yil Astronomiya yili, deb e'lon qilingan. Shu munosabat bilan M.Ulug'bekning 615 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjumanni yuqori saviyada o'tkazish uchun hozirdan katta e'tibor berilayapti. Anjuman tadbirlari Ulug'bek madrasasida, «Prezident» mehmonxonasida va universitetda o'tkaziladi. An'anaviy «Sharq taronalari» musiqa festivali ham Samarqand shahrida bo'lib o'tadi. Bu tadbirlar universitet jamoasining oldiga katta vazifalar qo'yadi.

Hozirdan asosiy e'tiborni obodonlashtirishga qaratasizlar. Har bir fakultet o'ziga ajratilgan hududni tozalasın. Navbati bilan guruhlarini ishga jalb etinglar. Davomot, talablarning va o'qituvchilarning intizomi yuqori bo'lishi lozim.

1-masala. Eshitildi: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Vazirlik Hay'atining 2009 yil 30 martda o'tkazilgan kengaytirilgan majlisi bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida» 2009 yil 8 apreldagi 99-son buyrug'ini bajarish haqida

ShIRINOV T., rektor

Ushbu hujjat mazmuni bilan majlis ishtirokchilari tanishtirildi. Mazkur majlis bayonining nusxasi barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlariga yetkazilganligi va rektor buyrug'i chiqarilganligi bildirildi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Vazirlik Hay'atining 2009 yil 30 martda o'tkazilgan kengaytirilgan majlisi bayoni ijrosini ta'minlash to'g'risida» 2009 yil 8 apreldagi 99-son buyrug'ining bajarilishi ta'minlansin. Belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash bo'yicha tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va amalga oshirilsin.

Mas'ul: Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari.

Muddat: Hay'at majlisida belgilanganidek.

2-masala. Eshitildi: SamDU professor-o'qituvchilarining o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash va talabalarining pedagogik amaliyotlarini akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o'tkazish to'g'risida

***ISLOMOV B., AL va KHK bilan
ishlash bo'yicha prorektor***

Universitetga 54 ta kasb-hunar kolleji va uchta akademik lisey birlashtirilgan. Ushbu kasb-hunar kollej-lari va akademik liseylar bilan kafedralar hamkorlik qilishayapti. Kafedralar professor-o'qituvchilaridan o'zlariga berkitilgan va viloyatimizdagi boshqa kasb-hunar kollejlari 0,25 va 0,5 stavkada hozirgi kunda 79 nafar 1- va 2-kurs magistrlar hamda 38 nafar professor-o'qituvchi faoliyat ko'rsatishmoqda, 2009 yilda AL va KHK o'qituvchilari bilan hamkorlikda 50 nomga yaqin turli xil uslubiy qo'llanmalar, risolalar, test topshiriqlari chiqarish mo'jallanmoqda.

Pedagogik amaliyotlarni uzluksiz ta'lim tizimi qoidalariga asosan o'tkazish maqsadga muvofiq. Magistrlar amaliyotini ham, iloji boricha, kafedralarga berkitilgan AL yoki KHK da tashkil etish kerak.

Maktablarda olib boriladigan pedagogik amaliyotlar-ni, oldindan rejalashtirilgan holda, mavjud qoidalar asosida rahbarlari nazoratida olib borish maqsadga muvofiqdir.

QAROR QILINDI:

AL va KHKlari ishlari bo'yicha prorektor B.Islomov-ning «SamDU professor-o'qituvchilarining o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim jarayonida ishtirokini ta'minlash va talabalarining pedagogik amaliyotlarini akademik lisey va kasb-hunar kollejlari-da o'tkazish to'g'risida»gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3-masala. Eshitildi: Kundalik topshiriqlarning ijrosi va navbatdagi vazifalar to`g`risida

**Prorektorlar: M.MUHIDDINOV, A.SOLE
YeV, M.QODIROV, B.ISLOMOV,
I.PARDAYeV**

Muhiddinov M. – Vazirlikning 7 martdagi navbatdan tashqari Hay’at majlisi qarori va 30 martdagi Hay’at majlisi bayoni ijrosi bo`yicha hujjatlar har bir fakultet, har bir kafedrada bo`lishi kerak. Sinov maydoni bo`yicha ishlarni U.Zohidov nazorat qiladi. «Sharq taronalari» an’anaviy musiqa festivali bu yil bo`ladi. Hamjihatlik bilan hozirdan «Sharq taronalari» festivalini o`tkazishga tayyorgarlik ko`rsak. Ustoz-murabbiylar seminari bo`lib o`tdi. Seminarda 400 ga yaqin murabbiy qatnashdi, 3 nafar tajribali murabbiy ma’ruza qildi.

Talabalar teatrga borishi kerak. Spektakllar talabalarining ma’naviyati uchun juda kerak. Qimmat kitoblar sotilayapti, kitob sotilmasin, deyilgan edi.

Shirinov T. – Kitob sotish Vazirlik tomonidan taqiqlangan. Kitob sotishga hych kimga ruxsat bergan emasmiz.

Soleyev A. – Asosiy e’tiborimiz universitetga kelayot-gan attestasiya komissiyasiga qaratilishi kerak. Ular 4 ta yo`nalishni attestasiya qilsa ham, boshqa fakultetlar faoliyati bilan qiziqishi mumkin. Davomotni nazorat qilish, jurnallarni vaqtida to`ldirish kerak.

Qodirov M. – Olimpiadaning birinchi turi tugadi. Iqtidorli talabalar tanlovini o`tkazish bo`yicha buyruq chiqdi. Innovasion yarmarkada namoyish qilish uchun 16 ta ish o`tdi. Vazirlik komissiyasi xo`jalik shartnomalarini tekshiradi. 11 ta fakultet dekanidan 1 tasida grant bor, 70 kafedra mudiridan 5-6 tasida grant yoki pullik shartnoma bor, xolos.

Shirinov T. – Dekanlar, 2 oy mobaynida xo`jalik shartnomasi tuzasizlar va grantlarga loyiha taqdim etasizlar. Kafedra mudirlarida ham grant bo`lishi kerak.

Islomov B. – 96-buyruq ijrosi bo`yicha «Abituriyent

shtabi» to`g`risida ma`lumot berish kerak. Abituriyent shtabi jihozlanishi, universitet haqidagi ma`lumotlar reklama qilinishi kerak, buklet va plakatlar tayyorlash lozim.

Abdusaidov A. – Universitet ilmiy kengashi qaror-lari ijrosi, fakultet ilmiy kengashi majlislari bayonnomalari hamda dekan huzuridagi ishlab chiqarish majlisi topshiriqlarining rasmiylashtirilishi, hiso-bot tartibiga rioya qilinishi masalalarini o`rganish va amaliy yordam berishni rejalashtirganman. Fakultet il-miy kotiblari ushbu hujjatlarni tayyorlab qo`yishlarini so`rayman. O`zim fakultetlarga borib, joylarda hujjat-larning rasmiylashtirilishini ko`zdan kechirmoqchiman.

Pardayev I. – Byudjetdan tashqari mablag` topish, servis xizmati ko`rsatish kabilar bo`yicha Vazirlik qat`iy topshiriqlar berayapti. Xo`jalik shartnomalari va grantlarning mablag`lari ham servis rejaga kiradi.

Shirinov T. - Samarqandda o`tkazilishi rejalash-tirilgan katta tadbirlar munosabati bilan Bosh vazir o`rinbosari R.S.Qosimov vaqti-vaqti bilan shu yerda bo`ladi. Universitet hayoti normal kechishi uchun belgilan-gan topshiriqlarni muddatida va sifatli bajarish shart.

QAROR QILINDI:

Kundalik topshiriqlarning muddatida bajarilishi ta`minlansin.

Mas`ul: Fakultet dekanlari, bo`lim boshliqlari.

Muddat: Hafta davomida va doimiy.

Universitet hayotiga oid e`lonlar bildirildi.

Rektor (imzo) T.SHIRINOV
Kotiba (imzo) G.PARDAYeVA

Bayonnomadan ko`chirma quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Tashkilot nomi.

2. Hujjat nomi (bayonnomadan ko`chirma).
3. Sana (majlis sanasi).
4. Shartli raqam.
5. Bayonnoma tuzilgan joy.
6. Matn:
 - a) KUN TARTIBI;
 - b) EShITILDI;
 - v) QAROR QILINDI.
7. Imzolar.
8. Nusxa tasdiqlanganligi haqda belgi.

Ba'zan bayonnomadan ko`chimalarda yig'ilishda qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek, ko`rilgan masala bo'yicha muhokamada ishtirok etganlar familiyasi ham ko`rsatib o`tiladi (168-b.).

4-ilova

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti
Ilmiy kengashining 2009 yil 29 iyunda o`tkazilgan
12-raqamli majlisi

BAYoNNOMASIDAN KO`ChIRMA

Qatnashdilar: 44 nafar Ilmiy
kengash a'zosidan 40 nafari

Eshitildi: «Yilning eng yaxshi darsligi va o`quv adabiyoti muallifi» 2009 yil Respublika tanloviga fizika-matematika fanlari doktori, professor M.Isroilovning «Hisoblash metodlari» nomli ikki qismdan iborat darsligini tavsiya etish

ABDUSAIDOV A., ilmiy kotib axboroti

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 4-son va 2006 yil 6 iyuldagi 290-son qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy va o`rta

maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi «Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi» 2009 yil Respublika tanlovini e'lon qilgan edi.

Fizika-matematika fanlari doktori, professor M.Isroilovning «Hisoblash metodlari» (1-qism. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. - 440 bet; 2-qism. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – 320 bet) nomli ikki qismdan iborat darsligi davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan. Darslik oliy o'quv yurtlarida «Matematika», «Tadbiqiy matematika va informatika», «Axborot texnologiyalari» ixtisosliklari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim olayotgan bakalavr va magistr'larga mo'ljallangan. Hozirgi kunda Oliy o'quv yurtlari talabalari mazkur darslikdan asosiy o'quv adabiyoti sifatida foydalanishmoqda.

Ushbu masala mexanika-matematika fakulteti Ilmiy kengashi majlisida muhokama etilib, darslik tanlovga tavsiya etilgan.

QAROR QILINDI:

Fizika-matematika fanlari doktori, professor M.Isroilovning «Hisoblash metodlari» (1-qism. – Toshkent: O'zbekiston, 2003. - 440 bet; 2-qism. – Toshkent: Iqtisod – moliya, 2008. – 320 bet) nomli darsligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste'dod» jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan «Yilning eng yaxshi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi» 2009 yil Respublika tanloviga tavsiya etilsin.

Ilmiy kengash raisi (imzo) T.SHIRINOV

Ilmiy kotib (imzo) A.ABDUSAIDOV

Bayonnomadan ko'chirmani rasmiylashtirishda quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yiladi:

1. Sana yoki majlis bayonnomasining raqami ko'rsatilmaydi.

2. Kun tartibidagi masala nomi noto'g'ri qayd etiladi yoki jumla noaniq, cho'ziq holda bo'ladi.

3. Masalaning bayoni ortiqcha tafsilotlar bilan beriladi.
4. Faktik noaniqliklar, jumla noravonligi, uslubiy va grammatik xatolarga yo`l qo`yiladi.
5. Majlis raisi yoki kotibining imzosi bo`lmaydi.

BILDIRISHNOMA, BILDIRISH

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqyea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug`ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborot. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo`yicha tuzuvchi (yozuvchi)ning takliflari aks etadi.

Kimga yo`llanganiga qarab bildirishnoma ichki va tashqi turlarga ajraladi.

Ichki bildirishnoma rahbar shaxs yoki bo`lim mudiri nomiga yoziladi. U toza qog`oz varag`iga qo`lda yoki mashinkada yozilishi mumkin. Bunday bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi. Tashqi bildirishnoma, ya`ni rahbar tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda, xos ish qog`oziga ikki nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o`zida qoldiriladi. Bunday bildirishnoma rahbar tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tashabbus, axborot va hisobot xusu-siyatiga ega. Bu xususiyatlar hujjat matni sarlavhasidayoq o`z aksini topadi. Tashabbus bildirishnomasi matnida tegishli masala yuzasidan umumiy yoki aniq takliflar ilgari surilib, rahbarni ularni hal qilishga undaydi (masalan, *Navoiy nomidagi jamoa xo`jaligida mukofot-lash nizomining buzilganligi haqida*).

Axborot bildirishnomasi, odatda, umumiy holati rahbarga ma`lum muayyan jarayon to`g`risida xabar beradi. Masalan, *Chinoz tumani Navoiy nomidagi jamoa xo`jaligida chigit ekishning borishi (1999 yil 10 apreldagi holati) haqida*.

Hisobot bildirishnomasi ma`lum bir ishning tugallanishi haqida yoki biron-bir ko`rsatma, tavsiya, rejaning ijrosi

to'g'risida rahbarni xabardor qilishi kerak bo'ladi (masalan, O'zR Fanlar akademiyasi Tarix institutida yangi topilgan qo'lyozmalarni o'rganish ishlarining borshii haqida) (171-b.).

Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda jo'nalish kelishigidagi familiyasi.

2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda chiqish kelishigidagi familiyasi.

3. Matn sarlavhasi.

4. Hujjat turining nomi (Bildirishnoma).

5. Bildirishnoma matni (mazmuni).

6. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar ilovalar bo'lsa).

7. Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi (agar bir necha shaxs tomonidan tayyorlangan bo'lsa, u barcha mualliflar tomonidan imzolanadi).

8. Bildirishnoma taqdim etilgan sana (sana muallif yoki muassasa rahbari tomonidan bildirishnoma imzola-nayotgan paytda qo'yiladi).

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, zaruriy qismlari va yozilish shakli jihatidan bildirishnomalar xizmat ma'lumotnoma (spravka)lariga yaqin turadi. Farqi shundaki, ma'lumotnomalarda asosan talab qilingan, so'ralgan voqyea-hodisalar haqidagina axborot beriladi, bildirishnomalarda esa voqyea-hodisalarni sanash bilan birga, ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinadi va tegishli xulosalar qilinib, takliflar aytiladi.

Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning xulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lmog'i kerak (172-b.).

**Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand Davlat universiteti
rektori
professor T.ShIRINOVga**

BILDIRISHNOMA

Universitet Ilmiy kengashining
2009 yil 29 avgustdagi 1-son majlisi
qarorlarini ijroga kiritish to`g`risida

Universitet Ilmiy kengashining 2009 yil 29 avgust-dagi 1-son majlisining quyidagi masalalar bo`yicha qaror-larini ijroga kiritishni buyruq bilan rasmiylash-tirishga ruxsat berishingizni so`rayman:

1. O`zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 18 yilligini tantanali nishonlashni tashkil etish va o`tkazish bo`yicha tadbirlarning bajarilishi to`g`risida.

2. 2009-2010 o`quv yili o`quv jarayonini tashkil qilish to`g`risida.

3. Mexanika-matematika fakultetida innovasion texnologiyalar va oliy matematika kafedrası tashkil etish to`g`risida.

4. «Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash-ning reyting tizimi to`g`risidagi Nizomni amaliyotga joriy etish bo`yicha yo`riqnoma»ni tasdiqlash.

5. «Professor-o`qituvchilarga soatbay fondni reja-lashtirish va taqsimlash tartibi to`g`risida yo`riqnoma»ni tasdiqlash.

Ilmiy kotib (imzo) A.Abdusaidov

DALOLATNOMA

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqyea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzishda xilma-xil maqsadlar ko'zlanadi, lekin uni tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqyea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy me'yorlar bilan qat'iy belgilangan. Masalan, korxonalarining hisob-kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadi.

Dalolatnoma deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq tuziladi (hatto baxtsiz hodisa yoki tabiiy ofat haqidagi dalolatnoma asosida ham moddiy masala bor), binobarin, u ko'proq tadbirkorlik, moliya-xo'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohaslarida keng qo'llanadi.

Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashinayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatdor buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

Dalolatnomalar voqyea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (muassasa rahbari-ning buyrug'i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda va umuman dalolatnoma yakka shaxs

tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo`lmog`i shart. Ayrim hollarda dalolatnomalar voqyea-hodisaning qatnashchilari yoki unga guvoh bo`lgan kishilarning tashabbusi bilan ham tuziladi.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Idora, muassasa va tarkibiy bo`linma nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqami va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavhasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug`i, idoraning qarori yoki ko`rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (Raisi va a`zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovaning necha betligi ko`rsatiladi).
11. Tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

Har bir dalolatnomaning ushbu zaruriy tarkibiy qismlari qatoriga ayrim hollarda boshqa ma`lumotlarni ham qo`shish mumkin. Chunonchi, ishni qabul qilish-topshirish chog`ida tuziladigan dalolatnomalarda xodim-lar tomonidan topshirilayotgan qimmatdor buyumlar, hujjatlar sanab o`tiladi (ilovalar tarzida), topshirish vaqtidagi ish ahvoliga baho beriladi, bajarilmagan ishlar qayd etiladi va hokazo (186-187-b.).

Dalolatnoma matnining sarlavhasi o`rganilayotgan va qayd etilayotgan voqyea-hodisaning yoki holatning mazmuni-dan kelib chiqib qo`yilishi kerak.

Masalan: *Institut kadrlar bo`limida hujjatlar-ning saqlanish ahvoli haqida*

Matn sarlavhasi "...haqida" shaklida bo`lishi ham, shuningdek, bosh kelishikda ("...hujjatlarning saqlanish ahvoli") bo`lishi ham mumkin.

Dalolatnoma matni murakkab tuzilishga ega bo`lib, kirish va ta`kid (qayd, tasdiq) qismlaridan tashkil topadi.

Kirish qismi quyidagi tartibga ega: *asos* (dalolatnoma yuqori idoralarning me`yoriy hujjatlari yoki muassasa raxbarining yozma buyrugiga asosan tuziladi; ishtirokchilarning shaxsiy tashabbusiga ko`ra tuziladigan dalolatnomalarda bu qism bo`lmasligi mumkin); *tuzildi* (kim tomonidan - yakka, xususiy shaxsmi yoki komissiyami); *ishtirok etganlar* (asosiy tuzuvchilardan tashqari guvoh sifatida hozir bo`lganlar yoki taklif etilganlar). Dalolatnoma tuzishda qatnashgan shaxslarni sanaganda, ularning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyalari ko`rsatiladi. Agar dalolatnoma komissiya tomonidan tuzilsa, birinchi bo`lib komissiya raisi, keyin shu tartibda komissiya a`zolari ko`rsatiladi. Komissiya a`zolarining familiyalari, shuningdek ishtirokchi-larning familiyalari, odatda, alifbo tartibida yoziladi.

Dalolatnomaning ta`kid qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlarning maqsad va vazifalari, mohiyat va xususiyatlari bayon etiladi, ishni amalga oshirishga asos bo`lgan hujjatlar ko`rsatib o`tiladi, aniqlangan holatlar qayd etiladi. Zaruriy hollarda dalolatnomaning ta`kid qismida aniqlangan holatlar yuzasidan xulosalar va takliflar qilinadi.

Dalolatnoma matni so`ngida uning necha nusxaliga ko`rsatiladi. Dalolatnoma, odatda, uch nusxada tuzilib, birinchisi - yuqori idoraga, ikkinchisi - muassasa rahbari-ga jo`natiladi, uchinchisi esa hujjatlar yig`majildiga solib qo`yish uchun topshiriladi. Shuni ham aytish kerakki, dalolatnoma nusxalarining miqdori manfaatdor tomonlarning soni yoki ushbu hujjatni tuzishni ma`lum tartibga soluvchi me`yoriy hujjatlar ko`rsatmasiga bog`liqdir. Dalolatnomaning necha nusxaligi haqidagi ma`lu-mot asosiy matn bilan ilovalar (agar bor bo`lsa) yoki imzo-lar oraliq`ida joylashtiriladi. Dalolatnomaga ilovalar bo`lgan taqdirda, ular dalolatnoma

nusxalari haqidagi ma'lumotdan so'ng, imzolardan avval joylashtiriladi.

Dalolatnoma sodir bo'lgan voqyea-hodisalarni aniq-lashda va mavjud holatlarni tasdiqlashda ishtirok etgan barcha shaxslar tomonidan imzolanadi. Bunda hujjat tuzuvchilar yoki tuzishda ishtirok etganlarning lavozim-lari qayta ko'rsatilmaydi. Dalolatnomaga avvalo komis-siya raisi, keyin a'zolari, eng oxirida uni tuzishda ishtirok etganlar imzo qo'yadi. Komissiya a'zolarining familiyalari ham, ishtirokchilarning familiyalari ham alifbo tartibida keltiriladi. Imzolar tik yoki bo'ylama tartib bilan qo'yiladi.

Tuzuvchilardan birortasi dalolatnoma mazmuniga yoki uning biror bandiga qo'shilmagan chog'da, bu haqda imzolardan so'ng eslatib o'tiladi. Agar bildirilgan e'tiroz hajmi ko'p bo'lmasa, dalolatnomaning o'zida, imzolardan keyin yozib qo'yiladi. Aks holda, komissiya a'zosi o'z e'tirozini alohida varaqqa yozib beradi va u dalolatnomaga ilova qilinadi.

Dalolatnoma oddiy bichimdagi varaqda yoki umumiy bosma ish qog'ozida rasmiylashtirilishi mumkin. U oddiy varaqda tuzilganda, to'rtburchak muhrni qo'llash maqsadga muvofiqdir, chunki bir qancha doimiy zaruriy qismlar ana shu muhrda aks etishi mumkin.

Dalolatnoma tuzilgandan keyin, komissiya voqyealarga aloqador va nomi ko'rsatilgan shaxslarni hujjatning mazmuni bilan tanishtirishi va bu haqda ulardan tasdiq yoki guvohlik imzosini olishi kerak.

Dalolatnomalar turli xil voqyea va holatlar munosabati bilan tuziladi, binobarin, ularning xillari, mazmuni va shakli tuzilishi xam bir-biridan o'zaro farqlanadi (189-190-b.).

Rahbarlar, moddiy jihatdan mas'ul xodimlarning almashinuvi vaqtida tuziladigan ishni topshirish-qabul qilish dalolatnomalarida muassasa faoliyati ahvolini aniq ko'rsatuvchi quyidagi asosiy ma'lumotlar qamrab olinishi kerak: rahbarlar almashuvida - rejadagi ishlarning asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha bajarilishi, moliyaviy va boshqa sifat

ko'rsatkichlari (daromad, samaradorlik, sarf-xarajat miqdori va b.), shartnomalarning bajarilishi haqidagi ma'lumotlar, kadrlar bilan to'ldirish, mehnatga haq to'lash fondidan foydalanish, hisob bo'limidagi ishlar ahvoli, ish yuritish va arxivning ahvoli va boshqalar. Bosh yoki katta hisobchi-si almashuvida - asosan hisob bo'limi faoliyati atroflicha qamrab olinadi; kadrlar bo'limi boshlig'i almashuvida esa asosan xodimlar ish faoliyati bilan bog'liq va kadrlar bo'limida saqlanuvchi barcha hujjatlarning umumiy ahvoli o'rganiladi.

Ishni topshirish - qabul qilish dalolatnomalarining zaruriy qismlari yuqorida ko'rsatilganidan deyarli farq qilmaydi. Uning "Imzolar" qismida komissiya a'zolari, ishtirokchilar bilan birga ishni topshiruvchining hamda qabul qiluvchining imzolari ham bo'ladi.

Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish etish dalolat-nomasi, odatda, taftish o'tkazgan bir shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Bunday dalolatnomalar-ning zaruriy qismlari yuqorida tavsiflangan umumiy tusdagi dalolatnomalarnikidan deyarli farq qilmaydi. Bunda tuzuvchi va ishtirokchilardan tashqari, faoliyati tekshirilgan shaxslar ham dalolatnomaga imzo qo'yadi (192-b).

6-ilova

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand Davlat universiteti

Mirzayeva Shoxista Xudoynazarovnaning
diplomiga lotin alifbosidagi
muhrni qo'yish to'g'risida

DALOLATNOMA

2009 yil 20 fevral

Samarqand shahri

Ushbu dalolatnoma Mirzayev R., o`quv-uslubiy boshqarma boshlig`i o`rinbosari, Do`sanova N., arxiv mudiri, Ashurov U., katta nozir, Nurmuhamedov U., huquqshunos tomonidan tuzildi.

Mirzayeva Shoxista Xudoynazarovnaga, Samarqand Davlat universitetini ximik mutaxassisligi bo`yicha 1995 yilda haqiqatdan bitirganligi to`g`risida 041892 raqamli, 25 iyunda 314 raqami bilan ro`yxatga olinib berilgan diplomga, ayrim sabablarga ko`ra, o`z vaqtida muhr qo`yilmaganligi uchun, hozirgi paytda amalda bo`lgan lotin alifbosidagi muhr bosildi.

Ushbu dalolatnoma 2 nusxada tuzildi.

Komissiya raisi (imzo) R.Mirzayev

Komissiya a`zolari: (imzo) N.Do`sanova

(imzo) U.Ashurov U.

(imzo) U.Nurmuhamedov

Tavsifnoma

Ma`lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek uning o`ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat.

Tavsifnoma muassasa ma`muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo`lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o`quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki rag`batlantirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko`rsatib o`tiladi.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagi-lardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxe haqida asosiy ma'lumotlar:

a) ismi, otasining ismi va familiyasi;

b) tug'ilgan yili;

v) millati;

g) partiyaviyligi;

d) ma'lumoti;

ye) lavozimi;

yo) ilmiy darajasi va unvoni.

2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).

3. Matn.

4. Imzolar.

5. Sana.

6. Muhr.

Tavsifnoma matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismga ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tilidan bayon qilina-di. Xodimni tavsiflashda "halol", "topshiriqlarni vaq-tida bajaradigan", "mehnatsevar", "talabchan", "tashabbus-kor",

"tezkor", "prinsipial", "intizomli" kabi sifatlar-dan foydalaniladi. Agar tavsifnoma jamoat tashkilot-lari yig'ilishida tasdiqlangan bo'lsa shu yig'ilish bayonnomasi raqami va sanasiga havola bo'ladi. Qoidaga ko'ra tavsifnomaga ikki shaxs: muassasa (yoki bo'linma) boshlig'i va kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Tavsifnoma xodimning qo'liga topshiriladi yoki uni shaxsan xabardor qilgan holda, tavsifnomani talab qilgan muassasaga jo'natiladi.

Tavsifnomalarning "ishlab chiqarish tavsifnomasi", "tavsifiy tavsiyanoma", "xizmat tavsifnomasi" kabi turlari mavjud bo'lib, ular ayrim xususiyatlari jihatidan o'zaro farqlanadi (235-236-b.).

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti
 «Sosiolingvistika» ilmiy laboratoriyasi mudiri, filologiya
 fanlari doktori, amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyoti
 o'qitish metodikasi kafedrası professorı, ilmiy kotib Abduvalı
 Abdusaidovning ilmiy, o'quv, tashkiliy faoliyatiga

TAVSIFNOMA

Abdusaidov Abduvalı, 1957 yil 28 iyulda Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Qirqdarxon qishlog'ida tug'ilgan, o'zbek, oliy ma'lumotli, partiya a'zosi emas. 1979 yilda SamDUning o'zbek va tojik filologiyasi fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatib, Oqdaryo tumanidagi o'rta maktabda uch yil o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi sifatida ishladi. 1982 yil iyunidan SamDU tahrir-nashriyot bo'limi muharriri, 1986-93 yillar tahrir-nashriyot bo'limi mudiri sifatida mehnat qilgan. 1989 yilda nomzodlik dissertasiyasini himoya qilgan. 1999 yilgacha SamDU bosh ilmiy kotibi lavozimida ishlagan.

1999 yil mart oyidan 2004 yil avgustgacha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Samarqand bo'limi bosh ilmiy kotibi, raisning ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari sifatida mehnat qilgan.

2004 yil avgustidan dekabr oyigacha SamDU ilmiy kotibi, so'ng 2005 yil aprel oyigacha o'zbek filologiyasi fakulteti dekani vazifasini bajaruvchi va amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasi kafedrası dosenti lavozimlarida ishladi. Shu muddatda fakultetda 5 ta turli mavzulardagi ilmiy anjumanlarni yuqori saviyada tashkil etdi. Davomot va talabalar bilimini nazorat qilishni talab darajasida tashkil etishga erishdi va jamoani uyushtira oldi. Uning tashabbusi bilan fakultetda o'quv zali (qiroatxona) ochildi va faoliyat ko'rsata boshladi. U talabalarga «O'qituvchining nutq madaniyati», «Nutq madaniyati asos-lari» fanlaridan, «Tanlanma fan: nazariy grammatika», «O'zbek tilining ijtimoiy mohiyati» maxsus kurslaridan mahorat bilan ma'ruzalar va

amaliy mashg'ulotlar olib boradi.

2005 yil 6 mayda O'zR FA Til va adabiyot instituti huzuridagi ixtisoslashgan kengashda doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. 1990 yildan buyon o'zbek tili va adabiyoti, jurnalistika va tahrir nazariyasi, o'zbek tilshunosligi kafedralarida assistent, katta o'qituvchi, dosent lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. 2004 yildan amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasida dosenti, 2008 yil 2 sentyabrdan, universitet ilmiy kengashida tanlovdan o'tib, professor hamda universitet ilmiy kotibi lavozimlarida ishlab kelmoqda. Matbuot tili va o'zbek tilining ijtimoiy mohiyati masalalariga bag'ishlangan 3 ta monografiya, 80 ga yaqin ilmiy maqola, 13 ta o'quv qo'llanma, 30 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar nashr etgan.

U 2004 yil avgustidan SamDU Ilmiy kengashi, o'zbek tilshunosligi kafedrasida qoshidagi nomzodlik va doktorlik dissertasiyalari muhokamasi uchun mo'ljallangan seminarining faol a'zosi. 2005 yil oktyabridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi eksperti sifatida parlamentning qonun ijodkorligi va qonunlar ijrosiga bag'ishlangan nazorat-tahlillarda faol qatnashib kelmoqda. Bir nechta qonunlarning Jizzax, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari, turli vazirliklarda ijrosi bo'yicha nazorat tahlillarda faol ishtirok etib, bu sohada ham mahoratini ko'rsata oldi.

A.Abdusaidov hozirgi davr talabini yaxshi idrok qilgan holda faol, vijdonan, tashkilotchilik bilan mehnat qilmoqda, hujjatchilik sohasida yuqori kasb mahoratiga ega. E'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi istiqbol davri talablariga to'la javob beradi. O'zining mehnatsevarligi, talabchanligi, to'g'risozligi, hozirjavobligi, mas'uliyatni yaxshi his etishi, bilim-donligi, atrofida qilargacha mehribonligi va doimo yordamga tayyorligi bilan jamoamizda, shahar jamoatchiligi orasida yaxshi obro'-e'tibor qozongan. U yaxshi oila boshlig'i hamdir,

turmush o`rtog'i bilan birga 3 nafar farzandini tarbiyalamoqda.

Ushbu O`zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKga taqdim etish uchun berildi.

Samarqand Davlat universiteti

rektori, professor

(imzo)**T.Sh.SHIRINOV**

2009 yil 21 may

Tavsiyanoma

Biror shaxsni ma'lum lavozimga yoki turli tashkilotlarga a'zo bo'lish uchun tavsiya etish maqsadida tuziladigan rasmiy hujjat.

U ma'muriyat yoki alohida shaxs tomonidan berilishi mumkin. Tavsiyanoma matnida tavsiya qilinayotgan shaxsning xususiyatlari - mutaxassis sifatidagi malakasi, oilaviy, axloqiy jihatlari va faoliyatiga baho beriladi, u tavsiya etilayotgan lavozim yoki tashkilotga a'zo bo'lishga munosib ekanligi yuzasidan ishonch bildiriladi.

Tavsiyanoma ba'zi xususiyatlariga ko'ra tavsifnomaga o'xshaydi, shu sababli ularning ko'pchiligi tavsifiy tavsiyanoma shaklida bo'ladi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, tavsifnomalarda shaxsning barcha ijobiy, salbiy xususiyatlari qayd qilinadi. Tavsiyanomalarda esa uning ijobiy xususiyatlari ko'rsatilishi bilan birga, keyinchalik uning zimmasiga yuklatiladigan vazifani bajara olishiga ishonch bildiriladi va tavsiya etiladi.

Turli mukofotlarga taqdim etish - taqdimnoma (xodataystvo) ham tavsiyanoma shaklida bo'ladi.

Tavsiyanomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tavsiyanoma).
2. Matn.
3. Tavsiyanoma beruvchi shaxsning lavozimi, ismi, otasining ismi, familiyasi.
4. Imzo.

TAVSIYaNOMA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizom»ga asosan SamDU jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası mudiri lavozimiga belgilangan tartibda tanlov e'lon qilindi.

2005-2009 yillarda mazkur kafedra mudiri lavozimi-da yuridik fanlar nomzodi, dosent Sh.Umidullayev faoliyat ko'rsatdi. Men Sh.Umidullayevning kafeda mudiri sifatidagi faoliyatini yaxshi bilaman.

Dosent Sh.Umidullayev mudirlik qilgan so'nggi 5 yilda kafedraning ilmiy salohiyati oshdi: 2 ta nomzodlik dissertasiyasi himoya qilindi, 2 nafar doktorant-tadqiqotchi doktorlik dissertasiyasini himoyaga tayyor-ladi, 1 nafar katta o'qituvchi nomzodlik ishini himoya uchun rasmiylashtirdi. Ta'lim jarayoniga e'tibor kuchaydi, mehnat va ijro intizomi talab darajasida tashkil qilindi, 13 ta asosiy fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua tayyorlandi, o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash yaxshilandi.

Sh.Umidullayev «O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuni bo'yicha jazodan ozod qilish (nazariya va amaliyot)» mavzusida doktorlik dissertasiyasi ustida faol izlanishlar olib bormoqda.

So'nggi 5 yil davomida kafedrani muvaffaqiyatli boshqarganligini, ishchanlik muhitini yarata olganligini hamda doktorlik dissertasiyasi ustida faol ishlayotgan-ligini e'tiborga olib, mazkur kafedra mudiri lavozimi tanloviga yuridik fanlar nomzodi, dosent Sh.Umidullayev-ning ikkinchi marta ishtirok etishini qo'llab-quvvatlay-man va uning samarali faoliyat yuritishiga ishonch bildiraman.

TARJIMAI HOL

Ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuv. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol).

2. Matn:

a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi;

b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi;

v) millati, ijtimoiy kelib chiqishi;

g) ota-onasi haqda qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi);

d) ma'lumoti (qayerda, qanday o'quv yurtini tugat-ganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi);

ye) ish faoliyatining turlari;

yo) oxirgi ish joyi va lavozimi;

j) mukofot va rag'batlantirishlar;

z) jamoat ishlarida ishtiroki;

i) oilaviy ahvoli va oila a'zolari;

y) pasport ma'lumotlari;

k) turar joyi (uy adresi), telefoni.

3. Sana.

4. Imzo.

Tarjimai hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi. Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi,

kuni ko`rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerakki u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo`li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo`lsin (240-241-b.).

9-ilova

TARJIMAI HOL

Men, Abusaidov Abduvali, 1957 yil 28 iyulda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanida, dehqon oilasida tug`ildim.

Otam – Qosimov Abdusaid, 1921 yilda tug`ilgan, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. 2009 yilda vafot etgan.

Onam – Qosimova To`fa, 1927 yilda tug`ilgan. 1999 yilda vafot etgan.

1964-1974 yillar Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 40-o`rta maktabda o`qidim. 1974 yilda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti o`zbek filologiyasi fakultetiga o`qishga kirib, 1979 yilda uni imtiyozli bitirib, filolog-o`qituvchi ixtisosligiga ega bo`ldim. 1979-1982 yillarda Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi 40-o`rta maktabda ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi lavozimida ishladim. 1982-1993 yillarda SamDU tahrir-nashriyot bo`limi muharriri va bo`lim mudiri lavozimlarida faoliyat ko`rsatdim. 1993-1996 yillarda SamDU o`zbek tilshunosligi kafedrasida doktoranturasida tahsil oldim.

O`zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti huzuridagi ixtisoslashgan kengashda 1989 yilda nomzodlik va 2005 yilda doktorlik dissertasiyalarini himoya qildim.

1999-2004 yillarda O`zbekiston Fanlar akademiyasi Samarqand mintaqaviy bo`limi raisining ilmiy ishlar bo`yicha o`rinbosari – bosh ilmiy kotib lavozimida mehnat qildim. 2004 yildan hozirgacha SamDU bosh ilmiy kotibi, amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi kafedrasida professori lavozimlarida faoliyat ko`rsatayapman.

2005 yil oktyabr oyidan O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Axborot kommunika-siyalari va

texnologiyalari masalalari qo`mitasi eksperti sifatida ishlayapman.

«O`zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligi ko`krak nishoni» bilan taqdirlanganman.

Uylanganman. Xotinim – Zohidova Sojida, 1961 yilda tug`ilgan, Oqdaryo tuman birlashgan kasalxonasida vrach bo`lib ishlaydi. O`g`lim – Abdusaidov Akmal, 1985 yilda tug`ilgan, SamDU talabasi. O`g`lim – Abdusaidov Akbar – 1988 yilda tug`ilgan, SamDU talabasi. O`g`lim – Abdusaidov Asqar – 1993 yilda tug`ilgan, SamDU akademik liseyi o`quvchisi.

Turar joyim: Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Qirqdarxon qishlog`i.

(imzo) A.Abdusaidov

2009 yil 21 may.

TILXAT, TUSHUNTIRISH XATI

Tilxat

Pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjat.

Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn:

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi.

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo`lganda muassasa nomi);

v) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo`lganda bahosi);

g) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh.k. bo`lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko`rsatiladi, qavs ichida esa so`zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig`idagi bo`sh joylar chiziladi. Tilxatdagi yozuvlarni o`chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyligi shubha ostiga olinishi mumkin.

Ba`zan tilxatda guvohlar ismi-sharifi ham ko`rsatiladi. Bunday hollarda guvohlar o`z imzolari bilan hujjatni tasdiqlashlari kerak (243-b.).

10-ilova

TILXAT

Men, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti filologiya fakulteti 3-kursining 2-guruh sardori Salimov Qodir, SamDU kassiri Roziya Boboyevadan guruh talabalariga 2009 yil sentyabr oyi uchun beriladigan stipendiyani qaydnoma asosida tarqatish uchun oldim.

(imzo) Q.Salimov

2009 yil 12 sentyabr.

Tushuntirish xati

Xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo`lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo`llanuvchi hujjatdir.

Yuqoridagi ta`rifdan ko`rinadiki, tushuntirish xati xuddi ma`lumotnoma va bildirishnoma singari ichki va tashqi xususiyatga ega. Keyingi holatda, ya`ni tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotganda, u ko`pincha biror asosiy hujjat

(rejalar, hisobotlar, loyihalar)ga ilova tarzida bo`lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o`rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek muassasada bo`lib o`tgan voqyea-hodisaga, rahbarning ba'zi xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi. Demak, bu holda tushuntirish xati mustaqil hujjat hisoblanmaydi, shunga qaramay, u muassasa xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan imzolanadi.

Ichki, boshqacha aytganda, shaxsiy tushuntirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo`jaligi a'zosi, talaba) tomonidan, ba'zan bo`linmalar rahbarlari tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o`qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi xatti-harakatlar (masalan, ish yoki o`qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Bevosita xodim (muallif) tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy qog'ozga yoziladi. Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo`llash yoki, dalillar asosli (uzrli) bo`lsa, qo`llamaslik uchun asos vazifasini o`tashi mumkin.

Umuman, tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo`ladi:

1. Hujjat yo`llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsning to`liq nomi.
2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to`liq nomi.
3. Hujjat turining nomi (Tushuntirish xati).
4. Hujjat matni (mazmuni).
5. Imzo.
6. Sana (hujjat yozilgan vaqt).

Tashqi, xizmat yuzasidan korxona, muassasa va hokazo-lar nomidan yoziladigan tushuntirish xatlari xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va ularning to'liq nomi ushbu ish qog'ozida aks etadi. Ichki tushuntirish xatlarida esa rahbar yoki xodimning to'liq nomi deyilganda, u ishlaydigan (o'qiydigan) bo'linmaning nomi, shaxs lavozimi, ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi nazarda tutiladi.

Zaruriy qismlari va yozilish shakli jihatidan tushuntirish xati arizadan deyarli farq qilmaydi, tarkibiy qismlarining joylashishi ham bir xil. Faqat shaxsiy tushuntirish xatining muallifi arizadagiday chiqish kelishigida emas, balki qaratqich kelishigida rasmiylashtirilgani ma'qulroqdir (244-245-b.).

11-ilova

SamDU tabiiy fanlar fakulteti fakulteti geografiya bo'limi boshlig'i M.Usmonovga 3-kurs talabasi O.Abduraxmonovning

TUSHUNTIRISH XATI

2009 yilning aprel oyida «O'qituvchining nutq madaniyati» fanidan darslarga kasalligim tufayli qatnasha olmadim. Hozir sog'lig'im yaxshi. Qoldirilgan darslarni mustaqil o'zlashtirish sharti bilan mashg'ulotlarga qatnashishimga ruxsat berishingizni so'rayman.

Ilova: Kasalligim to'g'risida vrach ma'lumotnomasi.

(imzo) O.Abduraxmonov

2009 yil 2 may.

E'LON

Ko'pchilikni yoki ma'lum guruhdagi shaxslarni yaqin orada (kelgusivda) bo'ladigan biron-bir tadbir - majlis, uchrashuv, suhbat, shuningdek ishga, o'qishga qabul qilish va boshqalar haqida xabardor qilish uchun qo'llanuvchi yozma axborot.

E'lonning zaruriy qismlari:

1. Nomi (E'lon).

2. E'lon qilinayotgan tadbirning vaqti, o'tkazilish joyi.

3. Tadbirning mavzusini o`zida aks ettiruvchi matn.

4. Tadbir o`tkazuvchilar nomi (odatda, bo`ladigan tadbirni e`lon qilayotgan tashkilot, organning nomi: "Ma`muriyat", "Kuzatuv kengashi", "Yozuvchilar uyushmasi", "Tashkiliy qo`mita" tarzida beriladi).

E`lon mavzusiga va undan ko`zlangan maqsadga ko`ra turli shakllarda bo`lishi mumkin (250-b.).

12-ilova

E`lon

2009 yil 5 sentyabr kuni soat 14.00 da filologiya fakultetining 8-o`quv xonasida «Yosh tilshunos» ilmiy to`garagining navbatdagi yig`ilishi bo`ladi.

Kun tartibi:

1. Globallashuv jarayonida tilning ijtimoiy mohiyati.
2. «O`zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2009 yilgi sonlarida e`lon qilingan maqolalar to`g`risida.

«Yosh tilshunos» to`garagi kengashi.

13-ilova

Samarqand Davlat universiteti quyidagi bo`sh (vakant) lavozimlariga bitim asosida tanlov e`lon qiladi:

Kafedra mudiri – milliy g`oya, falsafa va fan metodologiyasi – 1, Sharq falsafasi va ma`naviyat – 1, jismoniy madaniyat – 1, matematik fizika va funksiyalar nazariyasi – 1, matematik modellashirish – 1, arxeologiya, qadimgi dunyo tarixi va etnografiya – 1.

Professor – gidrometeriologiya va landshaftshunoslik – 1, matematik fizika funksiyalar nazariyasi – 1, o`zbek tilshunosligi – 1, gumanitar fanlar va uni o`qitish uslubiyati – 1, amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyotini o`qitish metodikasi (0,5 stavka) – 1, iqtisodiy nazariya – 1, musiqa pedagogikasi uslubiyati va xalq cholg`u asboblari chalish –

1.

Dosent – anorganik kimyo – 1, yadro fizikasi – 1, matematik modellashirish – 1, ijtimoiy iqtisodiyot va menejment – 1, iqtisodiy nazariya – 1, axborot texnologiyalari – 1, matematik analiz – 1, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya – 1, sosiologiya va ijtimoiy ish – 1, amaliy tilshunoslik, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi – 1, fransuz va lotin tili – 1, O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti – 1, anorganik kimyo – 1.

***Tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlar
taqdim etilishi lozim:***

- Rektor nomiga ariza
- Xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa
- Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlar, ilmiy unvoni haqidagi attestat nusxalari
- Ilmiy ishlari ro'yxati

***Hujjatlar e'lon chiqqan kunidan boshlab bir oy muddatda
qabul qilinadi.***

***Samarqand Davlat universiteti (yangi) rektorat binosi,
Ilmiy kotib. Telefon: 231-16-81.***

HISOBOT

Muayyan vakt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi: nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday yetishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan

ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Hisobot shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bildirishnoma hujjatiga o'xshaydi.

Uning zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.

2. Hujjatning nomi (Hisobot).

3. Hisobot matni.

4. Lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.

5. Sana.

6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

Xizmat safari va rahbarning muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar ma'lum davr ishlari bo'yicha hisobotdan qisman farq qiladi. Zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi: idora rahbarining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, kim tomonidan qanday topshiriq uchun hisobot berilyapti.

2. Hujjatning nomi (Hisobot).

3. Hisobot matni ("Sizning topshirig'ingizga binoan" kabi iboralar bilan boshlanadi, topshiriq qanday bajarilganligi aniq ma'lumotlar bilan bayon qilinadi; xulosa yasaladi).

4. Ilovalar ko'rsatiladi (ko'p hollarda).

5. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.

6. Sana (254-255-b.).

Hisobotni rasmiylashtirishda yo'l qo'yilayotgan asosiy kamchiliklar:

- talab etilgan hajm va mazmunda yozilmaydi;
- ortiqcha tafsilotlar ko'p uchraydi;
- balandparvoz jumlar ko'p uchraydi, tanqidiy nuqtai nazar, kamchiliklarni ifodalashga e'tibor berilmaydi;
- xulosa, taklif va mulohazalar, muammolar qayd etilmaydi;

- savodxonlik darajasi talabga javob bermaydi va hokazo.

14-ilova

**Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand Davlat universiteti
Ilmiy kengashining 2008-2009 o`quv yili bo`yicha**

HISOBOTI

Universitet ilmiy kengashi O`zbekiston Respublikasi «Ta`lim to`g`risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosini ta`minlash, Prezident qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi buyruq va ko`rsatmalari, ilmiy, o`quv, ma`naviy-ma`rifiy, iqtisodiy sohalaridagi rejalarni amalga oshirish, o`quv, ilmiy salohiyat, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doir masalalarni muhokama qilish asosida tegishli qarorlarni qabul qilib, ularni amalga oshirishda muhim bo`g`in sifatida faoliyat ko`rsatmoqda.

Ilmiy kengash majlislari asosan ta`lim sohasidagi islohotlarni amalga oshirish, davr talabi asosida o`quv, ilmiy, ma`naviy-ma`rifiy, boshqaruv sohalaridagi ishlarni tashkil qilish, reyting tizimini keng yo`lga qo`yish, dars sifatini yanada yaxshilash, yangi o`quv dasturlari va darslik hamda qo`llanmalar yaratish, talabalar bilimni obyektiv baholashni joriy qilish, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishning yangi usullarni izlab topish, umuman bozor iqtisodiyoti talablariga mos va jahon andozalari darajasida yetuk malakali mutaxassislar tayyorlash kabi masalalarni hal etishga qaratilmoqda.

«Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetining 2008-2009 o`quv yili ish rejasi»ga asosan o`quv yili davomida Ilmiy kengashning 12 ta (1 ta rejadani tashqari) majlisi o`tkazilib, ularda 223 ta masala muhokama etildi, shundan 51 tasi asosiy va 172 tasi har xil masalalardir.

Ushbu masalalarning sohalar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

t/r	Soha nomi	2006-2007	2007-2008	2008-2009
1	O'quv ishlari	15	16	18
2	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar	9	10	8
3	Ilmiy ishlar	5	4	6
4	Iqtisod, xo'jalik ishlari	2	3	3
5	Xalqaro	4	1	1
6	O'rta maxsus va kasb-hunar kollejlari bilan hamkor-lik, bitiruvchilarni ishga joylashtirish	4	4	4
7	Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, Vazir-lik hay'ati qarorlari ijrosi	12	12	9
8	Tashkiliy	18	19	11
9	Tanlov	10	36	23
10	Doktorlik va nomzodik dissertatsiyasi mavzulari-ni tasdiqlash	96	70	87
11	Ijodiy ta'til	4	5	9
12	Turli stipendiyalar va tanlovlarga tavsiya	6	4	7
13	Monografiyalarni nashrga tavsiya etish	8	12	13
14	Boshqa masalalar	16	2	24

Ilmiy kengash majlislari kun tartibiga kiritilgan masalalarni tayyorlash va ijro ma'lumotlarini taqdim etishda o'quv-uslubiy boshqarma, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, ichki nazorat va monitoring bo'limi, huquqshunos-lik, pedagogika, jismoniy madaniyat, iqtisodiyot, tarix-falsafa, tabiiy fanlar fakultetlari va kasbiy ta'lim bo'limi faolligini alohida qayd etish mumkin.

Umuman, Ilmiy kengash majlislari «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talabalari hamda Vazirlik ko'rsatmalari ijrosini ta'minlash bo'yicha universitet

hayotiga oid muhim masalalar ko`rib chiqilib, ularning ijrosi ta'minlan-moqda va olib borilayotgan nazorat ishlariga e'tibor yanada kuchaytirilmoqda.

Ilmiy kotib (imzo) A.ABDUSAIDOV

2009 yil 2 iyul

XATLAR

Muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lamiga keng bo'lib, bunday yozishmalar vosita-sida turli ko'rsatmalar, so'rovlar, javoblar, tushun-tirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Mazmun jihatdan turlicha bo'lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi. Xizmat xatlari xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Xatlarni bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar).

2) javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

Ushbu xatlar ma'lum bir maqsadda yoziladi, masalan, kafolat xatlarda kafolat berish ifodalansa, ilova xatlarda xatga ilova qilinayotgan hujjatlar haqida axborot beriladi. Biroq shunday xatlar ham uchraydiki, uning mazmunida ham kafolat berish, ham iltimos, ham eslatish ma'nolari ifodalanadi.

Xizmat xatlari odatda xatlar uchun tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Maxsus bosma ish qog'ozlari bo'lmagan hollarda xizmat xatlari xos ish qog'oziga yoki oddiy qog'ozga yoziladi. Xat oddiy qog'oz varaqqa yozilsa, uning chap tomonidagi yuqori burchagiga xat jo'natayotgan muassasa nomi ko'rsatilgan to'rtburchak muhr qo'yiladi.

Zaruriy qismlari burchakda joylashgan bosma yoki xos ish qog'ozlarida zaruriy qism avval o'zbek tilida, so'ng rus yoki ingliz tilida beriladi. Zaruriy qismlar uzunasiga (bo'yiga)

joylashgan bosma ish qog'ozlarida ular chap tomonda o'zbek tilida, o'ng tomonida rus yoki ingliz tilida beriladi.

Xizmat xatlari quyidagi zaruriy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. O'zR gerbi.
2. Muassasaning ramziy belgi (emblema)si.
3. Mukofotlar.
4. Vazirlik, boshqarma ismi.
5. Tashkilot nomi.
6. Bo`linma nomi.
7. Tasniflagich bo`yicha hujjatning xos raqami.
8. Muassasaning xos raqami.
9. Pochta, telegraf adresi, bankdagi hisob-kitob raqami.
10. Sana.
11. Shartli raqam (indeks).
12. Kelgan hujjat shartli raqami.
13. Hujjatning kelish sanasi.
14. Hujjat jo`natiladigan adres (xatni oluvchi muassa-saning nomi).
15. Munosabat belgisi (rezolyusiya).
16. Nazorat haqida belgi.
17. Matn sarlavhasi (xatning qisqacha mazmuni).
18. Matn.
19. Ilovalar haqida belgi.
20. Imzo.
21. Rozilik belgisi (viza).
22. Kelishuv haqida belgi.
23. Bajaruvchi haqida belgi va uning telefon raqami.
24. Bajarilganlik haqida belgi (279-280-b.).

Har qanday xizmat xati mantiqiy jihatdan o`zaro bog`liq bo`lgan uch qismdan iborat buladi. Xatning birinchi (kirish) qismida, odatda, xat bilan tegishli muassasaga murojaat qilishga majbur etuvchi asosiy sabab ko`rsatila-di. Ikkinchi qismida xatda qo`yilayotgan masalani hal qilish zarurligi dalillar asosida bayon qilinadi. Xatning uchinchi (xulosa)

qismida esa xat yozishdan ko'zlangan asosiy maqsad ifodalanadi.

Xizmat xatlari imkoni boricha qisqa bo'lishi, biroq bu qisqalik uning aniq va ravshanligiga ta'sir etmasligi kerak. Qoidaga ko'ra, xizmat xatlari bir betdan oshmasligi lozim. Faqat juda muhim masalalar yozilgan, birmuncha mufassal bayon talab qiluvchi xatlargina istisno tariqa-sida uch betgacha bo'lishi mumkin.

Rasmiy xatlarni tuzuvchi shaxs ma'lum malakaga ega bo'lishi kerak. Rasmiy xatlarni to'g'ri va tez tuzish, avvalo, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek zamonaviy rasmiy uslubni va unga qo'yiladigan talab-larni bilishni taqozo etadi. Ushbu talablarni bajarmas-lik, birinchidan, xatlar bilan ishlashni qiyinlashtiradi, ikkinchidan, ularning huquqiy va amaliy ahamiyatini yo'qotadi.

Rasmiy xatlar matnida ikki xil mazmunda tushunila-digan jumlar bo'lmasligi uchun ko'chma ma'nodagi so'z va iboralarni qo'llashda ehtiyotkorlik, sinchkovlik talab etiladi.

Rasmiy xatlar tilida aniqlik va qisqalik asosiy mezon hisoblanadi. Bunday xatlar tili va uslubi qonun-lar tiliga qo'yiladigan talablar darajasida bo'lishi zarur.

Xizmat xatlari ikki nusxada yoziladi va imzolanadi. Birinchi nusxa jo'natilib, ikkinchi nusxa muassasaning o'zida sakdanadi. Agar xat ikki va undan ortiq joyga yo'llansa, xat jo'natilayotgan asosiy muassasa yoki rahbar xodimning nomidan so'ng boshqalari beriladi. Birgina hujjatda uni oluvchilarning nomi to'rttadan oshmasligi kerak. Xizmat xatlari, odatda, muassasa nomiga yubori-ladi. Faqat masalaning hal qilinishi bevosita rahbarga bog'liq bo'lsa, xat rahbar nomiga jo'natilishi mumkin.

Xizmat xatlarida matn uchun sarlavha katta ahamiyatga ega. Ular hujjatning qisqacha mazmunini, ya'ni xat nima haqda ekanligini ko'rsatadi. Masalan: *"Maktab remontı uchun qo'shimcha mablag' ajratshi haqida"*, *"To'lovlarga kafolat*

bershi haqida". Matn uchun sarlavhalarning aniq va qisqa berilishi ish yuritishda qator qulayliklar yaratadi.

Sarlavha bir jumladan iborat bo`lib, xat matnidan oldin chai tomonda joylashadi. Odatda sarlavha "*haqida*" yoki «*to`g`risida*» kabi ko`makchilar yordamida tugatiladi.

Sarlavha ikki qatordan oshmasligi zarur.

Xizmat xatlari matnidan so`ng xatga imzo chekuvchi rahbar lavozimining nomi aniq ko`rsatilishi kerak. Agar xat xos ish qog`ozida yozilmagan bo`lsa, xatning imzo qismida lavozim nomidan tashqari muassasa nomi xam to`liq ko`rsatiladi.

Hujjat muassasa rahbari tomonidan imzolanadi. Ish yuritish jarayonida ba`zan xatga rahbar vazifasini bajaruvchi shaxs yoki uning o`rinbosari xatda qayd etilgan lavozim nomi oldiga chiziqcha qo`yib (go`yo o`rinbosar imzo chekayotganligini uqtirayotgandek) imzo chekadi. Bu ish yuritishga mas`ul bo`lgan shaxs tegishli yo`riqnomadan xabardor emasligidan dalolat beradi. Xatni tayyorlash jarayonida tuzuvchi xatga kim imzo chekishini oldindan bilishi kerak. Rahbar bo`lmagan hollarda shunday vakolatga ega bo`lgan shaxs, ya`ni uning vazifasini bajaruvchi yoki o`rinbosari, lavozimi aniq ko`rsatilgan holda («*direktor vazifasini bajaruvchi*", "*direktor o`rinbosari*" tarzida), imzo chekishi mumkin.

Xatda bayon qilingan masalalar bo`yicha javobgarlik bir necha shaxs zimmasiga yuklatilgan bo`lsa, imzolar soni ikki yoki undan ortiq bo`lishi mumkin (masalan, to`lov haqdagi kafolatnomalarda, moliyaviy hujjatlarda).

Xatda imzolar ma`lum tartib asosida, ya`ni egallab turgan lavozimiga ko`ra joylashadi. Imzodan so`ng imzo chekuvchining familiyasi qavsga olinmay, ismi va ota ismining bosh harflari familiyadan oldin yoziladi, masalan:

Korxona direktori (imzo) B.S.Karimov

Bosh hisobchi (imzo) X.A.Samiyev

Agar xatga biror-bir hujjat ilova qilinayotgan bo`lsa, xatning quyi qismi chap tomoni hoshiyasiga "*Ilova*" so`zi

qo'yiladi, so'ng tartib raqami bilan ilova qilinayotgan hujjatlar nomi, nusxasi va beti ko'rsatilgan holda beriladi. Har bir ilova qilinayotgan hujjat nomi alohida qatorda joylashadi. "Ilova" so'zining ostidan hech qanday yozuv yozilmaydi.

Xat matnida qayd etilgan ilovaning mavjudligi quyidagi tarzda ham ifodalanishi mumkin:

Ilova: _____ betda _ nusxada.

Ushbu rekvizit bosma ish qog'ozida tayyor holda ham bo'lishi mumkin.

Agar ilova qilinayotgan hujjat muhim (mustaqil) bo'lsa, ya'ni asosiy maqsad mazkur hujjatni ma'lum tashkilotga yetkazish bo'lsa, bunday hujjatlar alohida ilova xatlar yordamida yo'llanadi.

Xizmat xatlari vazifasi va mazmuniga ko'ra bir necha turga bo'linishini yuqorida ta'kidlagan edik. Xatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, ularning nomi (kafolat xati, ilova xat, taklif xat, so'rov xat va boshqalar) yozilmaydi. Ularning qanday xat ekanligi matn mazmunidan bilinib turadi (281-283-b.).

Xatni rasmiylashtirishda yo'l qo'yilayotgan asosiy kamchiliklar:

- hujjatning ushbu turi ma'lum darajada ijodiy mehnatni talab qilganligi tufayli ko'plab kamchiliklar kuzatiladi, ya'ni:
 - xatda muddao aniq ifodalanmaydi;
 - kirish qismi ortiqcha cho'zib yuboriladi, keraksiz fikrlar yoziladi;
 - izchillik, mantiqiy bog'liqlikka e'tibor berilmay-di;
 - xatdan kutilayotgan muddao xulosada aks etmaydi;
 - savodxonlikka e'tibor berilmaydi, ixchamlik, sodda-lik, aniqlik, faktlarga asoslanganlik kabilar nazardan chetda qoladi va hokazo.

**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Oliy attestasiya komissiyasi
raisi**

K.S.SULTONOVga

Hurmatli Karim Sultonovich!

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti iqtisodiyot va mehnat sosiologiyasi kafedrasida tadqiqotchisi Raxmonov Norim Razzoqovichning 08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot ixtisosligi bo'yicha iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun iqtisod fanlari nomzodi, dosent D.Asanova ilmiy rahbarligida bajarayotgan "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirish - iqtisodiy taraqqiyot omili (Samarqand viloyati misolida)" nomli nomzodlik dissertatsiyasi mavzusini «OAK Byulleteni»da e'lon qilishga ruxsat berishingizni so'raymiz.

Zarur hujjatlar ilova qilindi.

Rektor (imzo) T.Sh.ShIRINOV

O'zbekiston Respublikasi Fan-lar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti qoshidagi D 015.04.01 raqamli birlashgan ixtisos-lashgan kengash raisi professor T.MIRZAYeVga

Kurmatli To'ra Mirzayevich!

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti rektorati hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedراسи dosenti, filologiya fanlari nomzodi A.Soliyevning «O'zbek dramaturgiyasida inson talqini» mavzuidagi 10.01.01 – o'zbek adabiyoti va 10.01.08 – adabiyot nazariyasi ixtisosliklari bo'yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser-tasiyasini Ixtisoslashgan kengash muhokamasi uchun qabul qilishingizni so'raydi.

Filologiya fanlari nomzodi A.Soliyevning doktorlik dissertasiyasi Samarqand davlat universiteti hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasining 2008 yil 7 fevraldagi 8-son majlisida hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomi-dagi Til va adabiyot instituti «XX asr o'zbek adabiyoti», «Hozirgi adabiy jarayon» va «Adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar» bo'limlarining 2008 yil 26 noyabrdagi 19-son qo'shma majlisida muhokama etilib, himoyaga tavsiya qilingan.

A.Soliyev «Mustaqillik mafkurasi va demokratik jamiyat qurishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy negizlari va ilmiy asoslari (O'zR Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

asosida)» fanidan maxsus imtihonni 2009 yil 16 aprelda muvaffaqiyatli topshirgan.

Zarur hujjatlar ilova etildi.

Rektor (imzo) T.Sh.ShIRINOV

17-ilova

**O`zbekiston Respublikasi
Samarqand viloyati
hokimi
M.N.NURMURATOVga**

Hurmatli Mamarizo Nurmuratovich!

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universitetining Spitamen shohko`chasida joylashgan pedagogika fakulteti hududiga 1-son pedagogika kolleji kirib joylashishi munosabati bilan, SamDU tasar-rufidagi sport majmuasi va ikkita bino ularga berilganligi uchun, pedagogika va kasbiy ta`lim fakul-tetlari talabalariga o`quv o`rinlari yetishmasligi sezil-moqda. Mazkur hududda joylashgan avariya holatidagi 1638 kvadrat metrli bir qavatli bino kapital ta`mirdan chiqarilsa, pedagogika va kasbiy ta`lim fakultetlari talabalariga o`quv o`rinlari yetarli bo`lishi mumkin.

Hozirgi paytda avariya holatidagi binoni kapital ta`mirlash uchun 72,2 million so`mlik loyiha-smeta hujjatlari tayyorlangan. Ushbu mablag` ajratilib, bino yangi o`quv yiligacha kapital ta`mirlansa, talabalarimiz o`quv o`rinlari bilan ta`minlangan va 1-son pedagogika kolleji hududida qolib ketgan, ta`mirdan chiqarilgan SamDU balansidagi 1420 kvadrat metrli binoni ularga bo`shatib berish imkoniyati paydo bo`lardi. Ushbu masalada yordam berishingizni so`raymiz.

Rektor (imzo) T.Sh.ShIRINOV

**Nizomiy nomidagi
Toshkent Davlat pedagogika
universiteti rektori
professor F.I.HAYDAROVga**

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dosent I.Xayriyevning «Shaxsda iroda shakllanishining diagnostikasi va dinamikasi» nomli doktorlik dissertasiyasi mavzusini Siz rahbarlik qilayotgan universitet qoshidagi muvofiq-lashtiruvchi kengash muhokamasidan o'tkazib, tasdiqlashga yordam berishingizni so'raymiz.

Mutaxassislik: 19.00.01 – Umumiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, psixologiya tarixi.

Ilmiy maslahatchi psixologiya fanlari doktori, professor E.G'oziyev.

Zarur hujjatlar ilova qilindi.

Rektor (imzo) T.Sh.SHIRINOV

Hurmatli A.UZOQOV

Universitet Ilmiy kengashining 2009 yil 28 sentyabrdagi majlisi kun tartibiga «Mehnat va ijro intizomi hamda fuqarolarning ariza-shikoyatlari va murojaatlariga munosabat to'g'risida («Ochiq eshiklar kuni», «Adolat qutisi» natijalari haqida)»gi masala kiritilgan.

Ish rejaga asosan ushbu masala ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan tayyorlanishi lozim. Shu-ning uchun ma'ruza matni va qaror loyihasi 24 sentyabrgacha ilmiy kotibga (yozma, imzongiz bilan va elektron vari-antda) taqdim etilishiga yordam berishingizni so'rayman.

Ilmiy kotib (imzo) A. ABDUSAIDOV

TAKLIFNOMA

Biror-bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qoʻllanadigan yozma axborot.

Taklifnomaning asosiy zaruriy qismlari:

1. Nomi(taklifnoma).

2. Matn:

a) taklifnoma turiga qarab: taklif qilinyotgan shaxsning familiyasi yoki ismi va otasining ismi;

b) taklif qiluvchi muassasaning nomi;

v) qanday tadbirga taklif qilinyotganligi.

3. Tadbirning oʻtkazilishi sanasi va vaqti.

4. Oʻtkazilish joyi.

5. Imzo(tadbirni tashkil etgan tashkilotning nomi).

Taklifnomaning rasmiy taklifnoma, toʻy taklifnoma-si, taklif xat kabi turlari mavjud (265-b.). Ularning ayrimlariga namuna keltiramiz.

20-ilova

TAKLIFNOMA

Muhtaram(a)_____

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti amaliy tilshunoslik kafedrası Sizni ulugʻ mutafakkir Alisher Navoiyning tugʻilgan kuni munosabati bilan oʻtkaziladigan «Tilga eʼtibor – elga eʼtibor» mavzuidagi ilmiy anjumanga taklif etadi.

Ilmiy anjuman 2009 yil 9 fevral kuni soat 10.00 da SamDU Alisher Navoiy muzeyida boshlanadi (Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy).

21-ilova

Hurmatli _____

Sizni 2009 yil 29 iyun kuni soat 10.00 da universitet bosh binosi (105-xonasi)da o'tkaziladigan ilmiy kengashning navbatdagi majlisiga taklif qilamiz.

KUN TARTIBI:

1. 2008-2009 o'quv yili yakuniy davlat attestatsiyasi yakunlari

BERDIMURODOV A., ISMOILOV S., O'zbekiston tarixi va chet tili fanlari bo'yicha YaDA komissiyalari raislari

2. Universitet va fakultetlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalarining bajarilishi to'g'risida

MUHIDDINOV M., ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari bo'yicha birinchi prorektor

3. Universitet ilmiy tadqiqotchilik faoliyatida ilmiy anjumanlar, ixtisoslashgan kengashlar, ilmiy nashrlar va turli ilmiy tanlovlarning ahamiyati

QODIROV M., ilmiy ishlar prorektori

4. Universitet rektori buyruqlari va universitet ish rejasining ijrosi to'g'risida

UZOQOV A., ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i

5. Universitet Ilmiy kengashining 2008-2009 o'quv yilidagi faoliyati va qarorlarining ijrosi to'g'risida

ABDUSAIDOV A., ilmiy kotib

6. Har xil masalalar:

Rektorat

Bugungi kunda idoralarda hujjat yuritish sohasida ma'lum ijobiy tajribalar to'planganligini alohida qayd etish mumkin. Hozirgi zamon talabi Kirill alifbosidagi hujjat yuritish qog'ozlarini lotin alifbosiga o'tkazish va xodimlarning malakasini oshirishdan iboratdir. Ma'lumki, «...1993 yil 2 sentyabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilgani-ni ta'kidlash lozim. Avvalo, o'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e'lonlar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtda bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi»⁸⁰.

Demak, «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun talablari asosida ish yuritishni tashkil etish, malakasi yetishmayotgan xodimlar uchun qisqa maslahat kurslari ochish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Tayanch so'z va birikmalar: Yozma nutq, yozma nutqni o'stirish, nutqning savodxonligi, nutqning grammatik jihatdan to'g'riligi, imlo qoidalari, ish yuritish, ijodiy jarayon, ariza, tarjimai hol, dalolatnoma, ishonchnoma, tushuntirish xati, tavsifnoma, hisobot, xat, e'lon.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Yozma nutqqa qo'yiladigan asosiy talablar nimalar-dan iborat?
2. Yozma nutqni o'stirishda umumta'lim va oliy ta'lim jarayoniniing umumiy va o'ziga xos tomonlari nimalarda inamoyon bo'ladi?
3. Davlat tilida ish yuritishga qo'yiladigan talablar qanday?
4. Ish yuritish jarayoniga o'quvchi va talabalarni tayyorlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
5. Kundalik ish jarayoni va hayotimizda eng zarur hujjatlarning namunalarini tayyorlang.

⁸⁰ Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 88-89-б.

5. Og'zaki nutqning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-b.

3. Abdullayev A., Abdullayeva G. Ish yuritish madaniyati. // Jamiyat va boshqaruv. 2008. 1-son, 46-47-b.

4. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma. 3-nashri. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2009. – 440 b.

5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. Ikkinchi nashri. Akademik litseylar uchun darslik. - Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. - 128 b .

Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

6. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til ma'naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta'sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008.

8-mavzu: O`QITUVCHINING NOTIQLIKNI TARG`IB ETISHDAGI O`RNI

**yoki o`qituvchi faoliyatida notiqlik va voizlik san`atlari
tarixi materiallaridan foydalanish⁸¹**

Reja:

1. Notiqlik san`atiga qadimdan e`tibor berilishi-ning sabablari.
2. Qadimgi Xitoyda so`z va notiqlik san`atiga e`tibor.
3. Qadimgi Misrda nutq madaniyati va notiqlikka e`tibor.
4. Yunon notiqligi.
5. Rim notiqligi.
6. Markaziy Osiyoda so`z san`ati va notiqlikka e`tibor.

Nutq madaniyati haqidagi ta`limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo`lsa ham, unga qadar Misr, Assuriya, Vavilon va Hindiston kabi mamlakatlarda paydo bo`lganligi notiqlik san`ati tajribasidan ma`lum. Ushbu davrlarda jamiyatning rivojlanishi, savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san`at darajasiga ko`tardi. Chunki u paytlarda davlat arbob-larining obro` e`tibori va yuqori lavozimlarga ko`ta-rilishi, ularning notiqlik mahoratiga ham bog`liq bo`lgan. Notiqlik san`ati sarkardalik mahorati bilan barobar darajada ulug`langan. Mashhur notiq Siseron: “tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bulish kerak” degan ekan. Bu gapda katta hikmat bor. Harbiy sarkardaning itoatida ko`p sonli lashkar bo`lishini tasavvur qilsak, bu so`z tasodifiy o`xshatish emasligiga amin bo`lamiz. Grek va Rim notiq-lari Aristotel, Demosfen, Siseron, Kvintilian kabi nazariyotchilarning hayotiy tajribalari ham bunga misoldir. Ular kishilik jamiyatida ritorika

⁸¹ Ушбу мавзуни ёритишда қуйидаги манба материалларидан фойдаланилди ва матнда адабиётнинг шу ердаги тартиб рақами ва саҳифаси кўрсатилди: 1. Саидов У. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Тошкент: Akademiya, 2007, 18-62-б.(мас., 1.18-6.)

va notiqlik san'atining o'ziga hos maktabini yaratdilar. Siseronning "Notiqlik haqida", "Notiq", "Brut" asarlari, Mark Fabiy Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" kabi asarlari ham qadimgi Gresiya va Rimda madaniy nutq, notiqlik nazariyasi ancha rivojlanganligini ko'rsatadi⁸².

Notiqlik san'ati (ritorika) fan sifatida qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda naydo bo'ldi. Ammo notiqlik san'atiga ehtiyojning paydo bo'lishini insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi davri bilan bog'lash mumkin. Nutq davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish va muayyan maqsadlar sari yo'naltirish, turli toifadagi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi ishlarning barini amalga oshirishning bosh vositasidir. Davlat va jamiyat boshqaruvini nutqsiz, "so'z hunari"siz tasavvur etib bo'lmaydi. "Nutq - qudratli kuch: u ishontiradi, undaydi, majbur etadi, odamlarni boshqarish uchun esa ayni shular kerak", - degan edi g'arb mutafakkiri R.Emirson(1.18-b.).

Qadimgi Xitoy davlat boshqaruvida so'z va notiqlik san'atiga e'tibor

Tadqiqotlardan ma'lumki, Xitoyda davlatchilikning shakllanishi eramizdan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga borib taqaladi. Xitoy xalqi tarixining umumiy yo'nalishi, o'ziga xos ijtimoiy kategoriya sifatidagi so'z san'atiga va uning tarkibiy qismi bo'lgan notiqlikka bo'lgan e'tibor xalqning rivojlangan davlatchilik sharoitida yashay boshlagan davrga to'g'ri keladi. Xitoyda so'z san'ati va notiqlikka e'tiborni o'sha davr adabiyotlarining vazifalaridan ham anglash mumkin. "Mozzi" yodgorligida bayon etilgan qarashlarda manfaatlar munosabatiga alohida e'tibor qaratilgan. "Bitta odam - bitta

⁸² Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов К. Нутқ маданияти ва нотиқлик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-б.

manfaat; ikkita odam - ikkita manfaat; o`nta odam - o`nta manfaat. Odamlar ko`p, demak manfaatlar ham ko`p. Ustiga-ustak har bir odam o`z manfaatlarini o`ylaydi va o`zgalarning manfaatlarini rad etadi. Oxir-oqibat, barcha bir-birini rad etadi. Ota va bolalar, aka-ukalar o`zaro urushib, har tomonga tarqaydilar, birgalikda yashashga qodir bo`lolmaydilar. Shu darajaga yetib boradiki, ular bunga imkoniyat bo`lsa-da, birgalikda mehnat qila olmay qoladilar...".

Manfaatlar to`qnashuvi hamisha ham janjal, o`zaro kelishmovchiliklar bilan tugamaydi. Chunki umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg`unlashgan holda berilgan tarbiya tomonlarning oqilona fikr-mulohaza yuritishiga, to`g`ri qaror qabul qilishiga, ota-onalar, kattalarga hurmat-e`tibor ko`rsatishga undaydi. Bu jarayonni amalga oshirish, albatta, nutq orqali yuzaga chiqadi. Demak, manfaatlar himoya qilinayotgan paytda ham o`zaro hurmat-izzat nuqtai nazaridan til birliklari tanlanishi, nutq odob-axloq doirasida, tushunarli, mazmunli, yuqori madaniyatli bo`lishi kerak.

Xitoy adabiyotining eng qadimiy yodgorliklari taxminan eramizdan avvalgi XII asr o`rtalariga taalluqli bo`lib, ular hukmdorning nutqlari, xalqqa murojaatlari (gao)lardan tashkil topgan. Bunday nutq na murojaatlar tarkib topgan sharoit, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog`liq. Masalan, "Buyuk murojaat" ("Dagao") bunga misol bo`la oladi.

"Buyuk murojaat"dan keyin yaratilgan asarlar orasida eng mashhuri - "Xun fan" ("Boshqaruv haqida buyuk; qonun") ham notiqlikka e`tibor nuqtai nazaridan diqqatga sazovor. Qonunning ikkinchi moddasida boshqaruv bilan bog`liq "besh amal" haqida gap boradi. Birinchi amal - o`zini qanday tutmoq, ikkinchisi - qanday so`zlamoq, uchinchisi - qanday ko`rmoq, to`rtinchisi - qanday tinglamoq, beshinchisi - qanday fikrlamoq bilan bog`liq. Ularni tushuntirishda quyidagilar ma`lum qilinadi: "Odob-ahloq doirasidagi xatti-harakat tartibni hosil qiladi. Nutqdagi muvofiqlik tartibni hosil qiladi. Nazarning

tiniqligi ziyraklikni hosil qiladi. Fikrlash ravshanligi donolikni hosil qiladi"(1.20-b.).

Nutq madaniyati va mahoratini o'rganish jihatidan ushbu amallar e'tiborga molik. Chunki boshqaruv faoliyati ham fikrlash va uni yuzaga chiqarish, ya'ni nutqiy faoliyat bilan bog'liq. Suhbat jarayonining samarali bo'lishini esa amallarda ko'rsatilgan jihatlar ta'minlaydi.

Xitoyda notiqlik san'ati, ayniqsa, Xitoy tarixining klassik davri hisoblanmish eramizdan avvalgi VIII-III asrlarda rivoj topdi. Manbalarga qaraganda, u yerda turli vaqtda 70 dan ortiq mashhur shaxslar yashagan. Ular qatorida Konfusiynipg izdoshi Men-szi, ulug' Mo-szinning izdoshlari Sun Ke va In Ven, dong'i ketgan vazir, o'sha davr iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy fikrning ajoyib namunasi bo'lmish "Gu-an-szi" risolasining muallifi Guan Chjunni tilga olish mumkin. O'sha davrda asosan notiq va muallim sifatida peshqadam jamoat arboblari yetishib chiqdi. Aslini olganda, bu sifatlar bir odamda mujassam bo'lgan, zero, u davrda ta'lim berish "gapirish", gapirish esa "o'qitish" ma'nosini anglatgan. Buning uchun notiqlik san'atini puxta egallash ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishning asosiy shartlaridan biriga aylangan.

Muhimi shundaki, ularni ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatda tutgan mavqeiga qarab emas, balki iste'dodiga qarab tanlashgan.

Xitoy notiqlik san'atida ta'lim jarayoni, ya'ni o'qitishning «gapirish», so'zlash, ya'ni nutq bilan cham-barchas bog'langanligi muhim o'rin tutadi. O'qituvchi faoliyatining asosini ham ta'lim berishda bilim asoslarini qanday o'quvchilarga yetkazish, ya'ni uning nutqi tashkil etadi. O'qituvchining nutq mahoratini tarbiyalash-da ana shu holat – «ta'lim berish va nutqiy faoliyat» o'rtasida tenglik alomatini qo'yib, bilim berish va ko'nikmalar hosil qilish muhimdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimdan fikrni aniq va lo'nda ifodalash, buning uchun zarur so'z va iboralarni topish

soʻz sanʼati va demakki, notqlik sanʼatining bosh xususiyatlaridan biri deb sanalgan(1.21-22-b.).

Qadimgi Misrda nutq madaniyati va notqlikka eʼtibor

Qadimgi Misrda ham soʻzning taʼsir kuchiga katta eʼtibor berilgan. Garchi nutq madaniyati va notqlik sanʼatining nazariy jihatlari maxsus oʻrganilmagan boʻlsa-da, bizga qadar saqlanib qolgan oʻgit, pand-nasihat ruhida yozilgan qadimiy asarlarda soʻz qudrati, uning davlat va jamiyatni bopqarishdagi oʻrni qa qida koʻplab fikrlarni uchratamiz.

Avvalo, qayd etish lozimki, soʻz, matn bilan bevosita ish koʻruvchi hattot (mirza)lar Misr jamiyatida ancha imtiyozli oʻrin egallaganlar va mamlakatning butun maʼmuriy-xoʻjalik hayotini boshqarganlar. Hatto yuqori lavozimlarni egallagan zodagonlar oʻz martabalari qatorida "barmoqlari mohir hattot" martabasiga alohida urgʻu berishgan. Taxtga oʻtirgan, "ezgu maʼbud" hisoblangan va butun ulkan maʼmuriy tizimni boshqargan firʼavnlr oʻzlari uchun xattot mavqyeini olishni or deb bilmagan.

Bugungi kunda ogʻzaki nutqni oʻstirish uchun umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus oʻquv yurtlari va oliy taʼlim tizimida muayyan sharoitlar yaratilgan. Ayrim oʻquv fanlaridan ogʻzaki nazoratlar topshirish, amaliy mashgʻulotlar, mustaqil ish, referat ishlari himoyalari jarayonida oʻquvchi va talabaning ogʻzaki nutqini oʻstirishi uchun maʼlum imkoniyatlar beriladi. Demak, ogʻzaki nutqni tarbiyalash uchun turli vosita va imkoniyatlar mavjud. Lekin yozma nutq savodxonligi, keyin mahoratini egallashlari uchun imkoniyat va sharoitlar yetarli emas. Buning bir qator sabablari bor. Umumiy oʻrta taʼlim va oʻrta maxsus taʼlim jarayonida bayon, erkin mavzuda insho kabilarning kam oʻtkazilayotganligi, oliy taʼlim jarayonida esa deyarli bu kabi yozma ishlarga oʻrin berilmasligi yozma nutq madaniyatining pasayishiga sabab boʻlmoqda. Shuning uchun ham aksariyat yozma ishlarda oddiy imlo qoidalarini qoʻllashdan koʻra jumla tuzishdagi kamchiliklar nihoyatda

ko`payib bormoqda. Filolog mutaxassislar talabalarning yozma ishlarini baholashda uning savodxonligiga ham e`tibor berishadi, bu holat talabaning o`z xatosini tushunib, qayta takrorlamasligiga yordam beradi. Lekin aniq va tabiiy fanlar bo`yicha bajarilgan yozma ishlarning faqat o`sha fan nuqtai nazaridan baholanishi, talabaning sadvodxonligiga e`tibor berilmasligi, yozma nutqdagi kamchiliklarning bemalol davom etishiga yo`l ochib beradi. Bunday holatlarning barham topishi uchun aniq va tabiiy fanlar o`qituvchilari ham talabaning yozma ishini savodxonlik nuqtai nazaridan, hyech bo`lmaganda, yozma ishning dastlabki sahifalarida imloviy, uslubiy xatolarini ko`rsatib baholashlari lozim, deb hisoblaymiz.

Demak, yozma nutq mahoratini egallashning ahamiyatini Qadimgi Misr tajribasi misolida tushuntirish foydali bo`lishi mumkin.

Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikda "Qadimgi podsholik" davridayoq Misrda didaktik adabiyot yuksak rivoj topadi. Bu davr keyingi avlod misrliklar xotirasida donishmandlar davri, madaniyatlarning oltin asri sifatida iz qoldirgan. Qadimgi donishmandlarning o`gitlari asrlar davomida yuqori baholanib kelingan. Qadim podsholik qulagandan so`ng qariyb ming yil o`tgandan so`ng Iyester-Bitti IV ismli muallif Imxotep, Jedefxor, Ptaxxotep kabi donishmandlarni tilga olib, ularga teng keladigan yo`q deya e`tirof etadi. Ular yozib qoldirgan o`gitlar ham yuksak nutq, fikrlarni bayon etish madaniyatidan dalolat beradi, ham nutq va muloqot madaniyatiga oid qimmatli fikrlarni o`zida mujassam etgan. Jumladan, "Ptaxxotep o`gitlari"da ma`muriy muhitda muvaffaqiyat qozonish uchun kishi o`zini qanday tutmog`i kerakligi haqidagi pand-nasihatlar berilgan, Ptaxxotep o`gitlari uniig inson qalbini, inson psixologiyasini juda nozik his etganidan dalolat beradi: "Baxtsizlikka uchragan odam, o`z

muammosining hal etilishidan ko`ra ko`proq o`z dardini to`kib solishni istaydi" (1.25-26-b).

O`rta podsholik (er.av.XXII-XVI asrlar) davri adabiyoti oldingi tarixiy davr an`analarini yanada rivojlantirdi.

Saqlanib qolgan papiruslarning mazmuni shundan dalolat beradiki, bu davrda so`zga, suxandonlikka e`tibor yanada ortdi. Xususan, "Suxandon kishi haqida qissa" nomi bilan ma`lum bo`lgan asarni o`sha davr suxandonlik san`atining namunasi deb atash mumkin. Qissa voqyealari X sulola hukmronligi davriga tegishli bo`lib, asar oddiy bir kishining qudratli amaldor oldida so`zlagan 9 ta nutqidan iborat. O`z nutqlarida bu odam amaldorning qo`li ostidagi xizmatchi uning mulkini talaganligidan noroziligini ifodalaydi. Bu nutqlar yozib olinadi va yozma shaklda suxandonlikni yaxshi ko`rgan fir`avnga jo`natiladi. Unga tortib olingan barcha iarsalar qaytarib beriladi, boz ustiga, uni mukofotlashadi. Natijada hamma mamnun bo`ladi: fir`avn va amaldor dehqonning suxandonligidan, dehqon esa odil hukm va suxandonligidan uchun olgan mukofotidan xushnud bo`lishadi.

Bu davrda yaratilgan asarlar qatorida "Gerakleopol shohining o`gitlari" alohida o`rin egallaydi. Shohniig o`z o`g`li Merikarga qilgan pand-nasihatlarida ichida Misr davlati rahbarining yuqori darajadagi siyosiy ongidan dalolat beruvchi qiziqarli fikrlarni uchratamiz. Masalan: "boy xalq qo`zg`olon qilmaydi", "seni o`rab turgan odamlarning muhabbatidan o`zingga haykal qo`y", "amaldorlarning hurmatini joyiga qo`y, o`z xalqingning turmushini farovon qilishga intil" va sh.k. XII sulola fir`avnlari xalq mehrini qozonish va o`z obro`larini mustahkamlashda bu fir`avnning "til shohning qilichidir" va "nutq - har qanday quroldan kuchliroq" degan fikriga suyanib ish ko`rdilar.

"O`gitlar" yangi shohlik davrida ham keng rivoj topdi. Ular ham qadimgi Misrda suxandonlikka, so`zning qudratiga alohida

e'tibor qaratilganidan dalolat beradi va davlat boshqaruvida ularning muhim o`rin tutganligini ko`rsatadi.

Yunon notiqligi

Notiqlik san'atiga qadim davrlardan yunonlar katta e'tibor bilan qarashgan. Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Yunonistonda tarixiy-nasriy asarlar, notiqlik va falsafiy dialog rivoj topadi. «Nasr asri»ning kelishi Yunonistonda demokratik tartiblarning o`rnatilishi bilan chambarchas bog`liq bo`ldi, zero, bunday boshqaruv tizimida notiqning ommaga ta'sir o`tkazish mahorati xalq yig'inlarida qonunlarning qabul qilinishida va sudda hukm chiqarishda hal qiluvchi rol o`ynay boshladi. Bu ehtiyoj yangicha o`qitish usullarining joriy etilishiga olib keldi. Unga asos solganlar sofistlar ("donishmand-lik muallimlari") bo`ldi. Ular shaharma-shahar yurib, ma'lum haq evaziga ma'ruza o`qishar va asosan tinglovchi-larga nutq tuzish, notiqlik sir-asrorlaridan saboq berishar edi. Antik demokratiyaning beshigi bo`lgan Afina shahri ularning faoliyati uchun qulay bo`lgan. Shuning uchun ham ayni Afinada notiqlik san'ati rivoj topdi.

Ilk sofistlar haqida bizga qadar kam ma'lumot yetib kelgan. Ularning yozganlaridan ayrim parchalargina saqlanib qolgan. V asrning eng mashhur sofistlari qatorida Protagor, Prodik, Gippiy va Gorgiylarning nomlarini tilga olish mumkin.

Sofistlar til boyligini mohirona egallashni va kerak paytda undan foydalanishni o`rgatardi.

Sofistlar so`z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar Ularning ilmiy izlanishlari asosida tilshunoslik fanining ikki sohasi – ORFO-epiya (gram-matika) va ritorika (notiqlik nutqlarini tuzish haqidagi ta'limot) shakllandi. Orfoepiya bilan asosan Protagor va Prodik shug'ullangan bo'lsalar, ritorikaga Gorgiy va Frisimaxlar asosiy hissalarini qo'shdilar (1.29-30-b.).

Qadimgi tarixchilarning fikricha, notiqlik san'atiga o`rgatish va tegishli qo`llanmalarni ishlab chiqish Sisiliyada

tiraniyaning ag'darilishiga olib kelgan(er. avv. 467 y.) sud jarayonlari bilan bog'liq Ayni shu davrda sisiliyalik ritorlar - Korak va Tisiy yodlash va keyinchalik o'z nutqlarida foydalanish uchun mo'ljallangan tayyor namunalar to'plami (xrestomatiya)ni va notiq nutqi tuziishiga oid nazariy yo'riqnomani chiqardilar. Bu qo'llanmalarda notiqlik tajribasi ilk bor umumlash-tirib berildi. Ularda notiq nutqi uchun zarur bo'lgan eng asosiy talablar o'z ifodasini topdi: nutq yaxlit va tugal bo'lishi kerak, u kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lmogi lozim. Asosiy qism o'z navbatid ikki anik bo'limga ajralgan: voqyealar bayon etilgan hikoya va o'z fikri (iuqtai nazari) isboti va muxolif fikrini inkor etishga qaratilgan bahs.

Bunday usulda tashkil etilgan nutq tinglovchilarning qalbiga ta'sir etishi, ularni inontirishi, jalb etishi mumkin edi. Yunon notiqclari ayniqsa, badiiy so'z imkoniyatlaridan keng foydalanganlar. Qadimgilar hikoya qilishicha, Gorgiy Afina er avv. 427 yili xalq yig'inida so'zga chiqqanda turli badiiy vositalarni qo'llab, shunday chiroyli nutq so'zlagan ekanki, tinglovchilar hayratga tushibdi.

Sofistlar shaklan chiroyli nutqning emosional kuchini yaxshi his etganlar (1.31-b.). Til imkoniyatlaridan foydalanib «bo'sh dalilni kuchli, kuchli dalilni bo'sh qilish» ularning shioriga aylandi. Masalan, Gorgiy notiqning vazifasi tinglovchilarni o'z gaplariga ishontirishdan iborat, deydi. Buning uchun u alohida notiqlik usullari bilan: auditoriyani rom eta bilishi kerak. Odatda «Gorgiy figuralari» deb nomlanadngan bunday usullar qatoriga metaforalar, tovush takrorlari, antiteza shaklida tuzilgan gap(jumla)lar va sh.k kiradi.

Gorgiy nazariyasi yunon notiqlik san'atining barcha turlari: sud notiqcligi, siyosiy notiqlik, tantanali notiqclikka o'z ta'sirini o'tkazgan.

Er. avv. V asr oxiri - IV asr boshlaridagi sud notiqcligining eng mashhurlaridan biri Lisiy (459-380 y.y.) bo'lgan.

Lisiy kelib chiqishi bo'yicha afinalik bo'lmagani uchun Afina fuqarosi huquqlariga ega emas edi. Shuning uchun ham u o'zgalar uchun buyurtma asosida nutq tuzar edi. Unga jamiyatdagi mavqeyi turlicha bo'lgan kishilar murojaat etishar va Lisiy ularning aqliy darajasi, mavqeyiga moslab nutqlar yozishga majbur bo'lardi. Bizga qadar Lisiyning 34 ta nutqi yetib kelgan bo'lib, ular oddiy jonli so'zlashtuv tilida yozilgan.

Tantanali noitiqlik eng yorqin vakillaridan biri Gorgiyning shogirdi Isokrat (er. avv. 436-338 y.y) bo'lib, Afinada ritorika maktabiga asos solgan. Aytish lozimki, bu maktabda ritorika faqat notiqlik san'atiga o'rgatuvchi fan bo'libgina qolmay, balki haqiqatni anglash va tarqatish vositasi vazifasini o'tagan.

Isokrat o'zi nutq so'zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergan va Yunoniston bo'ylab tarqatilgan nutqlarni yozgan.

Isokrat maktabining tajribasi IV asrdagi ommaviy potiqlikka katta ta'sir o'tkazdi.

Siyosiy notiqlikning eng yirik va eng mashhur vakili Demosfen (er. avv. 384-322 y.y.) yangi attika uslubining ravnaqiga katta hissa qo'shdi, Uning ijodida Isokrat nutqlariga xos tekis, chiroyli shakl o'rnini ehtirosli pafos egallaydi.

Demosfen maqsad sari og'ishmay boradigan va metin irodali kishi sifatida ham nom qoldirgan. Plutarx va boshqa antik davr tarixchilari dalolat berishicha, uning notiq uchun asos bo'lmagan jismoniy kamchiliklari bo'lgan. Talaffuzi yomon, ovozi past, nafasi qisqa bo'lganligi uning gaplarini tushunishga halaqit bergan bo'lsa, nutq so'zlash paytida yelkasini uchirib turishi tinglovchilar diqqatini chalg'itgan.

Tinimsiz mehnat, astoydil harakat orqali Demosfen barcha nuqson va kamchiliklardan xalos bo'ladi. Masalan, aniq talaffuzga erishish uchun u og'ziga mayda toshchalarni solib nutq so'zlashni mashq qilgan; bir nafasda uzun jummalarni talaffuz qilishni o'rganish uchun yugura turib shoirlarning asarlaridan parchalar o'qigan; shipga osilgan qilichning uchini yelkasiga to'g'rilab nutq so'zlashni mashq qiladi va jarohat

olmaslik uchun iroda kuchini ishga solib, yelka uchishidan xalos bo`ladi (1.34-b.).

Rim notiqligi

Qadimgi Rimda ham notqlik san'atining shakllani-shi va ravnaqi Yunonistondagi kabi ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o`zgarishlar bilan bog`liq ravishda kechdi. Rim davlatining ilk davridayoq senat, xalq yig`inlari, sudda so`zlanadigan ommaviy nutq san'ati shakllanadi.

Rim notiqligining asoschilaridan biri Mark Porsiy Katon ham lashkarboshi, ham Rim siyosiy arbobi sifatida mashhur bo`lgan (1.35-b.). U ajoyib notiq bo`lishi bilan birga notqlik san'atining ilk nazariyotchilardan biri bo`lib, birinchi rim «Ritorika»sini yaratgan.

Rim zodagonlariga loyiq janrlardan birinchisi notqlik hisoblangan. Biroq uzoq vaqt Rim notqlik san'ati an'analarning tayanchi notiq iste`dodi va tajribasi bo`lib kelgan. Uning asosiy tamoyilini Katon: shunday ifodalagan edi: «Mohiyatni nazardan qochirma, so`zlar esa o`zi keladi».

Aka-uka Grakslar o`z nutqlarida ilk bor yunon ritorikasining ta`sirchan usullarini qo`llab rim notiqligiga yangi yo`nalish berdilar (1.35-b.). Ozmi-ko`pmi tanilgan siyosiy arbob, albatta, yaxshi notiq bo`lgan. Lashkarboshi o`z jagchilari oldida nutq so`zlashni bilishi kerak edi. Siseron 46 yili «Brut» risolasida Rim notiqligi tarixiga qisqacha to`xtalib, 200 dan ortiq notiqni sanab o`tadi va ularning asosiy ko`pchiligi fuqarolar urushi davri vakillaridir.

Rim notiqdari notqlik san'ati nazariyasida jiddiy yangilik yaratmagan bo`lsalar-da, yunon notiqligida shakl-langan tamoyillarni chuqurroq ishlab chiqdilar va ularga taqlid qilgan holda lotin tilida notqlik san'atining yuksak namunalarini yaratdilar. Iotqlik usullari vaqt o`tishi bilan takomillashib, murakkablashib bordi.

Notiq o`z fikr va dalillarining haqqoniyligi haqida emas, haqiqatga o`xshashi haqida qayg`urgan.

Umuman olganda, Rim ijtimoiy-siyosiy hayotida notiqlik muhim rol o'ynagan. Siseron shunday yozgan edi: «Insonni hurmat-ehtirom va shuhratning eng yuksak cho'qqilariga ikki tur san'at olib chiqishi mumkin: biri lashkarboshilik bo'lsa, boshqasi yaxshi notiqlik san'ati. Keyingisiga tinch hayot ne'matlarining saqlanishi bog'liq bo'lsa, birinchisiga urush xavfini bartaraf etish bog'liq».

Rim notiqlik san'atida ikki yo'nalish (usul) shakllandi: Osiyocha (azianizm) usul va attika (attikizm) usuli. Osiyocha usul Iskandarning o'limidan so'ng ko'p o'tmay Kichik Osiyoda paydo bo'ldi. Unga hashamdorlik, patetika (ehtiroslilik), tashqi effektlarga moyillik xos edi. Attika uslubi tarafdorlari esa afina notiqclariga xos sodda, qisqa, aniq nutq mezonlariga rioya etishni targ'ib etganlar. Osiyocha usul vakillaridan eng mashhuri Kvint Gortenziy Gortal (er. avv. 114-50 y.y.) bo'lsa, Gay Yuliy Sezar va Mark Yuniy Brut attika uslubi notiqclari qatoriga kiradi.

Rim notiqlik san'ati nazariyasiga muvofiq nutq quyidagi shakl va tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim: 1) kirish (yexogido); 2) ko'rilayotgan masalaning bayoni (narratio); 3) himoya yoki aybnomaning asosiy moddasini ko'rib chiqish (trastratio) va 4) xulosa (regogatio). Himoyalovchi (yoki qoralovchi) nutqning eng muhim qismi, ya'ni traktasiya o'z navbatida yana quyidagi qismlarga bo'lingan: a) traktasiya predmeti va rejasini ajratib ko'rsatish (rgorozitio va ragtitio); b) notiq qarashlari to'g'riligining isboti (rgobatio) va v) muxolifning fikr va dalillarini inkor etish (gefutatio). Notiq ikki turdagi dalillardan foydalangan: sudyalarning aqliga ta'sir etuvchi, ya'ni argumentlar va ularning hislariga ta'sir etuvchi, ya'ni amplifikasiyadir.

Rim respublikasining so'nggi davridagi eng yirik siyosiy arbobi Mark Tuliy Siseron (er. avv. 106-43 y.y.) Rim madaniyati taraqqiyotida ulkan rol o'ynagan. Sise-ronning

nutq, risola va xatlari hayotligi davridayoq lotin nasrchiligining tan olingan namunalari hisoblangan.

Siseron sudlarda soʻzlangan nutqlari bilan shuhrat qozongan, siyosiy chiqishlari esa uning eng yaxshi notiq mavqyeini yanada mustahkamlagan.

Siseron oʻz faoliyatining boshida Osiyo uslubi taʼsirida nutqlar yozgan, biroq keyinchalik u har ikki usulni muvofiqlashtirishga harakat qiladi (1.38-39-b.).

MARKAZIY OSIYO DA OʻRTA ASR VOIZLIK SANʼATI

Oʻrta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati oʻziga xos mavqyega egadir. Sharqda, jumladan, Movaroun-nahrda notqlik, voizlik, yaʼni vaʼzxonlik «Qurʼon»ni targʻib qilish bilan mushtarak holda soʻzning ahamiyati, maʼnosi va undan oʻrinli foydalanish borasida koʻp yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtai nazardan qaralsa, “Nutq odobi”, “Muomala madaniyati” nomlari bilan yuritilib kelingan “nutq madaniyati” tushunchasi juda qadimdan olimlar, ziyolilarning diqqatini tortgan: Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Mahmud Koshgʻariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Soʻfi Olloyor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulugʻ siymolar nutq odobi masalalariga, umuman, nutqqa jiddiy eʼtibor berish bilan birga tilga, lugʻatga, grammatikaga va mantiqshunos-likka oid asarlar yozganlar. Buyuk qomusiy olim Beruniy (973-1048) oʻzining “Geodeziya” asarida har bir fanning paydo bulishi va taraqqiy etishi inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir.

Ulugʻ vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy toʻgʻri soʻzlash, toʻgʻri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli

nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, qanday so’rash va qanday javob berish (masalasiga) kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman...”.

Kaykovus tomonidan 1082-1083 yillarda yaratilgan, qadimgi sharq pedagogikasining ajoyib asarlaridan biri hisoblangan “Qobusnoma”da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar aytilgan. Asar 44 bobdan iborat bo’lib, uning 6-7-boblari so’z odobi haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari haqidadir. Muallif farzandiga qilgan nasihatlari orqali o’quvchini yoqimli, muloyim, o’rinli so’zlashga, behuda gapirmaslikka undaydi. So’zlaganda o’ylab, har bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko’z oldiga keltirib, gapirish kerakligini, kishi kamtar bo’lishi, o’zini xalq orasida oddiy tutishi lozimligini eslatib, mahmadonalik qilish, ko’p gapirish donolik belgisi emasligini shunday ifodalaydi: “Ey farzand, agar har nechakim suxandon bo’lsang, o’zingni bilg’ondan kamroq tutg’il, to so’zlash vaqtida nodon va beburd bo’lib qolmag’aysan. Ko’b bilib, oz so’zlag’il va kam bilib ko’p so’z demag’il. Nima uchunki, aqlsiz shundoq kishi bo’ladur-u ko’p so’zlar. Debdularki, xomushlik salomatlik sababidir, chunki ko’p so’zlaguvchi oqil kishi bo’lsa ham, avom uni aqlsiz derlar”⁸³.

Ulug’ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi bo’lgan “Qutadg’u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida so’zlarni to’g’ri tanlash va to’g’ri qo’llash haqida: “Bilib so’zlasa so’z bilig sanalur” degan edi. Qisqa so’zlash, so’zlarga iloji boricha ko’proq ma’no yuklash haqida:

Ugush so’zlama so’z biror so’zla oz

⁸³ Кайковус. Қобуснома. – Т.:Ўқитувчи, 1986, 45-б.

Tuman so`z tugunini bu bir so`zla yoz, deydi. Mazmuni: so`zni ko`p so`zlama, kamroq so`zla. Tuman (ming) so`z tugunini shu bir so`z ila yech. Gapirishdan maqsad so`zlovchi ko`zda tutgan narsa, hodisa, voqyealarni tinglovchiga to`g`ri, ta`sirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning to`g`riligi, ravonligi va mantiqiyiligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir so`zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, so`zning ma`nolarini yaxshi anglab, nutqni ravon qilib tuzishga chaqiradi.

Adib Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham so`zlaganda nutqni o`ylab, shoshmsdan tuzishga, keraksiz, yaramas so`zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so`zlashga chaqiradi. Noto`g`ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagin, deb so`zlovchini ogohlantiradi:

O`qub so`zla so`zni eva so`zlama,

So`zung kizla kedin, boshing kizlama.

Mazmuni: (So`zni uqib so`zla, shoshib gapirma, keraksiz yaramas so`zlarni yashir, yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma)⁸⁴.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko`rsatmalarda sodda va o`rinli gapirish, qisqa va mazmundor so`zlash, ezmalik, laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to`g`ri, rost va dadil gapirish, yolg`onchilik, tilyog`lamalikni qoralash va boshqa shu kabi mavzularda so`z boradi.

O`rta Osiyo notiqligining o`ziga xos xususiyatlari shundan iborat ediki, u, eng avvalo, o`sha davr tuzumining manfaatlariga xizmat qilar edi. Bu davrda notiqlik san`ati ustalarini nadimlar, qissago`ylar, masalgo`ylar, badihago`ylar, qiroatxonalar, muammogo`ylar, voizlar, go`yandalar, maddohlar, qasidaxonlar deb yuritilishi ham ana shundan dalolat beradi. Ammo tilning yaratuvchisi xalq ekanligini va

⁸⁴ Қаранг: Аҳмад Югнакий. Ҳибатул – ҳақойиқ. – Т., 1971, 78-б.

uning, eng avvalo, xalqqa xizmat qilishini to`g`ri anglovchi sog`lom fikrli kishilar uning ijtimoiy mohiyatini doimo to`g`ri tushunib kelganlar. Navoiyning davlat arbobi sifatida mehnatkash xalq oldida qilgan chiqishlari, uning til haqida aytgan fikrlari buning dalilidir. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug`atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Nazm ul-javohir” asarlari o`zbek tilida nutq tuzishning go`zal namunalari bo`lishi bilan birga uning mukamallashishiga ham katta hissa qo`shdi. U o`zining “Mahbub ul-qulub” asarida shunday deydi: “Til muncha sharaf bila nutqning olatidir va ham nutqdirki, gar nopisand zohir bo`lsa, tilning ofatidur...”⁸⁵ ya`ni, til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar u o`rinsiz ishlatilsa, tilning ofatidir.

Alisher Navoiy mayin, yoqimli, shirali ovoz bilan so`zlash haqida shunday deydi: “So`zni ko`nglingda pishqormaguncha tilga keltirma, harnakim ko`nglungda bo`lsa, tilga surma”. Mazmuni (“So`zni ko`nglingda pishitib olmaguncha, so`zlama, ko`nglingda bo`lgan har qanday fikrni ham ayta berma”).

O`zbek badiiy nutqi tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur alohida o`rin tutadi. Shoirning nazmi va “Boburnoma”si o`zbek nutqining go`zal namunalaridir. Bobur o`zi hammabop yozish bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o`g`li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuborilgan maktubni muallifning o`zi bir necha bor o`qib ko`rishiga, uning ravonligiga, so`zlarning ko`zda tutilgan ma`noni to`g`ri aks ettirganligiga ishonch hosil qilganidan so`ng jo`natishga chaqiradi.

Ko`rinadiki, Sharq mutafakkirlari notiq oldiga tilni puxta o`rganish, uning lug`aviy boyligi va grammatikasini puxta egallash, mantiqli so`zlashni o`rganish, nutqni ichki (mazmun) va tashqi (shakl) ko`rinishiga birday e`tibor berish, go`zal va ta`sirchan nutq tuza bilish, til boyliklarini maqsadga muvofiq

⁸⁵ Алишер Навоий. Махбуб-ул қулуб. 14-том. – Т., 1998, 94-б.

hamda o`rinli ishlatish vazifalarini qo`yadilar va ularning ijrosini kuzatadilar, chuqur tahlil etadilar⁸⁶.

Markaziy Osiyoda nutq madaniyati va notiqlik san`ati uzoq tarixga ega bo`lib, qadimdan oq so`z san`ati, uning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o`rni va ahamiyatiga katta e`tibor berilgan.

Notiqlik san`ati musulmon Sharqida voizlik deb atalgan. «Va`z» so`zi arabcha targ`ib qilish, pand-nasihat degan ma`nolarni anglatadi. «Voiz» so`mi esa va`z aytuvchi, nutq so`zlovchi shaxs ma`nosini bildiradi. Voizlik san`ati tinglovchining, jamoaning ongiga, his-tuyg`usiga ta`sir etish mahoratidan saboq bergan.

Garchi voizlik san`atining shakllanishi o`lkamizga Islom dinining kirib kelishi va "Qur'on"ni targ`ib etish bilan bog`liq bo`lsa-da, ritorika tarixi uzoq o`tmishdan boshlangan. Xususan, eramizdan avvalgi VII asrga mansub "Avesto" kitobi, qadimda shakllanib, bizning kungacha yetib kelgan xalq og`zaki ijodi namunalari, V-VI ayrlarga doir O`rxun-Yenisey yodgorliklari nomini olgan tosh bitiklar va yana ko`plab manbalarda nutq odobi, bahs yuritish san`ati, da`vat etish mahorati, muomala madaniyatiga oid qimmatli fikr va namunalarni uchratish mumkin. Masalan, "Avesto"ning tarkibiga kirgan "Vandedod" asosan Axuramazda bilan Zardushtning savol-javoblari shaklida yozilgan bo`lib, suhbat, bahs yuritish san`atining namunasini ifodalasa, "Yasna", "Yasht" va boshqa kitoblarda xudolar madhiyasi - gotlarni o`z ichiga Olgan va ularni "tantanali notiqlik" namunalari sifati-da o`rganish mumkin. Umuman, zardushtiy ta`limotining asosini uch axloqiy kategoriya: "gumantu" ~- ezgu o`y, "gutka" - ezgu so`z va "gvarshita" - ezgu amal tashkil etgan. Zardushtning "Madh etaman ezgu o`y, ezgu so`z, ezgu amalni. Jami ezgu o`y, ezgu so`z, ezgu amalga bag`ishlanaman, jumla yovuz o`y, yovuz

⁸⁶ Ушбу мавзуні ёритишда қуйидаги манбадан ҳам фойдаланилди: Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати. – Т.: Iqtisod-moliya, 2006, 3-12-б.

soʻz va yovuz amallardan yuz oʻgiranman", - degan soʻzlari har qanday davrda notiq uchun amal qilishi lozim boʻlgan qoidani oʻzida ifodalaydi.

IX asrgacha Sharqda voizlik vazifasini shohlar, xalifalar oʻtaganlar. Ular juma kunlari, hayit va boshqa bayralarda jamoani yigʻib, davlat siyosati, fuqarolarning burchlari, boshqa mamlakatlardagi vaziyat, dushmanlarning kirdikorlari, mudofaa masalalari haqida va boshqa mavzularda vaʼz soʻzlaganlar.

Vaqt oʻtishi bilan vaʼz sanʼatiga qoʻyiladigan talablar mukammallashib borgan, vaʼzxonlik esa alohida tayyorgarlikni, bilimlarni talab eta boshlagan(1.44-45-b.). Shu tariqa asta-sekin notqlik kasbga aylangan va davlat hukmdorlari bu tadbirni oʻz ixtiyorlaridagi maxsus soʻz ustalariga yuklab, ularni voizlar deb atay boshlaganlar. «Voiz» soʻzi hatto ularning ismi-shariflariga qoʻshib aytilgan va yozilgan.

Dastlab Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshgʻariy, Zamaxshariy kabi allomalar oʻzlari-ning turli mazmundagi asarlariga til, nutq, notqlikka oid fikrlarini singdirganlar, xususan Beruniy yaxshi nutq tuzish qoidalari, soʻz meʼyori, toʻgʻri fikrlash va soʻzlash mezonlari xususida fikr yuritir ekan, jumladan, shunday yozadi: "Yaxshi nutq tuzish uchun nahv (grammatika), aruz (sheʼr oʻlchovi), mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur boʻladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga taʼsir qilmay qolmaydi".

Abu Nasr Forobiy ham "qanday qilib taʼlim berish va taʼlim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday soʻrash va qanday javob berish"dan saboq berar ekan, buning uchun til haqidagi ilm, grammatika va mantiqning ahamiyati haqida batafsil toʻxtaladi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Mafatih-ul-ulum" («Ilmlar kalitlari») asarida badiiy til, sheʼriyat masalalari bilan bir qatorda notqlikning ayrim qirralari, ish yuritish qoidalari va

shp qog'ozlari shakllari masalalariga ham alohida to'xtalib o'tadi. Kaykovus esa "Qobusnoma" asarida notiqlik va nutq odobi masalalariga alohida boblar ajratgan.

Markaziy Osiyoda voizlik san'ati xazinasiga dastav-val Bahovuddin Valad (XII asr), Jaloliddin Rumi (XIII asr), Husayn Koshifiy, Muin voiz (XV asr), Alisher Navoiy kabi so'z ustalari g'oyat boy hissa qo'shganlar.

Shuningdek, tarixchi, shoir, hadisshunoslarning asarlarida ham voizlik san'atiga aloqador ba'zi fikrlar bayon etilgan. Jumladan, tarixnavis Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mantiq ut-tayr», «Mahbub ul-qulub», «Xamsa», «Chor devon» asarlarida, Zaynuddin Vosifiyning «Badoye ul-vaqoye», Xondamirning «Makorim ul-axloq» risolasida atoqli voizlarning mahorati, iste'dodi, va'zxonlik uslublari haqida mulohazalar yuritilgan.

Shu bilan birga Navoiy so'zi fasih, tili bilan dili boshqa va'zxonlar bilan o'z nutqlari orqali odamlarga madad bergan, ularni to'g'ri yo'lga boshlagan voizlarni ajratgan. "Mahbub ul-qulub" asarida haqiqiy voizning fazilatlarini quyidagicha ta'rif etadi: "Voiz Haq so'zni targ'ib qilishi, payg'ambarlar so'zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o'zi Haq va payg'ambarlar yo'lga kirishi, so'ng esa nasihat bilan elni ham shu yo'lga solishi lozim". Yana bir yerda u shunday deydi: "Va'zxon shunday bo'lishi kerakki, uning majlisiga kirgan odam to'lib chiqsin, to'la kirgan odam esa yengil tortib, xoli qaytsin".

Bular qatorida Muhammad Rafiq Voizning «Avbob ul-jinon», Voiz Qazvinining «Ziloli maqol», Voiz Shirvoniyning «Ahsan ul-ahodis», Muhammad Voizning «Hidoyat ud-taqvim», Quraysh Saidiyning «Anis ul-voizin», Voiz Samarqandiyning «Ravozat ul-voizin», qozi O'shiyning «Miftah ul-najjoh», Voiz Koshifiyning «Dah majlis», «Mahzan ul-insho» kabi asarlarini keltirish mumkin. Albatta, hukmdorlar ham va'z aytish sirlarini o'zlashtirganlar(1.46-47-b).

Tarixchilarning shohidlik berishlaricha, sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Mirzo Ulug'bek kabi davlat arboblari voizlik san'atini puxta egallaganlar va faoliyatlarida undan mohirona foydalanganlar.

O'rta asrlarda voizlik san'atining asosan uch shaklini ajratish mumkin: dabirlik, xatiblik, muzakkirlik. *Dabirlik* davlat maqomidagi yozishmalarni yozma bayon etish va qiroat bilan o'qib berish bilan bog'liq bo'lsa, juma kunlari peshin namozi oldidan xutba o'qish *xatiblik* deb yuritilgan, *muzakkirlik* esa juma kunlari, hayit va boshqa tantanali kunlardagi anjumanlarda xatibdan keyin diniy, axloqiy, huquqiy masalalarni sharhlab berishdan iborat bo'lgan.

Voiz murojaat etgan tinglovchilarning tabaqasi, ijtimoiy-siyosiy mavqeyi, lavozimlari hamda boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, va'z mazmuni, shakli, qo'llanilgan vosita va usullari bo'yicha ham farqlangan. Shunga muvofiq va'zlarning uch turi: ajratilgan va uch xil nomlangan: yuqori tabaqa a'yonlar va zodagonlar uchun mo'ljallangan va'zi sultoniyot deb atalgan. Sultoniyotda hukmdorlar sha'niga hamdu sanolar aytilgan, ular ko'klarga ko'tarib maqtalgan, madh etilgan.

Urush, jangdan oldin xalq yoki lashkarlarning jango-vor ruhini ko'tarish, ularda fidoyilik, vatanparvarlik, qahramonlik, botirlik tuyg'ularini uyg'otish maqsadida so'zlangan nutq jihodiya deb nomlangan. Tabiiyki, bundan nutqlarga da'vatkorlik, ko'tarinkilik xos bo'lgan. Oddiy fuqarolarga mo'ljallangan va'zlar g'aribona deb yuritilgan va ularda hukmdorlarga itoat etish, ularni hurmat qilish kabilarga da'vat etilgan (1.48-b.).

Davlatlararo munosabatlarni tartibga solish, o'zaro muxolif davlatlar orasidagi muammolarni muzokara yo'li bilan hal etishda o'tmishda ham hozirgidek, elchilar, diplomatlar va vakillarning ishontirishga qodirligi, donoligi, zarur bo'lsa, ayyorligi, notiqlik san'atini puxta egallaganligi muhim o'rin tutgan.

Faxriddin Safiyning ta'birlariga qaraganda, Voiz Irshodda diplomatlarga xos bo'lgan bu fazilatlarining barchasi zohir bo'lgan.

O'rta asrlarda Movarounnahrda o'zbek xalqi orasidan Irshodga o'xshash voizlar ko'plab yetishgan. Bunday siymolardan biri taxminan XV-XVI asrlarda Farg'ona vodiysida yashagan mashhur notiq qozi O'shiy bo'lgan. U O'sh shahrida tug'ilib, bu yerda qozi mansabida xizmat qilgani uchun shunday nom olgan.

Faxriddin Safiyning risolasida va tarixnavis Muhammad Majdiyning «Ziynat ul-majolis» asarida ta'-kidlanishicha, O'shiy voizlik san'atida mislsiz mahorat sohibi sifatida dong taratgan va el nazariga tushgan.

Qozi O'shiyning «Miftah ul-najjoh» («So'z kaliti») risolasida voizlik san'atining sir-asrorini mohirona ochib berilgan. Bu esa uning o'tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo'yicha yetarli bilim sohibi ekanligidan ham dalolat beradi.

XIII asrda Xorazmshohlar sulolasi davrida yashab ijod qilgan zukko va iqtidorli voiz Bahovuddin Valad hamda uning o'g'li, ulug' adib, olim va faylasuf Jaloliddin Rumiyy voizlik san'atining o'tkir nazariyotchisi edilar. Bu davrda, shuningdek, Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Voiz Koshifiy, Abulfayz Zunnun, Anas Junayd, Shibliy, Sirriy, Nisaviy, Sheroziy kabi bir qator suxandonlar, voizlik madaniyatining iqtidorli va iste'dodli namoyandalari ham yashaganlar (1.51-b.). Ulardan har birining o'z xizmati, mahorati, uslubi mavjud bo'lib, asarlari arab tilida yozilgan.

Xo'ja Muayyad Mehnagiy o'z zamonasining alloma notiqalaridan biri bo'lib, dunyoqarashi jihatidan oddiy mehnat ahliga juda yaqin bo'lgan. Mavlono Navoiyning shohidlik berishlaricha, u bir qabristonning bechorahol shayxi bo'lgan ekan. Bo'sh vaqtlarini ilmu donishga sarf qilgan Mehnagiy «zohir ulumin takmil qilib erdi», ya'ni yuzaga chiqqan o'ziga

ma'lum bo'lgan ilmlarni o'zlashtirib-gina qolmay, ularni takmil qilgan, ya'ni to'ldirgan, boyitgan ham edi.

E'tirof etishlaricha, Mehnagiyning voizligi uning donishmandligidan kam bo'lmagan. Navoiy hazratlari Mehnagiy haqida: «va'z majlisi bag'oyat garm va nursho'r voqye' bo'lur erdi», - deb, uning nutqlari jo'shqin, jozibali, tinglovchilar oldida maftunkor bo'lganligini ta'kidlagan.

Xo'ja Mehnagiyning mashhurligi yana shunda namoyon bo'lganki, u o'z mushtariylarining yuragiga qo'l sola bilgan, ularni passiv tinglovchilik darajasidan faol fikr yurituvchi, va'z mazmuniga, talaffuziga, tiliga faol munosabatda bo'luvchi sinchkov, zukko tinglovchilar darajasiga ko'tara olgan. Buning uchun voizgagina emas, har qanday notiqqa ham zo'r iste'dod, behad shiddatkorlik darkor. Modomiki, Mehnagiy o'z nutqlarining ta'sirchan bo'lishiga erishgan ekan, demak, u o'z davrining otashnafas voizi bo'lgan. U va'z aytganda, anjumandagilarga hyech bir zamondoshi u kabi kuchli ta'sir qila olmagan. Mehnagiy singari jo'shqin, nodir voizlar kam bo'lgan (1.52-b.). Shu sababdan bo'lsa kerak, uning sharaflī nomi tarix sahifasidan, voizlik san'ati zarvaraqlaridan nufuzli o'rin olgan, u notiqlarning butun bir avlodi uchun ibrat hisoblangan.

Xo'ja Mehnagiy muvaffaqiyatlari va mahoratining kaliti bilim doirasining keng, mazmunan chuqur ekanligida edi. Navoiy iborasi bilan aytsak, u «zohir ulumin» bo'lgan, ya'ni o'sha davrda ajdodlarimiz to'plagan bilimlarning deyarli hammasini puxta o'zlashtirgan, buning ustiga ularni boyitgan ham.

Mavlono Navoiy nazariga tushgan, yuksak ta'rifu tavsiflariga muyassar bo'lgan voizlardan yana biri Mavlono Riyoziy bo'lgan. Bu voiz Zova viloyatining qozisi lavozimida ham ishlagan bo'lib, ba'zi noo'rin kirdikor-lari uchun lavozimdan bo'shatilgan, kishanga solingan, pirovardida badarg'a qilingan edi.

Murosasiz kurash va dahanaki janglar, hujum va mudofaalar girdobida chiniqqan Riyoziyning nutqlari jo'shqiligi, jasoratligi, o'tkirligi bilan ajralib turgan. Navoiyning shohidlik berishicha, u «va'z aytib, minbarda o'z ash'orlarini o'qib, yig'lab, vajdi hol qilur erdi». Bu mahorat tinglovchilar nazarida e'tiborga, nufuzga sazovor bo'lgan voizlik namunasi edi. Tinglovchi-lar huzuriga chiqib, ularda hamdardlik kayfiyatini uyg'ota olish uchun voizlik san'atining ulkan sohibi bo'lish darkor edi. Riyoziy xuddi shunday san'at sohibi bo'lgan.

Madaniyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan voizlardan yana biri mavlono Koshifiy edi. O'z sohasida butun Markaziy Osiyoga mashhur va manzur bo'lgani bois uning nomi yoniga voiz taxallusi ko'shib aytilar va yozilar edi. Kamoli ehtirom ila «sohibi suxan» deb tavsiflangan siymo mavlono Navoiyning zamondoshi va do'sti bo'lgan. Ularning juda yaxshi do'stona munosabatda bo'lganlik-larini tasdiqlaydigan tarixiy manbalar bor (1.53-b.).

Voiz Koshifiyning hozirgi notiqlar uchun ham namuna bo'ladigan asosiy fazilati bilimining chuqurligi, kengligi, so'zining boyligi edi. U o'z zamonasida to'plangan juda ko'p bilimlarni puxta egallagan, hatto ilmiy tadqiqotlar olib borgan zukko olim bo'lgan. «Majolis un-nafois»da yozilishicha, u olim «xususan, va'z va insho (nasriy she'r usulida yoziladigan xat) va nujumning (yulduzshunoslik) haqqi durur har qaysisida mutaayyin (ko'zga ko'rinarli) va mashhur ishlari bor».

Hirot viloyatining eng zabardast voizlaridan yana biri mavlono Muin Voiz edi. U haqdagi eng ko'p ma'lumotlar Mir Alisherning tabarruk qalamlariga mansubdir. Bu zot uning tavsifiga maxsus va keng o'rin berganlar.

Muin Voizning akasi Nizomiddin davlat arbobi bo'lgan. U ukasini ikki marta Hirot shahrining qozisi lavozimiga tayinlamoqchi bo'lgan, ammo Muin har gal rad javobini berib, bu iltifotdan voz kechgan.

Masalaga yuzaki qaraganda, Muinning akasiga bu erkaligi o`rinsiz edi. U akasining soyai davlatida o`z davrida eng yirik bir shahar qozisi lavozimida viqor bilan mag`rurlanib yursa bo`lardi. «Lekin u uzoqni ko`ra bilgani, amal go`yoki qo`lning kiri kabi o`tkinchi ekanligini oqilona anglagani bois bunday qilmagan. Mavlono Mir Alisher iborasi bilan aytganda, Muin «darvesh»ligi, ya`ni shakkokligining asosiy sababi uning voizlik sav`atiga bo`lgan ishtiyoqi va fidoyiligi edi.

Muin Hirotning o`z zamonasidagi eng nufuzli, zukko notiqalaridan bo`lgan. Alisher hazratlarining ta`kidlash-laricha, u «holo o`zidagi azim voiz durur va muridlari ko`p» bo`lgan. Bu ta`rifdan payqash mumkinki, Muin faqat so`z ustasi emas, balki bunday suxandonlarning murabbiy-si ham bo`lgan. Binobarin, uning pedagogik faoliyati g`oyat ibratlidir (1.54-b.).

Mavlono Navoiyning bu voizga katta e`tibor berganligi shundan ham ma`lumki, uning tazkirasida Muinning nutq madaniyatiga taalluqli ko`pgina qimmatli dalillar bor. Ulardan ayon bo`lishicha, Muin g`oyat jo`shqin, ehtirosli iutq so`zlash mahoratiga ega bo`lgan. U va`z qilayotganida shu qadar mahliyo bo`lib ketar ekanki, devonalik darajasiga yetib borar hamda «baland va past so`zlardan aytur» ekan.

Voiz Muinning nutq paytidagi qo`l harakatlari, chehrasidagi imo-ishoralari, tanasining holati ham voiz nutq madaniyatining yordamchi, qo`shimcha vositalaridan o`z o`rnida mohirona foydalanganidan dalolat beradi. Demak, u tinglovchilarini kuchli haroratli so`zi va mo`l-ko`l iqtidori bilan qanoatlantirgan ekan; unda mantiqiy tafakkur, hayot muammolari bilan uzviy bog`lanish, dolzarblik barqaror ekan.

Tarixnavis Xondamirning ta`kidlashicha, voiz Muin o`z va`zlarida hyech kimni yuz-xotir qilmagan, murosasiz bo`lgan, hatto davlat arboblari ham (odob doirasida bo`lsa kerak) ayovsiz tanqid kilavergan.

Voiz Muinga Xondamir bergan yuqori baholarga qaraganda, bu voiz zo`r suxandon bo`lish bilan birga keng va chuqur bilim sohibi ham bo`lgan.

Voizlik san`ati O`rta Osiyo xalqlarining, xususan, o`zbek millatining ma`naviyati tarixida zarhal harflar bilan yozilishga arzigulik sahifalarni bizga meros qilib qoldirgan (1.55-b.).

**Tayanch so`z va birikmalar:** Nutq madaniyati, notiqlik, notiqlik san`ati, so`z san`ati, so`z, ibora, matn, voizlik, va`zxonlik, ta`sirchan nutq, ravonlik, aniqlik, ijtimoiy hayot, tafakkur.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

1. Notiqlik san`atiga qadimdan e`tibor berilishi-ning sabablari nimalardan iborat?
2. Qadimgi Xitoyda so`z va notiqlik san`atiga e`tiborning qaysi jihatlaridan foydalanish mumkin?
3. Qadimgi Misrda nutq madaniyati va notiqlikka e`tibor to`g`risida ma`lumot bering.
4. Yunon notiqligining asosiy jihatleri nimada ko`rinadi?
5. Rim notiqligining o`ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo`ladi?
6. Markaziy Osiyoda so`z san`ati va notiqlikka e`tibor to`g`risida ma`lumot bering.
7. So`z va notiqlik san`atining yirik namoyondalari to`g`risida ma`lumot to`plang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
- Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

2. . Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
3. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007, 18-62-b.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O`qituvchi, 1986, 45-b.
5. Ahmad Yugnakiy. Hibatul – haqoyiq. – T., 1971, 78-b.
6. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. 14-tom. – T., 1998, 94-b.
7. Bekmirzayev N. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan. 2007, 131-148-b.
8. Elmurodov N. O`qituvchining nutq madaniyati. O`quv qo`llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2004. – 138 b.
9. Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

9-mavzu: O`QITUVCHI SHAXSI VA UNING JAMIYATDAGI O`RNI

Reja:

1. O`qituvchi kasbining jamiyatimizdagi o`rni.
2. O`qituvchilik kasbini tanlash.
3. O`qituvchining bilimi va pedagogik mahorati.
4. O`qituvchi odobi.

Prezident Islom Karimovning ta'lim-tarbiya, o`qituvchi va murabbiylar, bilim maskanlari to`g`risidagi dono fikrlari mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlarga davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifa sifatida qaralayotganidan dalolat beradi. Prezidentning quyidagi fikrlari o`qituvchi va murabbiylarning jamiyatimizdagi mavqeyi nihoyatda yuksakligini ko`rsatadi:

«Barchamizga ayonki, inson qalbiga yo`l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Shuning uchun qachonki bu haqda gap ketsa, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni eslash bilan birga, ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo`lgan yana bir buyuk zot - o`qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda

ana igu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o`rnimizga keladigan yoshlarning ma`naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini o`zimizga yaxshi tasavvur qilamiz.

Bu yorug' olamda har bir odam o`zining mehribon ota-onasiga, ustoz va muallimlarga nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi. Inson o`z umri davomida qanday yutuq va natijalarga erishmasin, qayerda, qanday lavozimda ishlamasin, maktab dargohida olgan ta'lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs va malakali mutaxassis bo`lib shakllanishida ulkan ahamiyatga ega ekani shubhasiz»⁸⁷.

«Muxtasar aytganda, maktab degan ulug' dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta'sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o`qituvchi va murabbiylar mehnatini hyech narsa bilan o`lchab, qiyoslab bo`lmaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma`rifatparvar bobolarimizning fikrini davom ettirib, agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktab bo`lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o`qituvchilik va murabbiylikdir, desak, o`ylaymanki, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz. Chindan ham, o`qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki mingminglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o`z o`quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo`tabar zotdir. Ona tilimizda «maktab ko`rgan», «maktab yaratgan» degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o`qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o`rin tutishidan dalolat beradi».

«Biz yurtimizda 1 oktyabr sanasini O`qituvchilar va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami deb e`lon qilganimizning chuqur ma'nosi bor, albatta.

⁸⁷ Каримов И. Юсак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008, 130-б.

Bu bayram avvalo o`zining bilim va tajribasi, iste`dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko`z nuri va qalb qo`ri, butun borlig`ini ayamadan, ma`rifat yo`lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga nisbatan xalqimizning azaliy hurmat-ehtiromining yaqqol namunasidir»⁸⁸.

1. O`qituvchilik kasbini tanlash

Xalq ta`limi fidoyilaridan biri Rahimjon Usmonovning o`qituvchilik kasbini tanlash va ardoqlash haqidagi fikrlari e`tiborni tortadi: «O`qituvchilik kasbiga qadam qo`yish niyatida bo`lgan odam o`z-o`ziga: shu kasbni sevamanmi, dilimda bu ishga havas o`ti bormi? Men bolajonlik fazilatiga egamanmi? Bir umr ana shu nihoyat murakkab, lekin sharaflilik kasbning jozibali sehri bilan yashay olamanmi? degan savollarni berib, o`z qalbi bilan gaplashib olmog`i lozim.

Insonni el hurmatiga sazovor etuvchi yaxshi fazilatlardan biri tanlagan kasbida sadoqat bilan ishlay bilishdir. Kasbda qo`nimli bo`lish insonni bezovchi ziynat bo`libgina qolmay, ishni unumli ham qiladi»⁸⁹.

Har qanday tuzum, har qanday jamiyatda ham ustoz, murabbiy, o`qituvchi mehnatiga katta talablar qo`yilgan. Chunki ushbu kasb egalari jamiyatning kelajagi va ishonchi bo`lgan yosh avlodni tarbiyalaydi, ularni jamiyatga munosib inson sifatida kamolga yetkazadi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida o`qituvchi kasbiga alohida e`tibor va o`zgacha haqli talab ko`rsatila boshlandi. Ustozlar mehnatini qadrlash yangi bosqichga ko`tarildi. Ana shunday munosabat va g`amxo`rlik, albatta, o`qituvchi shaxsiga yuksak vazifa-larni qo`yadi, uning doimo izlanishda va rivojlanishda bo`lishini talab etadi. Shuning uchun ushbu kasbni tanlayotgan har bir o`qituvchi uni

⁸⁸ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч, 130-б.

⁸⁹ Мавзуни ёритишда қуйидаги манбадан фойдаландик: Усмонов Р. Одобнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 44-б.

qanday sharaflı va mashaqqatlı mehnat kutib turganligini bilishi lozim.

Ayrim tadqiqotchilar o`qituvchidan chuqur bilim, yuksak pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, ayniqsa, notiqlik san`atini egallash talab etilishini uqtirishadi⁹⁰. Ushbu fikrlarga bemalol qo`shilish mumkin. Bular qatorida o`qituvchi o`quvchi ruhiyatini yaxshi ilg`ay oladigan, uni tez tushunadigan, vaziyatdan kelib chiqib, zudlik bilan ijobiy qaror chiqara oladigan zukko, farosatli, umuman, ziyoli inson bo`lishi lozim.

Shuning uchun ham, R.Usmonov haqli qayd etganidek, pedagoglar, ota-onalar, pedagog-psixolog olimlar bola iste`dodini yoshligida bog`chada va maktabda vaqtida aiiqlashi, jamiyatning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda uni o`stirish choralari ko`rishi talab etiladi. Har qanday kishi ham o`qituvchi bo`la olmasligini ilmiy tadqiqotlar ko`rsatmoqda. O`qituvchilik kasbini egallash uchun kishida qobiliyat, muayyan ijtimoiy-psixologik malaka va ma`lum tayyorgarlik bo`lishi lozim⁹¹. Demak, o`qituvchilik kasbiga havas uyg`otish bolaning yoshligi davrida boshlansa ham, ushbu kasbning talablari, murakkab tomonlari, mashaqqatlari ochiq-oydin uqtirib borilishi kerak.

2. O`qituvchining bilimi

O`qituvchi bo`lish uchun kasbni sevishdan tashqari, o`z predmeti bo`yicha chuqur, yondosh fanlar bo`yicha keng bilimga ega bo`lishi kerak. O`quvchi bilimdon o`qituvchini hurmat qiladi.

Hozirgi davr rivojlanishida o`ziga xos jihatlar mavjud. Axborot oqimi nihoyatda kuchaygan, fan sohasida muttasil yangiliklar yuz berayotgan, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy,

⁹⁰ Ортиков Абдурахмон, Ортиков Абдуғаффор. Нотиклик санъати ва нутқ маданияти. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: «Допо – ҳамро» илмий маркази, 2002, 5-6.

⁹¹ Усмонов Р. Одобнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 44-45-6.

ma'naviy-ma'rifiy sohalarida o'zgarishlar bo'lib turgan davrda yashayotganligimiz har bir kishidan faollik, e'tibor, voqeya va o'zgarishlarga ziyoli darajasida munosabat bildirishni talab etadi. Ayniqsa, axborot olish imkoniyatlarining kengayganligi, ya'ni ommaviy axborot vositalarining nihoyatda ko'payganligi, Internet orqali muloqot jarayonining shiddat bilan rivojlanayotganligi o'qituvchining o'z ustida tinmay ishlab, doimiy ravishda bilimini oshirib borishi lozimligini ko'rsatadi. Aks holda barcha imkoniyatlardan bema'lol foydalanayotgan o'quvchilar va talabalarining ehtiyojini qondirish qiyin kechadi, eng muhimi, o'qituvchi o'z obro'-e'tiborini yo'qota boshlaydi, bu esa ta'lim sifati va samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Afsuski, oliy o'quv yurtida olgan bilimi bilan cheklanayotgan, bilim doirasi darslikdan nariga o'tmaydigan, yangiliklarga befarq, o'z ustida ishlamaydigan o'qituvchilar ham ozmi-ko'pmi topiladi. Bunday o'qituvchi o'z o'quvchi va talabalaridan orqada qolmoqda. Chunki hozirgi yoshlar juda katta axborot oqimidan xabardor.

O'qituvchi o'z ustida ishla-masligining yomon oqibati shundaki, unday o'qituvchi o'quvchilar umrini zoye ketkazadi, o'quvchining oltin vaqtini zoye ketkazgan o'qituvchi esa bir umr ziyo bermay dudlab yotgan chiroqni eslatadi. Ziyokor o'qituvchi esa mudom porlab nur bermog'i, o'z ziyosidan avlodni bahramand qilishi lozim.

Inson boshqa birovni nurlatish uchun o'zi porlashi kerak. Uz ustida ishlamay hayotdan orqada qolayotgan ayrim o'qituvchilarning ishlari ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin⁹².

O'qituvchi o'z bilimini o'quvchilarga bera bilishi, eng muhimi, ularda bilimga qiziqish uyg'ota olishi, mustaqil o'qish ko'nikmalarini tarbiyalashi va bu borada o'quvchi faoliyatini tashkil etishga rahbarlik qilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi

⁹² Усмонов Р. Одбнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 47-б.

pedagogika, psixologiya va o'z fanining metodikasini chuqur egallashi zarur.

O'qituvchining o'z mutaxassislik fanini puxta bilishi, mavzu bo'yicha chuqur bilimga egaligi, darslik va qo'llanmalardagi materiallarni o'z so'z va jumalari bilan asosli, ilmiy, mantiqli, ravon, tushunarli bayon etishi dars samaradorligini oshishiga asosiy sabab bo'ladi. Darslik materialini qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha so'zmaso'z, qo'shimcha materiallarsiz bayon qilish ham o'quvchilarni zeriktirishi, darsga e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi bilimini uzluksiz oshirib borib, darslikka kiritib ulgurilmagan materiallar, yangiliklardan ham unumli foydalanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi davr bilan hamnafas bo'lishi, axborotlardan o'z vaqtida xabardor bo'lishi, ularni yetkaza olishning zamonaviy usullarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Pedagogik mahorat

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, pedagogik mahorat-ning muhim bir ko'rsatkichi o'quvchini faollashtirishdir. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni ikki yoqlama jarayon: o'qituvchi ta'lim beradi, o'quvchi uni o'rganadi.

O'qituvchining bilim saviyasi uning pedagogik mahorati orqali yuzga chiqadi. Shuning uchun pedagogik mahoratni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni dars jarayonida qo'llashni pedagogik amaliyot davrida puxta o'zlashtirishga e'tibor berish lozim.

Pedagogik amaliyotga tayyorlashning dastlabki bosqichi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, kurs ishi va referat himoyalari paytida o'quvchi hamda talabaga fikrini mustaqil bayon etishi, materialni yetkaza olishi uchun imkoniyat yaratish lozim bo'ladi. Buning uchun o'quvchi va talaba qisqa fursat bo'lsa-da, doska oldiga kelib, o'zini o'qituvchi o'rniga qo'ygan

holda, materialni bayon etishi kerak. Shundan so`ng o`qituvchi rolidagi talabaga savollar berish, javoblarini tahlil qilish, o`quvchilarning «o`qituvchi»ga bahosini aniqlash, keyin umumiy xulosa berish yaxshi samara beradi.

Pedagogik amaliyotning samarali bo`lishi yetarli salohiyatga ega bo`lgan o`quv maskanlarini tanlashga ham bog`liq. Malakali, tajribali ustozlar faoliyat ko`rsatayotgan, zamonaviy texnik va boshqa vositalar bilan jihozlangan bilim maskanlarida amaliyot o`tash bo`lajak o`qituvchi uchun pedagogik mahoratni egallashning muhim bosqichi hisoblanadi.

Pedagogik mahoratni egallashda bo`lajak o`qituvchi darsining haqqoniy tahlili muhim ahamiyatga. Tahlil adolatli bo`lib, yutuq va kamchiliklar ochiq-oydin ko`rsatilsagina, samarasi yuqori bo`ladi.

O`qituvchi pedagogik mahorati o`quvchi va talabaning fan sirlarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil, erkin fikrlash hamda bayon qila olish ko`nikmalarini o`zlashtirishlariga qaratilishi lozim. Aks holda o`quvchi yoki talaba faqat darslik materialini mexanik tarzda o`zlashtirish bilan cheklanib qoladi, o`z fikrini mustaqil bayon etishga qiynaladi, nutqi rivojlanmaydi, oxir-oqibatda yangiliklarga qiziqishi susayib, hayotdan orqada qola boshlaydi.

Ba`zi o`qituvchilar o`quvchilar bilan uncha fikrlash va izlanish talab qilmaydigan oson masalalarni hal etish bilan cheklanadilar. Buning oqibatida o`quvchining kamoloti hayot taraqqiyotidan orqada qoladi. Bu tarzda dars bergan o`qituvchi bolani oldinga tomon emas, orqaga tortadi. Pedagogik mahorat bolaning miyasini fakt va raqamlar bilan to`ldirishdan iborat bo`lmay, balki bolaga ularni tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqara bilishni o`rgatishdadir».

«Nihoyat, pedagogik mahoratning muhim bir ko`r-satkichi nutq madaniyatidir. So`zda nuktadonlik, chuqur mantiq va mazmundorlik pedagog uchun eng zarur sifatdir. Buning uchun o`qituvchi o`z nutqi ustida muttasil ishlashi, qisqa ifodada ko`p fikr ayta bilish mahoratini egallashi zarur. Haqiqiy pedagog

ma'ruza jarayonida shogirdlarini o'zi bilan birga fikrlashga chorlaydi, mahoratsiz pedagog-ning darsida esa tinglovchilarning surati o'tiradi-yu, xayoli olma teradi. Chinakam mahoratli ustoz o'qituvchining sehrli ma'ruzasini va aytadigan so'z durdonalarini shogirdlari mushtoqlik va ishtiyoq bilan tinglaydi»⁹³.

Odatda, o'quvchilar, talabalar, aspirantlar pedagogga o'ta talabchan, tanqidiy ko'z bilan qaraydilar. Birinchi uchrashuvdayoq uning pedagogik mahoratiga, bilim saviyasiga, o'zini tutishi, tashqi qiyofasi, gap-so'zi, talabalar bilan muomalasiga qarab hukm chiqaradilar. Shu bois pedagogdan shirinso'z, xushmuomala, gapga chechan bo'lish talab etiladi. O'qituvchining ma'ruzasi mazmunli, manti-qan izchil, ravon, uslubi jihatdan hammabop, tinglovchini o'ziga jalb etadigan, ta'sirchan va yoqimli bo'lishi zarur.

Pedagog nutqining madaniyligi – uning bilim darajasi, aql-idrokining ko'lami, fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda – ona tilining boyligidan foydalana bilishiga ham bog'liq. «Pedagogning so'z boyligi katta va xilma-xil bo'lsa, uning nutqi jozibali hamda ko'rkam bo'ladi. Buning uchun o'z mutaxassisligi sohasidagi barcha asosiy tushuncha, atama va kategoriyalarni puxta bilishi, o'z o'rnida, ya'ni aralashtirmasdan, almashtirmasdan qo'llay olishi kerak. Shu bilan birga, u ilmiy, siyosiy adabiyotni, jumladan yurtboshimiz asarlarini, badiiy adabiyotni diqqat bilan, sinchiklab, muttasil o'qib bormog'i lozim.

Pedagogning so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, e'tibori, nufuzi shunchalik baland bo'ladi, tinglovchi va talabalar-ning ongiga ta'siri kuchli bo'ladi»⁹⁴.

O'qituvchi jamiyatning ziyoli insoni sifatida ommaviy axborot vositalari, ya'ni gazeta va jurnallarni doimiy mutolaa qilib borishi, radio tinglashi va teleko'rsatuv-lardan xabardor

⁹³ Усмонов Р. Одобнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 48-б.

⁹⁴ Ортиқов Абдурахмон, Ортиқов Абдуғаффор. Нотиклик санъати ва нутқ маданияти. Ўқув-методик қўлланма. – Тошкент: «Допо – ҳамро» илмий маркази, 2002, 5-, 32-, 36-б.

bo'lishi lozim. Ommaviy axborot vosita-lari o'ziga xos axborot manbai sifatida o'qituvchining jamiyat hayotidan boxabarligini, o'zgarishlarni tezda anglab olishini, jamiyat turmushidagi islohotlarni o'quvchilarga to'g'ri yetkazib berishini, nutq madaniyatiga salbiy ta'sir qiluvchi holatlarni yetarlicha baholab, ulardan o'quvchi va talabalarni ogohlantirishiga yordam beruvchi asosiy manba hisoblanadi.

3. O'qituvchining odobi

Tajribali pedagog R.Usmonov haqli ta'kidlaganidek, ilg'or g'oyalar va yangiliklarning targ'ibotchisi bo'lgan ziyokor o'qituvchi eng madaniyatli. inson bo'lib, bu fazilat uning yurish-turishida, fe'l-atvorida, kiyinishida, oilada, ish joyida odamlar bilan madaniy muomala qilishida, ro'zg'or yurgizishi, jamoat joylarida o'zini yaxshi tuta olishida, nutq madaniyatida, adabiyot va san'at durdonalarini sevishi va ulardan foydalana bilishida, hayot, tabiat va odamlardagi go'zalliklarni baholashi va qadrlashida, xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bu. fazilatlar o'qituvchining go'zal ichki dunyosining tashqi ifodasidir. O'qituvchi o'quvchi bilan muomalasida pedagogik odobga rioya qilishi, o'zini tuta bilishi, sharoitni hisobga olib tarbiya-ta'lim usulini tanlashi kerak. O'qituvchi yosh qalb egasining eng yaqin do'sti va yo'l ko'rsatuvchi murabbiysidir. Afsuski, o'qigan bo'lsa xam madaniyatsiz, yetarli tarbiya olmagan, fe'l-atvori xunuk, hayotdan orqada qolgan, omma orasida zarracha obro'si yo'q, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan o'qituvchilar ham uchrab turadi. Ma'lumot darajasi yuqori, ammo xulqi xunuk odamlar bor. Buning sababi shundaki, bu kishilarning olgan bilim va tushunchalari e'tiqodga va amaliy faoliyatga aylanmagan.

Pedagogik iste'dodning tub mohiyati va ta'lim maskanining muhim vazifasi o'quvchilarni o'zini-o'zi tarbiyalovchi,

mustaqil bilim olishga qodir, har tomonlama kamolotga intiluvchi, komil inson etib tarbiyalashdir.

Biz o`qituvchilar bu borada yoshlarga ijobiy o`rnak ko`rsata olishimiz, o`z hayotimizni go`zallik qonuni asosida yaratmog`imiz va ijodiy hayotni, tabiatni, borliqni yanada go`zal qilish yo`lida kurashmog`imiz hal qiluvchi omillardandir. Bunga erishmoq uchun biz o`z kamolotimiz ustida to`xtovsiz ijodiy izlanishimiz, eng maqbul ta`lim va tarbiya usullarini hayotga joriy etmog`imiz lozim».

Oliy o`quv yurtida o`qish jarayonida yurish-turish, kiyinishda ancha madaniy xulq-atvor kasb etib, ammo ishga borgach, qishloqdagi ilg`or, madaniyatli kishilar davrasiga qo`shilib, ommaga o`rnak ko`rsatish o`rniga maishatga mukkasidan ketgan kishilar bilan ulfat tutinib, o`zining na ma`naviy kamolotiga, na tashqi qiyofasiga qaramay, achinarli holga tushayotgan o`qituvchilar ham uchraydi. Buning uchun avvalo uning o`zi aybdor.

O`qituvchining birinchi qadami uning kamoloti uchun muhim zamin bo`ladi. Shuning uchun yosh o`qituvchi dastlab faoliyat ko`rsatayotgan kundan boshlab unga e`tiborli bo`lish, imkoniyat doirasida sharoit yaratish, jamoaga ko`niktirish, ijodiy muhitga moslashtirish, muammlari-ni hal etishiga ko`maklashish, eng muhimi, jamoani «o`ziniki» sifatida qabul qilishiga erishish lozim bo`ladi.

O`qituvchi o`z oilasidagi mavqeyi va hurmati bilan ham elga o`rnak bo`lmog`i lozim. Ma`naviy go`zal, axloqi pok, ta`lim va tarbiya fanini chuqur egallagan o`qituvchi faqat o`z oilasininggina emas, balki hamma ota-onalarning ham eng yaqin maslahatgo`yi va sodiq do`stidir⁹⁵.

O`qituvchi odobi, ma`naviyati va madaniyati uning ustoziga munosabatida ham namoyon bo`ladi. «Ustoz-shogird» an`anasi barhayot jamoada o`qituvchi kelgusi hayotiga ishonch bilan mehnat qiladi. Jamoada yuksak e`tibor, e`tirof topishiga

⁹⁵ Усмонов Р. Одобнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 49-51-б.

amin boʻlgan holda, faol mehnat qiladi. Ustoz oʻqituvchi oʻz shogirdini ham ana shu ruhda tarbiyalashga eʼtibor berishi, eng muhimi, oʻrnak boʻlishi lozim.

Ustoz qadriga yetish uchun soʻz mulkining sultoni, buyuk Alisher Navoiyning quyidagi satrlarini hamisha yodda tutish va amal qilish foydadan xoli boʻlmaydi:

*Хақ йўлинда ким сенга бир ҳарф ўқитди ранж ила,
Айламак бўлмас адо онинг ҳаққин юз ганж ила.*

Ustozga boʻlgan eʼtiqod va hurmat haqida buyuk siymolar koʻp va xoʻb yozishgan. Mohir va tajribali pedagog Rahimjon Usmonovning ushbu sheʼri ham eʼtiborni tortadi:

USTOZ

*Aziz doʻstim, hurmatda boʻl, ustozingdan oʻzganda ham,
Ilming oshib, iqbol kulib harchand senga boqqanda ham.
Boʻlma magʻrur unvonga sen, «Allomasiz» desalar, ham,
Kamtar boʻldi allomalar ming qoyadan oshganda ham.
Dur-gavhardan ortiq erur oqil shogird ustoz uchun,
Ustozingning qadrini bil, boshing koʻkka yetganda ham,
Kim tosh otsa ustoziga, boʻlgʻay badnom oʻlganda ham,
Soʻnmagay ustoz nuri oyu yillar oʻtganda ham⁹⁶.*

Xullas, oʻqituvchilik kasbini egallagan inson oʻz qalb amri bilan sohaga kirib kelgan boʻlsa, uni ulugʻlasa, mashaqqatlariga bardosh bersa, jamiyatimizda yuksak obroʻ-eʼtiborga erishishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Hozirgi kunda oʻz kasbini ustalari, mohir va tajribali ustozlar ham, sohaga kirib kelib, fidoyilik bilan faoliyat koʻrsatayotgan yoshlar ham birdek eʼzozlanmoqda. Yurtimiz kelajagi va jamiyatimizning hal qiluvchi kuchi hisoblangan yoshlarga chinakam gʻamxoʻr, jonkuyar, fidoyi ustoz va murabbiylarni xalqimiz ardoqlamoqda, Prezidentimiz eʼzozlamoqda.

Mavzuni mustahkamlash va takrorlash uchun savollar:

⁹⁶ Усмонов Р. Одобнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 52-53-б.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov ustoz va murabbiylar haqida.
2. O'qituvchilik kasbini tanlashning o'ziga xos tomon-lari.
3. O'qituvchining bilimi va pedagogik mahorati to'g'risida tushuncha..
4. O'qituvchi odobi va jamiyatda o'rnak bo'ladigan jihatlari to'g'risida ma'lumot bering.
5. O'qituvchi kasbi to'g'risida donishmandlarning fikrlarini to'plang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».
4. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: Iqtisod-moliya, 2006.
5. Karimov S., Mamatov X., Bo'riyev I. Yuristning nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent, 2004. –130 b.
6. Usmonov R. Odobnoma. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
7. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiylisoniy xususiyatlari: Filol.fan.d-ri... dis.avto-ref. – Toshkent, 2000.
- Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқ маданияти. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 188 б.

8. Iskandarova Sh. O`zbek nutqi odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. ...dis.avtoref. – Samarqand, 1993.

9. Abdusaidov A. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati («Sosiolingvistikaning dolzarb muammolari» turkumi-dan. Til ma`naviyati, nutq madaniyati va savodxonlikka ta`sir qiluvchi omillar). Monografiya. – Samarqand, 2008. – 132 b.

10. Абдусаидов А. Тил маънавияти ва нутқ маданияти. Ахборот соҳасини ислоҳ қилиш («Ўзбек тилининг ижтимоий моҳияти» фанини ўқитишга доир материаллар). Рисола. Мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – 98 бет.

ILOVA

Qadimgi Xitoy donishmandlari o`gitlaridan namunalar

Qoida bo`lmagan narsaga qarama! Qoida bo`lmagan narsaga quloq solma! Qoida bo`lmagan narsani gapirma! Qoidaga zid ishlarni qilma!

Konfusiyy

* * *

Olijanob inson yonida uchta xatoga yo`l qo`yadilar: bironta so`z unga yetib bormaganda, u bilan gaplashish yengiltaklikdir; u tinglashi mumkin bo`lganda, gapirmaslik damduzlikdir; uning yuz ifodasiga e`tibor bermasdan gapirish ko`rlikdir.

Konfusiyy

* * *

Yumshoqlik va dilbarlik odamiylikning ildizlari-dir. Hurmat va ziyraklik (u o`sib, unadigan) zamindir. Bag`rikenglik odamiylikning namoyon bo`liishdir. Izchil-lik va tadrijiylik uning san`atidir. Taomil va odatlar odamiylikning qiyofasidir. Nutq va suhbatlar uning bezagidir.

Li-szi

* * *

Aytilgan gaplar to`g`ri bo`lishi kerak, ish va muomala natija berishi kerak, aytilgan gaplar bilan qilingan ishlar bir-biriga muvofiq bo`lmog`i darkor.

Mo-szi

* * *

Gapirish kerak bo`lganda gapirmasalar, odamlarni yo`qotadilar. Gapirish kerak bo`lmaganda gapirsalar, so`zlarni yo`qotadilar.

Konfusiyy

* * *

O`rganish paytida fikrlamaslik – zulmat, Fikrlash paytida o`rganmaslik - xatar.

Konfusiyy

* * *

Qadimgi Misr donishmandlari o`gitlaridan namunalar

Ishning mohiyatini anglab yetgandan so`ng gapir.
Kengashda gapirgan - bilgan odam. Aqlli nutq - har qanday
ishdan qiyinroq.

O`z bilimlaring bilan mag`rurlanma va men yagona
bilguvchiman, deb o`zingga bino qo`yma.

Faqat biladiganga emas, bilmaydiganga ham maslahat sol.
Chunki san`atning chegarasi bo`lmaganidek, san`atkor ham
mahoratning oliy cho`qqisiga chiqa olmaydi.

* * *

Agar sen boshliq bo`lsang, so`rovchining so`zlarini
tinglayotganda, xotiringni jam qilgin. U senga aytmoqchi
bo`lgan gaplarni aytib, ichini bo`shatib olmaguncha, uni
oldingdan quvma.

* * *

Hyech kimga: kattaga ham, kichikka ham tuhmat qilma.

* * *

Tuhmat gapni takrorlama, hatto uni eshitma ham...
Gapirsang eshitganingni emas, ko`rganingni gapir.

Til - shohning qilichi. Nutq har qanday quroldan kuchliroq.

* * *

Xattot (yozuvchi)lik eng foydali va obro`li kasbdir, yosh
yigit uchun xattot bo`lish yaxshi.

* * *

G`arb mutafakkirlarining o`gitlaridan namunalar

Notiqning vazifasi tinglovchilarni o`z gaplariga
ishontirishdan iborat.

Gorgiy

* * *

Bilim bilmaslikni kengaytiradi.

Anaksimen

* * *

Yaxshi maslahatchi har qanday boylikdan afzal. Haqiqat chuqur quduqning tubida yashiringan. Ko`p bilishga emas, ko`p fikrlilikka intilmoq lozim.

Demokrit

* * *

Notiq uchun birinchi va eng muhim shart shuki, undan tabiiy iste`dod..., aql va hissiyotning alohida tiyrakligi talab etiladi... Ilm esa, zo`r kelsa, aqlning bu tiyrakligini uyg`otishi mumkin, ammo uni in`om eta olmaydi, zero, bularning barchasi tabiat in`omidir... Men ilm u yoki bu notiqning mahoratini oshirishga umuman qodir emas, demoqdan yiroqman. Ammo yo tili yozilmagan yoki ovozi sun`iy yoxud yuz ifodasi va xatti-harakatlari beo`xshov va qo`pol bo`lgan shunday odamlar borki, hyech qanday iste`dodi va bilimlari ularga yaxshi notiqlar qatoridan o`rin olishiga yordam bera olmaydi. Va aksincha, ayrimlarga. tabiat shunday iste`dodni in`om etgan bo`ladiki, ularni allaqanday ilohiy qo`l suxandonlik uchun maxsus yaratgandek tuyuladi.

Siseron

* * *

Bahslashing, adashing, yanglishing, lekin xudo haqqi, yomon bo`lsa ham, o`z mulohazangiz bo`lsin.

Lessing

* * *

Ikkala bahslashayotgan odam ham qizishib ketsa, bu ikkalovining ham nohaqligini bildiradi.

L.Tolstoy

* * *

...Biz odatda e`tibor qilmaydigan odam o`z suxandonligi bilan maftun etishi mumkin. Tafakkur nafaqat tanaga ruh bag`ishlaydi, balki ma`lum darajada uni yangilaydi; bir-birining o`rniga kelgan his-tuyg`u va fikrlar yuzni jonlantiradi va unga bir bunday, bir boshqacha ifoda beradi.

Jan Jak Russo

* * *

Nutqning boyligi fikr to'raligiga bog'liq.

V.Gyugo

* * *

Kuchli va muhim dalillarni oldin, boshqalardan bo'shrog'ini keyin, eng kuchlilarini esa fikrning oxirida keltirgan ma'qul, chunki tinglovchi va o'quvchilar gapning boshi va oxirini ko'proq eshitadi va ularni ko'proq eslaydi.

M.V.Lomonosov

* * *

Shoshilmay gapir, shoshqaloqlik - aqlsizlik belgisi.

Biant

* * *

Sharq mutafakkirlarining nutq odobi va til mahorati haqidagi fikrlaridan namunalar

Nahv nasrda va aruz nazmda aytilgan so'zning me'yorini o'lchovchi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon bo'lib qoldi, lekin nahv bular ikkisiyaing umumiyrog'idir, chunki u nasrni ham, nazmni ham birgalikda o'z ichiga qamrab oladi...

Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Beruniy

* * *

Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda narsalar (substansiya) va hodisalarning (aksidensiya) joylashishi-ni va bundan

chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli soʻzlarni va nutqni tuzishni oʻrgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdir: maʼlum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni oʻrgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima toʻgʻri, nima yolgʻon ekanligi haqida hukm chiqaramiz.

Abu Nasr Forobiy

* * *

...Yaxshi soʻzlashga oʻrgan va muloyim soʻzlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki, qanday soʻzni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. Soʻzni oʻz joyida soʻzla, joyida aytilmagan soʻz, agar u yaxshi soʻz boʻlsa ham yomon koʻrinadi.

Kaykovus. "Qobusnoma"

* * *

Kishi suxandon va notiq boʻlishi lozim

Kaykovus. "Qobusnoma"

* * *

Xalq oldida gapirganda soʻzing goʻzal boʻlsin, bu soʻzni xalq qabul qilsin. Xaloyiq sening soʻz bilan baland darajaga erishgani bilsin, chunki kishining martaba-sini soʻz orqali biladilar,... har kishining ahvoli oʻz soʻzi ostida yashringan boʻladi.

Kaykovus. "Qobusnoma"

* * *

Ey farzand, soʻzning yuz va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, soʻzlaganingda maʼnoli gapir, bu notqlikning alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda soʻzning qanday maʼnoga ega ekanligini bilmasang, qushga oʻxshaysan, bunday qushni toʻti deydilar!

Kaykovus

* * *

Shunday kishini notiq (suxango'y) deymizki, uning har so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning har so'zi unga ham ma'lum bo'lsin.

Kaykovus

* * *

O'ylamasdan so'zlama, har bir so'zni o'ylab gapir, to aytan so'zingdan pushaymon bo'lmagaysan.

Kaykovus

* * *

Agar so'zni va ilmni yaxshi bilsang ham hyech bir so'zni buzma, to'g'ri ta'rifla. So'zni bir xil gapir. Ko'p bilu, oz so'zla, kam bilsang ko'p so'zlama, chunki aqlsiz kishi ko'p so'zlaydi, deganlarki, jim o'tirish salomatlik sababidir. Ko'p so'zlovchi hatto aqli odam bo'lsa ham xalq uni aqlsiz deydi... .

Kaykovus

* * *

Bilib so'zla, so'z bilig sanalur

Yusuf Xos Hojib

* * *

Tilniig foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,
Goho til maqtaladi, goho so'kiladi.
Modomiki shunday ekan, so'zni bilib so'zla,
So'zing ko'r uchun ko'z bo'lsin, (u) ko'ra bilsin.

Yusuf Xos Hojib

* * *

Alisher Navoiy notiqlik haqida

Til muncha sharaf bila nutqning olatidur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidur.

* * *

Ko'ngul maxzanining qulfi til va ul maxzanning kalidin so'z bil!

* * *

Tilingni ixtiyoringda asrag'il, so'zungni ehtiyot bila degil!

* * *

Mahallida aytur so`zni asrama, aytmas so`z tegrasiga
yo`lama!

* * *

Tiling bila ko`nglungni bir tut, ko`ngliyu tili bir kishi
aytqan so`zga but!

* * *

Agarchi tilni asramoq ko`ngulga mehnatdur, ammo so`zni
saypamoq boshqa ofatdur.

* * *

Aytur so`zni ayt, aytmas so`zdin qayt!

* * *

Chin so`z - mo`tabar, yaxshi muxtasar.

* * *

So`zi hisobsiz - o`zi hisobsiz.

* * *

Og`zig`a kelganni demak nodon ishi va oldig`a kelganni
yemak hayvon ishi.

* * *

Tilga ixtiyorsiz - elga e`tiborsiz.

* * *

Yomon tillig, andoqkim el ko`ngliga jarohat yetkurur, o`z
boshig`a ham ofat yetkurur.

* * *

So`zida parishonliq - o`zida pushaymonliq.

* * *

Yolg`on aytquchi g`aflatdadur.

* * *

Chin so`zni yolg`ong`a chulg`ama, chin ayta olur tilni
yolg`ong`a bulg`ama.

* * *

Saodatbaxsh ruh zuloliga matla` ham til. Tilga ixtidorlig` -
hakimi xiradmand; yeo`zga ixtiyorsiz - layni najand. Tilki fasiq
va dilmazir bo`lg`ay, kubroq bo`lg`ay agar ko`ngil bila bir
bo`lg`ay (Saodatbaxsh ruhning tiniqligi manbai ham til,
baxtsizliklar yulduzining boshlanishiga sabab ham til. Tiliga

kuchi yetadigan (kishi) aql podshosidir: so`zga ahamiyat bermaydigan (kishi) la`natlangan, past (kishi)dir) (1.23-62-b.)

O`QITUVCHI HIKMATLARI⁹⁷

Haqiqiy ustozlikning mohiyati ulo`g` hayot taqozo etayotgan axloqiy fazilatlarni yosh avlodning ongiga, e`tiqodiga, eng muhimi, uning kundalik xatti-harakatiga aylantira bilishdadir.

* * *

O`qituvchining obro`si bamisoli bir muhtasham qasr bo`lsa, o`z kasbi va predmetini sevis, chuqur bilish, bayon etish mahorati va zebo xulq - uning zamini.

* * *

Yosh avlodda mustaqillik va tashabbuskorlik yetishmas ekan, bu bizning tarbiyachilik mahoratimiz bo`shligidan nishona.

* * *

O`qituvchining obro`si va mavqeyi faqat uning o`z shaxsi uchungina emas, balki yosh avlodning aqliy va axloqiy kamoloti uchun zarur.

* * *

O`qituvchining fikri va zehni nechog`lik teran bo`lsa, uning nutqi shunchalik ixcham va mazmunli bo`ladi.

* * *

Biz o`qituvchilarga bo`lgan xalq ishonchi va hurmati qancha orta borsa, el qoshidagi mas`uliyatimiz hamshuncha katta bo`ladi.

* * *

Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun yuksak ilmiy darajaga erishish shart emas, fanni chuqur bilish, bilganlarini bayon etish mahorati eng muhimi chin insonlik - mana shu fazilatlar uning uchun muhim.

* * *

⁹⁷ Ушбу ҳикматлар Раҳимжон Усмоновнинг «Одобнома» (– Тошкент: Ўқитувчи, 1985, 56-77-б.) китобидан олинди.

Soʻzda nuqtadonlik, chuqur mantiq va mazmundorlik ayniqsa, oʻqituvchi uchun eng zarur sifatdir.

Oʻqituvchi qisqa ifodada koʻp fikr ayta bilish mahoratiga ega boʻlmogʻi lozim.

* * *

Faqat oʻzi gapirib, oʻzi tinglash sanʼat emas, balki tinglovchilarning qalbini sehlrab olib, ularni ham birga fikrlashga va oʻz fikrlarini ifodalama unday bilish katta sanʼat.

* * *

Pedagog auditoriyaga kirish oldndan oʻz fikrini ravshan, uslubini esa, jozibali qilish ustida naqqoshdek ijodiy izlanishi lozim.

* * *

Pedagogning nutqi muattar gulga oʻxshab xushnisor va tabiiy boʻladi.

* * *

Mohir notiq-oʻqituvchining taʼlimini olgan shogird ham soʻzga chechan boʻladi. Agar oʻqituvchi xattot boʻlsa, shogird ham unga taqlid qiladi. Aksincha oʻqituvchi xunuk yozsa, oʻquvchilar ham badxat boʻladilar.

* * *

Ijodiy mehnat egasi oʻz bilimi va tajribasini muttasil oshirib bormasa, oʻz ustida ishlashdan sal toʻxtagudek boʻlsa, hayot oqimi uni qirgʻoqqa chiqarib tashlaydi.

* * *

Mustaqil ish mavzulari

1. Tilning jamiyatdagi o`rni. Til va nutq madaniyati. Sosiolingvistik tahlil (mavjud adabiyotlardagi fikrlar obzori).

2. O`zbek tilining ijtimoiy mohiyati (Nutq madaniyatiga ta`sir etuvchi omillar).

3. Me`yor, adabiy me`yor (Mavjud adabiyotlarga obzor).

4. Nutq madaniyati va vazifaviy uslublar:

- so`zlashuv uslubi (matn tahlili);

- rasmiy uslub (ijodiy namunalar);

- ilmiy uslub (matn tahlili);

- badiiy uslub (biror badiiy asarning lisoniy tahlili);

- publisistik uslub (biror gazeta materialining lisoniy tahlili).

5. Og`zaki va yozma nutqning xususiyatlari (matn tahlili yoki misollar asosida):

- nutqning to`g`riligi;

- nutqning aniqligi;

- nutqning mantiqiyligi;

- nutqning tozaligi;

- nutqning ta`sirchanligi (turli ifoda-tavsir vosita-lari, maqol va iboralarning ishlatilishi).

6. O`zbek muloqot madaniyati.

7. Nutq madaniyati va mahoratini egallashda Sharq va g`arb mutafakkirlarining merosidan foydalanish(Ijodi, merosidan namunalar: rivoyatlar, hikmatli so`zlar to`plash):

- Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg`ariy, Mahmud az-Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy, Xoja Muayyad Mehnagiy, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Mavlono Muin Voiz, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy; Siseron, Demosfen va boshqalar.

8. Nutq va atamshunoslik (terminologiya).

9. Notiqlikning turlari.

10. Nutq ma`naviyati va odobi (badiiy asarlar yoki matbuot materiallari asosida).

11. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari: leksik-semantik me'yor. Bu sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

12. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari: morfo-logik me'yor. Bu sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

13. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari: sintaktik me'yor. Bu sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

14. O'zbek adabiy tili me'yoriy ko'rinishlari: punktua-sion me'yor. Bu sohada yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar.

15. Nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari (Fonetik va grammatik vositalarni qo'llash misolida. Masalan: talaffuz, kelishiklar, fe'l nisbatlari va boshqalar misolida).

16. Ma'lum bir badiiy asar yoki matbuot materiallari asosida quyidagi vositalarning uslubiy xususiyatlarini yoritish:

- sinonim so'zlar;
- frazeologizmlar;
- xalq maqollari;
- ifoda-tasvir vositalari.

17. Tele-, radio boshlovchilar nutqi (aniq misollar asosida: manba, eshittirish yoki ko'rsatuv nomi, vaqti ko'rsatiladi).

18. Reklama tili va uning nutq madaniyatiga ta'siri (aniq misollar asosida).

19. Talabalar nutq madaniyati va odobi(muloqot jarayonidagi kamchiliklar aniq ko'rsatiladi).

20. O'quvchilar va talabalar nutq jarayonidagi kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish yo'llari.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
1-mavzu: «Oʻqituvchining nutq madaniyati» kursining maqsad va vazifalari hamda ushbu kursni oʻqitishda mahoratga eʼtibor.....	9
2-mavzu: Oʻzbek tilining hozirgi ijtimoiy hayotdagi oʻrni va nutq madaniyatiga eʼtiborni oshirishda oʻqituvchining roli.....	26
3-mavzu: Oʻqituvchining muloqot madaniyati.....	44
4-mavzu: Oʻqituvchi nutqi va adabiy meʼyor	65
5-mavzu: Oʻqituvchi nutqining asosiy xususiyatlari....	114
6-mavzu: Hozirgi oʻzbek adabiy tilining vazifaviy uslublari.....	134
7-mavzu: Yozma va ogʻzaki nutqni oʻstirishda oʻqituvchining roli.....	153
8-mavzu: Oʻqituvchining notiqlikni targʻib etishdagi oʻrni.....	208
9-mavzu: Oʻqituvchi shaxsi va uning jamiyatdagi oʻrni..	234
Ilova: Nutq madaniyati toʻgʻrisida donishmandlarning fikrlari.....	246
Mustaqil ish mavzulari.....	255

Abduvali ABDUSAIDOV

O`QITUVINING NUTQ MAHORATI

MA`RUZA MATNLARI

Muharrir: Нормўминов III.
Texnik muharrir: Mamatqulov O.B.

_____ 2013 yilda bosishga ruxsat etildi.
_____ -son buyurtma. _____ bosma taboq.
Hajmi 60x84 1/16. Adadi 300 nusxa.

SamDU bosmaxonasida chop etildi.
140104, Samarqand sh. Universitet xiyoboni, 15



ABDUVALI ABDUSAIDOV

1989 yildan filologiya fanlari nomzodi, dosent, 2005 yildan filologiya fanlari doktori, 2006 yildan amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi kafedrasida professori.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti «Sosiolingvistika» ilmiy laboratoriya-si mudiri, universitet bosh ilmiy kotibi lavozim-larida faoliyat ko`rsatmoqda.

Ўzbek tili uslubiylati, nutš madaniylati asoslari, takrir nazariylasi, ommaviyl axborot vositalarining tili, jurnalistning tildan foydalanish ma`korati va jurnalist ixtisoslashuvi, kuyjat tili va uslubi kabilar bo`yicha tadqiqotlar olib bormoqda.

130 ga yaqin ilmiy, oeshuv-uslubiy, ilmiy-ommabop ishlari, jumladan, 3 ta monografiylasi va 13 ta oeshuv shoellanmasi nashr etilgan. «Matbuotda adabiy normaga rioya shilish muammolari» (2001), «Matbuot tili madaniylati» (2002)kabi o`muviy mo`llanmalari, «Gazeta janrlarining tili va uslubi» (2001), «Jurnalistning tildan foydalanish ma`korati» (2004), «O`zbek tilining ijtimoiy mo`kiylati»(2008) kabi monografiylalaridan amaliyotda foydalanilmoqda.

